

M 13

T.T.MADUMAROV

# TADBIRKORLIK HUQUQI

(o'quv qo'llanma)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

UO'K:334.722:340(575.1)

**MADUMAROV TALANTBEK  
TOLIBJONOVICH**

**TADBIRKORLIK HUQUQI**  
(O'quv qo'llanma)

218954



2019-yil.

**Ushbu o'quv qo'llanma Andijon davlat universiteti ilmiy kengashining  
05.02.2019-yildagi 5-son majlisining bayonnomasida muhokama qilinib  
nashrga tavsiya etilgan.**

**Muallif:** yuridik fanlar nomzodi, dotsent **T.T.Madumarov**

**Taqrizchilar:** yuridik fanlar doktori **Y.Raximov**  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent **R.Imomov**

**Mazkur o'quv qo'llanma 5111600 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va  
huquq ta'limi bakalavriyat hamda sirtqi ta'lim yo'naliishlari talabalari  
uchun Tadbirkorlik huquqi hamda Fuqarolik huquqi fanlarini o'qitishda  
ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida foydalanishga tavsiya etiladi.**

**SA111601-Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat  
asoslari) mutaxasisligi magistratura yo'naliishi magistrantlarining ITIni  
bajarishda hamda fan olimpiyadalarini, stipendiyatlarni tayyorlashda  
iqtidorli talabalarni ilmiy izlanishlar olib borilishida qo'llaniladi.**

**Madumarov T.T. Tadbirkorlik huquqi (o'quv qo'llanma) – Andijon.  
2019, -192 b.**

## MUNDARIJA

<b>Kirish .....</b>	3
1. Tadbirkorlik huquqi tushunchasi, predmeti va printsiplari.....	7
2. Tadbirkorlik huquqining manbalari va tadbirkorlik huquqiy munosabatlar.....	12
3. Tadbirkorlik huquqining subyektlari va turlari.....	16
4. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil etish tartibi.....	26
5. Tadbirkorlik faoliyatining mulkiy asoslari.....	40
6. Tadbirkorlik faoliyatida shartnomalar.....	54
7. Tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish va ularning faoliyati ustidan davlat nazorati.....	62
8. Tadbirkorlik subyektlarini huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish.....	75
9. Birjalar faoliyatini tartibga solish.....	82
10. Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish.....	87
11. Raqobatga qarshi harakat sifatida insofsiz raqobat va uning ko'rinishlari.....	97
12. Bankrot bo'lgan tadbirkorlik subyektlarini tugatish tartibi.....	116
13. Korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish.....	155
<b>Glossariy.....</b>	163
<b>Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b>	189

## Kirish

Mamlakatimizda so'ngi ikki yil davomida amalga oshirilayotgan tub islohotlar xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni yuritish, bu boradagi mavjud muammolarni kechiktirib bo'lmas darajada hal etish hamda tadbirkorlik subyektlariga qulayliklar yaratishga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi mamlakatda raqobatchilikning zarur muhitini hosil qilib, bozor sharoitidagi ko'pgina o'zgarishlarga tezda moslasha oladi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida yangidan-yangi qo'shimcha ish o'rinalarini yaratadi va mamlakatda ijtimoiy muhitni ta'minlash uchun o'rta sinfni shakllantirish manbai hisoblanadi. Ya'ni u bozor iqtisodiyotining zarur sharoitlariga tezda moslashib, chuqur ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuvi natijasida uning yuqori samaradorligini ta'minlab, bozordagi talab va taklif mutanosibligini hisobga olib, aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarni bozorga tezda yetkaza olish imkoniyatlari yuqoriligi bilan alohida ajralib turadi, shuningdek, raqobatchilik muhitini yaratish orqali iste'molchilar uchun arzon va sifatli tovar va xizmatlar taklif qiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yana bir muhim jihat shundaki, kuchli raqobatchilik muhiti sharoitida ular doim rivojlanishga majbur bo'lishadi va bozor iqtisodiyoti har bir inson munosib ~~xayot~~ kechirishga bo'lgan intilishlari natijasida barcha faol insonlarning tinimsiz harakatda bo'lishini taminlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ularning kelgusi rivojini munosib ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni butun mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotini qamrab olganligi bilan bir qatorda bиргина kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda tizimli, tanqidiy va kompleks yondashuv zarur ekanligini ko'rsatib berdi.

2017-yil 22-dekabr kuni Toshkent shahridagi Simpoziymlar saroyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O'zbekiston Respublikasini 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2018-yilga yurtimizda "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va

texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb nom berilishi, Yurtboshimiz tomonidan!, -"Faoł tadbirkor" deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimmi, yangi ish o'rirlari yaratib, nafaqat o'zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz. Bunday tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan, yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so'nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarni mamlakatimizga olib kelish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdeg'i vazifamiz bo'lishi shart. Kerak bo'lsa, xorijdagi yetakchi kompaniya va tashkilotlarda tajriba orttirishi, o'zaro manfaatli hamkorlik qilishi, uchun ularga har tomonlama imkoniyat tug'dirib berishimiz lozim" alohida ta'kidlab o'tilganligi kelgusida mamlakatimiz taraqqiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni naqadar muhimligini belgilab berdi.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun tegishli me'yoriy huquqiy asoslar yaratilgan bo'lib, ayni vaqtda, qonun hujjatlarini amaliyotga qo'llash tajribasi shuni ko'rsatayaptiki, ularni hayot talabi asosida takomillashtirish hamda uni tatbiq etishning samaradorligini oshirish zaruriyatini paydo bo'lmoqda.

Ayniqsa, tadbirkorlik huquqi bozor sharoitida muhim huquqiy institut sifatida keng doiradagi masalalarni qamrab olganligi sababli, bu boradagi bilimlardan xabardor bo'lish maqsadida turli xil darslik, ko'llanma, to'plamlarga ehtiyoj kattadir. Tadbirkorlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish eng muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Tadbirkorlik huquqi asoslarini olyi, o'rta va maxsus o'quv yurtlarida o'qitishning yaxshi yo'lga qo'yilishi talab etilayotganligi o'z navbatida bunday darsliklarni nashr qilish zaruriyati mavjudligini ham ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik huquqi sohasi huquq tizimida yangi yo'naliш bo'lganligi sababli, uni ilmiy, o'quv-uslubiy nuqtai nazardan har tomonlama o'rganish zaruriyatidir. O'z navbatida, tadbirkorlik huquqi boshqa turdosh huquq sohalari bilan uzviy bog'liq holda va bir-biridan farqli xususiyatlari tahlil etilgan holda rivojlantirilmog'i lozim.

Tadbirkorlik huquqiga bag'ishlangan ushbu o'quv-qo'lannmada qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyatini huquqiy ta'minlash, qurilish sohasida tadbirkorlik faoliyatining qoidalari, chet el investitsiya faoliyatini huquqiy tartibga solish shakllari va asoslari, aloqa, energetika, transport, sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatining huquqiy

tartibga solinishi, birja faoliyati bilan bog'liq tadbirkorlikning huquqiy qoidalari, tadbirkorlik subyektlarining bojxona haqidagi qonun hujjaligiga rioya qilish qoidalari, tadbirkorlikda tashqi iqtisodiy aloqalarning huquqiy qoidalari, tadbirkorlik sohasida auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari, tadbirkorlik sohasida reklama huquqining asoslari, tadbirkorlik faoliyatini axborot bilan ta'minlashning huquqiy asoslari, tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning huquqiy tartibi, tadbirkorlik sohasida sug'urtaning huquqiy qoidalari, tadbirkorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kabi masalalar yoritib berilgan. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq vazifalarni chujur anglash, amaliyotdagi muammolarni to'g'ri hal qilish, buning uchun esa zarur huquqiy vositalardan unumli foydalanish, bozor iqtisodiyotining huquqiy qoidalarini tushunib olish uchun oliv o'quv yurtlari, xususan, yuridik o'quv yurtlarining talabalari yuqori bilim va qobiliyatga ega bo'lishlari lozim. Jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptirish taraqqiyot garovi ekanligini nafaqat tadbirkorlar har tomonlama anglashi, balki, buning uchun huquqshunos xodimlar ham tadbirkorlik huquqining asoslarini puxta bilishi va uni amaliyotga qo'llash samaradorligini oshirish talab etiladi.

Yuqorida qayd etilganlarga asosan, tadbirkorlik huquqi asoslarining huquqshunos mutaxassislar va talabalar tomonidan har tomonlama chujur o'rganilishi va qonun hujjalarini qo'llashning samarali ta'minlanishi mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning muhim omili bo'lib hisoblanadi.

Mazkur o'quv-qo'llanma tuzilishiga ko'ra va ayrim masalalarni bayon qilish uslubi jihatidan muayyan kamchiliklardan xoli emas. SHu sababli, mualif tomonidan bayon etilgan masalalar yuzasidan mutaxassislar va ko'p sonli o'quvchilarining taklif va istaklarini mammuniyat bilan qabul qiladi va uning qayta nashrlarini tayyorlashda e'tiborga oladi deb, ishonch bildiradi.

## **TADBIRKORLIK XUQUQI TUSHUNCHASI, PREDMETI VA PRINTSIPLARI.**

**Tadbirkorlik** (inglizcha – enterprise, enterprising, ruscha – predprimatestva) – foyda olish maqsadida fuqarolar va yuridik shaxslarning o‘z tashabbusi asosida mustaqil faoliyatidir. Mamlakatimizda bozor munosabatlaringin joriy etilishi, uning qonuniyatlarining jamiyat hayotiga keng qo’llanilishi respublikamiz iqtisodiyotining rivojlanishiga zamin yaratdi. Bunda iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuch sifatida tadbirkorlik (biznes) (bundan buyon matnda – tadbirkorlik deb yuritiladi) faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari muhim o‘ringa ega. Ular faoliyatini huquqiy tartibga solish, biznes yuritish asoslari barcha shaxslar, jumladan, xorijiy biznesmenlar uchun bir xil qilib belgilangan. O‘zbekistonda Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va hayotga izchil tafbiq etilayotgan taraqqiyotning “o‘zbek modeli” islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozimligini ko’rsatdi. Bozor munosabatlaringin rivojlanishida tadbirkorlik subyektlarining, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va o‘rnı tobora mustahkamlanib borayotganining o‘zi iqtisodiyotimizning tarkibida bo‘layotgan ijobjiy o‘zgarishlardan dalolat beradi.

Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-mayda O'RQ-328-sonli yangi taxrirda qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida quyidagi tahrirda bayon etiladi: "Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik)-tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi asosida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir".<sup>1</sup>

A) chunonchi, tadbirkorlik faoliyati ma'lum subyektlar tomonidan amalga oshiriladi. Ular kimlardan iborat bo'lishi mumkin? Bu savolga javob Qonunning 4-moddasida beriladi, ya'ni: "Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik shaxs va jismoniy shaxslardir". Ushbu moddaga muvofiq har qanday yuridik shaxs yoki jismoniy shaxs tadbirkorlik faoliyatining subyekti bo'lavermaydi. Buning uchun ular belgilangan tartibda ro'yxatdan

<sup>1</sup> Ushbu Qonun «Xalq so'zi» gazetasining 2012 yil 3 maydagi 86 (5506)-sonida e'lon qilingan.

o'tgan bo'lishlari kerak. Fuqarolik kodeksining 24-moddasiga muvofiq jismoniy shaxs, ya'ni "Fuqaro yakka tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgazilgan paytdan boshlab tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqlidir". Yuridik shaxs ham tadbirkorlik faoliyati subyekti bo'lib hisoblanishi uchun tegishli tartibda ro'yxatdan o'tgan, bunday faoliyatning muayyan turi bilan shug'ullanish uchun ruxsatnomalar (litsenziya) olgan bo'lishi kerak. SHuning bilan birga tadbirkorlik faoliyati subyekti hisoblangan korxona yoki firma yuridik shaxs deb tan olinishi uchun FKning 44-moddasida nazarda tutilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lishi kerak.

Tadbirkorlik faoliyati subyekti hisoblangan yuridik shaxs yoki fuqaro umuman olganda, mulk huquqi subyekti ham bo'lishi kerak, chunki uning faoliyati "o'z mulkiy javobgarligi asosida" amalga oshiriladi. Lekin tadbirkorlik faoliyati subyekti barcha hollarda mulk huquqi subyekti bo'lishi shart emas. Masalan, fuqaro tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirkorlik uning o'ziga tegishli yoki u tomonidan ijara olingan mol-mulk asosida amalga oshirilayotgan bo'lishi mumkin. Yuridik shaxs ham mol-mulkka nisbatan shunga o'xshash huquqqa ega bo'lishi mumkin. O'zi shaxsan mulk huquqi subyekti bo'Imagan yuridik shaxs (masalan, davlat korxonalarini, firmalari, birlashmalari) tadbirkorlik faoliyatini davlat mulkiga asosan amalga oshiradi. Bunda ular davlat mulkiga nisbatan bo'lган xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqlaridan foydalanadilar.

Xo'jalik yuritish huquqining tushunchasi va ushbu huquqqa ega bo'lган yuridik shaxsnинг mulkiy huquq layoqati FKning 176, 177-→ moddalarida nazarda tutiladi. 176-moddaga muvofiq xo'jalik yuritish huquqiga ega bo'lган yuridik shaxs unga biriktirilgan mol-mulkka mulk huquqi subyekti kabi egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Ushbu huquqqa ega bo'lган tadbirkor o'z xohishi bilan qonunga zid kelmaydigan har qanday harakatlarni amalga oshiradi. Mulk huquqi subyekti bo'Imasdan, mol-mulkni operativ boshqarish huquqiga ega bo'lган korxonalarining vakolatlari FKning 72, 178-moddalarini bilan belgilanadi.

Xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqiga nisbatan basharti FK va o'zga qonun hijjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, mulkchilik huquqi to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi.

Demak, tadbirkorlik faoliyati mulk huquqi egasi bo'lган va bo'Imagan shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Tadbirkorlik

faoliyati subyektlari umumiy qoidaga binoan mulk huquqi egalari hisoblanadi, agar bunday huquqqa ega bo'lmanan taqdirda, ular mulkdor tomonidan biriktirib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan xo'jalik yuritish huquqiga yoki operativ boshqarish huquqiga ega bo'ladilar va tadbirkorlik faoliyatini mulkdor tomonidan belgilangan vakolat doirasida amalga oshiradilar (FKning 71, 177-m.m.).

B) tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan asosiy maqsad daromad (foyda) olishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tadbirkor o'z faoliyatini bozor talablariga moslashtirib rejaga soladi, kerakli va sotib oluvchilar uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga, xarid qilishga raqobatlashuvda faol qatnashishga harakat qiladi.

Iqtisodiy manfaatdor birinchi galda foyda olish bilan bog'liq xo'jalik faoliyatining natijalarini umumlashtiruvchi asosiy ko'rsatkich ham foydadir. Foyda qancha ko'p olinsa, mehnatga nisbatan rag'batlantirish, qiziqish ham shuncha baland bo'ladi, tadbirkorlikda yuqori samaralarga erishiladi.

Tadbirkor o'z faoliyatini yuritish natijasida oladigan umumiy daromadidan ma'lum qismini soliqlar va boshqa to'lovlar uchun ajratadi. To'lovlarini to'lashdan tadbirkor ixtiyorida qolgan daromad sof foyda sifatida to'la-to'kis uning tasarrufiga o'tadi. Sof foydadan qaysi maqsadda foydalanishi tadbirkor o'zi mustaqil ravishda hal qiladi.

V) tavakkalchilik bilan faoliyat yuritish tadbirkorga xos xususiyatdir. Tadbirkor bozor haqidagi ma'lumotlar va axborotlardan doimo xabardor bo'lib turish, zarur bo'lgan taqdirda o'z faoliyatiga tezda o'zgartish kiritish va bozor sharoitiга moslashgan holda ortiqcha tashvish va xarajatlarsiz faoliyat yuritishga harakat qiladi. Aks holda u raqobatga bardosh bera olmasligi va bankrotlikka uchrashi mumkin.

Tadbirkorning bankrot bo'lishi boshqalarning aybi tufayli sodir bo'lishi ham mumkin. Masalan, boshqalar tadbirkorning mahsulot (tovar) ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan xomashyon o'z vaqtida, kelishilgan muddatda yetkazib bermasa yoki yetkazib berilgan xomashyo foydalanish uchun yaroqsiz bo'lsa, sotilgan tovarning yoki bajarilgan ishning haqi o'z vaqtida tolanmasa-bunga o'xshash va boshqa holatlar tadbirkorni bankrotlikka olib kelishi mumkin. Bunday hollar yuz berishi bilan tadbirkor unga yetkazilgan zararni javobgar shaxslardan undirib olishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Lekin tadbirkorning zarar ko'rishida aybi yo'qligini isbotlay olgan shaxs

javobgarlikdan ozod bo'lishi ham mumkin (FK 333-moddasining 3-↗ qismi).

Agar tadbirkorning mol-mulki ba'zi bir tabiiy ofat, boshqa oldini olish mumkin bo'limgan ioidisalar (fors-major vaziyatlar) tufayli nobud bo'lsa, uning uchun hech kim javobgar emas. Tadbirkor unga yetkazilgan zararni faqat sug'urta summasi miqdorida (agar mol-mulk sug'urta qilingan bo'lsa) undirib olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

G) tavakkalchilikning yana bir ko'rinishi tadbirkor o'z faoliyatining natijalari va zimmasiga olgan majburiylari yuzasidan shaxsan o'zi javobgar bo'lishidan iborat. Fuqarolik kodeksining 25-↗ moddasiga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi fuqaro o'z majburiylari yuzasidan o'ziga tegishli butun mol-mulki bilan javob beradi. Mazkur Kodeksning 48-moddasiga muvofiq tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi korxona (yuridik shaxs) ham o'z majburiylari yuzasidan o'ziga tegishli butun mol-mulki bilan javob beradi.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi davlat korxonasi o'z majburiylari bo'yicha Fuqarolik kodeksining 72-moddasi beshinchini qismida hamda 76-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan tartibda va shartlar asosida javob beradi.

Tadbirkorlik mulkiy javobgarlikka asoslanadi. Barcha tadbirkorlar iqtisodiy mustaqil va o'zaro munosabatlarda teng huquqlidir. SHunday ekan, bunday munosabatlar shartnomalar tuzish yo'li bilan rasmiylashtiriladi. SHartnomani bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida zarar yetkazilgan taqdirda ushbu zararni undirish haqida talab qo'yilishi va shuningdek da'vo qo'zg'atilishi mumkin. Bunday talab yoki da'vo mulkiy tusga ega, chunki yetkazilgan zararni undirish shartnomani buzgan tadbirkorning mulkiga qaratiladi.

D) tadbirkorlik - bu tashabbuskorlik demakdir. Agar tadbirkor iqtisodiy faoliyatda tashabbus ko'rsata olmasa, u o'z oldiga qo'yilgan maqsadga erisha olmaydi, raqobatga bardosh bera olmaydi va natijada bankrot bo'lishi muqarrar.

Bozor sharoitida tadbirkor o'z faoliyatini o'zi mustaqil tanlaydi, belgilaydi, rejalashtiradi va uyuştiradi. Uning faoliyati boshqalar tomonidan, ayniqsa, yuqoridagi tashkilotlar tomonidan rejalashtirilmaydi. Tadbirkor ishlab chiqarilayotgan mahsulotga, bajarilayotgan ishga, ko'rsatilayotgan xizmatga bo'lgan talablarni hisobga olib, taraqqiyot istiqbollarini o'zi shaxsan belgilaydi. Bunday

vazifani bekamli-ko'st amalga oshirish undan barcha holatda yuqori malakali qobiliyat va faol tashabbus ko'rsatishni talab qiladi.

Tashabbus ko'rsatish amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan qoidalari asosida va doirasida amalga oshiriladi. Bunday qoidalari Fuqarolik kodeksining 24, 25, 26, 39, 41, 48, 56, 57, 72, 76, 176-178, 324-339-va boshqa moddalarida, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning tegishli moddalarida nazarda tutiladi. Tadbirkor o'z faoliyati bo'yicha tashabbus ko'rsatishda ushbu qonun-qoidalarga rioya qilishi shart. SHuning bilan birga har bir tadbirkor korxona o'z Ustavi, ta'sis hujjatlari doirasida faoliyat ko'rsatadi. Tadbirkorga xoilagan faoliyat bilan shug'ullanishda tashabbus ko'rsatish uchun erkinlik berilgan, bunday erkinlikdan qonun bilan taqiqlanmagan barcha holatlarda foydalanish mumkin.

Tadbirkorlik huquqining predmetini tadbirkorlik subyektlarini-ng tashkiliy-huquqiy, ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatish, subyektning ichki tuzilmalari o'tasidagi, davlatning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga umumiy rahbarligi bilan bog'liq munosabatlar tashkil etadi.

Barcha huquq sohalari kabi tadbirkorlik huquqining ham asosiy va eng muhim prinsiplari O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan asosiy qoidalardir. Ushbu tadbirkorlik huquqiga oid asosiy prinsiplar respublikamizda bozor munosabatlarining rivojlanishida barcha tadbirkorlik subyektlarini ng iqtisodiy faoliyatini ma'lum bir maqsad sari yo'naltirib, huquqiy tartibga solib turadi.

Tadbirkorlik huquqining asosiy prinsiplaridan biri tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat erkinlidir. Ushbu prinsip: "...Davlat iste'molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi".

#### **Tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish prinsipi.**

Bu prinsipning mohiyati har bir moddiy tovar ishlab chiqaruvchi, ishlarni bajaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyekting iqtisodiy manfaati qonunlarda belgilangan tartibda tegishli organlar orqali himoya qilinadi.

**Tadbirkorlik munosabatlariga iqtisodiy uslublarni qo'llash asosida davlatning ta'sir etish prinsipi.**

Ushbu prinsip mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishiga direktiva, buyruq orqali ta'sir etish usulining iqtisodiy usuliga, ya'ni mehnat jamoasining, yakka shaxsnинг tovar ishlab chiqarish, ish va xizmat ko'rsatish, uning assortimentini kengaytirish va sifatini oshirishda manfaatlarini hisobga olishga qaratilgani bilan izohlanadi.

Respublikamizning mustaqil taraqqiyotini belgilovchi asosiy prinsiplaridan biri narxlarni erkinlashtirish va bozor infrastrukturasini shakllantirishdir.

Bu, eng avvalo, bozorni tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirishga qaratilgan iqtisodiy omillardan biri hisoblanadi.

**Tadbirkorlik huquqining asosiy prinsiplaridan yana biri tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning o'zaro raqobatidir.**

Bu prinsipning asosiy mazmun va mohiyati shundan iboratki, bozor iqtisodiyoti sharoitida kim kam mehnat va xarajat sarf qilib, ko'p va yuqori sifatlari mahsulot (ish va xizmat) ishlab chiqara olsa, u ijtimoiy hamda iqtisodiy taraqqiyotda imtiyozga ega bo'la oladi.

Qonuniylik prinsipi barcha fanlarga doir bo'lган umumiyligi prinsip bo'lsa ham, tadbirkorlik huquqida u bozor munosabatlari o'tish sharoitida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bu prinsip mazmunida tadbirkorlik subyektlarini ng qonun man etmagan har qanday faoliyat bilan shug'llanishlari mumkinligi qoidasi yotadi.

### **Tadbirkorlik huquqining manbalari va tadbirkorlik huquqiy munosabatlar.**

Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar va qonunosti hujjatlari tadbirkorlik huquqining manbalari sifatida e'tirof etiladi. Tadbirkorlik huquqining manbai – bu tadbirkorlik subyektlari o'ttasida vujudga keladigan tadbirkorlik faoliyatiga oid munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi vakolatli davlat organlari tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlardir.

**Tadbirkorlik huquqining manbalari:** O'zR Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zR Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ hujjatlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

O'zR Oliy Sudi va Oliy Iqtisodiy sud plenumlari qarorlari. Tadbirkorlik qonunchiligining rivojlanish bosqichlari va kodifikatsiyalashtirish masalalari haqida fikrlar.

O'zbekiston Respublikasidagi huquq tizimining manbai vakolatli organlar tomonidan belgilangan tartibda qabul qilinadigan qonunlar va boshqa qonunosti hujjatlardir.

### **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi**

*O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi* biznes faoliyatini olib borishning kafolati sifatida muhim ahamiyatga ega. Jumladan, "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-barobar muhofaza etilishini kafolatlaydi". (*Konstitutsiyaning 53-moddasi*).

↙ Tadbirkorlik huquqining manbalaridan yana biri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, ya'ni 2014-yil 6-oktabrdagi "Davlat mulki obyektlarini xususiyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 279-sonli, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida» 2016-yil 28-oktyabrdagi PQ—2646-som qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VMQ—66-som, 2017-yil 21-iyundagi "Tibbiy faoliyatni litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VMQ—405-som qarorlari hisoblanadi.

Shuningdek, vazirliklar va davlat qo'mitalari, agentliklarning o'z vakolatlari doirasida belgilangan tartibda qabul qilgan huquqiy hujjatlari, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining 2010 yil 23 iyundagi 4-som qarori bilan tasdiqlangan "Strategik va monopol mahsulotlar, xomashyo va materiallarni birja va kimoshdi savdolariga qo'yilishini nazorat va monitoring qilish to'g'risidagi Nizom (2010-yil 26-iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2125) ham tadbirkorlik huquqi manbasi sifatida ko'rildi. Shu bilan birga, mahalliy davlat hokimiyati organlarining o'z hududi doirasida kuchda bo'ladigan huquqiy hujjatlari ham bu borada muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadbirkorlik qonunchiligiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:<sup>11</sup> Tadbirkorlik qonunchiligi – bu tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soluvchi vakolatli davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar yig'indisidan iborat.<sup>12</sup>

Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlari o'ziga xos o'rninga ega. Ular tadbirkorlik huquqi uchun manba bo'lmasa-da, qonunlar va boshqa qonunosti hujjatlarini iqtisodiy sudlari tomonidan to'g'ri qo'llashda, xo'jalik nizolarini tez va to'g'ri hal etishda sudlarga tushuntirishlar berib, muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

### **Tadbirkorlik huquqiy munosabatlari**

Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq subyektlar o'rtasida vujudga keladigan, ya'ni tadbirkorlik subyektini tashkil etish, uni ro'yxatdan o'tkazish, hisobga qo'yish, uni boshqarish, faoliyat olib borishi, shartnomalar tuzish, ularni ijro etish, majburiyatlar yuzasidan javobgarlik kabi munosabatlarni huquq normalari bilan tartibga solish zarurati vujudga keladi. Bunday huquqiy munosabatlар tadbirkorlik huquqiy munosabatlар hisoblanadi.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlari – bu tadbirkorlik subyektlarini-ng tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan, tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan va tadbirkorlik huquqiy normalari asosida tartibga solinadigan munosabatlardir.

Tadbirkorlik faoliyati faqat tovar ishlab chiqarishga oid munosabat emas, balki ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun yer uchastkasi olish, bino olish yoki qurish, yoqilg'i, xom+ashyo, asbob-uskunalarga ega bo'lish bilan bog'liq munosabatlarni ham qamrab oladi. Ular tadbirkorlik huquqining predmetini tashkil etuvchi munosabatlар bo'lib, bevosita daromad (foyda) olishga qaratilmagan boshqa maqsadlar bilan ham bog'liq bo'ladi. Jumladan, mulkni boshqarish, korxonani tuzish va tugatish bo'yicha tashkiliy mulkiy munosabatlар bilan aloqador barcha faoliyatларdir.

Bozor munosabatlarining tobora rivojlanib borishi, yangi-yangi mulkdorlar guruhini, tadbirkorlarni keltirib chiqaradigan bu guruhlar tadbirkorlik munosabatlarining mustaqil subyekti tashkiliy-huquqiy shakli bo'lib ishtirot etadi. Ular o'rtasidagi mulkiy munosabatlarning

aksariyati tadbirkorlik qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlar doirasi, bozor iqtisodiyotining rivojlanib borishi bilan birga, borgan sari kengayib boradi. Xususan tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida korxonalar, fermerlar, dehqon xo'jaliklari, banklar, birjalar va shunga o'xhash boshqa subyektlar o'ziga xos maxsus faoliyat ko'rsatadilar.

### **Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarining turлari**

Tadbirkorlik munosabatlarining asosiy qismini tadbirkorlik subyektlarini +ng o'zaro vertikal va gorizontal munosabatlari tashkil etadi. Tadbirkorlik huquqi fanida tadbirkorlik munosabatlari asosan uch guruhga ajratiladi.

Tadbirkorlik munosabatlarining birinchi guruhi bevosita mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik munosabatlarining ikkinchi guruhi tadbirkorlik subyektlarini +ng boshqa subyektlar, davlat organlari o'rtaida, shuningdek tadbirkorlik faoliyatiga rahbarlik qilish va boshqarishdan kelib chiqadi.

Tadbirkorlik munosabatlarining ichki munosabatlari esa har bir korxonaning, birlashmaning ishlab chiqarish tuzilmalari o'rtaсидagi ichki munosabatlari shaklida namoyon bo'ladi.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlar elementlari shu munosabat subyektlari, obyektlari va uning mazmunidan iborat bo'ladi.

### **Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarini turkumlanishi:**

- mutlaq ashyoviy huquqiy munosabatlar (mulkiy munosabatlar);
- mutlaq-nisbiy ashyoviy huquqiy munosabatlar (tadbirkorlik yuritish, operativ boshqarish);
- o'z tadbirkorlik faoliyatini yuritish bo'yicha mutlaq huquqiy munosabatlar;
- nomulkiy-mutlaq tadbirkorlik huquqiy munosabatlar;
- majburiyat tadbirkorlik huquqiy munosabatlar.

### **3. TADBIRKORLIK HUQUQINING SUBYEKTLARI VA TURLARI**

Tadbirkorlik faoliyatining subyekti bo'lish uchun ular belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan bo'lislari kerak. FKning 24-moddasiga muvofiq jismoniy shaxs, ya'ni "Fuqaro yakka tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgazilgan paytdan boshlab tadbirkorlik **faoliyi** bilan shug'ullanishga haqlidir". Yuridik shaxs ham tadbirkorlik faoliyati subyekti bo'lishi uchun tegishli tartibda davlat ro'yxatdan o'tgan, bunday faoliyatning muayyan turi bilan shug'ullanish uchun ruxsatnomasi (litsenziya) olgan bo'lishi kerak. Shu bilan birga tadbirkorlik faoliyati subyekti hisoblangan korxonalar yoki firma yuridik shaxs deb tan olinishi uchun FKning 44-moddasida nazarda tutilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lishi kerak.

✓ Tadbirkorlik faoliyati subyektlari tushunchasi va maqomini aniqlash uchun, avvalambor, "huquq subyekti" va "fuqarolik huquqi subyekti" tushunchalarining mohiyatini chuqur anglab olish lozim bo'ladi. Huquq subyekti keng huquqiy kategoriya hisoblanib, uning tarkibiga amaldagi qonun hujjatlari binoan huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari kiradi. O'z navbatida, har bir huquq tarmog'ining o'z subyektlari (davlat huquqida – saylovchilar va saylanuvchilar, mehnat huquqida – ish beruvchi va xodim, moliya huquqida - soliq to'lovchi va soliq organi hamda boshqalar) bo'lganidek, tadbirkorlik huquqining ham o'z subyektlari bor.

Fuqarolik huquqining barcha subyektlari yagona "shaxslar" degan umumiyligi nom bilan ifodalananadi. "Shaxslar" ham o'z navbatida uch guruhga bo'linadi: **birinchisi**, fuqarolar (jismoniy shaxslar) bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari,

✓ shuningdek fuqaroligi bo'Imagan shaxslar; **ikkinchisi**, yuridik shaxslar bo'lib, ular foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi bo'Imagan tashkilotlar) hisoblanadi. Ular O'zbekiston Respublikasi, chet el yoki aralash (qo'shma) korxonalar shaklida bo'lishi mumkin; uchinchisi, davlat bo'lib, u alohida subyekt sifatida bevosita o'z nomidan, shuningdek uning nomidan ma'muriy hududiy tuzilmalar yoki davlat organlari ishtirok etishlari mumkin.

**Tadbirkorlik huquqining subyektlari** – bu tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga vakolatli bo'lgan shaxslardir.

Jismoniy va yuridik shaxslar fuqarolik huquqiy munosabatlarda tadbirkor sifatida, shuningdek bunday maqomga ega bo'lmasdan ham ishtirok etishlari mumkin. Shuning uchun fuqarolik huquqi subyektlari bir vaqtning o'zida tadbirkorlik huquqi subyektlari hisoblanishi mumkin. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarda subyekt har doim tavakkal qilib, o'z javobgarligini zimmasiga olib, foyda olishni maqsad qilgan holda faoliyat yuritadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan buyon davlatimiz tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yangi ichki mahsulot ishlab chiqarishda nafaqat hal qiluvchi mavqe egallashi, balki uning aholi farovonligi va daromadlarini orttirishda, ishsizlik muammosini yechishda ham muhim omilga aylantirishga erishish yo'lida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

*"Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" 2012 yil, 2-maydagi O'RQ – 328-sonli yangi tahrirdagi Qonuning 4-→ muddasiga muvofiq tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.*

Biroq davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi qonun hujjatlarida man etilgan boshqa shaxslar tadbirkorlik faoliyati subyektlari bo'lishi mumkin emas.

Shaxsning foyda ko'rish maqsadida, tavakkal qilib tovar ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) bilan shug'ullanish ixtisoslashgan faoliyatga aylangan taqdirdagina bunday faoliyatning ishtirokchilarini tadbirkorlar deb hisoblash mumkin. Agar fuqaro bunday harakatlarni alohida hollardagina (vaqt-vaqt bilan) foyda ko'rishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymay amalga oshirgan taqdirda, masalan, o'zidagi ortiqcha qishloq xo'jalik mahsulotlarini yoki keraksiz bo'lgan boshqa ashyolarni sotishi yoki ishlarni bajarib berish uchun shartlashib va u bajarilganligi uchun haq olinadigan bo'lsa, bunday faoliyatni tadbirkorlik faoliyati deb bo'lmaydi, chunki bu kabi munosabatlар fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadi. Shuningdek, bank muassasalariga foiz olish maqsadida jamg'arma qo'yan fuqarolar, qimmatli qog'ozlar sotib olgan shaxslar ham tadbirkorlar hisoblanmaydi.

*Tadbirkorlik huquqi subyektiga quyidagicha tushuncha berish mumkin: tadbirkorlik faoliyatini amalgga oshiruvchi, o'zining mulkiga, tadbirkorlik huquq va majburiyatlariga ega bo'lgan, o'z faoliyati yuzasidan mustaqil davogar va javobgar bo'la oladigan va o'zining huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qila oladigan (yuridik shaxs maqomini olgan) turli mulk shakllariga mansub korxonalar va ularning tuzilmalari hamda yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalgga oshiruvchi - yakka tadbirkor maqomiga ega bo'lgan fuqarolar, shuningdek tadbirkorlik huquqiy munosabatlarda ishtirok etayotgan davlat va uning vakolati idoralari hisoblanadi.*

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagilarni tadbirkorlik huquqining subyektlarining o'ziga xos belgilari hisoblanadi:

- davlat ro'yxatidan o'tganligi;
- muayyan faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari uchun, albatta, ruxsatnoma (litsenziya)ga ega bo'lishligi;
- o'z mol-mulkiga ega bo'lishligi;
- tadbirkorlik huquq va majburiyatlariga ega bo'lishligi;
- o'z mol-mulki doirasida mustaqil javobgarligi;
- o'zlarining buzilgan huquqlarini va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish imkoniyatiga ega ekanligi hisoblanadi.

#### **• Tadbirkorlik huquqi subyektlari tasnifi**

- Tadbirkorlik huquqi subyektlarini bir necha turlarga ajratish mumkin. Subyektlarni turkumlash ularning mulkchilik shakliga (masalan, fuqarolarning xususiy mulki, jamoa mulki yoki davlat mulkiga asoslangan), vakolatlariga (ya'ni bevosita tadbirkorlik faoliyatini amalgga oshiruvchi korxonalar, yoki boshqaruvni amalgga oshiruvchi subyektlar kabi), shaxslarga (jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar) hamda faoliyat turiga (tijoratchi va notijorat tashkilotlar) qarab belgilanadi.
- Shu o'rinda tadbirkorlik faoliyati subyektlarini faoliyat maqsadiga (turiga) qarab tijoratchi tashkilot va tijoratchi bo'lmanan tashkilotga ajratilgan ikki turiga tushuncha berib o'tsak.
- **Tijoratchi tashkilot** – bu foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib qo'ygan subyekt bo'lib, (xususiy korxonalar,

- xo'jalik jamiyatlari, shirkatlari) tijoratchi tashkilotlarning huquqiy holatlari FK va boshqa qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan.
- Tijoratchi bo'limgan tadbirkorlik faoliyati subyektlari o'z oldiga muayyan maqsadni ko'zlagan holda harakat qilib, foyda ko'rishni ko'zlamaydi. Bunday subyektlarga jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa va boshqalar kiradi.

#### • Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, jismoniy shaxslarga tadbirkorlik maqomiga ega bo'lishlik imkoniyati berilib, ular ham tadbirkorlik huquqining subyektlari doirasiga kiritilgan.

**Yakka tartibdagagi tadbirkor.** 2012-yil 2-mayda qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonunda tadbirkorlik faoliyati subyektlari doirasi kengaytirilib, ular kichik tadbirkorlik subyektlari shaklida, jumladan yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagagi tadbirkorlar ham kichik tadbirkorlik subyekti sifatida mastahkamlandi. Qonunga binoan har qanday fuqaro ham tadbirkor shaxs hisoblanmaydi, balki faqat belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan, o'tib, tadbirkor maqomini olgan fuqarolargina etirof etilishi mumkin.

Yakka tartibdagagi tadbirkorlik yakka tartibdagagi tadbirkor tomonidan mustaqil, mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagagi tadbirkor O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda xodimlarni yollashga haqli.

Hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirayotgan yakka tartibdagagi tadbirkorlar tovarlar tayyorlash (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun ko'pi bilan besh nafar shogirdni ularga tegishlichcha haq to'lagan holda jaib etishga haqlidir.

Yakka tartibdagagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirayotganda shaxsiy ish hujjatlari blankalaridan, muhr, shtamlardan foydalanishga haqli, ularning matnlari mazkur shaxs yakka tartibdagagi tadbirkor ekanligi haqida dalolat berishi lozim.

Yakka tartibdagagi tadbirkorlikni amalga oshirish uchun er-xotindan biri er-xotining umumiyligida mol-mulkidan foydalanadigan

hollarda, agar qonunda, nikoh shartnomasida yoxud er-xotin o'rtasidagi o'zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, arning (xotinning) roziligi talab qilinadi.

Demak, yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatni subyektlarining shakllari qonunda quyidagi tarzda mustahkamlangan:

- yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan xodimlarni yollash huquqi asosida, mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq tufayli o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladigan yakka tartibdagi tadbirkorlik;

- er-xotining umumiy mol-mulki negizida ular tomonidan amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik;

- ikki yoki undan ortiq yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan foyda olish yoki qonunga zid bo'limgan boshqa maqsadga erishish uchun o'z hissalarini qo'shish va yuridik shaxs tuzmasdan, birgalikda ish qilish majburiyatini olgan oddiy shirkat;

- yuridik shaxs tashkil etmagan holda dehqon xo'jaligini yuritish.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish (davlat ro'yxatidan o'tishi) uchun shaxs 18 yoshga to'lgan bo'lishi lozim.

**Oilaviy tadbirkorlik.** Gap oilaviy tadbirkorlikni amalga oshirish to'g'risida ketar ekan, er-xotindan biri er-xotining umumiy birgalikdagagi mol-mulkidan foydalanadigan hollarda vujudga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solish masalasi muhimdir. Chunonchi, qonunlarda, nikoh shartnomasida yoki er-xotin o'rtasidagi o'zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, bunday holda er(xotin)ning roziligi talab qilinadi. Bunday rozilik notarial tasdiqlangan bo'lib, qaysi mol-mulkdan foydalanishga kelishilgan bo'lsa, ushbu mulkka tegishli ma'lumotlar qayd etilishi lozim.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tadbirkorlikning er-xotining umumiy mol-mulki negizida ular tomonidan amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik turida (ish muomalalarida) er-xotin nomidan arning yoki xotining roziligi bilan ulardan biri ishtirok etadi, bu rozilik yakka tartibdagi tadbirkor ro'yxatdan o'tkazilayotganda tasdiqlanishi lozim.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik va oilaviy tadbirkorlik faoliyatining negizi, mulknинг shakllanish holati bir-biridan farq qiladi. Yakka

tartibdagi tadbirkor mulk huquqi asosida faqat o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq tufayli o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida faoliyat ko'rsatsa, oilaviy tadbirkorlik mol-mulk negizida umumiy birgalikdagi mulk asosida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, oilaviy tadbirkorlikni yuridik shaxs tashkil etmagan holda olib borish tartibi *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"* 29.07.2009 yil 216-sonli qarorida ham ko'rsatilgan.

Davlatning tadbirkorlik huquqi subyektlari qatoriga qo'shmaslik, tadbirkorlik faoliyatiga oid masalalarni hal qilishda ko'pgina noaniqliklarni kelib chiqishiga, bu boradagi masalalarni qaysi huquq sohasi normalari bilan tartibga solinishi lozimligi to'g'risidagi masalalarda chalkashliklarni kelib chiqishiga sabab bo'lar edi. Davlatning tadbirkorlik huquqining subyekti sifatida o'ziga xos xususiyatlарини бирма-бир таҳліл qilishga harakat qilamiz.

Amaldagi qonunlarimizga muvofiq xususiy va ommaviy mulk shakllari mavjud. Ommaviy mulk davlat mulkidan iborat bo'lib, u ikki xil turdag'i mulkdan, ya'ni O'zbekiston Respublikasi mulki va munitsipal mulkdan tashkil topadi.

Yuqoridagi mol-mulklar asosida davlat tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi va ularni o'z organlari orqali korxonalarining tadbirkorlik faoliyati yuritishiga berib, yangi subyekt korxonalarini tashkil etadi. Shuningdek, mulkdor sifatida davlat tasarrufidan chiqarish, xususiyashtirish masalalarini o'zining maxsus organlari vakolatiga bergen.

Davlat mulki bo'lgan maxsus obyekt - davlat xazinasiga O'zbekiston Respublikasi nomidan tushadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha davlat kreditor hisoblanadi. Shuningdek, davlat nomidan tuzilgan shartnomalar bo'yicha g'azna mablag'lari hisobidan javobgar hisoblanadi. Davlatning vakolati tadbirkorlik subyektlariga nisbatan boshqaruv faoliyati bo'lib hisoblanadi.

Davlat insonlarning moddiy va manaviy ehtiyojlarini qondirishdek ulkan vazifani bajarish maqsadida erkinlik asosidagi tadbirkorlik

faoliyatini amalga oshirishi bilan bir vaqtida, hisob-kitob yuritish, moliya, soliq, subyektlar imtiyozlari kabi institutlarni tartibga solish ishini olib boradi va ular yagona dastur sifatida ko'rindi.

Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish usuli umumiy va alohida asoslarda amalga oshiriladi. Umumiylashtirish asos bo'lib qonun chiqarish bo'lib hisoblansa, alohida asosda turli-tuman sohalar bo'yicha tadbirkorlik faoliyati subyektlariga nisbatan o'z ta'sirini o'tkazadi, ya'ni iqtisodiy faoliyatning turli jihatlarini tartibga soladi.

Tadbirkorlik faoliyatida davlatning ta'siri – bu tadbirkorlik subyektlarini tuzish, bekor qilish, tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishni nazorat qilish faoliyatidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning quyidagi shakllarini ajratish mumkin:

- normativ-huquqiy hujjatlar chiqarish;
- davlat buyurtmalari;
- davlat kontrakti;
- davlat tomonidan tartibga solishni belgilovchi hujjatlar.

Tadbirkorlik huquqining subyekti sifatida davlatning iqtisodiyotga ta'sir etishining yana bir usuli bu bozor mexanizmini tashkil etib, unda monopoliyaga yo'l qo'ymaslik, soliq tizimi orqali va har bir subyektining huquqini himoya qilish, iqtisodiy erkinliklarining kafolatlashni belgilashdan iborat.

### **Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar**

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, yuridik shaxslar: tijoratchi tashkilot (xo'jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxona va tijoratchi bo'limgan tashkilot (jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa) turlariga bo'linadi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarni quyidagi asosiy mezonlarga qarab tasniflash mumkin:

- qo'shgan ulushiga qarab (ma'suliyati cheklangan jamiyat, qo'shimcha ma'suliyatli jamiyat, aksiyadorlik jamiyat);
- tadbirkorlik faoliyatida ishtiroy etishiga qarab (to'liq va kommandit ishtiroychilik);
- o'z mehnati bilan shaxsan ishtiroy etishiga ko'ra (ishlab chiqarish kooperativi, dehqon xo'jaligi);

- boshqaruvda ishtirok etishiga ko'ra (xususiy korxona, fermer xo'jaliklari).

Shu o'rinda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarni turlarini birma-bir izohlab o'tish joiz.

## AKSIYADORLIK JAMIYATLARI

Aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyati dastlab 1996-yil 26-aprelda qabul qilingan 223-I-sonli qonuni bilan tartibga solinib, 2014-yil yil/6- → mayda "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun (*O'RQ-370-sonli*) yangi tahrirda qabul qilindi. Unda aksiyadorlik jamiyatni to'g'risidagi umumiy qoidalar, aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish, ustav fondi (ustav kapitali), jamiyatning aksiyalari, korporativ obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari, jamiyatning sof aktivlari, aksiyalar va qimmatli qog'ozlarni tarqatish hamda joylashtirish, aksiyadorlar reyestri va aksiyalarni saqlash, dividendlar, aksiyadorlik jamiyatini boshqaruvchi organlari, jamiyatning yirik bitimlar tuzishi, uni qayta tashkil etish va tugatish, hisob-kitob va jamiyat faoliyatini nazorat qilish masalalari huquqiy tartibga solindi.

Aksiyadorlik jamiyatining asosiy ustunligi uning yirik ishlab chiqarishni tashkil etishdagi roli va shu asosdagи faoliyatining barqarorlidigidir.

Aksiyadorlik jamiyatida ishtirokchilarni jamiyat majburiylari bo'yicha javobgarligining o'ziga xos ko'rinishi mavjud. Agar jamiyat zarar ko'rsa, aksiyador faqatgina aksiya sotib olish uchun sarflagan mablag'ini yo'qtadi, xolos. Ishtirokchining cheklangan javobgarligi hamda aksiyalarni sotib yuborish orqali aksiyadorlik jamiyatidan erkin ravishda istalgan vaqtida chiqib ketishi aksiyadorlik jamiyatiga kapitalni jalb etishni osonlashtiradi.

Aksiyadorning mulki aksiyadorlik jamiyatining mulkidan butunlay ajratilgan. Shuning uchun aksiyadorning kreditorlari va uning majburiylari bo'yicha talabni jamiyat mulkiga qarata olmaydilar, biroq aksiyadorning aksiyasiga qaratishlari mumkin.

Aksiyadorning jamiyat majburiylari bo'yicha javobgarligini cheklanganligi mas'uliysi cheklangan jamiyat kabi ularning kreditorlari manfaatlari himoyasini asosiy kafolati bo'lgan ustav fondining ahamiyatini oshiradi.

Aksiyadorlik jamiyatida aksiyadorlarni jamiyatning kundalik boshqaruv faoliyatida ishtirok etishi talab etilmaydi. Aksiyadorlik jamiyatida xo'jalik shirkatidan farqli ravishda mulk bilan boshqaruv bir-biridan ajratilgan. Aksiya egasi jamiyatning kundalik boshqaruvida ishtirok etishi uchun vaqt vaqt bo'lmasligi yoki yetarli darajada malakaga ega bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham jamiyat maxsus bilim hamda malakaga ega bo'lgan shaxslar tomonidan boshqariladi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq chiqariladigan aksiyalar davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim. Davlat ro'yxatidan o'tkazilmay chiqarilgan aksiyalar ularning egalaridan majburiy ravishda olib qo'yiladi, qimmatli qog'ozlarni sotishdan to'plangan pul emitentdan olinib, aksiya egalariga qaytariladi hamda emitentga nisbatan qonun hujjatlarda ko'rsatilgan muayyan sanksiyalar qo'llaniladi.

### **Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyatlar**

Hozirgi davrda mamlakatimizda keng tarqalgan tadbirkorlik subyektlaridan biri tashkiliy-huquqiy shakli mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etilayotgan yuridik shaxslardir.

**Mas'uliyati cheklangan jamiyat** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordargi ulushlarga bo'lingan jamiyat.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlarini qo'shgan hissalar qiyomi doirasida javobgar bo'ladi. (*Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyatlar to'g'risidagi qonunning 3-moddasi*).

Mas'uliyati cheklangan jamiyat hozirda eng ko'p tarqalgan tashkiliy-huquqiy shakldagi tadbirkorlik subyekti hisoblanadi. Nima uchun tadbirkorlar aynan ushbu yuridik shaxs shaklini tanlashayapti?

Avvalambor, mas'uliyati cheklangan jamiyatda:

- jamiyat muassisnlarning majburiyatları bo'yicha javobgar emas;

- jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiyomi doirasida solidar javobgar bo'ladi. Mazkur qoidaga ko'ra kreditorlar o'z hissasini to'liq qo'shmagan ishtirokchilardan ustav fondiga qo'yilmagan miqdordagi ulushini talab qilishga haqli;

- mas'uliyati cheklangan jamiyatning ustav kapitali unchalik katta summani tashkil etmaydi, ya'ni "*Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyatlar to'g'risida*"gi 2001 yil 6-dekabrdagi

*310-II-sonli qonunga* asosan eng kam oylik ish haqining qirq baravari minimal miqdor sifatida belgilab qo'yilgan.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'ziga xos tomonlari yana quyidagi omillar bo'yicha belgilanadi:

- ustav kapitaliga ishtirokchilar tomonidan muayyan qiymatga ega bo'lgan mulk ulushi sifatida qo'shilganda, uning qiymati jamiyat ishtirokchilarining umumiy majlisi tomonidan aniqlanadi;

- jamiyatni ro'yxatga olish vaqtida har bir ishtirokchi ta'sis hujjatida ko'rsatilgan o'z ulushining kamida o'ttiz foizini to'lab qo'ygan bo'lishi kerak. Jamiyat ro'yxatga olingach, bir yil ichida ishtirokchilar ulushining qolgan qismini to'lashlari lozim;

- agarda belgilangan bir yil muddat ichida ustav kapitali muassislar tomonidan to'liq shakllantirilmagan bo'lsa, jamiyat o'z ustav fondini kamaytirishini e'lon qilishi yoki o'zini tugatishi lozim;

- mas'uliyati cheklangan jamiyatni ustav fondini oshirish uchun uning ishtirokchilar o'z ulushlarini to'liq ravishda qo'shgan bo'lislari lozim;

- jamiyat ro'yxatga olingandan so'ng ikkinchi va undan keyingi moliya yillarda uning asosiy aktivlarining qiymati ustav kapitali miqdoridan kamayib ketsa, jamiyat ustav kapitalining kamaytirilishini e'lon qilishi hamda uni belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishi lozim;

- agarda jamiyatning asosiy aktivlari qiymati qonun bilan belgilab qo'yilgan ustav fondining minimal miqdoridan kamayib ketsa, jamiyat tugatilishi lozim;

- jamiyat ustav kapitalini kamaytirish uchun dastlab o'z kreditorlarini bu haqda yozma ravishda ogohlantirishi lozim, bundan maqsad kreditorlarning manfaatini himoya qilishdir.

Yuridik va jismoni shaxslar mas'uliyati cheklangan jamiyatning muassislar bo'lislari mumkin. Qonun bilan ayrim toifadagi jismoni shaxslarni yoki jamiyatda ishtiroki taqiqlanishi yoki cheklanishi mumkin.

Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari jamiyatda ishtirokchi bo'lish huquqiga ega emaslar, biroq qonun hujjatlarida boshqacha tartib ham belgilanishi mumkin. Jamiyat bitta shaxs tomonidan ham ta'sis etilishi mumkin va u jamiyatning yagona ishtirokchisi bo'lib qoladi. Bir nechta ishtirokchilar tomonidan ta'sis etilgan jamiyat, keyinchalik yagona ishtirokchidan iborat bo'lgan jamiyat sifatida ham faoliyat

ko'rsatishi mumkin. Bitta ishtirokchi (jismoniy shaxs)dan iborat bo'lgan xo'jalik jamiyatni boshqa jamiyatning yagona ishtirokchisi bo'la olmaydi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilarining soni ellik nafardan ortib ketmasligi lozim. Agar ishtirokchilarning soni yuqoridaq miqdordan ortib ketsa, jamiyat bir yil ichida aksiyadorlik jamiyatiga yoki ishlab chiqarish kooperativiga aylantirilishi lozim. Agar belgilangan muddatda jamiyat qayta tashkil etilmasa yoki undagi ishtirokchilarning soni kamaytirilmasa, jamiyat sud orqali tugatiladi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat bilan bir qatorda qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyat ham mavjud. Qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyatning faoliyati asosan mas'uliyati cheklangan jamiyatga oid huquq normalari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasining *Fuqarolik kodeksining* 63-moddasiga muvofiq qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "qo'shimcha mas'uliyatlari" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

Ishtirokchilardan biri nochor (bankrot) bo'lib qolganida, uning jamiyat majburiyatlari bo'yicha javobgarligi, agar jamiyatning ta'sis hujjatlarida javobgarlikni taqsimlashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo'lmasa, boshqa ishtirokchilar o'rtasida ularning qo'shgan hissalariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Jamiyat o'zining ustavida nazarda tutilgan, lekin o'z ustav fondining (ustav kapitalining) o'n besh foizidan kam bo'limgan miqdorda zaxira fondini vujudga keltirishi mumkin. Jamiyatning zaxira fondi jamiyatning ustavida belgilangan miqdorga yetgunga qadar har yili sof foydadan ajratmalar qilish yo'li bilan shakllantiriladi. Har yilgi ajratmalar miqdori jamiyatning ustavida nazarda tutiladi, lekin u jamiyatning ustavida belgilangan miqdorga yetgunga qadar sof foydaning besh foizidan kam bo'lishi mumkin emas.

Jamiyatning zaxira fondi uning zararlarini qoplash va jamiyat tomonidan jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushni (ulushning bir qismini) olish uchun mo'ljallangandir.

#### 4.TADBIRKORLIK SUBYEKLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TARTIBI.

Tadbirkorlik faoliyatining tashkil qilinishi. Ta'sis etish va uning usullari. Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish (onlayn tarzda va shaxsan kelgan holda). Tadbirkorlik subyektlarini qayta

*Tutug belgisini bize  
Xil Tortibga kelTun  
ish*

ro'yxatdan o'tkazish. Tadbirkorlik subyektlarini qayta tashkil etish va uning turlari. Qayta tashkil etishda oldindan rozilik olish. Tadbirkorlik sub'ektlarini tugatish usullari va tartibi. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning xorij tajribasi.

### **Tadbirkorlik faoliyatining tashkil qilinishi. Ta'sis etish va uning usullari**

Tadbirkorlik jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida tan olingan bugungi dunyoda har bir davlat bu sohani yanada rivojlantirishni o'z taraqqiyot strategiyasining asosiy vazifalaridan biri deb biladi. Ichki bozorni tovarlar, ishlar va xizmatlar bilan ta'minlash, eksport salohiyatini oshirishda yangi tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishi nihoyatda muhimdir. Tadbirkorlik sohasi vakillari o'z faoliyatlarini tashkil o'tishlari bilan tom ma'noda mamlakat biznes doirasining vakili sifatida e'tirof etiladilar. Bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil etishni yanada soddalashtirish, ro'yxatdan o'tish tartibotini maksimal darajada tadbirkor uchun qulay, tejamkor va interaktiv shaklga o'tkazish zamon talabidir. Mazkur masalalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Harakatlar strategiyasining ijrosini ta'minlash va uning mazmun-mohiyatini keng targ'ib qilish maqsadida hamda 2016-yil 28-oktyabrdagi "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-2646сон va 2017-yil 1-fevraldag'i "Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qoshimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2750-son qarorlarida ham e'tibor qaratilganligi ayni muddaodir.

Avvalambor tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni davlat ro'yxatidan o'tkazish nima uchun kerak degan savol ko'pchiligimizni qiziqtirishi tabiiy albatta. Bunga esa quyidagicha javob topish mumkin. Ya'ni, har bir davlat iqtisodiy islohotlar jarayonida uni maqsad va vazifalarini belgilaydi, yo'naltiradi, boshqacha aytganda, bosh islohotchi vazifasini bajaradi. Ushbu vazifani amalga oshirishning asosiy qudratli vositasi bo'lib iqtisodiyotni huquqiy tartibga solish hisoblanadi. Davlat tegishli qonunlari, qonun hujjatlari orqali tadbirkorlik subyektlarini huquqiy maqomini, ular o'rtaсидagi shartnomaviy munosabatlarni, soliq, bojxona siyosatini, imtiyozlar, preferentsiyalar va kafolatlarni belgilaydi. Tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari qay darajada ilmiy asoslangan,adolatli, oqilona, bozor iqtisodiyoti qonunlariga muvofiq bo'lsa, u shunchalik samarali huquqiy tartibga soladi. Bu esa

iqtisodiyotni rivojlanishiga, aholini turmush darajasini va bandligini ta'minlashga olib keladi.

Davlat iqtisodiyot sohasida aniq maqsadli boshqaruvni amalga oshirish uchun iqtisodiy huquqiy maydonni yaratib, bu maydonda davlat tuzulmalari va tadbirkorlik subyektlari o'ttasida doimiy, muntazam o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yomogi lozim. Buning uchun tadbirkorlik subyektlari muayyan tashkiliy-huquqiy shakllarga, huquqiy maqomga ega bo'lishi va u tegishli shaklda va tartibda rasmiylashtirilgan bo'lishi talab etiladi. Bunday rasmiylashtirish tartibi esa tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimi orqali ta'minlanadi. Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, qayta tashkil etish, tugatish jarayonlarini yuridik jihatdan qayd etish orqali davlat nafaqat tadbirkorlik subyektlari to'g'risida, balki iqtisodiyotdagি real voqelik bo'yicha aniq ravshan axborotlarga ega bo'ladi va ushbu axborotlar orqali mamlakat iqtisodiy rivojlanishga samarali, oqilona ta'sir etish imkoniga ega bo'ladi. Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkzishning mohiyati aynan shunday holatlarda namoyon bo'ladi.

Qonunchilikda belgilab qo'yilgan umumiyl qoidalarga ko'ra tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilishning quyidagi shakllari mavjud:

Tadbirkorlik huquqi subyektlarini tashkil qilinishi kimning xohish irodasiga va qanday tartibda amalga oshirilayotganligiga qarab ta'sis-farmoyish, ta'sis, shartnomaviy-ta'sis usullariga bo'linadi.

Ta'sis-farmoyish usul bilan asosan davlat mulkiga asoslangan korxonalar tashkil qilinadi. Bu usulning xarakterli tomoni shundaki, bunda tadbirkorlik subyekti davlat vakil qilgan shaxs tomonidan tashkil etiladi.

Ta'sis etish usuli bilan bitta shaxs ishtirokidagi tashkilotlar ham tuzilishi mumkin.

Ularning faoliyati xususiy mulkka asoslangan bo'ladi. Misol uchun, bitta shaxs tomonidan xususiy korxonani tashkil etish.

Shartnomaviy-ta'sis usuli bilan ikki va undan ortiq ta'sischilar tomonidan o'zlarining mulkiy ulushlarini birlashtirish asosida ta'sis shartnomasi tuzish yo'l bilan xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining faoliyat yo'nalishlari belgilanadi va tuziladi.

Misol uchun, bir yoki bir necha shaxslar tomonidan aksiyadorlik jamiyatlar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar va shu kabilarni tashkil etish va tuzish.

Shu bilan birlgilikda, yuridik shaxslarni, jumladan tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish usullari to'g'risida ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud bo'lib, sivilistik yondashuv bo'yicha ular quyidagi usullarni o'z ichiga oladi:

a) farmoyish berish orgali vujudga kelish. Bunda yuridik shaxs muayyan davlat organining farmoyishi orgali vujudga keladi.

b) murojaat qilish usuli. Bunda tadbirkorlik subyektini tashkil qiluvchi muassisning erki-irodasi asosiy rol' o'ynaydi.

d) ruxsat berish usuli. Bunda vakolatli davlat idorasining ruxsati asosida vujudga keladi.

e) normativ murojaat qilish usuli. Bunda muayyan turdag'i tadbirkorlik subyektlarining vujudga kelish imkoniyatlari qonun hujjatlarida oldindan belgilab qo'yilgan bo'ladi va unga muvofiq ravishda tadbirkorlik subyekti davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

f) xabardor qilish usuli. Bunga ko'ra, tadbirkorlik subyekti o'zini vujudga kelganligi to'g'risida vakolatli davlat idorasini xabardor qiladi va ushbu organ tadbirkorlik subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazdirishga majbur.

Bunda ro'yxatdan o'tkazdiruvchi idorani ro'yxatdan o'tkazdirishni rad etish bo'yicha vakolati mavjud emas. Biroq, ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq barcha oqibatlar (agar bunda qonun hujjatlarining birorta talabi buzilgan bo'lsa) tadbirkorlik subyektining zimmasiga tushadi.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish (onlayn tarzda va shaxsan kelgan holda).

Aynan, tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatini qonuniy amalgalashirish uchun dastlabki qadamni davlat ro'yxatidan o'tishdan boshlaydi. Chunki, har qanday tadbirkorlik subyekti vujudga kelish jarayonida to'qnashadigan, uni amalgalashirish shart bo'lgan taomil - bu tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tish hisoblanadi.

Umuman olganda, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning ahamiyati keng ko'lamli va keng qamrovli hisoblanadi. Ushbu taomil davlat uchun ham, tadbirkorlik subyektlarining o'zlarini uchun ham, xo'jalik yurituvchi subyektlarning yollanma xodimlari uchun ham va nihoyat iste'molchilar uchun ham g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Davlat va davlat organlari uchun tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi, eng avvalo, davlat soliq xizmati uchun, statistik xizmat uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish, soliq siyosatini oqilona ravishda amalga

oshirish, ular faoliyati ustidan monitoring yuritish tadbirkorlik subyektlari reestri asosida operativ, maqsadli va tartibli amalga oshirilishi mumkin.

✓ Tadbirkorlik subyektlari davlat ro'yxatidan o'tish orqali o'z faoliyatini huquqiy maydonda amalga oshiradi, tegishli moliya, buxgalteriya hujjatlarini yuritadi.

Faoliyatining samaradorligini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayni paytda tadbirkorlik subyektlari uchun qonunlarda belgilab qo'yilgan huquqiy himoya tizimidan, imtiyozlar va preferentsiyalardan foydalanish imkoniga ega bo'ladir.

2017-yil 1-aprelgacha mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish 2 xil usulda: xabardor qilish tartibi va ruxsat berish tartibida amalga oshirilardi. Xabardor qilish tartibida davlat ro'yxatidan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 24-maydagi “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishning xabardor qilish tartibini joriy etish to'g'risida” PQ-→ 357-sون Qiори bilan tasdiqlangan nizom, ruxsat berish tartibi davlat ro'yxatidan o'tkazish esa Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 20-avgustdagи “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida” gi → 357-sonli Qiори bilan tasdiqlangan nizom bilan amalga oshirilar edi. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-fevraldagи 66-sonli Qiори bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida”gi Nizomga ko'ra ikki usul birlashtirildi.

Shuningdek, 2017-yilning aprel oyidan boshlab, biznesni ro'yxatdan o'tkazish mexanizmini bat afsil yoritib beruvchi yagona hujjatni tasdiqlash yo'lli bilan tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tartibotini tartibga soluvchi 62 ta normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritildi, shuningdek o'z kuchini yo'qotgan deb topildi.

2017-yil fevral oyidan boshlab “yagona darcha” markazlari barcha tadbirkorlik subyektlari uchun yagona ro'yxatdan o'tkazuvchi organ etib belgilandi, banklar va kredit byurolari bundan mustasno. Davlat statistika qo'mitasining firma nomini zaxira qilib qo'yishga doir, Davlat soliq qo'mitasining tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib kiruvchi yakka tartibdagи tadbirkorlarni ro'yxatdan o'tkazishga doir, shuningdek Adliya vazirligining chet el investitsiyalari ishtiroyidagi korxonalar, sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlari, auditorlik

tashkilotlari, soliq maslahatchilar tashkilotlari, birjalar, lombardlar, investitsiya fondlari, bozorlar hamda boshqa tadbirdorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazishga doir funksiyalari 194 ta “yagona darcha” markazlariga topshirildi.

Bundan tashqari, bugungi kunda yuridik shaxsni ro'yxatdan o'tkazishda taqdim etiladigan hujjatlar soni 6 tadan amalda 1 tagacha qisqartirildi, ya'ni faqat ariza talab qilinadi va unda ko'rsatilgan ma'lumotlardan ta'sis hujjatlari generatsiya qilinadi (topshirish-qabul qilish dalolatnomasi va taqsimlash balansi taqdim etilishi lozim bo'lgan qo'shib yuborish, birlashtirish, ajratib chiqarish hamda bo'lish holatlari bundan mustasno). Yakka tartibdagi tadbirdorlar (YATT) uchun zarur bo'lgan hujjatlar soni 7 tadan 1 tagacha qisqartirildi, ya'ni faqatgina ariza taqdim etish lozim bo'ladi.

Shuni ta'kidlash joizki, ariza bilan, albatta, ta'sischining o'zi murojaat etishi shart emas, balki Internet jahon axborot tarmog'i orqali Tizim vositasida Yagona portal orqali ham murojaat qilishi mumkin. (*Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9-fevraldaggi VMQ-66-son Qarori*)

Jahon banki uslubiyatiga muvofiq, biznesni ro'yxatdan o'tkazish yangi tartibga ko'rak ikkita jarayonda (birinchisi – barcha ro'yxatdan o'tkazish va hisobga qo'yish tartibotlarini avtomatlashtirish bilan real vaqt rejimida ro'yxatdan o'tkazish, ikkinchisi – taqdim etiladigan qog'oz hujjatlarni kamaytirish bilan bank hisob raqamini ochish) amalga oshiriladi. Biznes yuritishni boshlash bilan bog'liq bo'lgan barcha rasmiyatçiliklarni inobatga olgan holda korxonani ochish jarayoni (ushbu vaqtga firma nomini zaxiraga olib qo'yish, ro'yxatdan o'tkazish uchun davlat bojini to'lash, davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma va ro'yxatdan o'tkazilgan ta'sis hujjatlarini olish, muhrni tayyorlash, soliq organlarida, statistika organlarida hamda bankda hisobga qo'yish va hisob raqamini ochish kiradi) bir kundan kam vaqtini talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida» 2016-yil 28-oktyabrdagi PQ-2646-sun qarorini amalga oshirish chora-tadbirdorlari to'g'risida”gi VMQ-66-sun Qaroriga asosan Internet jahon axborot tarmog'i orqali Tizim vositasida Yagona portalda ro'yxatda o'tish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Ariza beruvchi tadbirdorlik subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tish uchun

Davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun ariza beruvchi «biznesni ro'yxatdan o'tkazish» — davlat xizmatini tanlaydi va davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun quyidagi belgilangan ariza shakllari bo'yicha:

yuridik shaxs tashkil etmagan tadbirkorlik subyektlarining (keyingi o'rinnlarda yakka tartibdagi tadbirkor deb ataladi);

tadbirkorlik subyektlari — yuridik shaxslarning uni ko'rsatishgan so'rovnomani shakllantiradi.

Ariza beruvchi tomonidan so'rovnama shakllantirilishi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ariza beruvchi so'rovnomani so'ralayotgan ma'lumotlarni kiritish va Tizim tomonidan umumiylashtirishni istalgan bosqichda to'xtatish yoki davom ettirish huquqiga ega.

Davlat axborot resurslarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar, ariza beruvchining Yagona identifikatsiyalash tizimidan olingan haqiqiy shaxsiy ma'lumotlarini inobatga olgan holda Tizim tomonidan avtomatik tarzda shakllantiriladi. Tizim har bir bosqichda so'rovnomada shakllantirilgan ma'lumotlarni saqlab boradi.

Tadbirkorlik subyektlarini Internet orqali onlaysiz tarzda ro'yxatdan o'tkazish shaxsan kelgan holda ro'yxatdan o'tkazishga nisbatan bir qator quyidagi ustunliklarga ega:

- ro'yxatdan o'tkazuvchi organga qog'oz ko'rinishidagi hujjatlarning asl nusxalarini taqdim etish zarurati yo'qoladi, natijada arizachilarни ro'yxatdan o'tkazuvchi organga, shuningdek, ro'yxatdan o'tkazishga davlat bojini to'lash uchun bank kassasiga shaxsan tashrif buyurish zaruriyatidan xalos etadi, bu esa arizachilarning bilvosita sarf-xarajatlarini kamaytiradi;

- hujjatlar Internet orqali onlaysiz topshirilganda biznesni ro'yxatdan o'tkazish, shu jumladan, qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun davlat bojlari stavkalari shaxsan tashrif buyurgan holatga nisbatan ikki barobar kam qilib belgilangan;

- biznesni ro'yxatdan o'tkazish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish va topshirishni arizachi uchun qulay bo'lgan istalgan vaqtida boshlash, to'xtatib turish yoki qaytadan boshlash mumkin bo'ladi;

• ro'yxatdan o'tkazishga so'rovnoma tanlanayotgan firma nomini avtomatik tarzda tekshirishni inobatga olgan holda arizachi tomonidan ma'lumotlarni asosan ochiladigan menyudan tanlash yo'li bilan onlayn to'diriladi, bu esa noaniqliklarni bartaraf etadi, taqdim etilayotgan ma'lumotlarni standartlashtiradi va ularni qayta ishlashni soddalashtiradi;

• biznesni ro'yxatdan o'tkazish uchun hujjatlarni elektron raqamli imzo bilan imzolash talab etilmaydi, bunda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari Yagona portalda unda ko'satilgan usullardan biri orqali masofadan ro'yxatdan o'tishlari lozim bo'ladi;

• arizachilarning xohishiga ko'ra, avtomatlashtirilgan tizim arizada ko'satilgan ma'lumotlardan kelib chiqib shakllantiradigan, ta'sis hujjatlarining namunaviy shakllaridan foydalanish yoki arizaga skaner qilingan ta'sis hujjatlarini ilova qilish mumkin.

Ushbu sohada olib borilgan islohotlar samarasi o'laroq, endilikda yakka tartibdag'i tadbirkorlar (YATT) o'z faoliyatlarini vaqtinchalik to'xtatish turish yoki qayta tiklash to'g'risidagi arizani avtomatlashtirilgan tizim orqali topshirishlari mumkin bo'ladi, bu esa YATTning soliqlar to'lamaslik bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchiliklarni soddalashtirish va pasaytirishga yordam beradi. Tadbirkorlik subyekti barcha tegishli vakolatli davlat (litsenziyalovchi va hokazo) organlarini uning manzili (joylashgan joyi, yashash joyi) o'zgarganligi to'g'risida avtomatlashtirilgan tizim vositasida bir vaqtning o'zida xabardor qila oladi, bu esa davlat organlariga alohida xabarnomalar jo'natishga zaruriyat qoldirmaydi. Shuningdek, qayta tashkil etish to'g'risidagi axborotni bosma ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish to'g'risidagi talabni bekor qiladi, bunda axborotni kreditorlar tanishib chiqishlari uchun Yagona portalda e'lon qilish yetarli bo'ladi, bu esa tadbirkorlar xarajatlarini kamaytiradi. Biznesni ro'yxatdan o'tkazishni rad etish uchun asoslarning batafsil ro'yxati belgilangan. Demak, ro'yxatdan o'tkazish uchun so'rovnoma to'dirilayotganda ko'satilgan ma'lumotlar avtomatlashtirilgan tizimning tegishli ma'lumotlar bazalari bo'yicha avtomatik tarzda tekshiriladi.

Yuridik shaxsni va YATTni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi guvohnomani, shuningdek ularning dublikatlarini maxsus blanklarda qog'oz ko'rinishida berish amaliyoti xozirda bekor qilingan, bu esa ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarning ularni tayyorlash uchun ketadigan yillik xarajatlarini qisqartirmoqda. Tadbirkorlik subyektlari ro'yxatdan

o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma va ta'sis hujjatlarini istalgan vaqtda hamda istalgan nusxada nashr qilib olishlari mumkin.

Shu tarzda, davlat organlari Yagona portaldagi Elektron hujjatlarning repositoriyisi orqali qayta tashkil etish to'g'risidagi guvohnomadan foydalanish (shu jumladan, litsenziyalar, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar berishda, bank hisob raqami ochishda va boshqa turdagi davlat xizmatlarini ko'rsatishda), shuningdek avtomatlashtirilgan tizim vositasida, tadbirkorlardan talab qilib olmasdan ta'sis hujjatlaridan foydalanishga tadbirkorlardan ruxsat olishlariga imkon beruvchi mexanizm yo'lga qo'yildi. Avtomatlashtirilgan tizimda mavjud bo'lgan, biznesni ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan barcha elektron hujjatlar, shuningdek skaner qilingan hujjatlarga giperhavolalar, axborot xavfsizligini ta'minlash hamda ulardan foydalanish qulayligini inobatga olgan holda elektron hujjatlarning repositoriyisida saqlanadi.

Tadbirkorlik subyektiga Tizim imkoniyatlaridan foydalangan holda unga taalluqli bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlar davlat organlari tomonidan so'rangan holatlari to'g'risida axborot olish huquqi berilgan, qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik subyekti erkin foydalanishi taqiqlangan axborot bundan mustasno.

Yuritilishi markazlashtirilgan tarzda elektron ko'rinishda amalga oshiriladigan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reestrida (TSYADR) mavjud bo'lgan dolzarb ma'lumotlarning shaffofligini va ulardan erkin foydalanish imkonini oshirish o'ta muhimdir. Yagona portalga joylashtiriladigan va ular o'zgarishi bilanoq har soatda yangilanib boriladigan ma'lumotlarning eng kam hajmi belgilandi. Demak, yuridik shaxslar to'g'risidagi quyidagi axborotdan ommaviy foydalanish mumkin bo'ladi: nomi, STIR, maqomi (faoliyat yuritayotgan, tugatilish jarayonida, faoliyatini to'xtatgan), tashkiliy-huquqiy shakli, mulkchilik shakli, ustav fondining miqdori, qimmatli qog'ozlari to'g'risidagi axborot, manzili va boshqalar; YATTlar qismida esa: ismi, familiyasi, STIR, amalga oshirilayotgan faoliyat turi, jinsi va boshqalar. Ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlari o'rtasidagi farqlanishlarning oldini olish maqsadida ularning nisbatan ustunligini aniqlash qoidalari belgilangan. Demak, ta'sis hujjatlaridagi ma'lumotlar bir biridan farq qilganida, ro'yxatdan o'tkazuvchi organda saqlanayotgan hujjatlar nisbatan ustunroq kuchga ega bo'ladi. TSYADRdagi ta'sis hujjatları va yozuvlardagi ma'lumotlar bir biridan farq qilganida,

TSYADRdagи yozuvlar nisbatan ustunroq kuchga ega bo'ladi. TSYADRdagи va 2017-yilning 1-apreliga qadar yuritiladigan reestrlardagi yozuvlar bir biridan farq qilganida, TSYADRdagи yozuvlar nisbatan ustunroq kuchga ega bo'ladi. Ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlari o'tasidagi farqlanishlar ta'sis hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar yoki qo'shimchalarni kiritish yo'li bilan tadbirkorlik subyektining o'zi tomonidan amalga oshiriladi.

Shu bilan bir qatorda, ro'yxatdan o'tkazuvchi va vakolatli organlar o'tasidagi hamkorlik, ma'lumotlar almashish, ularni solishtirish hamda boshqa masalalar alohida hujjatga ajratilgan, bu esa ham tegishli davlat organlari xodimlari uchun, hamda tadbirkorlik subyektlari uchun (tadbirkorlarga taalluqli bo'lмаган ichki tartibotlarni o'rganib chiqish zaruratini istisno qilgani holda) qo'shimcha qulayliklar beradi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagи "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-→ son qaroriga asosan mamlakatimizda Yevropa Ittifoqining iqtisodiy faoliyat turlarini statistik tasniflashi (KDES/NACE) negizida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichiga (IFUT) o'tildi va kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan tashkilotlarning IFUT asosida takomillashtirilgan tasniflagichi tasdiqlandi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasining davlat boshqaruvi organlarining idoralararo o'zaro hamkorligida, statistika, soliq va moliyaviy hisobot shakllarida IFUTdan majburiy tartibda foydalanishi belgilab qo'yilgan.

Davlat ro'yxatidan o'tayotgan va o'z biznes faoliyatini boshlayotgan tadbirkorlik subyektlarining IFUTdan foydalanshning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: Avvalambor, tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati sezilarli darajada kengaytirildi. Ikkinchidan, tashkilotlar turlarini aniqlashda kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan tashkilotlarni shakllantirish va tasniflash aniq qilib belgilab qo'yildi. Uchinchidan, ushbu tadbirkorlik subyektlari xodimlarining o'rtacha yillik sonini aniqlash tartibi ancha takomillashtirildi. To'rtinchidan, ayrim "tadbirkorlar"ning yashirin iqtisodiy faoliyatlarining oldi olindi va kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati qonuniylashtirildi. Beshinchidan, ushbu qulayliklar IFUTda

mavjud tadbirkorlik subyektlari faoliyati bilan bog'liq statistika, soliq va moliyaviy hisobot tizimini yanada takomillashtirdi.

### **3 ✓ Tadbirkorlik subyektlarini qayta ro'yxatdan o'tkazish**

Ma'lumki, tadbirkorlik subyektlari o'z bizneslarini amalga oshirish uchun ro'yxatdan o'tgach ayrim hujjatlari, faoliyat turlari, ta'sis xujjatlari, yuridik manzillari, ishtirokchilari, ta'sischilari va h.k.larda o'zgarishlar bo'lishi tabiiydir. Xo'sh bunday hollarda ularni qayta ro'yxatdan o'tkazish tartibi qanday amalga oshiriladi? Avvalambor shuni ta'kidlash joizki, quyida keltirilgan jadvaldagagi ro'yxat bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar majburiy qayta ro'yxatdan o'tkaziladi.

*Qayta ro'yxatdan o'tkazish ham Internet tarmog'i orqali, ham o'zi kelgan holda amalga oshirilishi mumkin.*

Quyidagi hujjatlar qayta ro'yxatdan o'tkazish so'rovnomasiga ilova qilinadi:

- tadbirkorlik subyekti vakolatli boshqaruv organining ta'sis hujjatlariga ustav fondi miqdorining oshirilishi, ulushning (hissaning) boshqa shaxsga o'tishi bilan bog'liq bo'lgan o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qarori;

- davlat tilidagi ta'sis hujjatlar;

- topshirish dalolatnomasi - qo'shib yuborilganda va qayta tuzilganda;

- taqsimlash balansi - ajratib chiqarishda;

- tadbirkorlik subyekti vakolatli organining ta'sis hujjatlarida e'lon qilingan ustav fondi miqdori shakllantirilganligi to'g'risidagi hujjat → ustav fondi miqdori oshirilganda;

- tadbirkorlik subyekti yuridik shaxs ishtirokchilari tomonidan qo'shimcha hissalar va uchinchi shaxslar tomonidan to'la miqdordagi hissalar kiritilganligini tasdiqlovchi hujjatlar ustav fondi miqdori oshirilganda;

- ulushning (hissaning) boshqa shaxsga o'tganligini tasdiqlovchi hujjat (shartnoma, xat, huquqiy vorislik, meros, sud qarori va shu kabilar) ulush (hissa) boshqa shaxsga o'tganda.

Ta'sis hujjatlariga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish ta'sis hujjatlarni yangi tahrirda qabul qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda ariza beruvchi qonun hujjatlari talablarini inobatga olgan holda,

o'z ixtiyoriga ko'ra ta'sis hujjatlarining namunaviy shakllaridan yoki boshqa shakllardan foydalanish huquqiga ega.

Davlat boji to'langandan keyin tizim ro'yxatdan o'tkazuvchi organ mas'ul xodimiga tegishli bildirishnomalar yuboradi, kiritilgan o'zgartirishlarni davlat ro'yxatidan o'tkazadi va ularni elektron hujjatlar repozitoriyida saqlaydi.

Ustav fondi miqdorining oshirilishi, ulushning (hissaning) boshqa shaxsga o'tishi bilan bog'liq bo'lgan qayta ro'yxatdan o'tkazish amalga oshirilgan taqdirda "yagona darcha" markazi mas'ul xodimi taqdim etilgan hujjatlarni rad etish uchun asoslar mayjud emasligi yuzasidan ko'rib chiqishi va qayta ishlashi shart. Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik xujjalarda nazarda tutilgan, biznesni ro'yxatdan o'tkazish tizimini isloh qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish davlat xizmatining – "biznesni ro'yxatdan o'tkazish"ning shaffofligi va sifati sezilarli darajada oshdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekistonni 2017–2021-yillarda rivojlantirishga doir harakatlar strategiyasida mamlakatning Jahon banki "Doing Business" tadqiqotlaridagi davlat xalqaro reytingini oshirishni ta'minlashga oid vazifa qo'yilgan. Shu sababli, korxonalarni ro'yxatdan o'tkazishning yangi mexanizmi Jahon bankining navbatdag'i "Doing Business-2018" tadqiqotlarida "**biznesni ro'yxatdan o'tkazish**" me'zoniga ijobiyligi ta'sir qiladi.

### **Tadbirkorlik subyektlarini qayta tashkil etish va uning turlari**

Yuridik shaxsning vujudga kelishining huquqiy ahamiyati muhim hodisa bo'lganligi tusayli, tadbirkorlik huquqida yuridik shaxs faoliyatining bekor bo'lishi ham muhim huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan harakatlardan hisoblanadi. Bu shunisi bilan muhimki, oqibatda bir qancha huquq va majburiyatlar yuzaga keladi. Umumiy qoidaga ko'ra, yuridik shaxsning faoliyati qayta tashkil etish yoki tugatish natijasida bekor bo'ladi.

**Qayta tashkil etish** – ilgari mayjud bo'lgan korxonaning bekor qilinishi va yangi huquq subyekti sifatida tadbirkorlik faoliyatini davom ettirilishi demakdir.

Tugatishdan farqli o'laroq qayta tashkil etishda mulk saqlanadi, mulkiy huquq va majburiyatlar ham mayjudligini yo'qotmaydi. Ishlab chiqarish bo'linmalari ham yo qisqargan, yoki yiriklashgan holda

faoliyatini davom ettiradi. Qayta tashkil etish har doim huquqiy vorislik bilan bog'liq bo'lib, bunda mulkiy va boshqa huquq (majburiyat)lar bekor qilingan (turini o'zgartirgan) bir huquq subyektidan boshqasiga, qaytadan vujudga keltirilgan korxonaga o'tadi. Yuridik shaxs qayta tashkil etilgan taqdirda unga mulk huquqi asosida tegishli mol-mulk yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslarga o'tadi. Yuridik shaxsni tugatishdan buning asosiy farqi ham shunda ifodalanadi.

Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorislari uning faoliyatini davom ettiradi. Shu bilan bog'liq ravishda oxir oqibatda barcha huquq va majburiyatlar to'liq o'tishi lozim. Ular qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning universal huquqiy vorisi, topshirish hujjati, xuddi shuningdek, taqsimlash balansida qayd qilingan yoki qilinmagan bo'lsa ham, uning barcha huquq va majburiyatlarining vorisi bo'lib qoladi.

Qo'shib yuborish - o'z faoliyatini tugatgan ikki yoki undan ortiq korxonaning barcha huquqlari va majburiyatlarini unga berish yo'lli bilan yangi korxonani vujudga keltirish. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 10-iyuldagagi "Qarshiteroplast" davlat korxonasini qayta tashkil etish to'g'risida"gi PQ-406-son Qaroriga asosan "Qarshiteroplast" davlat korxonasini qayta tashkil etish natijasida uning huquq va majburiyatları "Sho'rtan GXK" sho'ba korxonasiga o'tishi. Ya'nii bunda, o'z faoliyatini tugatayotgan "A" MCHJ va "B" MCHJlarning huquq va majburiyatlarini qo'shib yuborilish natijasida tashkil etilayotgan yangi korxona "S" AJning vujudga kelishi.

Qo'shib olish - bir yoki bir nechta korxona faoliyatini to'xtatib, ularning huquqlari va majburiyatlarini boshqa korxonaga berish. Misol uchun, "A" xususiy korxonasi o'z faoliyatini to'xtatib, uning huquq va inajburiyatlarini faoliyat yuritayotgan "B" MCHJga berilishi.

Bo'lish - yuridik shaxs o'z faoliyatini to'xtatib, ikki va undan ortiq yuridik shaxslarga bo'linadi. Misol uchun, "A" Aksiyadorlik jamiyatি o'z faoliyatini to'xtadi va bu AJdan yangi "B" MCHJ hamda "S" MCHJlar tashkil topdi.

Ajratib chiqarish - korxonalarning huquq va majburiyatları bir qismini unga berish yo'lli bilan yangi korxonani vujudga keltirish, ya'ni bunda yuridik shaxs tarkibidan bir yoki bir necha yuridik shaxslar ajraladi, avvalgi yuridik shaxs ham mavjud bo'lib qolaveradi. Misol uchun, faoliyat olib borayotgan "A" AJdan yangi "B" MCHJning ajralib chiqishi.

**O'zgartirish** – yangi vujudga kelgan yuridik shaxsga qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning barcha huquqlari va majburiyatlarini berish yo'li bilan korxonaning tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirish, ya`ni bunda bir tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxs boshqa shakldagi yuridik shaxsga o'zgaradi. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 22-dekabrdra qabul qilingan “Xo'jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi № PF-3366 son Farmoniga asosan O'zbekiston avtomobilsozlik korxonalari uyushmasini “O'zavtosanoat” aksiyadorlik kompaniyasi, “O'zdonmahsulot” davlat-<sup>→</sup> aksiyadorlik korporatsiyasini “O'zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi, “Dori-darmon” davlat-aksiyadorlik uyushmasini “Dori-<sup>→</sup> darmon” aksiyadorlik kompaniyalari sifatida qayta tashkil etildi.

Yuridik shaxsni qayta tashkil etish umumiy qoidalarga asosan ixtiyoriy ravishda – uning ta'sischilarining (qatnashchilarining) yoki ta'sis etilgan hujjatlar bilan vakolatga ega bo'lgan yuridik shaxs organi, masalan, a'zolarning umumiy yig'ilish qarori asosida amalga oshirilishi mumkin.

Qo'shib olish shaklida qayta tashkil etish hollarini istisno qilganda, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs qayta tashkil etilgan hisoblanadi.

Qayta tashkil qilishning barcha sanab o'tilgan shakllarini ikki guruhg'a ajratish mumkin. Birinchi guruhg'a taqsimlash balansi bilan rasmiylashtiriluvchi bo'lish va ajratib chiqarish shakli kiradi. Ikkinci guruhg'a topshirish hujjati bilan rasmiylashtiriluvchi qo'shib yuborish, qo'shib olish va o'zgarish shakllarini kiritish mumkin. Yuridik shaxslarni qayta tashkil qilish jarayonida “taqsimlash balansi” va “topshirish hujjati”ning ahamiyati juda katta, chunki u qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning o'zidan oldingisiga nisbatan bo'lgan munosabatlarda, xususan, berilgan mol-mulkka egalik huquqining tarkibi va hajmiga huquqiy vorislilikni tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Qayta tashkil qilish vaqtida qayta tashkil qilinayotgan korxonada mavjud debitor va kreditorlik qarzlarining butun miqdori (shu jumladan, sotib oluvchi va ta'minotchilarining ish haqi bo'yicha qarzlari, hisob beruvchi shaxslardan, byudjet va byudjetdan tashqari fondlar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha) taqsimlash balansi yoki topshirish hujjatiga muvofiq uning huquqiy vorislariiga o'tadi.

Qayta tashkil etish institutini tadbirkorlik faoliyatini yuritish amaliyotida qo'llash yordamida:

**birinchidan**, fuqarolik muomalasining barqarorligi saqlanib qoladi;  
**ikkinchidan**, barcha huquq va majburiyatlar majmuining huquqiy vorisligi ta'minlanadi;  
**uchinchidan**, shartnomaviy va xo'jalik aloqlari erkinligi ta'min etiladi;  
**to'rtinchidan**, kreditorlar huquqlari maksimal darajada kafolatlanadi;  
**beshinchidan**, qo'shimcha soliq to'lash zarurati yo'qoladi;  
**oltinchidan**, vaqtinchalik xarajatlar qisqaradi;  
**yettinchidan**, ayniqsa, qayta tashkil etishning o'zgartirish shaklini qo'llash samarasining yuqoriligi shundaki, unda ishlab chiqarish kapitali, moddiy vositalar, asosiy va oborotdagi fondlar to'liq saqlanib qoladi.

## 5. TADBIRKORLIK FAOLIYATINING MULKIY ASOSLARI.

Mulk huquqi tadbirkorlik faoliyatining asosi sifatida. Xususiy mulk asosida tadbirkorlik faoliyatini yuritish. Xo'jalik yuritish huquqi va operativ boshqarish huquqi asosida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning xususiyatlari. Tadbirkorlik subyektlarining mol-mulk obyektlari: asosiy vositalar, pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, nomoddiy ne'matlar.

- **Bozor** munosabatlарини rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.
- **Xususiy** mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda utilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin. (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasи)

O'tmishda jamiatning iqtisodiy negizini asosan sotsialistik mulkning ikki xil shakli, ya'ni davlat va kolxoz-kooperativ mulki tashkil etar edi.

Fuqarolarning mulki "shaxsiy" mulk shakldan iborat deyilsa-da, lekin ushbu mulk davlat korxonalarida, jamoaat tashkilotlarida mehnat qilish natijasida olingan daromadlar hisobiga tashkil topishi, iste'mol

xarakteriga ega bo'lishi va fuqaroning shaxsiy moddiy va madaniy ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi lozim edi.

Shaxsiy mulk asosida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun iqtisodiy jihatdan yetarli bo'lmasa, huquqiy jihatdan mumkin emas edi.

Asosiy ishlab chiqarish quro'l-vositalarining faqat davlatga tegishli bo'lishi, ular umumxalq mulki deb hisoblangan bo'lsa-da, aslida mulkning egasi shaxsan kim ekanligi, kim unga javobgar bo'lishi noaniq bo'lishi mulkka nisbatan xo'jasizlik, beparvorlik, jamiyatda umumiy dangasalik va beg'amlik kayfiyatlarining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu holat esa fuqarolarda mehnatga nisbatan qiziqish, tadbirkorlik faoliyati uchun kerak bo'lgan tashabbuskorlik hissiyotlarini tarbiyalashga imkon bermadi.

Davlat mulkining jamiyatda egallagan yetakchilik o'rni qonun → qoidalar mohiyatini ham o'ziga xos ravishda belgilab berardi. Masalan, davlat mulkining tarkib topishi, uni muhofaza qilish va unga asosan vujudga keladigan barcha turdag'i munosabatlarni tartibga solishga oid qoidalar kolxozi-kooperativ va, ayniqsa, fuqaroning shaxsiy mulkiga nisbatan tubdan farq qilar va ancha ustun turardi.

Amaldagi qonun hujjatlarida O'zbekiston Konstitutsiyasiga amal qilingan holda, mulkning o'tmishda sotsialistik jamiyatning sinflarga bo'linishiga asoslanib shakllarga ajratilishiga va qaysi shaklda, kimga tegishli bo'lishiga qarab o'rnatilgan tengsizlikka barham berildi. Mulkning kimga tegishli bo'lishidan qat'i nazar, teng ravishda rivojlanishi uchun imkoniyatlarning mavjud bo'lishi va ularni bab → baravar huquqiy muhofaza qilish qoidalari *O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining tegishli moddalarida nazarda tutildi*.

Iqtisodiyotning asosini tashkil qiluvchi mulkchilik masalasining ijobi hal qilinishi ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tashabbuskorlik hissiyotlarining kamol topishi, ishlab chiqarishda, xo'jalik sohasida tadbirkorlik faoliyatlarini amalga oshirishda fuqarolar hamda tashkilotlar, ya'ni jismoniy va yuridik shaxslarning birgalikda bab → baravar manfaatdor bo'lishi, ular o'rtasida umumiyl mol-mulkning vujudga kelishi va ushbu mulkdan hamkorlikda unumli foydalanish va samarali natijalarga erishish imkoniyatlarini yaratib berdi.

Xususiy mulk bozor munosabatlarning asosiy iqtisodiy manbaidir. Xususiy mulk tashkil topmasdan turib, bozor munosabatlari haqidagi har qanday fikrlar xom xayoldir. Xususiy mulk va uning asosida vujudga keladigan munosabatlardan bizning qonunchilik faoliyatimizda yangilikdir.

Endi ular faqat shaxsiy moddiy va madaniy ehtiyojlarini ta'minlash uchun emas, balki xususiy mulk asosida turli tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga va ishlab chiqarish jarayonida faqat o'z mehnati emas, balki yollanma mehnatni jalb qilish va uning uchun kerak bo'lган quro'l-vositalarga ega bo'lish, ularni ijara ga berish yo'li bilan qo'shimcha daromadlar olish kabi huquqlardan foydalanishlari mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun iqtisodiy manba sifatida xususiy mulk bilan bir qatorda ommaviy (davlat) mulk ham qatnashadi. Ommaviy mulk tushunchasi davlatning barcha fuqarolariga va shuning bilan birga har bir fuqarosiga tegishli bo'lган mulk ma'nosini beradi.

Ommaviy mulk davlatga tegishli mulkdan iborat bo'lib, u ikki xil ko'rinishda, ya'ni O'zbekiston Respublikasi mulki va munitsipal mulkdan tashkil topadi.

Tadbirkorlik faoliyati umumiyl mulk, ya'ni bir necha fuqarolar va yuridik shaxslarga tegishli bo'lган mol-mulk asosida ham amalga oshirilishi mumkin. Umumiyl mulk birgalikdagi va ulushli mulkdan iborat bo'lishi mumkin.

**Mulkiy huquq obyektlari** – O'zbekiston Respublikasi hududidagi yer, yer osti boyliklari, ichki suvlar, havo havzasi, o'simlik va hayvonot dunyosi, imoratlар va inshootlar, mahsulotlar, turar joy va kvartiralar, mahsulot belgilari, sanoat namunalari, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, integral mikrosxemalarning topologiyasi, seleksiya yutuqlari, mahsulot belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari, asbob- uskunalar, moddiy va ma'naviy madaniyat buyumlari, pullar, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulklar; insонning mehnat qilish qobiliyati.

Mulk huquqi egalari har birining, ularga tegishli bo'lган umumiyl mol-mulkdagi ulushlari (hissalari) aniq belgilab qo'yilgan bo'lsa, bunday mulk ulushli mol-mulk deyiladi. Ulushli mol-mulkda qonunga asosan yoki ishtirokchilarining kelishivi bilan ularning ulushlari aniq belgilab qo'yilmagan bo'lsa, ulushlar teng deb hisoblanadi.

Umumiyl qoidaga asosan birgalikkagi mulkka uning egalarini birgalashib egalik qiladi va foydalanadi. Lekin ular o'zaro kelishib, boshqacha tartib o'matgan bo'lislari ham mumkin. Bunday mulknini tasarruf qilishda uning egalarining roziligi talab qilinadi.

Tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining ta'siri ostida birgalikkagi mulk huquqi ishtirokchilarining har biriga ularning barchasining roziligi bilan ushbu mol-mulk yuzasidan bitimlar tuzish huquqi beriladi.

Masalan, er-xotingga umumiy birligida mulk huquqida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida oilaviy tadbirkorlik amalga oshirilayotganda, ish muomalalarida er-xotin nomidan arning yoki xotining roziliqi bilan ulardan biri ishtirok etadi, bu rozilik yakka tartibdagi tadbirkor ro'yxatdan o'tkazilayotganda tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Tadbirkorlik faoliyatini turli shakldagi mulk huquqi asosida va ishtirokida amalga oshirilishi mumkin. Agar tadbirkorlik umumiy mulk asosida amalga oshirilsa, har bir tadbirkorning tegishli ulushi belgilab qo'yiladi, shunga muvofiq tadbirkorlikni amalga oshirish natijasida qo'lga kiritilgan daromadlar ham ulushlarning miqdoriga qarab, a'zolar o'rtaida taqsimlanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, jamoalar, ularning birlashmalari, jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlar, fuqarolarning oilaviy va o'zga birlashmalari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish idoralari, xalq deputatlarining barcha bo'g'indagi Kengashlari hamda ular vakolat bergen davlat boshqaruvi idoralari, boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar, boshqa davlatlarning yuridik shaxslari va fuqarolari, fuqaroligi bo'limgan shaxslar mulkiy huquq subyektlaridir. Bir necha yuridik shaxslar va fuqarolar aynan bitta mulkning subyektlari bo'lishi mumkin.

*Fuqarolik kodeksining 217-moddasiga muvofiq agar ulushli mulk ishtirokchilarining ulushlari qonun asosida belgilanishi mumkin bo'lmasa hamda uning barcha ishtirokchilarining kelishuvi bilan belgilab qo'yilgan bo'lmasa, ulushlar teng deb hisoblanadi. Tadbirkorlikni amalga oshirish jarayonida ulushlar haqida nizo kelib chiqqan taqdirda bunday nizo umumiy mulk-egalari har qaysisining da'vosи bo'yicha sud tomonidan hal qilinadi.*

Agar meros olish, rekvizitsiya yoki musodara qilish natijasida yoki boshqa asoslarga ko'ra davlat bilan fuqaroning yoxud kooperativ va boshqa jamoat tashkiloti bilan fuqaroning umumiy mulki tashkil bo'lib golsa, u holda bunday umumiy mulk paydo bo'lgan kundan boshlab bir yil ichida qonunda ko'zda tutilgan usullarni qo'llash yo'lli bilan bekor qilinishi lozim edi. Endilikda mol-mulkarni umumlashtirish asosida birligida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun keng imkoniyat yaratildi.

Tadbirkorlik chet ellik fuqarolar hamda yuridik shaxslarning mol-  
mulklarini turli shakllarda jalb etish asosida ham amalga oshiriladi. Mol-  
mulkdan foydalanish, uni tasarruf etish, uning asosida tadbirkorlik

yuritish haqidagi O'zbekiston fuqarolariga tegishli qoidalar ajnabiy fuqarolarga ham taalluqlidir.

Ushbu huquqdan foydalanib, zarur sarmoyaga ega bo'lgan ajnabiy davlat fuqarolari o'zaro manfaatdorlik asosida qo'shma korxonalar yoki faqat o'zlariga tegishli bo'lgan korxonalarini imtiyozli ravishda tashkil etishlariga imkon beriladi. Bunda ularning mol-mulkleri va mulkiy huquqlari, manfaatlari qonun bilan qo'riqlanadi va daxlsizligi **to'la** kafolatlanadi. Xorijiy fuqarolar respublika hududida tadbirdorlik natijasida orttigan mol-mulkni o'z xohishlari bilan meros **qilib** qoldirishlari, xayr-ehson qilishlari yoki o'zlariga tegishli daromadlarni O'zbekistondan erkin olib ketishlari qonun bilan kafolatlanadi.

Tadbirkorlik O'zbekiston yuridik shaxslari va ajnabiy yuridik shaxslar ishtirokida, ularning mol-mulki asosida qo'shma korxonalar, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Chet el investitsiyalari asosida tadbirdorlikni amalga oshirish shakllari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

a) O'zbekiston tadbirdorlarning ajnabiy davlat fuqarolari va yuridik shaxslari bilan birlgilikda korxonalar, banklar, sug'urta kompaniyalarini barpo etish va boshqa tashkilotlarda ulush qo'shib qatnashish;

b) butunlay ajnabiy davlat fuqarolari va yuridik shaxslariga qarashli bo'lgan korxonalar, banklar, sug'urta kompaniyalarini va boshqa tashkilotlarni barpo etish;

d) mol-mulk, aksiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar sotib olish;

f) tadbirdor mustaqil ravishda tegishli bo'lgan yoki fuqarolar va yuridik shaxslar ishtirokidagi mulkiy huquqlarni, shu jumladan yerdan va tabiiy resurslardan foydalanish, shuningdek ijara asosida foydalanish huquqlarini sotib olish yo'li bilan tadbirdorlik faoliyatini amalga oshirish mumkin.

Tadbirkor faqat o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk asosidagina emas, balki davlat va jamoat tashkilotlarining mol-mulki hamda pul mablag'larini jaib etish asosida ham o'z faoliyatini amalga oshiradi. Bunday jaib etish asosan mol-mulkni ijaraga olish yoki pul mablag'larini qarzga olish usullarida amalga oshiriladi.

Ijaraga oluvchilar fuqarolardan, yuridik shaxslardan, jumladan, qo'shma korxonalar, xalqaro tashkilotlar va birlashmalar, O'zbekiston va chet el yuridik shaxslarining mulklari asosida tashkil topgan korxona va tashkilotlardan iborat bo'lishi mumkin. Shunday ekan, mol-mulkni

ijaraga beruvchi va ijara oluvchini tadbirkorlar desa bo'ladi. Ular foyda olish maqsadida barcha iqtisodiy imkoniyatlarni jalg qiladi, unumli natijalarga erishish uchun faol tashabbus ko'rsatib, harakat qiladi.

Davlat va jamoat tashkilotlarining mol-mulkidan foydalanish asosida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish qarz (kredit) berish shaklida ham ro'y beradi. Tadbirkor o'z faoliyatini boshlash davrida yoki amalga oshirish jarayonida qo'shimcha pul mablag'lariga muhtoj bo'lib qolishi mumkin. Bunday muhtojlikdan qutulish uchun u tegishli banklardan o'z vaqtida qaytarib berish sharti bilan qarz (kredit) oladi.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi har bir fuqaro, jamoa (shirkat), tashkilot, ya'ni tadbirkorlar pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojni tegishli banklardan olinadigan qarzlar (kreditlar) hisobiga qanoatlantirishlari mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun iqtisodiy asos mulk hisoblanadi. Tadbirkor o'z faoliyatini mol-mulkka nisbatan huquq subyekti sifatida amalga oshirishi, shuningdek bunday huquq subyekti bo'lmasdan, boshqalar, ya'ni davlat va jamoat tashkilotlariga tegishli bo'lgan mol-mulk asosida faoliyat yuritishi mumkin. Tadbirkor mulk huquqi subyekti bo'lмаган taqdirda, boshqalarning mulkiga nisbatan xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqiga asosan faoliyat yuritadi. Xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqining mazmuni *Fuqarolik kodeksining 71-, 72-, 276-178-, 181-moddalarida* aks ettiriladi.

Xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqiga ega bo'lgan tadbirkor o'z faoliyatini mulkdor tomonidan belgilangan doirada amalga oshirishi lozim. Shunday ekan, tadbirkor unga berilgan huquqlarni amalga oshirishda faqat o'zining erki va manfaati emas, balki mulkdorning erki va manfaatlarini ham hisobga olgan holda harakat qiladi. Mulkka nisbatan xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqiga ega bo'lgan tadbirkor foyda olish maqsadida turli xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanadi, bu borada erkin tashabbus ko'rsatib harakat qilardi, o'z faoliyatining natijalari va majburiyatları bo'yicha shaxsan o'zi javobgar bo'ladi.

Har qanday shakldagi tadbirkorlik, birinchidan, mulk egasining ishlab chiqarish jarayonida shaxsan bevosita ishtiroy etishi, ikkinchidan, boshqa fuqarolarning mehnatini qo'llash, ya'ni undan foydalanishga asoslangan bo'lishi mumkin. Tadbirkorlik shaxsan mulk egasining

o'zining mehnatda qatnashishiga yoki yollanma mehnat qo'llashga, shuningdek o'zining hamda yollanma mehnatning birgalikda qo'shib amalga oshirilishiga asoslangan bo'lishi mumkin.

### Xususiy mulk asosida tadbirkorlik faoliyatini yuritish

Tijoratchi tashkilotlar, ya'ni foyda olishni o'z faoliyatining **asosiya** maqsadi qilib olgan yuridik shaxslar xo'jalik shirkati va jamiyat, **ishlab** chiqarish kooperativi, unitar korxona va **qonunlarda** nazarda **tutilgan** boshqacha shaklda tuzilishi mumkin (FK 40-moddasining ikkinchi qismi).

Tijoratchi tashkilotlar mulkiy munosabatlarda keng tarqalgan kollektiv tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakllaridan hisoblanadi. Tadbirkorlar tomonidan tuziladigan bunday shaklga o'xshash birlashmalar qit'a huquqida kompaniyalar yoki firmalar, anglo-amerika huquqida esa korporatsiyalar deb nomlanadi. O'tmishta O'zbekistonda bunday birlashmalar shirkatlardan iborat bo'lib, ular asosan savdo, **shuningdek**, hunarmandchilik bilan shug'ullanishgan. Mustaqillikdan keyingi qonunchilik rivojlanishida bir qancha qonun hujjatlarida "xo'jalik faoliyati", "xo'jalik yurituvchi subyektlar", "iqtisodiy faoliyat" tushunchalari ham qo'llanilgan. Masalan, *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida* (53-modda), "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidandir.

FKning 58-moddasida belgilangan asosiy qoidaga binoan xo'jalik shirkatlari va jamiyatlar ularni tashkil qilishda qatnashgan muassislar (ishtirokchilar)ning mol-mulkidan ajratilgan va ularning hissalaridan tashkil topgan ustav kapitaliga (fondiga, mulkiy jamg'armasiga) ega bo'lган tijoratchi yuridik shaxs hisoblanadi.

Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlar muassislar (ishtirokchilar) muayyan huquqlar va majburiyatlarga ega. Ular shirkat va jamiyatning ishlarini bajarishda qatnashish, faoliyati to'g'risida axborot olish, foydani taqsimlashda qatnashish, shirkat yoki jamiyat tugatilgan taqdirda kreditorlar bilan hisob-kitob qilingandan keyin qolgan **mol-** → mulkning bir qismini yoki uning qiymatini olish va qonun hujjatlarida, shuningdek shirkat yoki jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huuqlarga ega bo'lishlari mumkin.

Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlariga ikkita asosiy malakalash belgilarini ajratish mumkin.

**Birinchidan**, ular tijorat tashkilotlari, ya'ni o'z faoliyatining asosiy maqsadi sifatida ishtirokchilar o'rtaida taqsimlanishi mumkin bo'lgan foydani olishni ko'zlovchi shaxslar bo'ladi.

**Ikkinchidan**, ular ishtirokchilarining ulushlariga yoki ta'sischilarning aksiyalariga bo'lingan ustav fondiga yoki ustav kapitaliga ega bo'ladi.

Umuman olganda, shirkat va jamiyat ishtirokchilari xo'jalik sohasida o'z oldilariga qo'ygan yagona maqsadga erishish uchun mol-mulklarini qo'shib, birgalikda harakat qiladilar. Lekin ular bir-birlaridan qisman farq ham qildilar. Masalan, sheriklik faqat natijaga erishish uchun emas, balki ishtirokchilarning bir-birlariga yaqin shaxsiy munosabatlarga asoslanadi. Bunda ishtirokchilarning kim ekanligiga ahamiyat beriladi. Jamiyatda esa uning ishtirokchilari kimgardan iborat bo'lishi hal qiluvchi ahamiyatga ega emas, u birinchi navbatda maqsadga erishish nuqtayi nazaridan tashkil etiladi.

Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarning muassisleri (ishtirokchilari) fuqarolardan va yuridik shaxslardan iborat bo'lishi mumkin. Tadbirkorlik subyekti sifatida xo'jalik shirkatlari va jamiyatlar tashkil etilayotganda shakllantirilgan ustav fondi, kapitali yoki uning balansidagi o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulklariga nisbatan xususiy mulk huquqiga ega.

Xo'jalik shirkatining yoki jamiyatining mulkiga qo'shiladigan hissa har xil mulkdan, jumladan, mulkiy huquqdan va shuning bilan birga pul bilan baholanishi mumkin bo'lgan boshqa huquqlardan iborat bo'lishi mumkin. Hissaning asosiy belgisi uning pul bilan baholanishi mumkinligidadir. Masalan, muallifning mulkiy huquqi, ixtiroga bo'lgan huquq, nou-xau, sanoat namunalari, tovar belgisi va shunga o'xshashlar ham shirkat yoki jamiyat mulkiga qo'shilgan hissa bo'lishi mumkin. Kreditoring shaxsi bilan bog'liq bo'lмаган, majburiyat bo'yicha talab qilish huquqi ham hissa sifatida tan olinishi mumkin. Muassisler (ishtirokchilar) tomonidan qo'shiladigan hissani pul bilan baholashda vujudga kelgan nizoni ekspertlar xulosasiga ko'ra sud tomonidan belgilangan tartibda hal qilinadi.

Xo'jalik shirkatining yoki jamiyatining har bir ishtirokchisi uning faoliyatini boshqarishda qatnashish huquqiga ega. Shirkat va jamiyatning qaysi turdan iborat bo'lishiga qarab, uning ishtirokchilari shirkat yoki jamiyat faoliyatini boshqarishga oid qarorlarni qabul qilishda yoki

boshqaruv va tekshiruv organlarini tuzishda qatnashishlari mumkin. Kommandit shirkatning ishtirokchisi uning faoliyatini boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega emas (*FKning 61-moddasi*).

Xo'jalik shirkati va jamiyatni ishtirokchilarining majburiyatları ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, miqdorda, usullarda va muddatlarda hissa qo'shishdan, maxfiy axborotni oshkor qilmaslikdan, shirkat va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlardan iborat bo'lishi mumkin. Ushbu huquq va majburiyatlar barcha shakldagi jamiyat va shirkat qatnashchilariga taalluqlidir. Shuning bilan birga, har bir shakldagi shirkat va jamiyat ishtirokchilarining huquq va majburiyatları o'zlariga xos xususiyatlari bilan ifodalanadi. Masalan, "to'liq shirkat" ishtirokchilari o'z o'rtalarida tuzilgan shartnomaga muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi. Ular o'z shirkat majburiyatları bo'yicha o'zlariga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradi. Shaxs faqat bitta to'liq shirkatning ishtirokchisi bo'lishi mumkin (*FKning 60-moddasi*). Kommandit shirkati – shirkatning qarzlarini bo'yicha o'zining shirkat fondiga qo'shgan hissasi miqyosida javob beradigan ishtirokchilardan (kommanditlardan) iborat (*FKning 61-modda*). Kommandit shirkati iborasi fransuz huquqidan olingen bo'lib, savdo sohasidagi shirkatlardan biri hisoblanadi. Kommandit shirkati "ishonchga asoslangan shirkat" degan nom bilan ham ataladi.

**Xo'jalik shirkatlari.** To'liq shirkat ishtirokchilari o'rtasida tuzilgan shartnoma bu turdag'i shirkatning ta'sis hujjati hisoblanadi. Fuqarolik kodeksida ta'sis shartnomasining yolg'iz o'zi taraflarning erkini va ular o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatlarini to'liq ifoda etadigan hujjat sifatida tan olinadi. Ta'sis shartnomasining mazmuni *FKning 43-moddasi 4-qismidagi* shartlar bilan belgilanadi. Ayni paytda qonun boshqa shartlarni nazarda tutishni man etmaydi.

To'liq shirkatni tavsiylovchi asosiy belgi ishtirokchilar shirkatning majburiyatları bo'yicha cheklanmagan solidar javobgar bo'lishidan iborat. Shirkat ishtirokchilari bir-birlariga ishongan holda faoliyat yuritadi.

To'liq shirkat faoliyatini boshqarishda shirkat ishtirokchilarining umumiy roziligi talab qilinadi. Ta'sis shartnomasida ko'pchilik ovoz bilan qaror qabul qilish mumkinligi nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. Bunday holda shartnomada qaysi muammolar bo'yicha ko'pchilik ovozning bo'lishi zarurligi, shuningdek bu ko'pchilik oddiy yoki murakkab (malakali) ko'pchilikdan iborat ekanligi (masalan,

ishtirokchilarning umumiy sonidan to'rtdan bir yoki uchdan bir qismining ovozi) aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Umumiy qoidaga binoan, har bir ishtirokchi bitta ovozga ega bo'ladi. Lekin to'liq shirkatning taysis shartnomasida ovozlar boshqa tartibda, masalan, qo'shilgan hissaning miqdoriga nisbatan karra sifatida ham belgilanishi mumkin.

Xo'jalik shirkati faoliyatini bilan bog'liq shirkat ishtirokchisining burchi har xil shaklda amalga oshirilishi mumkin. Shirkat faoliyatini amalga oshirishda ishtirokchining shaxsan o'zi qatnashishi zarurligi qonunda nazarda tutilmagan. Taysis shartnomasida ayrim ishtirokchilarning shirkat faoliyatida faqat qo'shgan hissalari bilan ishtirok etishi mumkinligi nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

**To'liq shirkatning moliyavyi manbai** — uning ishtirokchilaridan yig'ilgan kapital hisoblanadi. Shirkatning har bir ishtirokchisi ushbu kapitalga o'z hissasini qo'shadi. Qo'shiladigan hissaning miqdori shirkatni ro'yxatdan o'tkazish paytida uning yarmidan kam bo'lmasligi, qolgan qismini topshirish muddati taysis shartnomasida belgilangan bo'lishi kerak. Hissaning miqdori va turlari har xil, masalan, mol-→ mulkdan, puldan, ko'rsatiladigan xizmatlardan va boshqalardan iborat bo'lishi mumkin.

To'liq shirkat faoliyatini amalga oshirish natijasida qo'lga kiritilgan daromadlar, shuningdek ko'rilgan zararlarni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash ular har birining qo'shgan hissasiga nisbatan mutanosib ravishda amalga oshiriladi. Ishtirokchilarning kelishivi bilan zararlar boshqa tartibda taqsimlanishi ham mumkin. Lekin qonun bo'yicha ishtirokchilardan birortasini daromad olishdan to'liq mahrum qilishga yoki yetkazilgan zararni qoplashdan mutlaq ozod qilishga yo'l qo'yilmaydi.

To'liq shirkat ishtirokchisining shaxsiy majburiyatlari bo'yicha qarzni undirish birinchi galda uning o'ziga tegishli va ixtiyorida bo'lgan mol-mulkka nisbatan qaratiladi. Agar uning bu mol-mulki yetarli bo'lmasa, undiruv shirkatning yig'indi kapitalidagi uning hissasiga qaratilishi mumkin. Ishtirokchining hissasi to'la hajmda qarzni undirishga qaratilgan taqdirda, u shirkat tarkibidan chiqib ketadi.

To'liq shirkatning tugatilishi yuridik shaxslarga xos bo'lgan umumiy qoidaga asosan amalga oshirilsa-da, birmuncha o'ziga xos farqli jihatlari ham bor. Agar shirkat ishtirokchilarining tarkibiy qismida o'zgarish yuz berib, shirkat faoliyatini davom ettirish haqida o'zaro

kelishishga erishilmasa, shirkat tugatilgan, deb hisoblanadi. Agar shirkatda uning bitta ishtirokchisi qolgan bo'lsa-da, u shirkatni maylum muddatda xo'jalik jamiyatiga aylantirmagan holatda ham shirkat tugatilgan deb hisoblanadi.

Kommandit shirkati ularga tegishli huquq va burchlarining farqi bilan ikki xil turkumga bo'linadigan ishtirokchilardan tashkil topadi. Ular to'liq sheriklardan va ishonchga asoslangan sheriklardan iborat. Bunday shirkat faoliyatini va uning doirasini to'liq sheriklar belgilaydi. Ishonchga asoslanganlarning shirkat faoliyatidagi ishtiroki shirkat fondiga hissa qo'shish bilan cheklanadi. Ular shirkat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zları qo'shgan hissa doirasida javobgar bo'ladi.

Kommandit shirkatning taysis shartnomasiga faqat uning to'liq sheriklari imzo chekadilar. Ishonchga asoslangan ishtirokchilar taysis shartnomasini ishlab chiqishda va muhokama qilishda qatnashishlari, ularning bu huquqi taysis shartnomasida ham nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

Kommandit shirkatning faoliyatini to'liq shirkatlar uchun belgilangan tartibda to'liq sheriklar boshqaradi. Ishonchga asoslanganlar shirkatning faoliyatini amalga oshirishda va boshqarishda ishtirok etmaydi. Ular shirkatning ishonchnomasiga asosan bitimlarni tuzishda va bajarishda ishtirok etishlari mumkin.

Ishonchga asoslangan ishtirokchilarning asosiy maqsadi shirkatning yig'indi kapitaliga qo'shgan hissasiga nisbatan mutanosib daromad olishdan iborat. Olingan daromadning bir qismini ishonchga asoslangan ishtirokchiga berish umumiyl qoidaga binoan xo'jalik yilining yakunlanishi bilan qabul qilingan hisobot va chiqarilgan balansga asosan amalga oshiriladi.

Ishonchga asoslangan ishtirokchi xo'jalik yili tugashi bilan shirkatning yig'indi kapitalidan o'z hissasini olib yoki bu hissani boshqa shaxsga o'tkazib shirkatdan chiqib ketish huquqiga ega. Hissani o'tkazishda boshqa uchinchi shaxslarga nisbatan shirkatdagি ishonchga asoslangan ishtirokchilar ustun huquqqa ega. Bunday paytda shirkatdagи to'liq ishtirokchilar ham uchinchi shaxs sifatida qabul qilinadi.

Kommandit shirkati nochor (bankrot) deb topilganida, uning mulkidan birinchi galda kreditorlarining talablari qanoatlantiriladi (*FKning 56-moddasi*), so'ngra ishonchga asoslangan ishtirokchilarning hissalarini ajratib beriladi va shirkatning yig'indi kapitalidan qolgan molmulk to'liq sheriklar o'rtaasida taqsimlanadi.

**Xo'jalik jamiyatlari.** Xo'jalik jamiyatlari ishtirokchilarining huquq va burchlariga xos farqlari ham asosan ularning majburiyatlari bo'yicha javobgarligi bilan bog'liq. Masalan, masyuliyati cheklangan jamiyatning majburiyatlari bo'yicha uning ishtirokchilari javob bermaydi.

Ular jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zлari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgardirlar (*FKning 62-moddasi*).

Masyuliyati cheklangan jamiyat uning taysis hujjatlari, uni tashkil qilish tartibi, ishtirokchilarining huquq va burchlari bilan to'liq yoki kommandit shirkatlaridan farq qiladi. Uning yana bitta farqi shundan iboratki, bunday jamiyatning taysischisi bitta shaxsdan iborat bo'lishi ham mumkin. Shu bilan birga, masyuliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilarining soni qonun hujjatlarida o'rnatilgan meyyordan oshib ketmasligi kerak, oshib ketgan taqdirda bunday jamiyat aksiyadorlar jamiyatiga aylantirilishi yoki tugatilishi lozim. Masyuliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchisi tomonidan ustav fondi (kapitali)dagi o'z hissasini uchinchi shaxslarga sotishga, agar ustavda ruxsat berilmagan bo'lsa, yo'l qo'yilmaydi. Ushbu hissa umumiy qoidaga binoan jamiyatning boshqa ishtirokchilariga o'tkazilishi mumkin.

Masyuliyati cheklangan jamiyat davlat ro'yxatidan o'tgan paytdan boshlab vujudga keladi (*FKning 44-moddasi*). Ro'yxatdan o'tkazish taysis hujjatlari (taysis shartnoma va ustav)ga asosan amalga oshiriladi (*FKning 43-moddasi*). Ular ro'yxatdan o'tkazish uchun birga taqdim etiladi. Jamiyatning taysischisi bitta shaxsdan iborat bo'lsa, ro'yxatdan o'tkazish uchun faqat ustav taqdim etiladi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning moddiy manbai jamiyat ishtirokchilarining hissalaridan tashkil topgan ustav fondi (kapitali)dir. Ustav kapitalining miqdori, odatda, ustavda nazarda tutiladi, lekin u qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan kam bo'imasligi kerak. Jamiyat fuqarolarning ixtiyoriy ravishda tuzadigan tashkiloti bo'lganligi tufayli hissaning yetmay qolgan qismini undirish uchun sudda dayvo qo'zg'atilmaydi. Bunday hollarda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalarga binoan ustav fondiga qo'shiladigan hissaning miqdori kamaytirilishi yoki jamiyatning faoliyati tugatilishi mumkin. Ustav fondining miqdori qisqartiriladigan bo'lsa, bu haqda jamiyatning kreditorlari, albatta, xabardor qilinadi. Ular majburiyatni jamiyat tomonidan belgilangan muddatdan oldin bajarishni yoki uni bekor qilishni va shu tufayli yetkazilgan zararni qoplashni undan talab qilish huquqiga ega.

Kommendant (ishonchga asoslangan) shirkatni boshqarish uning to'liq sheriklari tomonidan amalga oshiriladi. Masyulyiyati cheklangan jamiyatda bunday emas. Bu jamiyatda uning barcha ishtirokchilari teng va jamiyat faoliyatini boshqarish uchun ulardan birontasiga qonunda ustunlik berilmagan. Shuning uchun ham jamiyat ishtirokchilari tomonidan uning boshqaruvi organini tuzish nazarda tutiladi. Ishtirokchilarining umumiyligi majlisini jamiyatning oliy organi hisoblanadi. Umumiyligi mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan normativ hujjatlarni, jamiyatning ichki ishlarini hal qilishga qaratilgan qarorlarni qabul qilish huquqiga ega. Kundalik muammolarni hal qilish uchun va umumiyligi hisobot berib turuvchi va unga itoat etadigan ijrochi organ tuziladi. Bunday organ yakka direktor yoki maslahatchilar hayyati (kollegiya)dan iborat bo'lishi mumkin.

Qo'shimcha masyulyiyatlari jamiyat ishtirokchilari uning majburiyatlarini bo'yicha o'z mol-mulklar bilan qo'shgan hissalarini qiymatiga nisbatan hamma uchun bir xil bo'lgan, jamiyatning taysis hujjatlarda belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo'ladi. Demak, jamiyat majburiyatlarini bo'yicha hamma ishtirokchilar sheriklik (solidar) asosida karrali miqdorda bir tekisda qo'shimcha (subsidiar) javobgar bo'ladi (*FKning 63-moddasi*). Ushbu moddaga binoan ishtirokchilaridan birontasi bankrot bo'lsa, javobgarlik boshqa ishtirokchilar o'rtaida ularning hissalariga mutanosib ravishda taqsimlanishi mumkin.

Jamiyatning taysis hujjatlari taysis shartnomasidan va uning ustavidan iborat. Taysis shartnomasi jamiyatni tashkil etish paytida uning taysischilarining huquq va burchlarini belgilaydi va tartibga soladi. Jamiyatning davlat ro'yxatidan o'tkazilishi va taysischilar o'z zimmalariga olgan majburiyatlarining bajarilishi bilan taysis shartnomasi o'z kuchini yo'qotadi. Ustav esa, o'z navbatida, jamiyatning yuridik shaxs sifatida huquqiy maqomini belgilaydi. Barcha manfaatdor shaxslar jamiyat ustavi bilan tanishib chiqish huquqiga ega. Aksiyadorlarning talabi bo'yicha jamiyat ustavi va unga keyinchalik kiritilgan o'zgarishlar bilan tanishib chiqish uchun aksiyadorga imkoniyat yaratish kerak.

Aksiyadorlar jamiyatining faoliyati uning organlari tomonidan amalga oshiriladi. Jamiyatning oliy organi aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi hisoblanadi. Umumiyligi yig'ilish jamiyatning boshqaruvi organi → kuzatuv kengashi tomonidan chaqiriladi. Ko'p masalalar bo'yicha

qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan, muhim masalalar bo'yicha malakaviy ko'pchilik ovozlar bilan qabul qilinadi.

Kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatida umumiy rahbarlik vazifasini amalga oshiradi. Umumi yig'ilish vakolatiga taalluqli bo'lgan masalalar yuzasidan kuzatuv kengashi qaror qabul qilish huquqiga ega emas.

Har qanday fuqaro, u jamiyat aksiyadori bo'lishi yoki bo'lmasligidan qatyi nazar, kuzatuv kengashining ayzosi bo'lishi mumkin. Kuzatuv kengashining ayzolari jamiyatning yillik umumiy yig'ilishida saylanadi. Kengash ayzolari o'z tarkibidan yopiq ovoz bilan kuzatuv kengashi raisini saylaydi. Kuzatuv kengashining qarorlari, agar ustavda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, majlisda qatnashgan kengash ayzolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat ustavida majlisda ovozlar teng taqsimlangan taqdirda kengash raisiga hal qiluvchi ovoz berish huquqi nazarda utilgan bo'lishi mumkin. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining qarori bilan kuzatuv kengashi ayzosining vakolati turli asoslarga ko'ra muddatidan oldin tugatilishi mumkin.

#### **Tadbirkorlik subyektlarining mol-mulki obyektlari: asosiy vositalar, pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, nomoddiy obyektlar**

Fuqarolik huquqlarining obyektlari erkin suratda boshqa shaxslarga berilishi yoki universal huquqiy vorislik (meros qilib olish, yuridik shaxsnii qayta tashkil etish) tartibida yoxud boshqa usul bilan, agar ular muomaladan chiqarilmagan yoki ularning muomalada bo'lishi cheklab qo'yilmagan bo'lsa, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi mumkin.

Muomalada bo'lishiha yo'l qo'yilmaydigan fuqarolik huquqlari obyektlarining turlari (muomaladan chiqarilgan obyektlar) qonunda to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Muayyan muomala ishtirokchilarigagina qarashli bo'la oladigan yoki muomalada bo'lishiha maxsus ruxsatnomasi bilan yo'l qo'yiladigan fuqarolik huquqlari obyektlarining (muomalada bo'lishi cheklangan obyektlarning) turlari qonunda ko'rsatilgan tartibda belgilanadi.

**Asosiy va mansub ashyolar.** Foydalanimi tufayli vujudga keladigan munosabatlarning mohiyati bilan boshqa ashyo (mansub ashyo)ga bog'liq mustaqil ashyo asosiy ashyo hisoblanadi.

Asosiy ashyoga xizmat qilishi kerak bo'lgan va u bilan umumiy xo'jalik vazifasi orqali bog'liq ashyo mansub ashyo hisoblanadi.

Mansub ashyo, agar qonunlar yoki shartnomada boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, asosiy ashyoning taqdiriga bog'liq bo'ladi.

Murakkab ashylar agar turli xil ashylar birikmaning mohiyati bilan belgilanadigan vazifasi bo'yicha fo'dalanish imkonini beradigan yaxlit bir butunni tashkil etsa, ular bitta ashyo (murakkab ashyo) hisoblanadi.

Hosil va daromadlarga bo'lgan huquq ashydadan keladigan hosil va daromadlar, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, ashyo egasiga tegishlidir.

Pul mablag'lari ham tadbirkorlik faoliyatida obyyekti sifatida muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, to'lovlarni amalga oshirish jarayonida pul mablag'lari asosiy vosita hisoblanadi. To'lovlar naqd pul bilan va naqd pulsiz hisob-kitoblardan amalga oshiriladi.

Hisob-kitoblarni chet el valyutasida amalga oshirish hollari, tartibi va shartlari qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi.

Qimmatli qog'ozlar mulkiy huquqlarni belgilangan shaklga va majburiy rekvizitlarga amal qilgan holda tasdiqlovchi hujjatlarni qimmatli qog'ozlar hisoblanib, ularni taqdim etgan taqdirdagina mazkur huquqlarni amalga oshirish yoki boshqa shaxslarga berish mumkin bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlar boshqa shaxsga berilishi bilan ular tomonidan tasdiqlanadigan hamma huquqlar ham o'sha shaxsga o'tadi.

Qimmatli qog'ozlar jumlasiga quyidagilar kiradi: obligatsiya, veksel, chek, depozit va jamg'arma sertifikatlari, konosament, aksiya hamda qonun hujjatlari bilan qimmatli qog'ozlar jumlasiga kiritilgan boshqa hujjatlarni kiradi. Mutlaq huquq obyyekti bo'lgan intellektual faoliyat natijalarini va o'ziga xos vositalardan uchinchi shaxslar huquq egasining ruxsati bilangina fo'dalanishlari mumkin.

## 6.TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SHARTNOMALAR

**Tadbirkorlik shartnomalari** – bu nima? Tadbirkorlik faoliyatidagi shartnomalarning turlari. Tadbirkorlik shartnomalari taraflari, ularning huquq va majburiyatlari. Shartnomalarni tuzish bo'yicha asosiy qoidalar. Tadbirkorlik shartnomalari shartlarini bajarish, o'zgartirish va bekor qilish. Tadbirkorlik shartnomasi majburiyatlari yuzasidan javobgarlik.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda shartnomalar tuzish, o'zgartirish va bekor qilish masalalarini chuqr bilish talab qilinadi.

Sababi tadbirkor ish faoliyatini boshlash, yuritish va to'xtatish jarayonida shartnomalar tuzishga har doim ehtiyoj sezadi.

Shuning uchun ham unga quyidagicha munosabat beldiriladi:  
"Shartnoma – bu bozor munosabatlari sharoitida barcha mulk shaklidagi korxonalar, shuningdek qishloq xo'jaligi korxonalari hamda boshqaruv organlari o'rtaсидаги iqtisodiy munosabatlarni o'rnatuvchi asosiy huquqiy hujjat bo'lib hisoblanadi"

Bizga maylumki, shartnomalarning turlari juda ko'p. Ularni fuqarolik huquqi, mehnat huquqi va boshqa fan modullari orqali ham tanishgansiz. Biroq shunday shartnomalarning bir ko'rinishi bo'lgan "tadbirkorlik shartnomalari" o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Tadbirkolik shartnomalari o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra xo'jalik shartnomaning alohida ko'rinishidir. Oldingi chop etilgan adabiyotlarda tadbirkorlik faoliyatidagi shartnomalar xo'jalik huquqi fanining "xo'jalik shartnomalari" mavzusi doirasida o'r ganilgan.

**Tadbirkorlik shartnomasi** — taraflardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to'lash majburiyatini oladigan kelishuv.

Xo'jalik shartnomalari har qanday xo'jalik yurituvchi subyyektning faoliyati uchrashi va undan fo'da olish maqsad qilib qo'yilmasligi mumkin. Tadbirkorlik faoliyatidagi shartnomalarda esa, albatta, fo'da olish maqsadi bilan birga o'ziga xos ishtirokchi – tadbirkorlik subyyekti ishtirok etishi shart.

Xo'jalik shartnomalari kabi tadbirkorlik shartnomasi ham fuqarolik-huquqiy tartibga solish bo'yicha umumiylamo'llarga bo'ysinadi.

Shartnoma taraflarning bitimi (kelishuvi) sifatida quyidagi belgilarga ega bo'lishi kerak:

Tadbirkorlik faoliyati shartnomasi to'rt qismdan tashkil topadi:

- 1) kirish;
- 2) shartnoma predmeti, taraflarning huquq va majburiyatları;
- 3) shartnomaning qo'shimcha shartlari;
- 4) shartnomaning boshqa shartlariga ajratish mumkin.

Tadbirkorlik shartnomasining kirish qismida quyidagilar: shartnomaning nomi (mahsulot yetkazib berish, kredit, transport vositalari ijerasi, qurilish pudrati va hokazolar); shartnomani imzolash vaqtiga jo'i; shartnoma taraflarining to'liq nomi, taraflarning shartnoma

bo'yicha nomlanishi (masalan, "litsenziat", "kreditor" va shu kabilar); shartnomani imzolayotgan shaxsnинг to'liq nomi va mansabi, shuningdek unga shartnomani imzolash huquqini beruvchi hujjat (ustav, nizom yoki ishonchnoma) ko'rsatilishi lozim.

Tadbirkorlik shartnomasining ikkinchi qismida shartnoma predmeti; taraflarning shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlar; taraflarning o'z majburiyatlarini bajarish muddatlari; taraflar majburiyatlarini bajarish jo'i; taraflar majburiyatlarini bajarish usullari (harakatlar tartibi, ketma-ketligi va h.k.) ko'rsatiladi.

Tadbirkorlik shartnomasining uchinchi qismi barcha shartnomalar uchun majburiy emas. Ammo bunday shartlar mayjud bo'lган taqdirda taraflar huquq va majburiyatlariga, shuningdek ularni bajarish tartibiga taysir qiladi.

Tadbirkorlik shartnomasining qo'shimcha shartlariga shartnomaning amal qilish muddati, taraflarning javobgarligi, majburiyatlarning bajarilishini tayminlash usullari; shartnomani bir taraflama bekor qilishning asoslari va oqibatlari, shartnoma bo'yicha maylumotlarni sir saqlash, nizolarni hal qilish tartibi kabilar kiradi.

Taraflarning shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish muddatlari ko'rsatilgan taqdirda ham tadbirkorlik shartnomasining amal qilish muddati ko'rsatilishi maqsadga muvofiqdir. Bu holat shartnomaning amal qilish muddati qachon tugashini bilish va taraflar shartnomanini bajarishdan bosh tortganlik uchun talabnoma va dayvo qilish muddatining boshlanishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Tadbirkorlik shartnomasining qo'shimcha shartlaridan yana biri, bu majburiyatlarning bajarilishini tayminlash usullaridir. Amaldagi qonunchilikka muvofiq tadbirkorlik shartnomasining bajarilishi neusto'ka, garov, qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish, kafillik, kafolat, zakalat hamda qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan tayminlanishi mumkin.

Odatda, tadbirkorlik shartnomalari faqat taraflarning kelishuviga muvofiq bekor qilinishi mumkin, ammo taraflar shartnomada uni bir tarafning tashabbusi bilan ham bekor qilish to'g'risidagi shartlarni kiritishlariga yo'l qo'yiladi. Shuningdek, shartnomada uning qaysi shartlari sir saqlanishi va taraflar tomonidan oshkor qilinishi mumkin emasligi belgilab qo'yilishi mumkin.

Tadbirkorlik shartnomasining to'rtinchi qismi o'z ichiga taraflar o'rtasidagi munosabatlardan shartnomadan tashqari yana qanday meyyorlar

bilan tartibga solinishini; taraflar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish haqidagi maylumotlarni; shartnoma tuzishdan oldin olib borilgan ishlar va ularning shartnoma imzolangandan keyingi natijalarini; taraflarning rekvizitlarini; shartnoma nusxalari soni haqidagi maylumotlarni; shartnoma matniga o'zgartirishlar kiritish tartibini; taraflar vakillarining imzolarini oladi.

Taraflar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish haqidagi shartlarda axborot berish va shartnomaning bajarilishiga taalluqli bo'lган masalalarni hal qilishga vakolatli shaxslar (nomlari yoki mansabi), shuningdek aloqa turlari (telefon, faks va h.k.) ko'rsatiladi.

Taraflarning rekvizitlariga — pochta indeksi, manzili, hisob-kitob raqami, bank muassasasining nomi, kodi, MFO, soliq to'lovchining identifikasiya raqami, yuklash rekvizitlari kiradi va ular tadbirkorlik shartnomasida aniq ko'rsatilishi lozim. Shartnomada uning nusxalari soni va ularning haqiqiyligi ko'rsatiladi. Shartnoma matniga o'zgartirishlar kiritish tartibining belgilanishi shartnoma qalbakilashtirilishining oldini oladi.

Har bir shartnoma uni tuzgan taraflar yoki ularning to'liq vakolatga ega bo'lган vakili tomonidan imzolanadi, shuningdek shartnoma yuridik xizmat xodimi yoki advokat tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi, muayyan holatlarda shartnoma yuzasidan yuridik xulosa berilishi talab qilinadi.

Quyidagilar yirik bitimlar (shartnomalar) deb hisoblanadi:

➤ Aksiyadorlik jamiyatlari uchun jamiyat tomonidan mol-mulkn olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim yoki o'zarbo'ylangan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati jamiyat sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ortig'inini tashkil etgan bitim.

➤ Masyuliyati cheklangan hamda qo'shimcha masyuliyatlari jamiyatlar uchun jamiyat mol-mulki qiymatining yigirma besh foizidan ortiq qiymatga ega bo'lган mol-mulkni jamiyatning olishi, tasarrufidan chiqarishi yoki jamiyat bevosita yoxud bilvosita mol-mulkni tasarrufidan chiqarishi ehtimoli bilan bog'liq bo'lган bitim yoki o'zarbo'ylangan bir nechta bitim.

➤ Tadbirkorlik shartnomasi odatda yozma shaklda tuziladi. Amaliyotda shartnomaning oddiy, yozma shakli keng tarqalgan bo'lib, u taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo'li bilan rasmiylashtiriladi.

- Tadbirkolik shartnomasi qonunda ko'rsatilgan hollarda va taraflardan birining talabi bo'yicha notarial tasdiqlanishi shart. Shartnomani notarial tasdiqlash notarius yoki bunday notarial harakatni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan boshqa mansabtor shaxs tomonidan shartnomada tasdiqlovchi ustxat yozib qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladi.
- Amaldagi qonun hujjatlarida ayrim tadbirkolik shartnomalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish belgilab qo'yilgan. Masalan, yer uchastkalari va boshqa ko'chmas mol-mulk bilan bog'liq tadbirkorlik shartnomalari (boshqa shaxsga berish, ipoteka, uzoq muddatli ijara v.b.) davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak. Shartnomaning notarial shakliga yoki uni davlat ro'yxatidan o'tkazish talabiga rio'a qilmaslik xo'jalik shartnomasining haqiqiy emasligini keltirib chiqaradi. Bunday shartnomaga o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaydi.

#### **Shartnomalarni tuzish bo'yicha asosiy qoidalar**

Shartnoma ikki va undan ortiq taraflar o'rtasida tuziladigan bitim bo'lganligi sababli u oferta, aksept, yuridik ekspertizadan o'tkazishi va shartnomani imzolash bosqichlaridan iborat. Taklif **oferta**, taklifni kiritgan shaxs esa **oferen** deb ataladi. Taklifning qabul qilinishi **aksept**, taklifni qabul qilgan shaxs esa **akseptant** deb ataladi.

Og'zaki berilgan oferta, muzokaralar yuzma-yuz muloqot, telefon yoki radio orqali olib borilayotganligidan qatyi nazar, agar u darhol akseptlansa, oferen ni "bog'lab" qo'yadi. Yozma berilgan oferta esa avval uning matni bilan tanishib chiqishni, javob matni tuzishni va uni ofereniga topshirishni talab qiladi. Shuning uchun oferen javob yetib kelishi uchun zarur bo'lgan muddat ichida oferta bilan "bog'langan" bo'ladi.

Ofertada ko'rsatilgan yoki javob yetib kelishi uchun zarur bo'lgan muddat ichida aksept yetib kelganligi shartnoma tuzilganligi bilan teng. Aksincha, agar ko'rsatilgan muddat ichida aksept kelmasa, u holda ofertaning oferen ni "bog'lab" turgan kuchi yo'qoladi va oferen avval o'zi bergan taklifdan kelib chiqqan majburiyatlardan ozod bo'ladi.

Shartnomaning tuzish uchun berilgan taklifda quyidagilar mavjud bo'lsagina **oferta** deb hisoblanadi:

1. Bo'lgu si shartnomaning barcha muhim shartlari;
2. Oferta yuborilayotgan shaxs aniq ko'rsatilganligi.

Agar berilgan taklifda bu bandlardan bittasiga rio'a qilinmagan bo'lsa ham, u oferta deb emas, balki **ofertaga da'vat** deb hisoblanadi va

uni bergen shaxsga hech qanday majburiyatlarni yuklamaydi. Bunday dayvatga turli javoblar kelishi mumkin. Balki ulardan bayzilarida shartnomani tuzish uchun zarur bo'lgan barcha shartlar sanab o'tilgan va ofertaga dayvat etgan shaxs nomiga yuborilgan bo'lishi ham mumkin. Bunday javob oferta kuchiga ega bo'ladi, lekin uni shartnomaning tuzilishiga olib keladigan aksept deb bo'lmaydi, chunki u huquqiy maynodagi shartnoma tuzish haqidagi taklifga kelgan javob emas.

Shartnomaviy munosabatlarga kirishish uchun oferta va akseptning mavjudligi majburiy shart emas. Ularsiz ham shartnoma tuzish mumkin.

Tadbirkorlik shartnomalarini **huquqiy (yuridik) ekspertizadan** o'tkazish shartnoma taraflarining yuridik xizmati yoxud shartnoma asosida jalb etilgan advokatlar, advokatlik tuzulmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik shartnomalari borasida yuridik xizmat:

— tadbirkorlik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilishning belgilangan tartibiga rio'a etilishimi, shuningdek talabnama bildirish va uni ko'rib chiqish tartibiga rio'a etilishini nazorat qiladi;

— shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar yuzasidan dayvo ishlarini olib boradi;

— shartnomalari bajarilish ustidan o'zaro tekshiruvlar o'tkazilishini nazorat qiladi;

— tadbirkorlik subyekti rahbariga imzolash uchun taqdim etilayotgan tadbirkorlik shartnomalari lo'ihibarining va ular bilan bog'liq huquqiy tusdagi boshqa hujjatlarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini tekshiradi;

— tayyorlangan xo'jalik shartnomasi va u bilan bog'liq huquqiy tusdagi boshqa hujjat lo'ihasi qonun hujjatlari talablariga mos emasligi aniqlangan taqdirda, o'z eytirozini asoslagan holda uni qo'shimcha ravishda ishlab chiqish uchun qaytaradi;

— shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishda bevosita ishtirot etadi.

Tadbirkorlik shartnomalari ularni imzolashga tayyorlash jarayonida qonun hujjatlari muvofiqligi yuzasidan tekshirib ko'riliши kerak. Shartnomalarni huquqiy ekspert imzosisiz tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

Xulosada quyidagilar ko'rsatiladi:

- ❖ tadbirkorlik shartnomasida ko'rsatilgan munosabatlar qaysi qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi;
- ❖ tadbirkorlik shartnomasi shartlarining qonun hujjatlari talablariga mos kelish-kelmasligi;
- ❖ taraflarning javobgarligi meyyori va nizolarni hal etish tartibi qonun hujjatlari talablariga mos kelish-kelmasligi.

### **Tadbirkorlik shartnomalari shartlarini bajarish, o'zgartirish va bekor qilish**

Tadbirkorlik shartnomasi tuzilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo'lib qoladi. Taraflar o'zлari tuzgan tadbirkorlik shartnomasining shartlarini ularning shartnomaga tuzilishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga nisbatan qo'llaniladi deb belgilab qo'yishga haqlidirlar.

Tadbirkorlik shartnomasida uning bajarish vaqtি nazarda tutilgan yoki uni aniqlash imkonи mavjud bo'lsa, u holda shartnomaviy majburiyat o'sha vaqtda bajarishi kerak. Umumiy qoidaga ko'ra, taraf shartnomani muddatidan ilgari bajarishi mumkin emas. Biroq agar taraflar uchun bunday holat shartnomada nazarda tutilgan va bunga ikkinchi taraf rozilik bergen bo'lsa majburiyatni muddatidan ilgari bajarishi mumkin. Shartnomaviy majburiyatni bajarish muddati talab qilib olish payti bilan belgilab qo'yilgan bo'lsa, birinchi taraf (kreditor) har qachon ijroni talab qilishga, ikkinchi taraf (qarzdor) esa ijroni har qachon amalga oshirishga haqli bo'ladi.

Tadbirkorlik shartnomasi bo'yicha majburiyatni darhol bajarish vazifasi qonun yoki shartnomaning mohiyatidan anglashilmasa, qarzdar bunday majburiyatni kreditor talab qilgan kundan boshlab yetti kunlik muddat ichida bajarishi shart.

Tadbirkorlik shartnomalar shartlarini bajarishda quyidagilarga rio'a qilinadi:

1. Shartnomma shartlariga (qonunchilikka zid bo'lmagan).
2. Qonun hujjatlari talablari.
3. Ish muomalasi odatlari.

Tadbirkorlik shartnomalari ikki usulda bekor qilinishi va o'zgartirilishi mumkin:

*I-usul. Tadbirkorlik shartnomalarini taraflarning kelishuviga ko'ra o'zgartirish va bekor qilish.*

Tadbirkorlik shartnomasi qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, taraflarning uni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuvi ham shunday shaklda amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik shartnomasini o'zgartirish haqidagi kelishuvda quyidagilarning ko'rsatilishi maqsadga muvofiq bo'ladi, yanni o'zgartirilayotgan shartnomaning raqami, sanasi, nomi; shartnomani o'zgartirish sababi; o'zgartirilayotgan yoki qo'shimchalar kiritilayotgan shartlar va ularning yangi tahriri; o'zgartirish kiritilgandan keyin avvalgi shartlarning yuridik kuchini yo'qotishi haqidagi band; o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritilishidan oldin mazkur shartlar bo'yicha yuzaga kelgan masalalarni hal qilish tartibi.

Taraflarning shartnomani bekor qilish haqidagi kelishuvida esa quyidagi maylumotlar kiritilishi lozim: qanday shartnoma bekor qilinayotganligi; qaysi vaqtidan shartnoma bekor qilinayotganligi; shartnoma bekor qilinishidan oldin mazkur shartnoma yuzasidan vujudga kelgan masalalarni hal qilish tartibi; shartnoma bekor qilingandan keyin taraflarning mazkur shartnoma bo'yicha talab qilish huquqlari o'z kuchini yo'qotishi to'g'risidagi band.

Tadbirkorlik shartnomasini bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yoki tadbirkorlik shartnomasining shartlarini bir taraflama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

## ***2-usul. Tadbirkorlik shartnomalarini sud tartibida o'zgartirish va bekor qilish.***

Taraflardan birining talabi bilan tadbirkorlik shartnomasi Iqtisodiy sudning qaroriga binoan faqat ikkinchi taraf xo'jalik shartnomasini jiddiy ravishda buzgan yoxud qonunda, yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 1998-yil 29-avgustdagи O'RQ—670-I-sonli Qonuning 15-moddasiga muvofiq taraflardan birining xo'jalik shartnomasini buzishi ikkinchi tarafga u xo'jalik shartnomasi tuzishda umid qilishga haqli bo'lgan narsadan ko'p darajada mahrum bo'ladigan qilib zarar yetkazishi xo'jalik shartnomasini jiddiy buzish hisoblanadi.

Bir taraf shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdan rad javobi olganidan keyingina yoki taklifda ko'rsatilgan yoxud qonunda yoki shartnomada belgilangan muddatda, bunday muddat bo'limganida esa o'ttiz kunlik muddatda javob

olmaganidan keyin tadbirkorlik shartnomasini o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin. Demak, xo'jalik shartnomalari qonunchilik hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan hollarda bir taraflama yoki Iqtisodiy sudning hal qiluv qarori bilan bekor qilinishi mumkin.

## **7. TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH VA ULARNING FAOLIYATI USTIDAN DAVLAT NAZORATI.**

Tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishning umumiyligi tavsifi va mazmun-mohiyati. Tadbirkorlik (biznes) faoliyatini soliqlar vositasida boshqarishning funksiyalari va asosiy tamoyillari. Tadbirkorlik subyektlaridan olinadigan soliqlar. Tadbirkorlik (biznes) subyektlari faoliyatiga soliq imtiyozlari asosida ta'sir etish.

Davlat bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlikni himoya qilish va uni rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun turli usul va vositalardan foydalanishga harakat qiladi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashdagi eng samarali vositalardan biri bu soliqlar sanalib, tadbirkorlik subyektlarini soliqlar vositasida ta'sir etish bevosita davlat soliq siyosatining asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan soliq siyosatining mazmunini soliq sohalarini liberallashtirish soliqqa tortish masalasida tadbirkorlik subyektlariga imtiyoz va prefirensiyalar berish, interaktiv xizmat ko'rsatishining samaradorligini oshirish asnosida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va aholi farovonligi oshishiga yo'naltirilgandir.

Mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va uni qo'llab-quvvatlashni davlat yo'lli bilan ta'sir etishning eng samarali usullaridan biri soliqlar orqali boshqarishdir. Davlat tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir o'tkazish chog'ida ishlab chiqarishni rag'battantirish, fiskal maqsadlarga erishish, qonunlar bilan belgilab qo'yilgan tartib qoidalarga rioya etilishini nazarat qilishga intiladi.

Soliqlar, ma'lum bir ma'noda davlatning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. har qanday davlatning asosiy daromadlari bu soliqlar hisoblanadi. Hozirgi vaqtida davlatning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida eng dolzarb muammolardan biri – bu soliq munosabatlarni tartibga solish masalasidir.

Iqtisodiy nuqtai nazardan soliqlar pul munosabatlari tizimidan iborat bo'lib, ular vositasida, bir tomondan, davlat bilan yuridik va jismoniy

shaxslar o'rtasidagi munosabatlar, ikkinchi tomonidan, davlat mablag'larini shakllantirish bo'yicha munosabatlar amalga oshirilgan. Soliqlar hisobiga davlat moliyaviy resurslarining asosiy qismi shakllantiriladi, ular davlat byudjetiga kelib tushadi va jamiyat ehtiyojlari uchun foydalaniladi. Soliqlar – davlat budgetining daromad qismiga o'tkaziladigan, yuqori qonunchilik hokimiyat organlarining hujjatlariga asosan yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan beg'araz, muayyan miqdorda va belgilangan muddatlarda umum davlat ehtiyojlarini qondirish uchun to'lanadigan majburiy to'lovdir.

Davlatning ixtiyoridagi iqtisodiy hamda huquqiy mexanizm sifatida soliqlar orqali boshqarish va tartibga solish o'ziga xos belgilar hamda xususiyatlarga ega. Biz shu o'rinda soliqlar orqali tartibga solishning o'ziga xos jihatlari bilan tanishib chihamiz. Soliqlarning yuridik mohiyatini tashkil etuvchi eng muhim xususiyatlari soliq to'lovlarining beg'arazligi, bu to'lovlarining majburiyligi, ularni joriy etish va undirib olish tartibi, soliqning aniq miqdorini hamda uni amalga kiritishning aniq muddatini belgilashdan iborat.

*Soliq to'lovlarining beg'arazliligi* shuni anglatadiki, soliqlar shaklida byudjetga kiritiladigan pul mablag'lari maqsadli yo'nalishga ega zmas. Ular yuridik va jismoniy shaxslardan davlat mulkiga beg'araz o'tkaziladi hamda davlat tomonidan iqtisodiyot, ijtimoiy ta'minot, mudofaa va xavfsielikni moliyalashtirish, davlat organlarini moliyaviy ta'minlash uchun yo'naltiriladi.

Davlat soliq to'lovchilarga ular tomonidan byudjetga kiritilgan mablag'lar uchun hech qanday bevosita kompensasiyalarni bermaydi, ya'ni soliq to'lovchi davlatga soliq to'laganda to'g'rida-to'g'ri hech qanday manfaat kutmaydi.

Ammo soliq to'lovlarining beg'arazlilik xususiyati davlat soliqlarni olib, ularni to'lovchilarga muayyan moddiy ne'matlarni bermaydi, degan ma'noni anglatmaydi. Soliqlar boshqa shaklda insonlarni o'lariga qaytariladi.

Har bir soliq to'lovchi uchun davlatga to'lanadigan soliqlar bilan undan olinadigan moddiy ne'matlar o'rtasida ko'rinadigan aloqaning yo'qligi soliqni uning zimmasiga tushadigan bir yuk sifatida qarashi uchun sabab bo'ladi. Ayrim tadbirkorlik subyektlarining soliq to'lashdan qochishi, o'z daromadlarini kamaytirib ko'rsatishga intilishi mana shundandir. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, soliq to'lashdan bo'yin tovlassh asosan iqtisodiy rivojlanishi past bo'lgan yoki inqiroega yuz

tutayotgan davlatlarda Yuqori darajada bo'ladi. Chunki bunday sharoitda soliq to'lovchining moddiy aqvolining Og'irlashashiga mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulot, tovar yoki xizmatlarga bo'lgan talablarning pasayishi ham sabab bo'ladi. O'z navbatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotini o'sishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Soliq yuridik mohiyatining majburiylik xususiyati shundan iboratki, soliq to'lovchilar muayyan shart-sharoitlarda soliqlarni to'lashi shart. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 51-moddasiga asosan Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahaliy yig'implarni to'lashga majburliklari hamda Konstitusiyaning 123-moddasida soliqlarni joriy qilishga faqat Oliy Majlis haqli ekanligi haqida qoida belgilangan. Shu o'rinda ta'kidlashimiz lozimki, soliqlarni to'lashga nafaqat Fuqarolar, balki yuridik va jismony shaxslar majburdirlar. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi soliqlar bilan birga boshqa majburiy to'lovlarini belgilash, joriy qilish, hisoblab chiqarish hamda davlat byudjetiga to'lash bilan boqliq munosabatlarni tartibga soladi. Shuningdek, mahalliy yig'implar boshqa majburiy to'lovlar jumlasiga kiradi. Soliqlar majburiyati tegishli organlar orqali davlat kuchi bilan ta'minlanadi va shu sababli soliqlarni to'lash majburiylik xususiyatiga ega. Pol Mari Godmening fikriga ko'ra, "soliq tushunchasida majburiylik elementi shunchalik buyukki, bu majburiylik xususiyatiga ega bo'lмаган тушумларнинг soliq sohasidan istisno etilishiga olib keladi".

Soliqlarning muhim yuridik belgisi *ularni belgilash va joriy etish tartibi* hisoblanadi. Soliqlarni belgilash hamda ularni undirib olish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartib va shartlarda amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan qonunchilikda nazarda tutilmagan har qanday majburiy to'lovlar soliq hisoblanishi mumkin emas. Bu birinchidan, soliqlarni joriy qilish Konstitusiyaning 78-moddasiga ko'ra Oliy Majlis Senati va qonunchilik palatasining birgalikdagi vakolatlariga kiradi. Ikkinchidan, mazkur soliqlar Soliq kodeksida belgilangan bo'lishi kerak. hech kimning zimmasiga Soliq kodeksida nazarda tutilmagan yoki uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va majburiy to'lovlarini to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin zmas.

Soliqlarning yuridik mohiyatini tashkil etuvchi yana bir belgisi shundan iboratki, *ularni to'lash* orqali oldindan qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatda daromadning bir qismi davlat

foydasiga undirib olinadi. Davlat davlatning byudjet tizimi daromad qismiga o'tkaziladigan soliqlar miqdori va ularni to'lash muddatlarini belgilaydi, qonunda belgilangan ko'rsatmalarni buegan soliq munosabatlari subyektlariga nisbatan javobgarlik choralarini qo'llaydi. Soliq qonunchiligiga ko'rta soliq stavkasi Soliq kodeksida yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi. Masalan, har yili qabul qilinadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining keyingi yil uchun makroiqtisodiy ko'satkichlar prognози va davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi qarori bilan soliq stavkalari tasdiqlanadi.

Soliqlar vositasida davlat tadbirdorlik (biznes) faoliyatiga quyidagi yo'nalishlarga bevosita ta'sir ko'ssatadi:

**Birinchidan**, tadbirdorlik (biznes) faoliyatida yuzaga keladigan munosabatlarni soliqlar vositasida boshqaradi va iqtisodiy munosabatlarni nazorat qilish asosida tartibga soladi, soliq yukini to'lovchilar o'ttasida adolatli tarzda taqsimlash, shu yo'l bilan tarmoq va hududlarni rivojlantirish, tadbirdorni qonuniy faoliyat natijasida daromad olish va soliq majburiyatlarini bajarilishini ta'minlaydi;

**Ikkinchidan**, bozor infrastrukturasi ni shakllantiradi va milliy iqtisodiyotda investitsiya muhitini qo'llab-quvvatlash barobarida qulay iqtisodiy sharoitlar yaratadi, rivojlantirish uchun soliq imtiyozlari asosida ko'maklashadi. Soliq tizimi tadbirdorlik subyektlarni, jumladan, chet el subyektlarini, ishlab chiqarishni rivojlantirish, uskunalar va zamonaviy texnologiyalar sotib olish uchun mablag' yo'naltirishni, ya'ni kapital jamg'arish va shu yo'l bilan texnologiyalarni takomillashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishi, resurslarning samarali taqsimlanishiga to'sqinlik qilmasligi hamda tadbirdorlik faoliyatini mustaqil yuritish omillarini cheklab qo'ymasligi kerak. Soliqlarning ta'siri investitsiyalar tarkibida ham yaqqol seziladi. Turli ko'rinishdagi aktivlar uchun joriy etilgan har xil soliq tartiblari investitsiya imkoniyatlari va sarmoyadorlarning portfeli tarkibida sezilib qoladi. Soliq tizimidagi kamchilik va nuqsonlar iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayib ketishiga olib kelishi mumkin, bu qol pirovard natijada davlat byudjeti daromadlarining o'garishiga ham ta'sir etmay qolmaydi;

**Uchinchidan**, tadbirdorlik (biznes) munosabatlarda raqobat muhitini yaxshilaydi, mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantiradi va

tovar-moliya bozorida ishlar va xizmatlarning soni hamda sifatiga ta'sir etish barobarida narx siyosatiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi;

**To'rtinchidan**, xufiyona iqtisodiyotning oldini oladi, huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasini belgilash barobarida jamiyatda soliq to'lovchilarning soliq borasidagi huquqiy ongi va madaniyatini yuksalishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, davlat soliqlar orqali tadbirkorlik subyektlariga ta'sir ko'rsatar ekan, bir tomonдан ayrim tadbirkorlik subyektlariga keng imkoniyat berish maqsadida imtiyoz va preferensiylar beradi, iste'molni, ishlab chiqarishni, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini, daromadlarini tartibga soladi va nazorat qiladi. Ikkinchi tomondan esa mazkur daromadlar orqali davlat byudjetini shakllantiradi hamda iqtisodiy sohani rivojlantirish dasturlarni moliyalashtirishga ham sarflaydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, soliqlarning katta qismi tadbirkorlik subyektlaridan yoki tadbirkorlik faoliyati natijasida undiriladi. Tadbirkorlik subyektlari avvalo ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi, keyin esa soliq to'lovchi bo'lib hisoblanadi. Davlat iqtisodiy rivojlangan sari soliqqa tortish usullari ham o'egarib boradi, soliq solish obektlarini aniqlash, hisobini olib borish, soliq to'lovchilarni hisobga olish ishlari xamisha sifatlari nazorat qilinishni talab qiladi. Mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanish jarayonlarida, avvalo iqtisodiyotning muhim tayanchi bo'lgan tadbirkorlik subyektlarini faoliyatini rivojlantirish, ularni qo'llab-quvvatlash uchun keng sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularga qo'shimcha kafolatlar, imtiyozlar va preferensiylar berib kelinmoqda. Bunday imkoniyatlar davlat tomonidan olib borilayotgan soliq siyosati orqali amalga oshirilmoqda.

Tadbirkorlik (biznes) faoliyatini soliqlar vositasida boshqarishning funksiyalari va asosiy tamoyillari

Biz yuqorida tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishning o'ziga xos jihatlari bilan tanishib chiqqanimizda soliqlarning roli ular bajaradigan funksiyalar bilan belgilanishini ta'kidlab o'tgan edik. Funksiya ushbu iqtisodiy kategoriyaning qiyomatni taqsimlash va daromadlarni qayta taqsimlash vositasi sifatidagi ijtimoiy vazifasi qay tarzda amalga oshirilishini ko'rsatadi.

Soliqlarning fiskal funksiyasi ular tabiatining o'zi bilan belgilanadi, ular majburiy tartibda va beg'araz davlat daromadiga kelib tushadi hamda davlat tomonidan o'z xarajatlarini qoplash uchun ishlataladi.

Fiskal funksiya vositasida soliqlarning bosh ijtimoiy vazifasi amalga oshiriladi - byudjet tizimi va byudjetdan tashhari jamg'armalarda to'planadigan davlat moliyaviy resurslari shakllantiriladi hamda ulardan davlat o'z funksiyalarini bajarishi uchun foydalaniladi. Soliqlarning fiskal funksiyasi davlatga moliyaviy mablag'larning asosiy qismini yo'naltirish uchun imkon beradi.

Iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda soliqlarning tartibga soluvchilik roli oshib boradi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining o'z modelini tashkil etishning eng muhim elementlaridan biri ishlab chiqarishga to'g'ridan-to'g'ri davlat boshqaruvidan chetga chiqish, tovar ishlab chiqaruvchilarning o'elariga, o'z xoqish va maqsadlardan kelib chiqib, shug'ullanadigan faoliyat va ishlab chiqarish turini tanlashda zrkinlik berish hisoblanadi. Shu munosabat bilan tadbirkorlik faoliyatining tartibga soluvchi bosh dastaklaridan biri soliqlar bo'lib qoladi. Tadbirkor o'zi xoqlagan faoliyat turini qonuniy amalga oshiradi va o'z daromadlariga ega bo'ladi. Faqat davlat tomonidan belgilangan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni belgilangan vaqtda to'la hajmda to'lashlari lozim. Soliqlarning tartibga solish funksiyasi shundan iboratki, soliqlar orqali davlat tadbirkorlik subyektlari faoliyati, ishlab chiqarish, iste'mol va daromadlari tartibga solinadi.

Jumladan, soliqlar yordamida ishlab chiqarish, masalan ma'lum bir ishlab chiqaruvchilarga nisbatan imtyoelarni belgilash, iste'mol masalan, aksiz solig'ini joriy qilish, aholining daromadlari esa jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga nisbatan o'egaruvchan stavkani, ya'ni jismoniy shaxslarning daromadi oshib borishi bilan soliq stavkasini oshib borishi orqali tartibga solinadi.

Soliqlarning rag'batlanish funksiyasi tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishiga, ularning samarali faoliyati yurtishiga keng imkoniyat yaratib beradi.

Jumladan, ayrim ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarini soliqlardan ozod qilish, chet el investitsiyasi ishtirokida korxonalarini ma'lum bir muddatga soliq va boshqa majburiy to'lovlarni ozod qilish yoki ma'lum davr davomida o'egarmaydigan stavkada soliqqa tortish, tadbirkorlik subyektlarini o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni qanchalik ko'proq eksportga yo'naltirsa, shunchalik ko'proq soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniga ega bo'ladi va boshqalar.

Bu funksiya ishlab chiqarishni rivojlantirishga, investitsiya faoliyatini kengaytirishga imkon beradi. Soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi orqali fiskal funksiyani bajarish uchun bazani kengaytiriladi. Mazkur funksiya orqali ishlab chiqarishni rivojlatirilib, soliq yukini ko'paytirmasdan davlat daromadalarini oshirilishiga erishiladi va tadbirkorlik subyektlarining zrkin faoliyat ko'rsatishi ta'minlanadi.

Soliqlar funksiyalari doimiy ravishda rivojlanib **boradi** va bunda ular bir-biriga juda boqliq bo'lib, bir vaqtida amalga **oshiriladi**. Ushbu holat ular o'tasida muayyan harama-harshiliklarni ham yuzaga keltiradi. Davlatning soliqlarni ko'paytirish yoki stavkasini oshirish orqali moliyaviy mablag'ni ko'paytirishga bo'lgan intilish soliqlarni fiskal funksiyasini oshiradi, lekin soliqlar qancha ko'paysa, tadbirkorlik subyektlarida foyda olish maqsadida faoliyatiga bo'lgan qiziqishi kamayadi, ya'ni tartibga soluvchi funksiyaning samaradorligi pasayib boradi. Demak, soliqlarning fiskal va tartibga solish hamda rag'batlantirish funksiyalari mohiyati o'tasida muvozanat bo'lishiga riyoq qilinishi shart. **Bir tomonidan**, ular byudjetga moliyaviy mablag'larning ko'p darajada kelib tushishini ta'minlashi, ikkinchi tomonidan esa tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga yordam berishi lozim. Bu qayishqoqlik soliq siyosati hisoblanib, soliqlardan tadbirkorlikni tartibga solishning samarali vositasi sifatida bir tomonidan, byudjet daromadlari to'dirilishini ta'minlanadi, **ikkinchi tomondan** esa, ishbilarmonlik faoliyatini rag'batlantiriladi, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy aqvolini yaxshilanadi, tadbirkorlik faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu siyosatning o'ziga xos xususiyati davlat ham tadbirkorlik subyektlari ham zarar ko'rmasligidadir.

**Soliq qonunchiligining prinsiplari.** O'zbekiston Respublikasida soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlarni uning prinsiplarida ko'rishimiz mumkin. har qanday davlat faoliyati singari soliq solish ham ma'lum bir prinsiplarga tayangan holda amalga oshiriladi. Soliq tizimi prinsiplari obektiv qonuniylikni aniqlashning va undan aql-idrok bilan foydalanishning shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi. Agar soliq tizimi prinsiplari buzilsa, u bevosita amaliy vazifalarni xal etishga to'sqinlik qiladi. Soliq tizimi prinsiplari turli-tuman bo'lib, bir-biri bilan chambarchas boqliqdir. O'zbekiston Respublikasida soliq qonunchilik hujjatlari prinsiplari bilan tanishib chihamiz.

**Soliq solishning majburiyligi.** Soliq to'lovchi – yuridik va jismoniy shaxslar Soliq kodeksida belgilangan soliqlar va boshqa

majburiy to'lovlarni to'lashi shart (bu holat konstitusiyaviy norma talabidan kelib chiqadi). soliqlar ham, boshqa majburiy to'lovlar ham albatta Soliq kodeksida belgilangan bo'lishi lozim. Soliq qonunchiligiga asosan hech kimning zimmasiga mazkur kodeksda nazarda tutilmagan yoki uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin zmas.

**Soliq solishning aniqligi**, ya'ni har bir soliq to'lovchi qaysi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, qachon, qancha miqdorda hamda qay taribda to'lashi kerakligini aniq bilishi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari aniqlangan bo'lishi lozim.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, soliqlarning asosiy qismi tadbirkorlik subyektlaridan yoki tadbirkorlik faoliyatidan undiriladi. Amaldagi soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni asosiy qismini tadbirkorlik subyektlari to'laydilar. Notijorat tashkilotlar asosan soliq to'lamyadilar, lekin tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan bo'salar, tadbirkorlik faoliyati natijasida olgan ayrim daromadlari, tadbirkorlik maqsadida foydalangan er ucha'stkalari, mol-mulkleri va xizmatlar uchun soliq to'laydilar. quyida tadbirkorlik subyektlari tomonidan to'lanadigan

Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi.

**Soliqlar tarkibiga quyidagilar kiradi:**

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aksiz solig'i;
- 5) er qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) er solig'i;
- 9) transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

**Boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:**

- 1) ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar;
- 2) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar;
- 3) Byudjetdan tashhari Ummumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik liseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya

qilish, mukammal ta'mirlash va jiqoelash jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

- 4) davlat boji;
- 5) bojxona to'lovlar;
- 6) ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

Belgilangan hollarda va tartibda soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan quyidagi soliqlар qо'llanilishi mumkin:

- 1 yagona soliq to'lovi;
- 2 yagona er solig'i;
- 3 tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

Tadbirkorlik subyektlarining asosiy maqsadi foyda olishga haratilgan faoliyat bo'lganligi uchun olgan foydalaridan foyda solig'ini to'laydilar. Tadbirkorlik subyektlari mol-mulk, er solig'ini, shuningdek amalga oshiradigan faoliyat turlaridan kelib chiqib suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotidan qо'shilgan xizmat solig'ini, aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarganda va bojxona xududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni import qilganda aksiz solig'ini, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i va boshqa soliqlarni to'laydilar. Ular soliqlар bilan birga Yuqorida sanab o'tilgan boshqa majburiy to'lovlarini ham to'laydilar.

#### **Tadbirkorlik (biznes) subyektlari faoliyatiga soliq imtiyozlari asosida ta'sir etish**

Davlat iqtisodiyotga ta'sir etib uni tartiblash vazifasini amalga oshirar ekan, bunda eng asosiy vositalardan biri jamiyatdagi ba'zi muhim sohalarni yoki soliq to'lovchilarning faoliyatini rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari belgilanadi. Ya'ni, davlat soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyotni samarali va qulay boshqarish yoki tartiblash imkoniyatiga ega bo'ladi, bundan ko'rindaniki, soliq imtiyozlari davlatni o'z funksiya va vazifalarini yuzaga chiqaruvchi muhim vosita sifatida yuzaga chiqadi;

Soliq imtiyozlari bu soliq to'lovchining soliq majburiyatlari hajmining to'liq yoki qisman qisqarishi, to'lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi tushuniladi. Soliqlarning

rag'batlantiruvchi funksiyasi soliq imtiyozlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozi soliqqa tortish obektining o'garishida, soliqqa tortish bazasining kamayishida (qisharishida), soliq stavkalarining pasaytirilishida va boshqalarda o'z ifodasini topadi. Soliqqa tortilmaydigan obekt minimumi, alohida shaxslar va soliq to'lovchilarning ayrim toifalarini soliq to'lashdan ozod qilish, soliqqa tortish obektidan ayrim elementlarni chiqarish, soliq stavkalarini pasaytirish, maqsadli soliq imtiyozlari, soliq kreditlari (soliqlarning undirilishini kechiktirish) va boshqalar soliq imtiyozlarining ko'rinishlaridir (turlaridir).

Mol-mulk solig'i, er solig'i, yagona er solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha imtiyozlarni berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maqkamasi tomonidan belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Soliq to'lovchi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan tegishli huquqiy asoslar vujudga kelgan paytdan e'tiboran ular amal qiladigan butun davr mobaynida foydalanishga haqli. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan bo'yicha imtiyozlardan bo'shagan mablag'larni muayyan maqsadlarga yo'naltirish sharti bilan berilishi mumkin. Bunday mablag'lardan belgilanmagan maqsadda foydalanilgan taqdirda, belgilanmagan maqsadda foydalanilgan summa o'rnatilgan tartibda penya hisoblangan holda byudjetga undirib olinadi. Soliq kodeksda nazarda tutilgan hollarda, soliq yoki boshqa majburiy to'lov belgilanayotganda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida soliq imtiyozlari, shuningdek ularning soliq to'lovchi tomonidan qo'llanilishi uchun asoslar nazarda tutilishi mumkin.

Yuqorida soliq funksiyalarida rag'batlantirish funksiyasining iqtisodiyotni rivojlanishida, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashda hamda davlat byudjeti daromadlarini ko'paytirishda ahamiyatiga to'xtlib o'tgan edik. Mazkur rag'batlantirish funksiyasi tadbirkorlik subyektlariga imtiyoz va preferensiyalar berish shakllarida namoyon bo'ladi. Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash va ular faoliyatini rivojlantirish maqsadida juda ko'p choratadbirlar amalga oshirilmoqda.

**Tadbirkorlik subyektlari faoliyati ustidan davlat nazorati tushunchasi, prinsiplari va huquqiy asoslari.**

Nazorat iqtisodiyotni va tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish vositalaridan bir hisoblanadi. Davlat nazorati davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi munosabati bilan uni davlat hokimiyatini amalga oshirish shakllaridan biri sifatida qarash lozim.

**Tadbirkorlik subyektlari faoliyati ustidan davlat nazorati** deganda tijorat va notijorat tashkilotlar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda normativ-huquqiy hujjatlar talabiga rioya qilinishi ustidan tekshirish va kuzatish tizimi tushuniladi.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyati ustidan davlat nazoratini davlat organlari, shu jumladan prokuratura organlari o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradilar.

**Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning asosiy prinsiplari** quyidagilardan iborat:

a) nazorat qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylik, xolislik va oshkorlik, ya'ni boshqa shaxslarning xohishi va istaklaridan, ularning subyekttiv irodalaridan qat'i nazar, tekshirishlar nazorat qiluvchi organlar xodimlari tomonidan suiiste'molliklarsiz tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshirishlar o'tkazishni tartibga soluvchi qonun normalari asosida amalga oshirishlari lozimligi;

b) yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish.

Agar nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari tadbirkorlik subyektlarini ng faoliyatida qonun hujjatlari buzilganligini aniqlasalar, ular o'zlariga berilgan vakolat doirasida va muayyan qoidabuzarlikni bartaraf etish bilan bevosita bog'liq chora-tadbirlarni ko'rishlari mumkin. Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari qoidabuzarlik holati mavjudligidan tadbirkorlik subyektlarini ng boshqa qonuniy faoliyatiga aralashish yoki uni cheklash uchun asos sifatida foydalanishga haqli emas.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari dehqon va fermer xo'jaliklarining tadbirkorlik faoliyatiga, shu jumladan ularning agrotexnika usullarini, yetishtiriladigan mahsulot turini tanlashiga, ana shu mahsulotning bahosini hamda realizatsiya qilish yo'naliishini belgilash ishlariiga aralashishga haqli emas, davlat ehtiyojlari uchun mo'ljallangan xaridlar bundan mustasno.

Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining noqonuniy qarorlari yoki boshqa harakatlari natijasida tadbirkorlik subyekttiga

yetkazilgan zararlar, shu jumladan, boy berilgan foyda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanadi.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari birlashmalarining a'zosi bo'lgan tadbirkorlik subyektlarini ng faoliyatini tekshirishlar tadbirkorlik faoliyati subyektlari so'roviga ko'ra mazkur birlashmalar vakillari ishtirokida amalga oshirilishi mumkin.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

**Nazorat qiluvchi organlar** – tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishga qonun hujjatlari bilan vakolat berilgan vazirliklar va idoralardir.

Soliq, moliya, prokuratura, ichki ishlar, bojxona, statistika organlari va davlat nazorat inspeksiyalari nazorat qiluvchi organlar sirasiga kiradi.

Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni tashkil qilishni yanada tartibga solish, tekshirishlar sonini kamaytirish, turli nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan tekshirishlarda parallelchilik va takrorlash faktlarini bartaraf etish, ularning korxonalar xo'jalik faoliyatiga iqtisodiy zarar yetkazuvchi asossiz aralashuviga yo'l qo'ymaslik maqsadida, shuningdek tadbirkorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 19-noyabrdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishni tashkil qilishni tartibga solish to'g'risida" PF 2114-sod Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining yangilangan tarkibi va u haqdagi Nizom tasdiqlangan.

Maxsus vakolatli organning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish masalalari bo'yicha nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishning, shu jumladan, kompleks tekshiruvlar hamda taftishlarning nazorat qiluvchi organlar bir-birining ishini takrorlashiga yo'l qo'ymaydigan muvofiqlashtiruvchi rejalarini ishlab chiqish;

nazorat qiluvchi organlarning tekshiruvlar o'tkazishning muvofiqlashtiruvchi rejalariga rioya qilishini nazorat qilish hamda rejadan tashqari tekshiruvlar maxsus vakolatli organ bilan kelishmay o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslik.

### ***Nazorat qiluvchi organlar mansabдор shaxslarining huquqlari va majburiyatları***

Nazorat qiluvchi organlarning mansabдор shaxslari tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish chog'ida o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

- tekshirilayotgan tadbirkorlik subyektlaridan tekshirish o'tkazish bilan bevosita bog'liq bo'lgan zarur hujjatlar va boshqa axborotlarni talab qilish;
- tekshirilayotgan tadbirkorlik subyektlariga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;
- tegishli davlat hokimiyati va boshqaruв organlari, tadbirkorlik subyektlari mulkdorlari oldiga aybdor shaxslarning javobgarligi to'g'risidagi masalani qo'yish;
- tekshiruvga auditorlik tashkilotlarini va (yoki) ekspertlarni belgilangan tartibda shartnoma asosida jalb etish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda moliyaviy yoki ma'muriy jazo choralarini qo'llash;
- rejali tekshirishlarni o'tkazish muddatini ko'chirish to'g'risida, basharti bunga obyektiv asoslar bo'lsa, maxsus vakolatlari organga taqdimnomma kiritish.

Nazorat qiluvchi organlar mansabдор shaxslarining qonuniy talablari tekshirilayotgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan bajarish uchun majburiydir.

Nazorat qiluvchi organlarning mansabдор shaxslari tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish chog'ida o'z vakolatlari doirasida quyidagilarni bajarishga majburdirlar:

- tekshirilayotgan tadbirkorlik subyektlariga tekshirish o'tkazish huquqini beruvchi zarur hujjatlarni ko'rsatish;
- tadbirkorlik subyektlari ishlashiga halal bermaslik;
- tekshirishlarni qayd etish daftارiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yozib qo'yish;
- davlat siri, tijorat yoki boshqa sirlar saqlanishini ta'minlash;
- tekshirish natijalarini dalolatnomaga (ma'lumotnomaga) bilan rasmiylashtirib, uning bir nusxasini tekshirish tugagan kuni tekshirilayotgan tadbirkorlik subyekttiда qoldirish;

- huquqbuzarlik hollari aniqlangan taqdirda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarini ko'rish.

## **8. TADBIRKORLIK SUBYEKTALARINI HUQUQ VA QONUNIY MANFAATLARINI HIMoya QILISH.**

Tadbirkorlik subyektlarini himoya qilish tizimini tashkil etishning zarurati. Tadbirkorlik subyektlarini himoya qilishning tashkiliy-huquqiy tizimi. Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy himoya tizimini huquqiy ta'minlash. Tadbirkorlik subyektlarini nazorat qilishda huquqiy himoya tizimining amal qilishining o'ziga xos xususiyatlari.

Tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi, uni rivojlantiruvchi assosiy kuch hisoblanadi. Shu sababli, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masalalardan biridir. Ushbu siyosatning mohiyati, uni amalga oshirishning shakl va vositalari mamlakatimizda har tomonlama asoslab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 18-iyulda bo'lib o'tgan majlisida Prezidentimizning so'zlagan ma'rzasida ham bu masalaga assosiy e'tibor qaratildi. «Tadbirkorlarning faoliyatini rag'batlantirish, qo'llab - quvvatlash, – deb ta'kidladi yurtboshimiz, – ular uchun qulay huquqiy va iqtisodiy shart-sharoit yaratib berish masalalari barcha darajadagi rahbarlarning, bиринчи galda hududiy hokimlik va boshqaruв idoralarining doimiy diqqat markazida turishi kerak. Ushbu ma'rizada yurtboshimiz tomonidan tadbirkorlar faoliyatini huquqiy himoya qilish tizimini yaratish va uni mustahkamlash vazifasi qo'yildi va uni amalga oshirish yo'llari ko'rsatib berildi.

So'nggi yillarda tadbirkorlarning huquqiy savodxonligini oshirish uchun bir qator ishlар amalga oshirildi: matbuotda maqolalar chop etilmoqda, broshyuralar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali tashviqot vositalari tayyorlandi va aholi o'rtasida tarqatildi. Ulardan tadbirkorlar o'zlarini uchun zarur barcha foydali ma'lumotlarni olishlari mumkin.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, tadbirkorlarning huquqiy himoya tizimi eng avvalo tadbirkorlarni faolligiga tayanadi. Har bir tadbirkorlik subyekti o'z huquq va manfaatlarini har qanday buzilishlardan eng avvalo o'zlarini faol himoya qiladilar va qonunda yo'l qo'yilgan barcha vositalardan (o'zini-o'zi himoya, sud orqali himoyalanish, operativ ta'sir usullarini qo'llash va sh.k.) foydalanishga

haqli. Agar tadbirkor o'z buzilgan huquqlarini himoya qilishni o'zi xoxlamasa (agar bunda uchinchi shaxslar yoki davlat manfatlariga putur yetkazilgan yoki tadbirkor himoyalanishi layoqatiga ega bo'limgan hollar mustasno) hech kim uning huquqlarini himoya qilish to'g'risida talab qo'ya olmaydi. Qonunlarda tadbirkorlarni o'z huquqlarini himoya qilishning yuridik imkoniyatlari belgilab qo'yiladi, bu imkoniyatdan foydalanish, ularni amalga oshirish tadbirkorning o'ziga bog'liq.

Tadbirkorlarni huquqiy himoya qilish tizimi o'zining yaqqol ifodalangan tashkiliy – huquqiy tuzilmalariga ega. Bu tuzilmalar ichida adliya idoralari o'ziga xos o'rinn egallaydi. Bu holat faqat mamlakatimiz huquq tizimi uchungina xos holatdir. Xorijiy mamlakatlarda ham tadbirkorlarning huquqiy himoya mexanizmi yaratilgan, biroq alohida, maxsus vakolatli tashkiliy tuzilmalar mavjud emas.

Tadbirkorlik O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida", 2000-yil 25-maydag'i "Tadbirkorlik faoliyat erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi, 2004-yil 3-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasini to'g'risida"gi Qonunlari subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini shakllanishida alohida o'rinn egallaydi.

Ushbu qonunlar maqsad va vazifalarida tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimi asosiy predmet sifatida belgilab qo'yilmagan bo'lsa ham ularning mohiyati va qator novellalar mazmuni ushbu tizimni shakllantirish va uni amal qilish mexanizmini ta'minlash bilan uzviy bog'liq.

Tadbirkorlarni huquqiy himoya qilishda davlat idoralari (sud, prokuratura, adliya, tumanlar, viloyatlardagi hokimliklari) va nodavlat tizimlari (tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatalari, fermer va dehqon xo'jaliklari assotsiatsiyalari) bab-baravar faoliyat ko'rsatadilar.

Adliya organlarining bu boradagi vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-fevral 2000-yildagi Qarori bilan belgilab qo'yilgan. Adliya vazirligi va uning hududiy boshqarmalari tarkibida tadbirkorlarni himoya qilish bo'yicha maxsus tuzilmalar mavjud. Adliya vazirligi va joylardagi uning idoralari tomonidan tadbirkorlar uchun ishonch telefonlari tashkil etilgan. Adliya vazirligi tadbirkorlik huquqlariga rioxqa qilish bo'yicha qonunchilikka rioxqa qilish ustidan barcha mintaqalarda davriy kompleks tekshiruvlarni

amalga oshiradi. Ushbu tekshiruvlar viloyatlar va tuman hokimliklari, soliq, bojxona, bank, tayyorlov va ta'minot korxonalari faoliyatini qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 23-avgustdag'i PQ-1602-son Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risida"gi Nizomda tadbirkorlar huquqlarini himoya qilishdagi vakolatlari belgilangan. Ushbu Qarorga ko'ra Adliya vazirligi o'z vakolati doirasida:

- bozor islohotlarini chuqurlashtirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik subyektlarini ng, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning huquqlari va qonuniy manfaatlарini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash, bu sohada byurokratik to'siq va g'ovlarni yaratishga yo'l qo'ymaslik;

- shartnomaviy-huquqiy intizomni mustahkamlash, shartnomalarni, eng avvalo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasida shartnomalarni tuzish va bajarishda xo'jalik yurituvchi subyektlarga amaliy huquqiy yordam ko'rsatish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshiradi.

Adliya organlari tekshirishlar davomida tadbirkorlarni qonuniy huquq va manfaatlari bузilgan faktlari aniqlangan hollarda sudsiga va xo'jalik sudsulariga tegishli da'vo arizalari bilan chiqadilar va ayblardan yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni undirish talabini qo'yadilar.

2005-yil 14-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan PF-3619-son «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash, sud-huquq tizimini yanada erkinlashtirish, nazorat organlarining tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvini kamaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyati asossiz cheklanishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasi talablariga so'zsiz riosa etish maqsadida qabul qilingan. Ushbu normativ hujjatda ilk bor tadbirkorlik subyektlariga nisbatan huquqiy ta'sir choralarini faqat sud orqali qo'llanish tartibi joriy etildi. 2005-yil 14-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 3619-son «Tadbirkorlik

subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlarini ta'kidlash mumkin.

Huquqiy himoya tizimi o'z tarkibiga ko'ra quyidagi elementlardan iborat:

a) himoyalanuvchi subyekt tomonidan qo'llilanadigan yuridik ta'sir choralari. Bunday ta'sirni yuridik ta'sir choralari sifatida namoyon bo'lishi nafaqat ularni huquq normalarida belgilab qo'yilganligida, balki huquqiy oqibatlar vujudga keltirishida ham ko'rindi. Yuridik ta'sir choralari himoyalanuvchi subyekt yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Yuridik ta'sir choralari tizimida huquqlarni himoya qilish usullari markaziy o'rinni egallaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 11- moddasida fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari ko'rsatilgan. Jumladan, bitimni haqiqiy emas deb topish, bitimni haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llashni talab qilish, zararni qoplashni talab qilish, huquqbuzarlikni to'xtatish, huquqbuzarlik oqibatlarini bartaraf etishni talab qilish shular jumlasidandir;

b) huquqiy himoya tizimini institutsional tuzilmalari ham huquqiy himoyani qo'llanishi va samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi. Institutsional tuzilmalar o'ziga xos tashkiliy-huquqiy qurilmalar sifatida namoyon bo'ladi. Tashkiliy-huquqiy tuzilmalar huquqiy himoyani amalga oshirish yoxud himoyalanuvchi subyektga bunday vazifani bajarishga ko'maklashish funksiyalarini bajaradi. Ayan institutsional tuzilmalar huquqiy himoya tizimini barqarorligi, doimiyligi, tizimlashni belgilaydi. Institutsional tuzilmalar ham omnaviy huquqiy, ham xususiy huquqiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Davlat organlari tizimida maxsus ixtisoslashgan idoralar – huquqni muhofaza qiluvchi organlar (prokuratura, ichki ishlar, monopoliyaga qarshi organlar va h.k.) bu sohada faol ekanligini ta'kidlash lozim. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning har birini o'ziga xos faoliyat yo'nalishi, maqsadlari, vazifalari va funksiyalari mavjud, biroq bularning barchasi buzilgan huquqlarni himoya qilish funksiyasining muayyan jihatlarini qamrab oladi yoxud ushbu vazifalar bilan uzviy bog'liq. Shu sababli ham ularni huquqiy himoya tiziminining institutsional tuzilmalar segmentida alohida o'rin egallahini qayd etish lozim;

v) huquqiy himoya tizimi tarkibida protsessual vositalar ham muhim rol o'ynaydi.

O'z huquqlarini himoya qilishni talab etayotgan yoki himoyani amalga oshirayotgan subyekt protsessual tartib mavjudligi va unga qat'iy riya qilish shartligi sababli boshqa shaxslarni, ayniqsa, ba'zi davlat yoxud nodavlat tashkilotlar xodimlarining o'zboshimchaliklari, byurokratik munosabatlari ta'sirini keskin kamaytiradi yoxud oldini oladi. Ushbu protsessual vositalar ommaviy-huquqiy ham, xususiy- → huquqiy ham, universal-huquqiy ham, lokal-huquqiy ham bo'lishi mumkin.

Huquqiy himoya tizimi har qanday huquq tizimi – oilasida (anglosakson, qit'a, musulmon va hatto patriarxal huquq oilasida ham) mavjud. Huquqiy himoya tizimi keng ma'noda huquq-tartibot va odil sudlov tizimiga tayanadi. Huquqiy himoya tizimi undan foydalanuvchi subyektlar doirasiga qarab umumiy va maxsus huquqiy himoya tizimlariga tabaqalanadi.

Ushbu subyektlarni barchasi o'zlarining buzilgan huquqlarini huquqiy himoya tizimidan foydalangan holda himoya qilish imkoniyatlari ega bo'ladilar. Albatta, amalda ko'proq undan fuqarolar va yuridik shaxslar doimiy ravishda foydalanadilar.

Umumiy huquqiy himoya tizimining asosiy jihatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida muayyan darajada o'z ifodasini topgan deb aytish mumkin. Jumladan, Konstitutsiyaning 13-moddasi (demokratik huquq va erkinliklar qonun bilan qo'riqlanishi), 8-moddasi (teng huquqlilik), 19-moddasi (huquq va erkinliklar daxlsizligi), 20- → moddasi (huquq va erkinliklarni amalga oshirish shartlari), X-bobi (huquq va erkinliklar kafolatlari) shular jumlasidandir. Umuman olganda, Konstitutsiyaning juda ko'p normalarida subyektlarni muayyan huquqlari va erkinliklari yoki ularni ta'minlash kafolatlari mujassamlangan.

Davlat kuchli huquq-tartibot va odil sudlov tizimini yaratish, uni tashkiliy – huquqiy va normativ ta'minlash orqali umumiy huquqiy himoya tizimini doimiy va uzlusiz ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Barcha subyektlar hech qanday to'siqlarsiz va istisnolardsiz ushbu tizim imkoniyatlardan foydalanishga xaqlidirlar.

Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy himoya qilishning huquqiy asoslari eng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinayotgan qonunosti hujjatlari alohida konseptual ahamiyat kasb etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish

tizimini yanada takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlarni shakllantirish maqsadida 2005-yil 24-iyunda qabul qilingan PF-3622-son «Tadbirkorlik subyektlarini ng xo'jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish to'g'risida»gi Farmoni, 2011-yil 24-avgustda ishbilarmonlik muhitini znada tubdan yaxshilash, bozor islohotlarini liberallashtirish va chugurlashtirish yo'lidan jadal harakat qilish, tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushini oshirish, eksport slohiyatini rivojlantirish, aholi bandligini va daromadlarini ta'minlash maqsadida qabul qilingan PF-4354-son «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2011-yil 4-apreldagi PF-4296-son «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2011-yil 25-avgustdagi PQ-1604-son «Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2014-yil 15-apreldagi PQ-2164-son «Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq tartibotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son «O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmon va qarorlarini alohida ta'kidlash lozim. Xususan, 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son «O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga ko'ra 2014-yil 1-iyundan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy yeb-saytlarida chop etilmagan ularning tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro munosabatlar masalalarini tartibga soladigan me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlari talablarini buzish holatlari uchun tadbirkorlik subyektlariga javobgarlik choralarini qo'llash taqiqlanishi belgilab qo'yildi. Shu bilan birga ushbu Farmonga ko'ra, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonini murakkablashtirishni va tadbirkorlik

subyektlariga yangi yuri dik majburiyatlar yuklatishni nazarda tutadigan, shuningdek tadbirkorlik subyektlariga yuri dik javobgarlikning yangi choralarini belgilaydigan me'yoriy-huquqiy hujjatlari ular rasman chop etilgan fursatdan boshlab, uch oydan oldin bo'limgan muddatda kuchga krishi belgilandi.

2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son «O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonga ko'ra, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonini murakkablashtirishni va tadbirkorlik subyektlariga yangi yuri dik majburiyatlar yuklatishni nazarda tutadigan, shuningdek tadbirkorlik subyektlariga yuridik javobgarlikning yangi choralarini belgilaydigan me'yoriy-huquqiy hujjatlari ular rasman chop etilgan fursatdan boshlab, uch oydan oldin bo'limgan muddatda kuchga krishi belgilandi.

Nizolarni hal etish davlat tizimida xo'jalik-tadbirkorlik nizolari muayyan vakolatli davlat idoralari tomonidan hal etiladi. (Masalan, kontraktatsiya shartnomasi bo'yicha nizolar tuman hokimligi huzuridagi inspeksiya, intellektual mulk obyektlariga huquqiy muhofaza hujjati berish bilan bog'liq nizolar O'zbekiston Intellektual mulk Agentligi Appelyatsiya Kengashi tomonidan va h.k.). Ko'p hollarda davlat idorasiga qarori ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

Xo'jalik-tadbirkorlik nizolarni sud orqali hal etish tizimi ham puxta ishlab chiqilgan. Konstitutsiyaning 111-moddasiga asosan mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o'tasidagi, shuningdek tadbirkorlar o'tasidagi, iqtisodiyot sohasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo'jalik nizolarni hal etish Oliy Iqtisodiy sud va xo'jalik sudsari tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi. Xo'jalik sudsari nizolarni ko'rib chiqish va hal etish tartibi Xo'jalik protsessual kodeksi bilan tartibga solinadi. Xo'jalik sudsariishi ish yuritish tartibi umumiyligi bilan yuritish tartibidan nisbatan soddaligi, tezkorligi bilan ajralib turadi (masalan, sud buyrug'i tartibining mavjudligi). Xo'jalik yurituvchi subyektlar da'vo arizasi berishda o'z pul mablag'lariga ega bo'lmasalar, davlat boji to'lashni hal qiluv qarori chiqarilgunga qadar kechiktirishga yo'l qo'yiladi. Xo'jalik nizolarni hal etish uchun alohida sud tizimining mayjudligi xo'jalik qonuniy huquq va manfaatlarini huquqiy himoya qilishni osonlashtiradi va real amalga oshirilishni o'ziga xos kafolati bo'lib hisoblanadi.

## **9. BIRJALAR FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH.**

Birja savdolarini o'tkazish tartibi, Birja savdolariga doir monopoliyaga qarshi talablar, Birja savdolarida tuzilgan bitimni haqiqiy emas deb topish va uning oqibatlari.

Birja faoliyati mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan tovarlar va hom-ashyo bazasining katta hajmlardagi savdolarini qonuniy yo'llar orqali va zamonaviy usullarda amalga oshirish uchun mas'ul bo'lган yagona markazlashtirilgan organ – O'zbekiston tovar hom-ashyo birjasi (keingi matnda "O'zRTHB" deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, ushbu faoliyat yildan-yilga jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. 2004-2014-yillar davomida O'zRTHBda tuzilgan bitimlar hajmi 20 barobarga oshdi (2004-yildagi 450 mlrd. so'mdan 2014-yildagi 8,9 trln. so'mgacha). Oxirgi-yillarda birja bozorining O'zTHB aylanmasi hajmidagi ulushi 80 foizga yetdi. Birja savdolari orqali sotiladigan tovarlar nomenklaturasi 14 ta pozitsiyaga oshdi<sup>2</sup> va bu o'sish ko'rsatkichlari kelajakda ham saqlanib kolishi kutilmoqda.

Birja savdolari birjada uning a'zolarining barchasiga ushbu savdolarda bir vaqtida ishtirok etish imkoniyati berilgan holda, markazlashtirilgan tarzda elektron shaklda o'tkaziladi.

O'z o'nida birja savdosi qoidalarida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:  
birja a'zolari, ularning huquq va majburiyatlari to'g'risidagi nizom;  
birja a'zolarining birja savdolarida ishtirok etishiga ruxsat berish tartibi;

tovarlarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish tartibi;

birja bitimlarining turlari;

birja savdolarida muomalada bo'ladijan hosila moliyaviy vositalarning (derivativlarning) tavsifi;

tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish tartibi;

birja savdolarini o'tkazish tartibi;

birja bitimlarini va birja savdolari natijalarini ro'yxatga olish hamda rasmiylashtirish tartibi;

kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi;

birja tovarlarini kotirovkalash (ularning narxini belgilash) tartibi;

<sup>2</sup><http://gkk.uz/ru/>

birjada narxlarning shakllanish jarayoni ustidan nazorat qilish tartibi;

birja savdolari to'g'risidagi axborotni oshkor etish tartibi;

birja savdosi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi qoidalar;

birjada nizolarni hal etish tartibi.

Birja savdosi qoidalarida qonun hujjaligiga muvofiq boshqa qoidalar ham ko'rsatilishi mumkin.

Dastlabki ko'zdan kechirishni talab etmaydigan, sifat ko'rsatkichlari o'zgarmasligi va birja bitimlari muntazam ravishda tuzilishi bilan tavsiflanadigan, birja savdolariga qo'yilgan muayyan turdag'i tovarlar ro'yxati birjaning kotirovkalash varag'idir.

Tovarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish quyidagi tartib-taomillarni o'z ichiga oladi, qimmatli qog'ozlar bundan mustasno:

tovar ishlab chiqaruvchining yoki yetkazib beruvchining tovarni birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqish;

tovarning Qonun talablariga muvofiqligini tekshirish;

tovarning likvidliligini baholash;

tovarni birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish va uni birja a'zolariga yetkazish.

Qimmatli qog'ozlarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish (birja listingi) quyidagi tartib-taomillarni o'z ichiga oladi:

qimmatli qog'ozlar emitentining o'z qimmatli qog'ozlarini birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqish;

qimmatli qog'ozlar emitentining moliyaviy holatini baholash;

qimmatli qog'ozlarning likvidliligini baholash;

qimmatli qog'ozlarni birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish va uni birja a'zolariga yetkazish.

Birjaning kotirovkalash varag'iga kiritilgan tovar birja savdolariga qo'yilgan hisoblanadi.

Chet el valyutasi va davlat qimmatli qog'ozlari birjaning kotirovkalash varag'iga tovarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish va birja listingi tartib-taomilisiz kiritiladi.

Birja savdolari birja a'zolari tomonidan berilgan buyurtmalar asosida, birja savdosi qoidalariga muvofiq o'tkaziladi.

Birja tovarini kotirovkalash birja savdolarida birja tovarining birja narxini belgilash maqsadida avtomatik rejimda, birja savdosи qoidalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Birja savdolari yakunlariga ko'ra olingan qimmatli qog'ozlarning, davlat qimmatli qog'ozlari bundan mustasno, birja narxi mazkur qimmatli qog'ozlarning birja savdolari sanasidagi bozor narxidir.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan qabul qilingan 2011-yil 7-<sup>→</sup> fevraldagi PQ-1475-sonli "Davlat xaridlari tizimini muqobillashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida" gi qaroriga ko'ra 2011-yilning 1-apreldidan mazkur tizimni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada mustahkamlash hamda Davlat xaridlari jarayonining shaffofligini ta'minlash bo'yicha yangi tizimning joriy etilganligi va uning samaralari haqida atroficha to'xtalib o'tildi.

Yangi tizim O'zbekiston Respublikasi tovar xomashyo birjasi tomonidan elektron auksion savdolari tartibida tashkil etilib, Elektron savdolar O'zbekiston Respublikasi bo'ylab internet orqali, real vaqt rejimida amalga oshiriladi. Bu o'z navbatida bir qator qulayliklarni keltirib chiqarmoqda. Avvalo, elektron auksion tizimining ahamiyatli jihatli budjet tashkilotlari uchun sotuvchi qidirishga hojat yo'q. Birja saytiga e'lon berishning o'zi kifoya va natijada ularga yetkazib beruvchilar o'z xizmatlarini taklif etadilar.

Mazkur sohada 2011-2014-yillarda amalga oshirilgan ishlarni tahlil etadigan bo'lsak, kichik biznes subyektlarining Davlat xaridlari bo'yicha elektron savdolardagi ishtiroti 30 mingtani tashkil etganligi yoki besh barobarga oshganligini ko'rish mumkin. Ularning tovarlar ta'minotidagi ulushi 99 foizga ko'paygan. Davlat xaridlari bo'yicha elektron savdolarda dastlabki-yillarda har bir talab uchun ikkitadan taklif berilgan bo'lsa, bugunga kelib ularning-soni oltitadan oshdi.

Prezident qarorini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи huzurida Davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi tashkil qilingan bo'lib, uning ishchi organi – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tayinlandi. Bu borada bir qator ijobjiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlari Mahkamasining 2015-yil 26-martdagи 69-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida "O'zRTXB" AJda 2015-yilning 1-iyunidan birjaning yangi elektron savdo tizimi "Davlat xaridlari elektron katalog" ishga tushirildi. Qisqa vaqt ichida mazkur tizim

o'zining ijobjiy natijalarini ko'rsatdi. Joriy yilning iyun-oktabr oylarida elektron katalog bo'yicha 36,5 mld. so'mlik bitimlar imzolanib, 9,3 → mld. so'm budget mablag'lari iqtisod qilindi. Bu borada kichik biznes subyektlarining ulushi 100 foizni tashkil etdi<sup>3</sup>.

Birja savdolarini o'tkazishda raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar, shu jumladan:

birja savdolarini o'tkazish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan harakatlar, bundan qonun hujjatlari nazarda utilgan hollar mustasno;

birja savdolari ishtirokchilarining kelishib olingan harakatlari natijasida joriy birja narxlarining keskin ko'tarilishiga yoki qat'iy belgilanishiga olib keladigan harakatlar;

birja savdolarida talabning o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lган yolg'on ma'lumotlarni tarqatish bilan bog'liq harakatlar taqiqlanadi.

Shu bilan birga, birja savdolarini o'tkazish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan harakatlar aniqlanganishi birja savdolari natijalari bo'yicha tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'ladi.

Birja bitimi deganda birja tomonidan ro'yxatga olingan, birja savdosining birjada qayd etilgan natijasi bo'yicha tuzilgan birja tovariga doir oldi-sotdi shartnoma tushuniladi.

Birjada birja bitimlari, shu jumladan:

birja tovarlarining ularni kechiktirmasdan yetkazib berish sharti bilan tuziladigan oldi-sotdi bitimlari (spot);

birja tovarlarining ularni kechiktirib yetkazib berish sharti bilan tuziladigan oldi-sotdi bitimlari (forwardlar);

birja tovarini yetkazib berishni (etkazib berish fyuchersi) yoki birja tovarini yetkazib bermagan holda bitim taraflari o'rtasida pul hisob-kitoblari amalga oshirilishini (hisob-kitob fyuchersi) nazarda tutadigan, kelgusida bajarish majburiyati bilan tuziladigan hosila moliyaviy vositalarning (derivativlarning) oldi-sotdi bitimlari (fyucherslar);

birja tovarlarini yoki hosila moliyaviy vositalarni (derivativlarni) kelgusida sotib olish yoxud sotish huquqi bilan tuziladigan hosila moliyaviy vositalarning (derivativlarning) oldi-sotdi bitimlari (opsionlar);

valyutalarni bir vaqtida olish-sotishga doir bitimlar bo'yicha hisob-kitoblarni muayyan muddat o'tgach, avvaldan belgilangan valyuta kursi

<sup>3</sup><http://www.uzex.uz>

bo'yicha amalga oshirish sharti bilan tuziladigan valyutalarini bir vaqtida olish-sotishga doir bitimlar (valyuta svoplari);

qimmatli qog'ozlarni muayyan muddat o'tgach, avvaldan belgilangan narx bo'yicha qayta sotib olish sharti bilan tuziladigan qimmatli qog'ozlarga doir oldi-sotdi bitimlari (repo) tuzilishi mumkin.

Birja bitimi to'g'risidagi axborot (birja tovarining nomi, soni, kotirovkasi (narxi), birja bitimi tuzilgan sana bundan mustasno) uchinchı shaxslarga oshkor qilinishi mumkin emas. Birja bitimi to'g'risidagi axborot sudsiga taqdim etiladi, surishtiruv va tergov organlariga esa, qo'zg'atilgan jinoyat ishi mavjud bo'lgan taqdirda taqdim etiladi.

Birja bitimini ro'yxatdan o'tkazish va rasmiylashtirish birja savdolari natijalari bo'yicha yozma yoki elektron shaklda amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlarga doir birja bitimlarini yozma ravishda rasmiylashtirish talab qilinmaydi. Birja bitimlari notarial tartibda tasdiqlanmaydi.

Birjalar tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun quyidagilar orqali shart-sharoitlar yaratadi:

kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish;

agar birja bitimi shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa, birja tovarlarini yetkazib berishni nazorat qilishni va hisobga olishni amalga oshirish;

pul mablag'larini va birja tovarlarini oldindan deponentga qo'yishni nazarda tutuvchi mexanizmlarni belgilash;

birja savdosi qoidalari va birja bitimlari bo'yicha majburiyatlarga riyoja etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

Birja bankrot deb topilgan taqdirda, birja a'zolarining va ular mijozlarining birja hisobvaraqlaridagi mol-mulki tugatish massasiga kiritilmaydi hamda birja a'zolariga va ularning mijozlariga ularning birja bitimi bo'yicha majburiyatları bajarilganidan keyin qaytarilishi lozim.

Birjaning majburiyatları bo'yicha undiruvni birja a'zolarining va ular mijozlarining mol-mulkiga qaratishga yo'l qo'yilmaydi.

Birja a'zolarining mablag'lari yetarli bo'limgan taqdirda, birja bitimi bo'yicha majburiyatlarini bajarish tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash fondining pulli va qaytarib berish asosida birja a'zolariga taqdim etiladigan mablag'lari orqali ta'minlanishi mumkin.

Birja bitimlarini haqiqiy emas deb topish yuzasidan alovida me'yoriy huquqiy hujjat mavjud emas bo'lib mazkur masala amaldagi qonunchilikning bitimlarga oid umumiyy qonunchilik normalari bilan

tartibga solinadi<sup>4</sup>. Quyidagi hollarda bitim sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Bitim qonunchilikda belgilab qo'yilgan asoslarga ko'ra, sud tomonidan haqiqiy emas deb topilganligi sababli (nizoli bitim) yoki bunday deb topilishidan qat'i nazar haqiqiy emas deb hisoblanadi. Bunda nizoli bitimni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talabni qonunchilikda ko'rsatilgan shaxslar qo'yishlari mumkin<sup>5</sup>.

Bitim haqiqiy bo'limganida taraflarning har biri boshqasiga bitim bo'yicha olgan hamma narsani qaytarib berishi, olingen narsani aslicha (shu jumladan olingen narsa mol-mulkdan foydalanish, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat bilan ifodalanganda) qaytarib berish mumkin bo'limganida esa, agar bitim haqiqiy emasligining boshqa oqibatlari qonunda nazarda tutilgan bo'lmasa, uning qiymatini pul bilan to'lashi shart<sup>6</sup>.

## **10.TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IXTIYORIY TUGATISH VA ULARNING FAOLIYATINI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH. TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IXTIYORIY TUGATISH, TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI QAYTA TASHKIL ETISH VA UNING TURLARI.**

Ma'lumki, tadbirkorlik subyektlari o'z bizneslarini amalga oshirish uchun ro'yxatdan o'tgach ayrim hujjatlari, faoliyat turlari, ta'sis xujjatlari, yuridik manzillari, ishtirokchilari, ta'sischilar va h.k.larda o'zgarishlar bo'lishi tabiiydir. Xo'sh bunday hollarda ularni qayta ro'yxatdan o'tkazish tartibi qanday amalga oshiriladi? Avvalambor shuni ta'kidlash joizki, quyida keltirilgan jadvaldagi ro'yxat bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar majburiy qayta ro'yxatdan o'tkaziladi.

Qayta ro'yxatdan o'tkazish ham Internet tarmogi orqali, ham o'zi kelgan holda amalga oshirilishi mumkin.

<sup>4</sup>Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi (113-128-moddalar) - Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. - T. - "Adolat" 2007 y. - 504 b.

<sup>5</sup>Qarang: O'zR Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 2014 yil 28 noyabrdagi 269-soni "O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi normalarni qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi Qarori.

<sup>6</sup>Qarang: O'zR Oliy sudi Plenumining 2006-yil 22-dekabrdagi "Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tafsiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi 17-soni Qarori.

Quyidagi hujjatlar qayta ro'yxatdan o'tkazish so'rovnomasiga ilova qilinadi:

- tadbirkorlik subyekti vakolatli boshqaruv organining ta'sis hujjatlariga ustav fondi miqdorining oshirilishi, ulushning (hissaning) boshqa shaxsga o'tishi bilan bog'liq bo'lgan o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qarori;
- davlat tilidagi ta'sis hujjatlari;
- topshirish dalolatnomasi - qo'shib yuborilganda va qayta tuzilganda;
- taqsimlash balansi - ajratib chiqarishda;
- tadbirkorlik subyekti vakolatli organining ta'sis hujjatlarida e'lon qilingan ustav fondi miqdori shakllantirilganligi to'g'risidagi hujjat - ustav fondi miqdori oshirilganda;
- tadbirkorlik subyekti - yuridik shaxs ishtirokchilari tomonidan qo'shimcha hissalar va uchinchi shaxslar tomonidan to'la miqdordagi hissalar kiritilganligini tasdiqlovchi hujjatlar - ustav fondi miqdori oshirilganda;
- ulushning (hissaning) boshqa shaxsga o'tganligini tasdiqlovchi hujjat (shartnoma, xat, huquqiy vorislik, meros, sud qarori va shu kabilar) - ulush (hissa) boshqa shaxsga o'tganda.

Ta'sis hujjatlariga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish ta'sis hujjatlarni yangi tahrirda qabul qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda ariza beruvchi qonun hujjatlari talablarini inobatga olgan holda, o'z ixtiyoriga ko'ra ta'sis hujjatlarining namunaviy shakllaridan yoki boshqa shakllardan foydalanish huquqiga ega.

Davlat boji to'langandan keyin tizim ro'yxatdan o'tkazuvchi organ mas'ul xodimiga tegishli bildirishnomasi yuboradi, kiritilgan o'zgartirishlarni davlat ro'yxatidan o'tkazadi va ularni elektron hujjatlar repozitoriyisida saqlaydi.

Ustav fondi miqdorining oshirilishi, ulushning (hissaning) boshqa shaxsga o'tishi bilan bog'liq bo'lgan qayta ro'yxatdan o'tkazish amalg'a oshirilgan taqdirda "yagona darcha" markazi mas'ul xodimi taqdim etilgan hujjatlarni rad etish uchun asoslar mavjud emasligi yuzasidan ko'rib chiqishi va qayta ishlashi shart. Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik xujjatlarida nazarda tutilgan, biznesni ro'yxatdan o'tkazish tizimini isloh qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish davlat xizmatining – "biznesni ro'yxatdan o'tkazish"ning shaffofligi va sifati sezilarli darajada oshdi. O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekistonni 2017–2021 yillarda rivojlantirishga doir harakatlar strategiyasida mamlakatning Jahon banki “Doing Business” tadqiqotlaridagi davlat xalqaro reytingini oshirishni ta'minlashga oid vazifa qo'yilgan. Shu sababli, korxonalarни ro'yxatdan o'tkazishning yangi mexanizmi Jahon bankingin navbatdagi “Doing Business-2018” tadqiqotlarida “biznesni ro'yxatdan o'tkazish” me'zoniga ijobiy ta'sir qiladi.

### **Tadbirkorlik subyektlarini tugatish usullari va tartibi**

Respublikamizda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining shakllanishi davrida turli mulk shakllarining mavjudligi xo'jalik yuritishning ham xar xil ko'rinishlarini vujudga keltirib, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga alohida e'tibor berishni taqozo

etmoqda. Ma'lumki, tadbirkorlik sub'ektlarining samarasiz faoliyat yuritishi davlat va jamiyat mansaftalariga sezilarli zarar keltiradi. Har qanday davlat va jamiyat o'z hududida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining yaxshi ishlashi tarafdiridir.

To'g'ri, bunday holat albatta achinarli, lekin undan qutilib bo'lmaydi. Bir so'z bilan aytganda, yuridik shaxsni tugatish masalasi haqiqatdan dolzarb mavzu bo'lib bormoqda Ushbu vaziyatga mamlakatimizda to'g'ri baho berilib, qonunda belgilangan tartib asosida hal qilish uchun maxsus qonun me'yorlari va chora tadbirlar ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining normalari yuridik shaxslarni tugatishning fuqarolik-huquqiy tartibga solinishini to'liq mujassamlashtirgan asosiy huquqiy hujjat bo'lsa, shu singari mustaqillikka erishganimizdan buyon qabul qilingan qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarda esa yuridik shaxsni tugatishda mazkur sohaning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinib huquq normalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik qonunchiligidagi yuridik shaxslarni ikki xil usulda tugatilishini ko'rishimiz mumkin.

Birinchisi ixtiyoriy usul bo'lib, u quyidagi asoslarga ko'ra amalga oshiriladi:

- muassislar (ishtirokchilari) yoki ta'sis hujjatlari bilan tugatishga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga muvofiq;
- yuridik shaxsning faoliyat yuritish muddatining tugashi bilan;
- uni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadga erishilganligi munosabati bilan;

•yuridik shaxsni tashkil etish chog'ida qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'yilganligi sababli, agar bu buzilishlarni bartaraf etib bo'lmasa, sud yuridik shaxsni ro'yxatdan o'tkazishni haqiqiy emas deb topganda;

•muassislar (ishtirokchilar) yoki yuridik shaxs organi tomonidan tashkilotni tugatish uchun yetarli bo'lgan boshqa sabablarni tan olishi bilan.Ikkinchisi-majburiy usulda sud qarori bo'yicha quyidagilarga ko'ra tugatish amalga oshiriladi:

•faoliyatni tegishli ruxsatnomasiz (litsenziyasiz) amalga oshirish;

•qonun tomonidan ta'qiqlab qo'yilgan faoliyatni amalga oshirgan yoki qonun yoki huquqiy aktlarni bir necha marta va qo'pol ravishda buzish holatlarda;

•Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan boshqa hollarda sudning qaroriga muvofiq.

Bozor munosabatlari mamlakat iqtisodiyotiga qanchalik chuqurroq kirib kelishi o'z faoliyatini samarasiz olib borayotgan yuridik shaxslarga jiddiy ta'sir ko'satmoqda. Shu sababli 6 oy mobaynida (savdo vositachilik korxonasi esa - uch oy mobaynida) bank hisobvaraqlari bo'yicha pul operatsiyalarini o'tkazish bilan bog'liq moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirilmagan, (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) va (yoki) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yil ichida ustav fondi ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorda shakllantirilmagan taqdirda ham uning tugatilishiga olib kelishi haqidagi norma Fuqarolik kodeksida mustahkamlab qo'yildi.

Yuridik shaxsni tugatish murakkab va ko'p vaqt talab qiluvchi ish hisoblanadi. Shuning uchun yuridik shaxsni tugatish tartibi jarayoni bir necha bosqichni o'z ichiga oladi. Xo'sh, savol tug'iladi. Yuridik shaxs kim tomonidan va qanday hujjatlar asosida tugatiladi?

Yuridik shaxs uning muassislarini (ishtirokchilarini)ning yoki ta'sis hujjatlari bilan tugatishga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga binoan tugatilishi mumkin.

Odatda muassislar ham ishtirokchilar ham o'z ixtiyorlari bilan har qanday vaqtda tugatish to'g'risidagi qarorni qabul qilishlari mumkin. Bu ularga berilgan huquqdir. Lekin shu bilan birqalikda tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilish ular uchun majburiyatni ham keltirib chiqaradi. Sud tartibida tugatish ikki asosda umumiy va maxsus asoslarda amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Umumiy asos barcha turdag'i yuridik shaxslarga, maxsus asos esa alohida turdag'i yuridik shaxslar uchun taalluqlidir. Umumiy asoslarga ko'ra o'z faoliyatini ruxsatnomasiz

(litsenziyasiz) amalga oshirayotgan yoki qonun tomonidan ta`qiqlangan faoliyat bilan shug'ullanayotgan yuridik shaxslarga nisbatan sudning qaroriga muvofiq qo'llaniladi.

Maxsus asosga ko'ra tugatiladigan alohida turdag'i yuridik shaxslar qatoriga o'z huquqiy maqomini olib, maxsus xuquq layoqatiga ega bo'lgan qishloq xo'jalik korxonalari kiradi. Odatta, har bir qishloq xo'jalik korxonasining huquqiy maqomini o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi.

Masalan, fermer xo'jaligi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran bir yil ichida o'z ustav fondini ustavda nazarda tutilgan miqdorda shakllantirmaganida, shu jumladan fermer xo'jligini yuritish uchun yer uchastkasi berish bo'yicha ochiq tanlovda fermer xo'jaligi boshlig'i tomonidan ko'rsatib o'tilgan mol-mulk, texnika va pul mablag'lari ustav fondiga kiritilmaganida; yer uchastkasini ijara olish huquqidan ixtiyoriy voz kechilganida; fermer xo'jaligi bankrot deb topilganda, shu jumladan moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchilar, ish bajaruvchilar va xizmat ko'satuvchilar bilan hisob-kitob muntazam ravishda amalga oshirilmaganida; fermer xo'jligining boshlig'i vafot etib, xo'jalik faoliyatini davom ettirishni xohlovchi merosxo'r bo'lmasa; davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yoki yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun, shu jumladan fermer xo'jaligi yer uchastkasidan belgilangan maqsadda foydalanmaganida, xususan kontraktatsiya shartnomasida nazarda tutilmagan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekkunda yer uchastkasini olib qo'yish zarurati bo'lgan taqdirda, yer uchastkasini ijara olish shartnomasi belgilangan tartibda bekor qilingan hollar tugatiladi.

Yuridik shaxsni tugatilishini oshkoraliykda amalga oshirish tugatish jarayoni huquqiy jihatdan aniq va kamchiliklarsiz yakunlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuridik shaxsni tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilgan uning muassislari va ishtirokchilari yoki vakolat berilgan organ bu haqda yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organga yozma tartibda xabar berishlari lozim. Davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ mana shu xabarga asosan yuridik shaxs tugatilish jarayonida ekanligi haqidagi ma'lumotlarni yagona davlat reestriga kiritadi. Ma'lumotlar kiritilgandan so'ng yuridik shaxsning firma nomiga albatta "tugatilishda" degan so'z qo'shib qo'yiladi.

Bundan tashqari, bu haqda soliq organlarini ham xabardor qilib qo'yish maqsadga muvofiqdir. Chunki, har qanday tadbirkorlik subyekti

tashkil etilgan paytda soliq to'lovchi sifatida davlat soliq organlarida ro'yxatga olinadi. Soliq kodeksining 50-moddasiga ko'ra yuridik shaxsni tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, (ixtiyoriy tugatish hollari bundan mustasno) tugatuvchi besh kunlik muddat ichida bu haqda davlat soliq xizmati organiga yozma shaklda ma'lum qiladi.

Yuridik shaxsni ixtiyoriy tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ bu haqda davlat soliq xizmati organini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 27-apreldagi PQ-630-son "Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorida belgilangan tartibda xabardor etadi.

Yuridik shaxs davlat soliq xizmati organiga tugatish balansini taqdim etish bilan bir vaqtida hisobotlarni hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etishi shart. Shu bilan birga yuridik shaxsni tugatilishi to'g'risida pensiya fondlari hamda sug'urta jamg'armalarini ogohlantirib, o'zlarining hisob raqamlarini yopish choralarini ko'rishi lozim.

Tugatishda mazkur yuridik shaxs faoliyati to'liq bekor qilinib, uning ishi to'xtatiladi va mol-mulki tugatiladi. Bunday holatda tugatish komissiyasi tuziladi. Shuningdek, tugatish komissiyasi yoki tugatuvchining asosiy vazifalarini aniqlashtirish bilan bir vaqtida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga muvofiq tugatish tartibini hamda muddatini belgilab oladilar. Tugatish komissiyasi matbuot organlarida yuridik shaxsning tugatilishi hamda uning kreditorlari tomonidan talablarni bayon etish tartibi va muddati haqida xabar e'lon qiladi. Kodeksning 55-moddasiga muvofiq bu muddat tugatish haqida xabar e'lon qilingan paytdan boshlab "ikki oydan kam bo'lishi mumkin emas". Tugatish komissiyasi tasdiqlangan kundan boshlab yuridik shaxsning ishlarini boshqarish sohasidagi vakolatlari uning ixtiyoriga o'tadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, mazkur komissiya tugatuvchi mustaqil huquq subyekti bo'lib hisoblanmaydi. U faqat tugatish jarayonida kreditorlar, qarzdorlar, davlat hokimiyyati organlari va boshqa shaxslar bilan munosabatga kirishib, tugatilayotgan yuridik shaxs nomidan harakat qiladi.

Tugatish komissiyasi tugatilayotgan yuridik shaxs nomidan sudda ishtirok etadi. Tugatish komissiyasi tugatilayotgan yuridik shaxs hisob varaqlari ochilgan bankka tugatish komissiyasining ruxsatsiz hisobdan

foydalanmaslik to'g'risida ariza yuboradi. Mana shu arizaga ko'ra bank tugatilayotgan korxona hisobi bo'yicha keyinchalik yuborilayogan ijro va boshqa hujjatlarni qabul qilishni to'xtatadi. Tugatish komissiyasi barcha kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzlarini undirish, shuningdek, yuridik shaxs tugatilayotganligi haqida kreditorlarni yozma xabardor qilish choralarini ko'rish lozim.

Barcha kreditorlar bilan hisob kitob ishlari nihoyasiga yetkazilgandan so'ng, tugatishning yakunlovchi bosqichi boshlanadi.

Tugatish komissiyasi muassislar va ishtirokchilar bilan kelishib, davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan tasdiqlangan tugatish balansini tuzadi. Yuridik shaxsning kreditorlari talablari qondirilgandan keyin qolgan mol-mulk uning shu mol-mulkka ashyoviy huquqlarga yoki ushbu yuridik shaxsga nisbatan majburiy huquqlarga ega bo'lgan muassislariga va ishtirokchilariga topshiriladi. Shundan so'ng yuridik shaxsning tugatilishi haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga kiritilib yuridik shaxsni tugatish tamomlangan, yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati esa tugagan hisoblanadi.

Yuridik shaxsni tugatishning yuqorida sanab o'tilgan bosqichlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq, biri ikkinchisini to'ldirib boradi. Birontasining to'g'ri bajarilishiga e'tibor berilmasa, tugatish jarayonining aniq va izchil amalga oshirilishiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

#### **Tadbirkorlik subyektlarini qayta tashkil etish va uning turlari**

Yuridik shaxsning vujudga kelishining huquqiy ahamiyati muhim hodisa bo'lganligi tufayli, tadbirkorlik huquqida yuridik shaxs faoliyatining bekor bo'lishi ham muhim huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan harakatlardan hisoblanadi. Bu shunisi bilan muhimki, oqibatda bir qancha huquq va majburiyatlar yuzaga keladi. Umumiy qoidaga ko'ra, yuridik shaxsning faoliyati qayta tashkil etish yoki tugatish natijasida bekor bo'ladi.

**Qayta tashkil etish** – ilgari mavjud bo'lgan korxonaning bekor qilinishi va yangi huquq subyekti sifatida tadbirkorlik faoliyatini davom ettirilishi demakdir.

Tugatishdan farqli o'laroq qayta tashkil etishda mulk saqlanadi, mulkiy huquq va majburiyatlar ham mavjudligini yo'qotmaydi. Ishlab chiqarish bo'limmalari ham yo qisqargan, yoki yiriklashgan holda faoliyatini davom ettiradi. Qayta tashkil etish har doim huquqiy vorislik bilan bog'liq bo'lib, bunda mulkiy va boshqa huquq (majburiyat)lar bekor qilingan (turini o'zgartirgan) bir huquq subyektiidan boshqasiga,

qaytadan vujudga keltirilgan korxonaga o'tadi. Yuridik shaxs qayta tashkil etilgan taqdirda unga mulk huquqi asosida tegishli mol-mulk yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslarga o'tadi. Yuridik shaxsnii tugatishdan buning asosiy farqi ham shunda ifodalanadi.

Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorislari uning faoliyatini davom ettiradi. Shu bilan bog'liq ravishda oxir oqibatda barcha huquq va majburiyatlar to'liq o'tishi lozim. Ular qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning universal huquqiy vorisi, topshirish hujjati, xuddi shuningdek, taqsimlash balansida qayd qilingan yoki qilinmagan bo'lса ham, uning barcha huquq va majburiyatlarining vorisi bo'lib qoladi.

**Qo'shib yuborish** - o'z faoliyatini tugatgan ikki yoki undan ortiq korxonaning barcha huquqlari va majburiyatlarini unga berish yo'li bilan yangi korxonani vujudga keltirish. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 10-iyuldag'i "Qarshitermoplast" davlat korxonasini qayta tashkil etish to'g'risida"gi PQ-406-son Qaroriga asosan "Qarshitermoplast" davlat korxonasini qayta tashkil etish natijasida uning huquq va majburiyatları "Sho'rtan GXK" sho'ba korxonasiga o'tishi. Ya'ni bunda, o'z faoliyatini tugatayotgan "A" MCHJ va "B" MCHJlarning huquq va majburiyatlarini qo'shib yuborilish natijasida tashkil etilayotgan yangi korxona "S" AJning vujudga kelishi.

**Qo'shib olish** - bir yoki bir nechta korxona faoliyatini to'xtatib, ularning huquqlari va majburiyatlarini boshqa korxonaga berish. Misol uchun, "A" xususiy korxonasi o'z faoliyatini to'xtatib, uning huquq va majburiyatları faoliyat yuritayotgan "B" MCHJga berilishi.

**Bo'lish** - yuridik shaxs o'z faoliyatini to'xtatib, ikki va undan ortiq yuridik shaxslarga bo'linadi. Misol uchun, "A" Aksiyadorlik jamiyati o'z faoliyatini to'xtatdi va bu AJdan yangi "B" MCHJ hamda "S" MCHJlar tashkil topdi.

**Ajratib chiqarish** - korxonalarning huquq va majburiyatları bir qismini unga berish yo'li bilan yangi korxonani vujudga keltirish, ya'ni bunda yuridik shaxs tarkibidan bir yoki bir necha yuridik shaxslar ajraladi, avvalgi yuridik shaxs ham mavjud bo'lib qolaveradi. Misol uchun, faoliyat olib borayotgan "A" AJdan yangi "B" MCHJning ajralib chiqishi.

**O'zgartirish** - yangi vujudga kelgan yuridik shaxsga qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning barcha huquqlari va majburiyatlarini berish yo'li bilan korxonaning tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirish, ya'ni

bunda bir tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxs boshqa shakldagi yuridik shaxsga o'zgaradi. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 22-dekabrda qabul qilingan "Xo'jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi № PF-3366 son Farmoniga asosan O'zbekiston avtomobilsozlik korxonalari uyushmasini "O'zavtosanoat" aksiyadorlik kompaniyasi, "O'zdonmahsulot" davlat-aksiyadorlik korporatsiyasini "O'zdonmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasi, "Dori-darmon" davlat-aksiyadorlik uyushmasini "Dori-darmon" aksiyadorlik kompaniyalarini sifatida qayta tashkil etildi.

Yuridik shaxsniga qayta tashkil etish umumiy qoidalarga asosan ixtiyoriy ravishda – uning ta'sischilarining (qatnashchilarining) yoki ta'sis etilgan hujjatlar bilan vakolatga ega bo'lgan yuridik shaxs organi, masalan, a'zolarning umumiy yig'ilish qarori asosida amalga oshirilishi mumkin.

Qo'shib olish shaklida qayta tashkil etish hollarini istisno qilganda, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs qayta tashkil etilgan hisoblanadi.

Qayta tashkil qilishning barcha sanab o'tilgan shakllarini ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga taqsimlash balansi bilan rasmiylashtiriluvchi bo'lish va ajratib chiqarish shakli kiradi. Ikkinci guruhga topshirish hujjati bilan rasmiylashtiriluvchi qo'shib yuborish, qo'shib olish va o'zgarish shakllarini kiritish mumkin. Yuridik shaxslarni qayta tashkil qilish jarayonida "**taqsimlash balansi**" va "**topshirish hujjati**"ning ahamiyati juda katta, chunki u qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning o'zidan oldingisiga nisbatan bo'lgan munosabatlarda, xususan, berilgan mol-mulkka egalik huquqining tarkibi va hajmiga huquqiy vorislikni tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Qayta tashkil qilish vaqtida qayta tashkil qilinayotgan korxonada mavjud debitor va kreditorlik qarzlarining butun miqdori (shu jumladan, sotib oluvchi va ta'minotchilarining ish haqi bo'yicha qarzlari, hisob beruvchi shaxslardan, byudjet va byudjetdan tashqari fondlar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha) taqsimlash balansi yoki topshirish hujjatiga muvofiq uning huquqiy vorislariga o'tadi.

Qayta tashkil etish institutini tadbirkorlik faoliyatini yuritish amaliyotida qo'llash yordamida:

birinchidan/fuqarolik muomalasining barqarorligi saqlanib qoladi;  
ikkinchidan, barcha huquq va majburiyatlar majmuuning huquqiy vorisligi ta'minlanadi;

**uchinchidan**, shartnomaviy va xo'jalik aloqalari erkinligi ta'min etiladi;

**to'rtinchidan**, kreditorlar huquqlari maksimal darajada kafolatlanadi;

**beshinchidan** qo'shimcha soliq to'lash zarurati yo'qoladi;

**oltinchidan** vaqtinchalik xarajatlar qisqaradi;

**yettinchidan** ayniqsa, qayta tashkil etishning o'zgartirish shaklini qo'llash samarasining yuqoriligi shundaki, unda ishlab chiqarish kapitali, moddiy vositalar, asosiy va oborotdagい fondlar to'liq saqlanib qoladi.

#### **Qayta tashkil etishda oldindan rozilik olish**

Qo'shib olish, qo'shib yuborish yoki o'zgartirish shakllaridagi ixtiyoriy qayta tashkil etish qonunda belgilanganidek, davlat organlarining oldindan olingen roziligi asosida amalga oshiriladi. Masalan, bunday rozilikni oldindan tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni keltirib chiqaruvchi xo'jalik sub`ektlari ustidan nazorat qiluvchi monopoliyaga qarshi organdan ham olish talab qilinadi. Ba'zan yuridik shaxsni qayta tashkil etishda uning xohish-irodasidan chetga chiqilishi mumkin. Bu to'g'ridan-to'g'ri qonunda belgilangan holatlarda, yuridik shaxsni qayta tashkil etishning uning tarkibidan bir yoki bir nechta yuridik shaxslarni bo'lish yoki ajratib chiqarish turlari vakolatli davlat organlari yoki sud qarori bilan majburiy amalga oshiriladi. Agar yuridik shaxs muassislarini (ishtirokhilar), ular vakil qilingan organ yoki yuridik shaxsning o'z ta'sis hujjatlari bilan qayta tashkil etishga vakil qilgan organi yuridik shaxsni vakolatli davlat organining qarorida belgilangan muddatda qayta tashkil etmayotgan bo'lsa, sud mazkur davlat organining da'vosi bo'yicha yuridik shaxsning boshqaruvchisini tayinlaydi va unga ushbu yuridik shaxsni qayta tashkil etishni topshiradi.

O'zbekiston Respublikasining qonunchilik xujjaligiga muvofiq, Davlat raqobat qo'mitasi quyidagilarga oldindan rozilik beradi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlarning birlashmalarini tashkil etishga;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'shib yuborish va qo'shib olishga.

## **11. RAQOBATGA QARSHI HARAKAT SIFATIDA INSOFSIZ RAQOBAT VA UNING KO'RINISHLARI.**

Insofsiz raqobat tushunchasi va uning huquqiy tavsifi,. Insofsiz raqobat shakllari, Tovar va moliya bozorida insofsiz raqobatni huquqiy baholash,. Insofsiz raqobat sifatida noto'g'ri reklama tushunchasi va uning huquqiy belgilari, Reklamani huquqiy tartibga soluvchi milliy qonunchilik tizimi,. Reklama faoliyatini huquqiy tartibga solish va nazorat qilish mexanizmi, Shaxsiy lashtirish vositalari tushunchasi va turlari, Insofsiz raqobat ko'rinishi sifatida tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va tovar kelib chiqqan joy nomidan ruxsatsiz foydalanish.

Tobora rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari sharoitida insofsiz raqobat va uni oldini olish bugungi kunda iqtisodiyotning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, davlat iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish borasida raqobatni yanada kuchaytirishga shaxslarning raqobatga zid bo'lgan har qanday hatti-harakatlardan himoya qilish bilan bog'liq qonunchilik tizimini yanada takomillashtirish borasida tizimli huquqiy islohotlarni amalga oshirilib kelinmoqda.

Insofsiz raqobat o'zida jamiyat manfaatlariga putur yetkazuvchi, qonun hujjatlari va tadbirdorlik subyektlarning ish muomalasi odatlariiga zid bo'lgan hamda unga zarar yetkazish bilan bog'liq hatti-xarakat (harakatsizlik)larni o'zida namoyon etadi. Mazkur huquqqa xilof hatti-xarakatlar nafaqat bozorining normal faoliyat olib borishiga to'sqinlik qiladi, shuningdek, tadbirdorlarning huquq va manfaatlariga ham putur yetishiga olib keladi. →

O'zbekiston Respublikasida "insofsiz raqobat" tushunchasi va uni huquqiy cheklash bilan bog'liq holatlar 2012-yil 6-yanvarda qabul qilingan "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Mazkur qonunning 2-bobi "Raqobatga qarshi harakatlar" deb nomlanib, u o'zida ustun mavqeni suiste'mol qilish xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlari va bitimlari, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va yuridik shaxslar birlashmalarining raqobatni cheklaydigan hujjatlari hamda harakatlari, insofsiz raqobat ko'rinishlari bilan bog'liq raqobatga zid munosabatlarni o'zida mujassam etadi.

Mazkur normaning Qonunga kiritilishidan maqsad xo'jalik yurituvchi subyektlarni raqobat munosabatlarda insofsiz harakatlaridan himoya qilish hisoblanadi. Shuningdek, insofsiz raqobatni tartibga solish xususiyati shundan iboratki, bunda harakatlar intellektual mulk huquqini obyektlari bilan ham bevosita bog'liq. Bu borada insofsiz raqobatning qaysi hollarda raqobat huquq va qaysi hollarda intellektual mulk huquqi bilan tartibga solinishini ajratish huquqshunoslar uchun muhimdir.

Intellektual mulk huquqi obyektlarining huquqiy maqomi (ya'ni ro'yxatdan o'tkazish va h.k) intellektual mulk huquqi bilan belgilansa, ulardan qonunga hilof ravishda foydalanish bilan bog'liq munosabatlar raqobat huquq bilan tartibga solinadi. Masalan, tovar belgisini qalbakilashtirish, tijorat siri egasining rozilgisiz foydalanish yoki uni oshkor etish v.h. Bunday harakatlarning tartibga solish doirasi kengayganligi uchun ham hozirgi kunga kelib Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda (masalan Germaniyada) maxsus "Insofsiz raqobat huquqi" ("Unfair Competition Law") bilan tartibga solinadi.

Insofsiz raqobat tushunchasi O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonuning 4-moddasida belgilangan bo'lib unga ko'ra, insofsiz raqobat – xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda afzallikkarga ega bo'lishga qaratilgan, qonun hujjatlariga, ish muomalasi odatlari zid bo'lган hamda boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lган yoxud ularning ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo'lган harakatlari tushuniladi.

Iqtisodiy afzallik deganda – bozorni egallash maqsadida ("market power") narxlarni belgilash va shu kabi boshqa muhim iqtisodiy unsurlar orqali bozorni manipulyatsiya qilish va oqibatda raqobatni cheklash tushuniladi. Buning natijasida shaxslarning tovar bozorida tadbirdorlik subyektlarinin ishchanlik obro'siga putur yetishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 6-moddasida ish muomalasi odatlari deb - tadbirdorlik faoliyatining biron-bir sohasida vujudga kelgan va keng qo'llaniladigan, qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan xulq-atvor qoidasi, biron-bir hujjatda yozilganligi yoki yozilmaganligidan qat'i nazar, ish muomalasi odati deb hisoblanishi belgilab o'tiladi.

Insofsiz raqobat natijasida kelib chiqadigan huquqiy oqibat xususiyatidan kelib chiqqan raqobatchiga insofsiz raqobat natijasida yetkazilgan moddiy zarar hamda nomoddiy zarar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Moddiy zarar odatda zarar yetkazuvchi tomonidan zarar ko'rvuchining mol mulkining kamayishiga olib keladigan zarar bo'lsa, ushbu bozorda boshqa raqobatchilar oldida uning manfaatiga xususan kamsitilishi natijasida huquq va manfaatlarining poy-mol bo'lismeni tushunish mumkin.

Zarar tushunchasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 14-moddasida keltirilgan bo'lib unga ko'ra zarar deb - huquqi buzilgan shaxsnинг buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lган xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek bu shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagи fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lган, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi.

Shu bilan birga insofsiz raqobat tushunchasi xalqaro huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topgan. Xususan 1991-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lган Sanoat mulki obyektlarini muhofaza qilish bo'yicha Parij Konvensiyasining 10-moddasida keltirilgan bo'lib, unga ko'ra raqobat qo'yidagi hollarda insofsiz raqobat sifatida ta'kidlanadi:

- raqobatchining tadbirkorlik faoliyatiga turli yo'llar bilan aralashish bilan bog'liq barcha hatti-harakatlari;
- o'ziga raqobatchi bo'lган shaxsni turli yolg'on ma'lumotlar tarqatish yo'li bilan obro'sizlantirish;
- tovarning xususiyati, ishlab chiqarish usuli va joyi, iste'mol xossalari, narxi, sifati chalg'ishiga olib keladigan ma'lumotlarni tarqatish bilan bog'liq harakatlari tushuniladi.

Odatda insofsiz raqobatni keltirib chiqaruvchi omil shaxsning (yoki shaxslar guruhining) o'z moddiy manfaati yo'lida g'araz maqsadlarni ko'zlagan xolda zarar yetkazishga qaratilgan ongli hatti-xarakatlarini tushunish mumkin. Chunki shaxs (yoki shaxslar guruhi) zarar yetkazuvchiga aniq maqsadni ko'zlagan holda turli yo'llar bilan xususan o'ziga raqobatchi bo'lган shaxsning ko'rsatayotgan xizmatini, bajarayotgan ish yoki sotayotgan tovar maxsuloti to'g'risida iste'molchilarga yolg'on ma'lumotlarni turli yo'llar bilan tarqatish bilan bog'liq hatti-harakatlar (yoki harakatsizligi) sifatida tushunish mumkin.

Insofsiz raobat deb baholanadigan harakatlar doirasi "Raqobat to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasida belgilangan bo'lib, unga ko'ra quyidagilar insofsiz raobat isoblanadi:

- noto'g'ri taqqoslash, ya'ni qiyosiy reklama talablarini buzish ("comparative advertising");
- intellektual faoliyat natijalari va ularga tenglashtirilgan individuallashtirish vositalaridan noqonuniy foydalanish ("infringement");
- iste'molchilarни chalg'itish ("misleading advertising");
- individuallashtirish vositalarini takrorlash ("likelihood of confusion");
- nusxa ko'chirish orqali qalbakillashtirish ("dilution");
- tijorat siri egasining roziligidiz foydalanish.

Shuningdek, qonunda bozorga kirishga to'sqinlik qilish ham insofsiz raqobat harakati sifatida ko'rsatilgan bo'lib, aslida bu holat rivojlangan davlatlar (AQSh, Germaniya, Yaponiya) qonunchiligidagi insofsiz raqobat ko'rinishi emas balki belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Qolaversa, bugungi kunda insofsiz raqobat doirasi yanada kengayib, AQSh va Yaponiya davlatlarida "Unfair Trade Practices" ("Insofsiz savdo amaliyoti") deb yuritilmoxda. Amaliyot deganda turli usullar tushunilib, uning doirasiga O'zbekiston qonunchiligidagi sanab o'tilgan harakatlardan tashqari "iqtisodiy boykot" ("boycott"), "tovariň iste'molchiga majburlab sotish" ("unreasonable coercion of consumers"), "mutlaq dillerlik kelishuvi" ("exclusive dealing agreement") kabi harakatlar kiritilgan.

Ma'lumki, reklama tadbirkor tomonidan ishlab chiqargan tovar mahsuloti, ish va xizmat turlarini keng iste'molchi ommasiga tanitadigan marketing usuli hisoblanadi. Shu sababli, o'z mahsuloti bilan bozorga kirib kelmoqchi bo'lgan shaxs eng avvalo o'z mahsuloti reklamasini amalgaga oshiradi hamda ma'lum iste'molchilar ommasini o'z atrofida to'playdi. Iste'molchini qanchalik darajada o'ziga jalg etish reklamaning qanchalik darajada ishonchligi, aniqliligi, qonuniyligi bilan bevosita bog'liq. Lekin, reklama beruvchi har doim ham o'z mahsuloti to'g'risidagi ma'lumotlarni yuqorida reklamada qo'yilgan talablar doirasidan kelib chiqqan holda belgilamaydi. Natijada, mahsulotni harid qilgan iste'molchining moddiy va ma'naviy zarar ko'rishi olib keladi.

Mamlakatimizda insofsiz reklama munosabatlarini cheklash va huquqiy tartibga solish O'zbekiston Respublikasida reklama munosabatlarini tartibga solish bilan bog'liq 1998-yil 25-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi qonuni, 2012-yil 6-yanvardagi "Raqobat to'g'risida"gi, 2001-yil 26-martdagi "Reklamani joylashtirish to'g'risida"gi Nizomi kabi shu va boshqa qonun va qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuning 13-moddasiga muvofiq noto'g'ri reklama o'zining noaniqligi, ikki xil ma'noni anglatishi, bo'rttirib yuborishi, yashirib ketishi oqibatida, reklamani tarqatish vaqt, joyi va usuliga nisbatan qo'yilgan talablarni va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa talablarni buzishi natijasida reklamadan foydalanuvchilarni chalg'ituvchi yoki chalg'itishi mumkin bo'lgan, shaxslarga, shuningdek davlatga zarar va ma'naviy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan reklama noto'g'ri (insofsiz, bilaturib yolg'on) reklama hisoblanishi belgilab o'tiladi.

Yuqoridagi ushu ta'rifdan kelib chiqib, reklamani "noto'g'ri reklama" deb quyi baho berish uchun quyidagi mezonlar mavjud bo'lishi kerak:

- "chalg'ituvchilik mezonı" ("deceptiveness" standard), ya'ni, reklama iste'molchilarni chalg'itishi lozim yoki mumkin bo'lsa;

- chalg'ituvchi harakatlarning amalga oshirilganligi ("materiality" standard), ya'ni qonunda bunday harakatlar noaniqlik, ikki xil ma'no anglatishi, bo'rttirib yuborish, yashirib ketish orqali amalga oshirilishi mumkinligi belgilangan. Bu borada "yashirib ketishi" deganda yashirin reklama emas balki, reklamada muhim ma'lumot qoldirib ketilishi nazarda tutilgan.

- reklamaning vaqt, joyi va usuliga oid talablarning buzilishi;

- (raqobatchi shaxsga, iste'molchiga, davlatga) zarar yetkazishi mumkinligi.

Noto'g'ri reklamani tarqatish insofsiz raqobatning bir ko'rinishi bo'lib, bunda noto'g'ri reklamani tarqatayogan shaxs o'z reklamasining qonunda belgilangan talablarga va boshqa shaxslarning huquq va manfaatlariga va ish muomalasi odatlariga putur yetishini biladi va onli ravishda xarakat qiladi. Odatda noto'g'ri reklamani tarqatayotgan shaxs bir shaxsga nisbatan yoki umuman o'ziga raqobatchi bo'lgan boshqa shaxslar guruhiiga nisbatan qaratilgan bo'ladi.

Mazkur reklamani tarqatish vositalari ichida noto'g'ri reklamani ommalashitirish odatda tashqi reklamada foydalanish holatlari ko'p uchrab turadi. Tashqi reklamaga alohida maxsus konstruksiyalarda, taxtalavhalarda, ekranlarda, binolarda, inshootlarda, yo'l chekkalarida, ko'cha yoritgichlarining tayanchlari va hokazolarda joylashtiriladigan reklama kiradi.

Insofsiz raqobatga olib keluvchi ijtimoiy munosabatlarning **bir** shakli sifatida o'zida yolg'on hamda haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan noto'g'ri reklamani tarqatish bozorning doimiy rivojlanish tendensiyasiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazadi. Xususan insofsiz reklama:

birinchidan, insofsiz reklamani tarqatayotgan shaxs o'ziga raqobatchi bo'lgan shaxsni yoki shaxslar guruhini tovar yoki moliya bozorida obro'sizlantirish, ishchanlik obro'siga putur yetkazishi;

ikkinchidan, iste'molchilarga muayyan mahsulot to'g'risida noto'g'ri ma'lumot tarqatilishi natijasida ularning huquq va manfaatlariga, sog'lig'iqa jiddiy zarar yetkazilishi;

uchinchidan, mahalliy bozorda faoliyat olib borayotgan yoki shunday faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan xorijiy davlat ishbilarmonlarining ishonchsizligiga olib kelishi;

to'rtinchidan, bozorda ikki yoki undan ortiq shaxslarning daromad topish imkoniyatini cheklagan holda bir shaxsning yakka monopol hukmronligini o'rnatish hamda boshqalarning ushbu borzorga kirib kelishiga to'sqinlik qilish, umuman bozordagi mavjud mahsulot taqsimotiga hamda iste'molchining tovar, ish yoki xizmat turini erkin tanlash imkoniyatini cheklash kabi shu va boshqa salbiy jihatlarini sanab o'tish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga ko'ra quyidagi holatlarda shaxsning yoki shaxslar guruhining tovar va moliya bozorida insofsiz raqobatga olib keluvchi hatti-harakatlari sifatida qarash mumkin bo'llib bularga jumladan:

- ishlab chiqarilishi yoki realizatsiya qilinishi qonun hujjatlari bilan taqilangan mahsulot to'g'risida axborot tarqatish;

- - jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeiga qarab, boshqa holatlarga ko'ra kamsitish yoki o'zga shaxslarning mahsulotini badnom etish;

- - qonun hujjatlarining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan, fuqarolarning sog'lig'i yoki hayotiga va atrof muhitga zarar yetkazuvchi

yoxud zarar yetkazishi mumkin bo'lgan, shuningdek xavfsizlik vositalariga e'tiborsizlik tuyg'usini uyg'otuvchi harakatlarga da'vat qilish;

- majburiy sertifikatlashtirilishi zarur bo'lgan yoki ishlab chiqarilishi yoxud realizatsiya qilinishi uchun maxsus ruxsatnomasi (litsenziya) bo'lishi talab etiladigan mahsulotni tegishli sertifikati, litsenziyasi bo'lmay turib reklama qilish;

- agar mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonun hujjalarda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, boshqa mahsulot reklamasida qo'llaniladigan umumiy yechim, matn, tasvir, musiqali yoki ovozli ohanglarni aynan takrorlash (taqlid yoki o'xshatma qilish);

- jismoniy shaxsning nomi yoki tasviridan uning roziligidiz foydalanish;

- axborot mazmunining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xorijiy so'z va iboralardan foydalanish;

- mahsulotning davlat organlari yoxud ularning mansabdor shaxslari tomonidan ma'qullanganligini ko'rsatish;

- ishtirok etish uchun muayyan mahsulotni olish sharti qo'yilgan rag'batlantiruvchi lotereya, tanlov, o'yin yoki shunga o'xhash boshqa tadbir o'tkazishni tadbirning tashkilotchisini, uni o'tkazish qoidalari va muddatlarini, bunday tadbir haqidagi axborot manbaini, mukofotlar yoki yutuqlar miqdorini, ularni olish muddatlari, joyi va tartibini ko'rsatmagan holda reklama qilish;

- mahsulotni tovar belgisi yoki xizmat ko'rsatish belgisi reklama qilish taqiqlangan yoxud reklama qilishga nisbatan tegishli chekllovlar yoki talablar belgilangan mahsulotning tovar belgisi yoki xizmat ko'rsatish belgisi bilan adashtirib yuborish darajasida bir xil yoxud unga aynan o'xhash bo'lgan boshqa mahsulotning reklamasi ko'rinishida reklama qilish. Shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan yuqorida reklamani ommalashtirish bilan bog'liq harakatlardan birini sodir etishi unga nisbatan raqobat qonunchiligini buzish holati sifatida qarash mumkin.

- Bozor iqtisodiyoti sharoitida reklama tadbirkorlikni rivojlanтирish, raqobatni kuchaytirish, monopoliyaga qarshi kurashish, iste'mol bozorini egallash hamda foya olishni tezlashtirishga xizmat qiladi. Reklama ko'rinishidan nomoddiy xususiyatga ega bo'lgani bilan, u jamiyatda bozorning qatnashchisi bo'lishga oid «ijtimoiy fikr»ni

shakllantiradi. Sog'lom iqtisodiy raqbat haqqoniy axborot, ya'ni reklama natijasida yaratiladi. Reklama bozorning ishtirokchilarini doimo axborot bilan ta'minlab turadi.

- Bu borada reklama axborotini tarqatish jarayonini tartibga solish qonunchilikda muhim ahamiyatga ega. Chunki, tuzilishi jihatdan to'g'ri, ya'ni qonuniy bo'lgan reklama axborotini tarqatish jarayonida qonun hujjatlari talablariga rioya etilmasa, u o'z-o'zidan noto'g'ri (noqonuniy) reklamaga aylanib qolishi, shuningdek, iste'molchilarga va boshqa raqobatchilarga zarar yetkazishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, tarqatish vaqt, joyi va usuliga nisbatan qo'yilgan talablar buzilgan holda namoyish etilgan reklama, albatta, reklama beruvchi bilan iste'molchini yanada yaqinlashtirish o'rniga ularni bir-biridan uzoqlashtiradi, shuningdek reklamani tarqatishdagi kamchiliklar tufayli salohiyatli sheriklar va kontragentlarda reklama qilingan tovarga nisbatan «rad etish» kayfiyatni paydo bo'ladi. Mazkur holatlarni inobatga olgan holda reklama axborotini qabul qilish psixologiyasi nuqtai nazaridan qonun chiqaruvchi organ tovar (ish, xizmat) egalari hisoblangan reklama beruvchi bilan bunday tovar (ish, xizmat)larga ehtiyoji bo'lgan iste'molchilar o'tasidagi o'zar oloqani umumlashtirishga xizmat qiluvchi norma sifatida reklamani tarqatish qoidalarini o'rnatishga harakat qilgan. Bunday qoidalar esa, o'z navbatida, reklamani tarqatishga oid talab va taqiqlarni belgilab beruvchi normativ hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Reklamani tarqatish vaqt, joyi va usulining ko'p imkonliligini inobatga olgan holda qonun chiqaruvchi mazkur uch omilning har birining xususiyatlarini belgilab chiqqan tarzda reklamani tarqatishning namunaviy va qat'iy shartlarini huquq normalarida mustahkamlagan.

- Demak, reklamaning o'zi iqtisodiy kategoriya bo'lsa-da, reklamani tarqatish huquqiy kategoriya hisoblanadi. Biroq ayrim olimlar reklamani tarqatishni reklama singari iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qiladilar.

- Reklamani tarqatish jarayonini tartibga solishda «Reklama to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunidan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirdorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitacining 2001-yil 6- apreldagi qarori bilan tasdiqlangan “Reklamani joylashtirish to'g'risida”gi Nizomi muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda reklamani joylashtirish va unga ruxsat berish tartibi, ruxsat beruvchi organlarning →

ro'yxati ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, reklama munosabatlarini shartnomaviy huquqiy tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, reklama qonunchiligini buzganlik uchun tegishli huquqiy ta'sir chorasini qo'llash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining jinoiy va ma'muriy qonunchilik normalari qo'llaniladi.

- O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuni milliy reklama munosabatlarini tartibga soluvchi maxsus qonun hujjati hisoblanadi. Mazkur qonun hujjati reklama munosabatlarini tartibga soluvchi maxsus qoidalarni belgilab xususan ushbu qonunning 1-moddasi birinchi qismiga ko'ra, reklama to'g'risidagi qonunning maqsadi reklamani tayyorlash va tarqatish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib vazifalari belgilab o'tiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasida reklama beruvchining huquq va majburiyatlari belgilangan bo'lib unga ko'ra, reklama beruvchi huquqlari bo'lib:

- reklama xususida shartnomada tuzish to'g'risida oshkora taklif (ommaviy oferta) kiritish;
- reklama tayyorlovchi va tarqatuvchi shartnomani asossiz ravishda bekor qilgan hollarda, yetkazilgan zararning o'rmini va ma'naviy zararni qoplash to'g'risida da'vo bilan sudga murojaat qilish.

Reklama beruvchi majburiyatları:

- reklama tayyorlovchi va (yoki) tarqatuvchining talabiga binoan reklama axborotining ishonchliligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi;
- agar reklama beruvchining faoliyati litsenziyalanishi zarur bo'lsa, mahsulotni yoki reklama beruvchining o'zini reklama qilayotganda tegishli litsenziyanı taqdim etishi shart.

Reklama beruvchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va o'zga majburiyatlarni bajarishi mumkin. Shuningdek, mazkur qonun hujjatida reklamani tarqatish vositalari va uni reklama qilish tartibi, ayrim mahsulot turlarini reklama qilish tartibi ko'rsatib o'tiladi. Xususan, televiedeniye va radiodagi reklama, bosma ommaviy axborot vositalaridagi reklama, telefon va hujjatli elektr aloqadan foydalilaniladigan tarzdagi reklama shakllar ko'rsatib o'tiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Reklama to'g'risida"gi Qonuning 17-→ moddasida televiedeniye va radio vositalarida mahsulot to'g'risidagi ma'lumotlarni reklama qilish tartib qoidalari belgilanib o'tiladi. Jumladan, teleradio tashkilotlar uchun reklamaga ajratilgan ko'rsatuv

(eshittirish) vaqtı ko'rsatuvning (eshittirishning) har bir soatiga 10 foizdan oshib ketmasligi kerak. Bu talab ko'rsatuvning (eshittirishning) ixtisoslashtirilgan reklamaviy kanallariga tatbiq etilmaydi. 45 minutdan ortiq davom etadigan konsert-tomosha va sport dasturlari, kino- va telefilmlar reklama uchun to'liq 45 minutlik vaqt oralig'ida ko'pi bilan bir-marta uzib qo'yilishi mumkin. Reklama bu ko'rsatuvlarning (eshittirishlarning) boshlanishi oldidan va (yoki) ular tugaganidan so'ng joylashtirilishi ham mumkin. 10 minutdan kam davom etadigan teleko'rsatuvlarga (radioeshittirishlarga) umuman, 10 minutdan ortiq davom etadigan teleko'rsatuvlarga (radioeshittirishlarga) esa bu teleko'rsatuvlarning (radioeshittirishlarning) mualliflik huquqi egasi bilan kelishmasdan turib reklama joylashtirilishi mumkin emasligi belgilanib o'tiladi.

Yuqorida tahlil qilingan milliy qonunchilikdan tashqari, reklama xizmati turli xil xalqaro hujjatlari bilan ham tartibga solingen. Chunonchi, Xalqaro savdo palatasi tomonidan 1987-yil-iyunda Parijda qabul qilingan Xalqaro reklama kodeksida birinchilardan bo'lib reklamaning asosiy tamoyillari va qoidalari belgilangan .

MDH ishtirokchi-davlatlari o'rtasida 1993-yil 23-dekabrda imzolangan Monopoliyaga qarshi siyosatni bahamijihat olib borish to'g'risidagi Xalqaro shartnomada esa amaldagi milliy reklama qonunchiligidan vazifalari uchun asos sifatida olingan reklamaga qo'ilgan taqiqilar o'rnatilgan. Keyinchilik mazkur xalqaro shartnoma 2000-yil 25-yanvarda yangi tahrirda Moskva shahrida imzolangan. Mazkur xalqaro shartnoma ijrosini ta'minlash maqsadida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ishtirokchi-davlatlari o'rtasida 2003-yil 19-dekabrda Moskva shahrida Reklama faoliyatini tartibga solish sohasida hamkorlik to'g'risidagi Bitim imzolanib, uning predmeti MDH ishtirokchi-davlatlari bozorlarida, xususan, bank, sug'urta hamda jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag'larini jalb qilish bilan bog'liq boshqa turdag'i xizmatlar bozori, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozorlarda reklamani tayyorlash, joylashtirish va tarqatish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan .

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 16-→ apreldagi 198-sonli qarori bilan tasdiqlangan 1997-yil 14-martda Qozog'iston, Qирг'изистон va O'zbekiston Respublikasi Hukumatlari o'rtasida imzolangan Monopoliyaga qarshi siyosat sohasidagi integratsiyani chuqurlashtirish to'g'risidagi Kelishuvda esa Taraflar

o'zlarining milliy qonun hujjatlariga muvofiq reklama faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini imkon qadar uyg'unlashtirish masalasini ko'rib chiqishlari belgilangan.

Tadbirkorlikning boshqa sohalari kabi reklama faoliyatida ham davlat nazorati va reklama munosabatlari ishtirokchilarining o'zini o'zi boshqaruvi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunday muhimlik ular o'rtasidagi o'zarlo aloqa doirasini ham belgilab beradi. Reklamani boshqarish va nazorat qilish bo'yicha jahon amaliyoti, xususan, davlatimizning milliy tajribasi bu borada quyidagi uch usulining mavjudligini tasdiqlab beradi:

Birinchidan, tartibga solish umummajburiy kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni chiqarish va ularning ijro etilishini nazorat qilish yo'li bilan faqat davlat organi tomonidan amalga oshiriladi. Reklama munosabatlarning ishtirokchilari esa mustaqil huquq ijodkorligi orqali o'z faoliyatlarini bevosita tartibga solish huquqiga ega bo'lmaydilar. Mazkur usul O'zbekiston Respublikasining reklama amaliyotida mustaqillik-yillaridan boshlab 2000-yilgacha amalda mavjud bo'lgan.

Ikkinchidan, birinchi usuldan farqli o'laroq reklama munosabatlari faqat ularning ishtirokchilari tomonidan tartibga solinadi. Ular reklamani jamoatchilik tamoyili asosida o'zarlo hamkorlikda tartibga solish maqsadida nodavlat tashkilotlariga birlashgan holda reklama faoliyatiga oid qoidalarni ishlab chiqadilar hamda ixtiyoriy ravishda o'z zimmalariga bunday qoidalarga rioya qilish va ularni bajarish majburiyatini oladilar. Ushbu holat jahon reklama amaliyotida kamdan-kam uchrab, asosan G'arbiy Yevropa mamlakatlarining tajribasida namoyon bo'lgan.

Uchinchidan, yuqorida bayon etilgan ikkala usuli bir vaqtida qo'llagan holda reklama faoliyatini tartibga solish bo'yicha davlat hokimiyyati organi va o'zini o'zi tartibga soluvchi jamoat birlashmalari o'rtasida vazifalarni taqsimlash orqali boshqaruv amalga oshiriladi. Bunda normativ-huquqiy hujjatlarni chiqarish va ularning ijrosi nazorati davlat tomonidan amalga oshirilishi bilan birga, ayrim holatlarda huquq ijodkorligi va nazorat qilish funksiyasi o'zini o'zi boshqarishga qaratilgan birlashmalar tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur usul MDH davlatlarining deyarli barchasida amalda mavjud bo'lib, davlatimizning reklama amaliyotida 2000-yildan buyon qo'llanib kelinmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarda tadbirkorlikning

reklama yordamida qo'llab-quvvatlanishi kundalik ishga aylanib bormoqda. Bunda davlat bozor iqtisodiyotiga asoslangan bozor munosabatlарining o'ziga xos qonuniyatlарini e'tiborga olgan holda tadbirdorlik sohalaridan biri bo'lган reklama faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri aralashmaydi, balki uni tartibga solish chora-tadbirdorlарini ko'radi, xolos.

O'zbekistonda Respublikasida reklama faoliyatini huquqiy tartibga solish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Xususiyashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi. Mazkur qo'mitaning tashkiliy huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Xususiyashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirdorlari to'g'risida"gi qaroriga ilova tarzida tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining Xususiyashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi to'g'risida"gi Nizomiga muvofiq amalga oshiradi. Mazkur Nizom qoidalariga ko'ra, Davlat raqobat qo'mitasi xususiyashtirish, davlat mulkini boshqarish, qimmatli qog'ozlar bozori, monopoliyaga qarshi siyosat, raqobatni rivojlantirish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, birja, baholash, rietorlik va reklama faoliyati sohasida davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Davlat raqobat qo'mitasining reklama munosabatlарini huquqiy tartibga solish va nazorat qilish vakolatlari "O'zbekiston Respublikasining Xususiyashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi to'g'risida"gi Nizomida belgilangan bo'lib unga ko'ra:

Davlat raqobat qo'mitasi iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish va reklama faoliyatini tartibga solish sohasida:

- iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nazorat qiladi;

- iste'mol tovarlariga narxlar va xizmatlarga tariflar monitoringini olib boradi, bozorda sifatsiz iste'mol tovarlari va xizmatlar paydo bo'lishining oldini olish choralarini ko'radi;

- jamoat tuzilmalari bilan birqalikda iste'molchilarining huquqlari va manfaatlari himoya qilinishini, shuningdek aholining iste'mol

madaniyatini oshirish bo'yicha ma'rifiy ishlar olib borilishini amalga oshiradi;

- reklama sohasida insofsiz raqobatga yo'l qo'ymaslik va noto'g'ri reklamaga barham berish maqsadida reklama bozorini tartibga solish chora-tadbirlarini ko'radi;

- davlat organlari bilan birgalikda iste'molchilarining huquqlarini himoya qilishga va reklama sohasida insofsiz raqobatning oldini olishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi.

Tashqi reklamani joylashtirish tartibi mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida belgilanadi. Tashqi reklamani joylashtirish uchun tegishli mahalliy davlat hokimiyat organlarining ruxsati olinishi lozim. Muayyan shaxs egallab turgan binoning tashqi tomonida, binoga kirish joyida shu shaxs to'g'risida joylashtirilgan yoki mazkur shaxsning mahsuloti haqida shu bino vitrinasidagi axborot (peshlavha) reklama deb hisoblanmaydi va buning uchun mahalliy davlat hokimiyati organlarining ruxsatini olish talab etilmaydi.

Ushbu qoida mulk huquqining mazmunidan kelib chiqib, bino mulkdorining o'ziga tegishli binoning tashqi tomoni va peshtoqiga o'zi haqidagi va o'zining mahsuloti xususidagi ma'lumotlarning joylashtirganligi reklama hisoblanmasligi va buning uchun mahalliy davlat organlarining ruxsati olinmasligini ko'zda tutadi. Zero, FKning 164-moddasiga muvofiq, mulkdor o'z mol-mulkini o'z xohishi va manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishga haqlidir.

Tashqi reklamani joylashtirishga nisbatan qonun muayyan talablarni belgilaydi. Zero, tashqi reklama joylashtirayotgan paytda reklama beruvchi va reklama tarqatuvchilar muayyan qoidalarga amal qilishlari lozim. Shu bilan birga reklamani yo'l chekkalariga joylashtirayotgan shaxslar nafaqat o'z manfaatlarini ko'zlashlari balki, yo'lda harakatlanayotgan transport vositalari, piyodalarining erkin va xavfsiz harakatlanishlariga to'sqinlik qilmasliklari shart.

Tashqi reklama joylashtirilayotganda yo'l belgilari, svetoforlar, chorrahalar, piyodalarining o'tish joylari, umum foydalanishdagi transport vositalari bekatlarini to'sib qo'yilmasligi kerak. Bundan tashqari, yo'l chekkasida joylashtiriladigan reklama yo'l belgilari va tasvirini takrorlamasligi (yoki aynan taqlid qilmasligi) talab etiladi.

Tabiatni muhofaza qilish obyektlari doirasida tashqi reklamani joylashtirishga mahalliy davlat hokimiyati organlari yoki tegishli davlat boshqaruv organlarining vakolat doirasida ular bilan kelishilgan holda ruxsat beriladi.

Tabiatni muhofaza qilish obyektlari hisoblanadigan o'rmonlar, yo'l chetidagi daraxtzorlar, qo'riqxonalar va shu kabi boshqa obyektlarda tashqi reklamani joylashtirish uchun mahalliy davlat organi bilan **birga** tegishli davlat organining vakolati doirasidagi o'zaro kelishgan ruxsatini olinadi. Bunday organlar jumlasiga tabiatni muhofaza qilish **Davlat** qo'mitasi va uning joylardagi organlari kiradi.

Tabiatni muhofaza qilish obyektlari doirasida reklamani joylashtirish uchun ruxsat berilayotgan paytda tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi va uning joylardagi tuzilmalari reklamani joylashtirish tabiatni muhofaza qilish obyektiغا zarar yetkazmasligini, atrof-muhitga putur yetkazmasligini tekshirishi lozim. Tabiatni muhofaza qilish obyektlari doirasida reklama berish tashqi reklamaning o'ziga xos ko'rinishi sifatida har doim umumiylashtirishda ma'lumotlarni berish bilan birga, tabiiy atrfo-muhitini asrashga qaratilgan ijtimoiy axbrotli reklamani ham o'zida ifodalashi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 26-iyundagi "Reklama to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 243-sonli qarori bilan "Reklama to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni talablari bajarilishini ta'minlash yuklangan davlat boshqaruvi organlari va joylardagi davlat hokimiyati organlari ro'yxati tasdiqlanib, mazkur ro'yxatda reklama qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash maqsadida Qonunning moddalarini bo'yicha davlat organlarining vakolatlari birma-bir aniq tarzda ko'rsatib o'tilgan:

1. "O'zteleradio" kompaniyasiga teleko'rsatuvlarda va radio eshittirishlardagi reklama bo'yicha Qonunning 11-moddasi; homiylar to'g'risidagi axborotlar bo'yicha ko'rsatmalar hamda homiylar xizmatlaridan teleko'rsatuvlarda va radioeshittirishlarda foydalanishga yo'l qo'ymaslik borasida Qonunning 12-moddasi; yashirin reklamalardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik borasida Qonunning 14-moddasi; televide niye va radioda reklamalarni cheklash bo'yicha Qonunning 17-moddasi talablari bajarilishini ta'minlash yuklangan;

2. O'zbekiston matbuot va axborot agentligi zimmasiga – omnaviy axborot vositalarida reklamani amalga oshirish bo'yicha Qonunning 11-

moddasi; reklamaga homiylar to'g'risidagi axborotlar bo'yicha ko'rsatmalar bo'yicha Qonunning 12-moddasi; yashirin reklamalardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik yuzasidan Qonunning 14-moddasi; ommaviy axborot vositalarida reklamalarni cheklash bo'yicha Qonunning 18-moddasi; matbuot nashrlarida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar reklamasini cheklash borasida Qonunning 23-moddasi talablariga rioya etilishini ta'minlash yuklangan;

3. Ommaviy axborot vositalarini nashr etuvchi vazirliklar va idoralar, mustaqil ommaviy axborot vositalari zimmasiga – ommaviy axborot vositalarida reklamalarni cheklash bo'yicha Qonunning 18-moddasi; matbuot nashrlarida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar reklamasini cheklash borasida Qonunning 23-moddasi talablari bajarilishini ta'minlash yuklangan;

4. O'zbekiston pochta va telekommunikatsiyalar agentligiga – pochta jo'natmalari, elektron aloqa vositalarida reklamalarning bir xil bo'lishini ta'minlash borasida Qonunning 11-moddasi; reklamada homiylar to'g'risidagi axborotlar bo'yicha ko'rsatmalar bo'yicha Qonunning 12-moddasi; yashirin reklamalardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha Qonunning 14-moddasi; pochta jo'natmalarida reklamalarni tarqatish uchun ruxsatnomalar berish borasida Qonunning 21-moddasi talablariga rioya etilishini ta'minlash yuklangan;

5. Joylardagi davlat hokimiyyati organlari zimmasiga – tashqi reklamalarni joylashtirish tartibini belgilash, tashqi joylashtirishni nazorat qilish bo'yicha Qonunning 20-moddasi; tamaki, tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar reklamalarini tashqi joylashtirishni nazorat qilish bo'yicha Qonunning 23-moddasi; yer usti transport vositalarida; metropolitenda, vokzallarda, portlarda va aeroportlarda reklamalarni joylashtirish hamda tarqatishni nazorat qilish bo'yicha Qonunning 21-moddasi talablari bajarilishini ta'minlash yuklangan;

6. Ichki ishlar vazirligi (YPX) zimmasiga - yer usti transport vositalarida; metropolitenda, vokzallarda, portlarda va aeroportlarda reklamalarni joylashtirish hamda tarqatishni nazorat qilish bo'yicha Qonunning 21-moddasi talablarga rioya etilishini ta'minlash yuklangan;

7. Sog'lijni saqlash vazirligiga – Qonunning 22-moddasi talablariga asosan voyaga yetmaganlar uchun dori-darmon vositalari; gipnoz qilish va ta'sir ko'rsatishning ruhiy yoki bioenergiya usullaridan foydalangan holda davolash seanslari, shunga o'xshash boshqa tadibirlar; tibbiyot buyumlari, tibbiy texnikani, gigiyena, dezinfeksiya, dezinseksiya va

deratizatsiya vositalari; davolab bo'lmaydigan va davolash qiyin bo'lgan kasalliklarga nisbatan terapeutik natija; tibbiyot muassasalari uchun mo'ljallangan dori-darmonlarni reklama qilish tartibini belgilash, uning bajarilishini nazorat qilish; kosmetika vositalari, vitaminli va biologik faol oziq-ovqat qo'shimchalar; maishiy kimyo vositalari, oziq-ovqat mahsulotlarini reklama qilish uchun ruxsatnomalar berish vakolati berilgan;

8. "O'z davstandart" markaziga – Qonunning 22-moddasi talablariga asosan kosmetika vositalari, vitaminli va biologik faol oziq-ovqat qo'shimchalar; maishiy kimyo vositalari, oziq-ovqat mahsulotlarini qo'llash va sotish uchun tegishli ruxsatnomalar berish vakolati berilgan.

Shaxsiylashtirish vositasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1031-moddasiga firma nomi, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va tovar kelib chiqqan joy nomi ko'rsatib o'tiladi. Shaxsiylashtirish vositasi egasi o'ziga tegishli tovarki, ishni yoki xizmatni shaxsiylashtirmaydi, balki, ushbu belgiga nisbatan huquqni amalga oshirish bilan bog'liq mutlaq huquqni o'zida namoyon etadi.

Shaxsiylashtirish vositalari o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra keng va tor doirada sharhlash mumkin. Shaxsiylashtirishning keng ma'noda sharhlashga ko'ra, subyektlarning tovarlar ishlab chiqarish va uni sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish jarayonida bir-biridan turli belgilarini shaxsiylashtirish vositalari orqali tafovutlanishi hisoblanadi. Shaxsiylashtirishning bunday vositasi bilan ayni subyektlarning o'ziga xos belgisi orqali tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va ishlar bajarish shart-sharoitlariga ega bo'lislari tushiniladi.

Shaxsiylashtirishning tor doiradagi tushunchasiga ko'ra, fuqarolik munosabatlarda fuqarolar va yuridik shaxslarning o'ziga tegishli turli xususiy alomatiga ega bo'lgan belgilar, so'zlar va boshqa alomatlardan foydalanib tovarlar ishlab chiqarish va realizatsiya qilish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish jarayonidan munosabat tushuniladi. Mazkur holatda intelektual mulk obyektini yuridik va jismoniy shaxslar tomonining o'zi tomonidan shaxsiylashtirish vositasidan foydalanib litsenziya sharnomasi asosida boshqa shaxsga vaqtincha litsenziarning nazorati ostida foydalanishi tushuniladi.

Intellektual mulk obyektlarini shaxsiylashtirish deganda sanoat namunalarini obyektlarining (firma nomlari, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, tovar kelib chiqqan joy nomalari, tijorat belgilari, domen nomlari v.h) bir shaxs tomonidan vakolatli davlat organi

ruhsatini olgan xolda o'zining nomiga rasmiylashtirish va undan foydalangan holda tovar maxsulotlari ishlab chiqarish hamda ishlar bajarish va hizmatlar ko'rsatish munosabatlari tushuniladi.

Shaxsiylashtirish vositasi fuqarolik huquqiy munosabat ishtiroychilar sifatidagi munosabatini ikki ko'rinishda huquqiy hamda iqtisodiy kategoriya sifatida qarashimiz mumkin. Huquqiy jihatdan tovar belgilari xizmat ko'rsatish belgilari va boshqa intelektual mulk obyektlariga nisbatan mulk huquqini qonunda ko'rsatilgan tartibda shaxsiylashtirish xususiyatini keltirib chiqaradi. Buning natijasida ushbu obyektlarga nisbatan shaxsning shaxsiy egaligi vujudga keladi va boshqalardan uning ruxsatsiz foydalanishga ruxsat etilmasligi yoki qonunda ko'rsatilga tartibda foydalanishni o'z ichiga qamrab oladi. Shaxsiylashtirishning iqtisodiy mazmuniga ko'ra ushbu obyekt egasi undan daromad olishga shaxsan amalga oshirilishi yoki boshqa shaxslarga foydalanish uchun berishga qaratiladi.

Shaxsiylashtirish vositalarini iqtisodiy mazmunini uning tovar bozorida alohida munosabat sifatida muomalada bo'lishi bilan belgilanadi. Chunki, shaxsiylashtirish vositalari ijtimoiy munosabatda qo'llanilmas ekan hech qanday huquqiy oqibat yoki iqtisodiy manfaat keltirib chiqarmaydi.

Ijtimoiy va iqtisodiy nuqtai nazardan tadbirkor tovar ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirar ekan, eng avvalo, ishlab chiqargan mahsulotining iste'molchilar o'tasida keng ommalashishini hamda ularni o'ziga ipsiz bog'lab olgan holda ko'p daromad topishni maqsad qiladi. Aytish mumkinki, tovarning iste'molchini o'ziga bu darajada jalb etishida shaxsiylashtirish vositasi bo'lgan tovar belgisining o'rni va roli katta. Chunki, aynan mazkur nomoddiy obyekt iste'molchini kelgusida yana shu mahsulotni sotib olishda asosiy vositachi bo'lib xizmat qiladi.

Tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va tovar kelib chiqqan joy nomlari bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish bilan bog'liq munosabatlari 2001-yil 30-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra tartibga solinadi. Shu bilan birga mazkur shaxsiylashtirish vositalari bilan bog'liq shartnomaviy munosabatlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining (65-bobi, 1098-1111-moddalari) qoidalariiga ko'ra tartibga solinadi.

2001-yil 30-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasi birinchi qismiga muvofiq Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisi bu bir yuridik va jismoniy shaxslar tovarlari va xizmatlarini boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning shu turdag'i tovarlaridan farqlash uchun xizmat qiladigan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan belgilardir deb belginlansa mazkur qonunning 5-moddasida Mamlakat, aholi punkti, joy yoki boshqa jo'g'rofiy obyektning (bundan buyon matnda jo'g'rofiy obyekt deb yuritiladi) tovarni belgilash uchun ishlataladigan, uning alohida xususiyatlari tamomila yoki asosan mazkur jo'g'rofiy obyekta xos tabiiy sharoitlar bilan yoki boshqa omillar yoxud tabiiy sharoitlar va ushbu omillarning birikmasi bilan belgilanadigan nomi tovar kelib chiqqan joy nomi deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 6-yanvardagi "Raqqobat to'g'risida"gi 13-moddasi birinchi qism uchinchini bandida tovar belgisini va yuridik shaxsni shaxsiylashtirishning boshqa vositasini takorlash, reklama materiallaridan, tovarning firma o'rovi va shaklidan nusxa ko'chirish orqali qalbakilashtirish insofsiz raqqobat sifatida ko'rsatib o'tiladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligiga muvofiq, shaxsiylashtirish vositalaridan qonuniy foydalanish unga nisbatan huquqni vujudga kelishi tegishli ravishda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan holda vaqtan vujudga keladi. shaxsiylashtirish vositalariga nisbatan mazkur talabning bajarilishi shaxsning yoki shaxslar guruhining insofli raqqobatlashish holatini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1098-moddasi uchinchini qismiga muvofiq yuridik shaxsning firma nomi uning ta'sis hujjatlarida ko'rsatiladi. Firma nomiga bo'lgan huquq yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtidan e'tiboran yuzaga keladi. Tovar belgisi (xizmat ko'rsatish belgisi)ga bo'lgan huquq Fuqarolik kodeksining 1102-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligidan ro'yxatdan o'tgan vaqtan boshlab yuzaga keladi. Shuningdek, firma nomiga (1101-modda), tovar belgisi (xizmat ko'rsatish belgisi) (1105-modda), tovar kelib chiqqan joy nomiga (1109-moddasiga)ga bo'lgan huquqni litsenziya shartnomasiga ko'ra huquqni boshqa shaxsga o'tkazish shaxsiylashtirish vositalaridan insofli egallash deb topilib insofli raqqobat munosabatlari sifatida qaraladi.

Shaxsiylashtirish vositalaridan insofsiz raqobat shaklida foydalanish quyidagi jihatlarini alohida ta'kidlash lozim bo'lib:

Birinchidan, mutlaq huquq egasining roziligesiz uning shaxsiylashtirish vositalaridan tovar ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish munosabatlarida foydalanish.

Ikkinchidan, oldin ustun mavqega ega bo'lgan tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va tovar kelib chiqqan joy nomlariga o'xshash bo'lgan belgidan foydalanish.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq qonunchilik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar qonunchilik sohasida olib borilayotgan islohotlarning eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning mazkur sohasida band bo'lgan shaxslarning huquqlarini kafolatlash va himoya qilish zarurligining asosiy maqsadi mamlakatda erkin ishbilarmonlik muhitini shakllantirish va turli huquqqa zid hatti- harakatlardan himoya qilishdan iborat.

Tadbirkorlik subyektlariga tegishli tijorat sirini insofsiz raqobatdan huquqiy himoya qilish ana shunday qonunchilik islohotlaridan biri hisoblanadi. Mazkur intellektual mulk obyektini huquqiy muhofaza qilish eng avvalo shaxsnинг una bo'lgan huquqlarini erkin amalga oshirish va boshqalardan ushbu huquqni buzmashlikni talab qilishni o'zida aks ettiradi. Moddiy xususiyatga ega bo'lgan ashyolardan farqli o'laroq tijorat sirini boshqa shaxslarga ma'lum bo'lмаган ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan mutlaq huquq obyekti hisoblanadi.

Insofsiz raqobat sifatida tijorat siridan uning egasini roziligesiz foydalanganlik holatini huquqiy baholashning o'ziga xosligini huquqiy tahlil etishdan oldin tijorat sirin huquqiy mohiyatini ochib berish lozim bo'ladi.

Tijorat siri huquqiy maqomiga ko'ra shaxsnинг o'zidan boshqa xech kimga ma'lum bo'lмаган hamda qat'iy himoya qilinadigan texnikaviy, tashkiliy va tijorat xususiyatiga ega bo'lgan ma'lumotlar yig'indisi hisoblanadi. Adabiyotlarda tijorat siri turli ko'rinishda "ishlab chiqarish siri", "nou-xau", "oshkor etilmagan ma'lumot" shakllarida uchraydi. Aslida sanab o'tilgan mazkur tushunchalar bir ma'no va mazmunni ifodalab shaxs yoki shaxslar guruhiга tegishli bo'lgan uning egasiga nisbiy va haqiqiy tijorat qiymatiga ega bo'lgan axborot sifatida

tushuniladi. Xorijiy davlatlar qonunchiligidagi ham "trade secret" ya'ni tijorat siri ma'nosida tahrir etiladi.

Tijorat siri intellektual mulkning boshqa obyektlariga nisbatan ayrim xususiyatiga ko'ra ajralib turadi. Xususan tadbirdorlik faoliyatida tijorat siridan foydalanish uchun ruxsat olish boshqa intellektual mulk obyektlaridan farqli ravishda qo'shimcha ravishda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi talab etilmaydi. Masalan, yuridik shaxsnинг firma nomidan foydalanish FKning 1098-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, tovar belgisi FKning 1101-moddasi birinchi qismiga ko'ra, tovar kelib chiqqan joy nomi FKning 1108-moddasiga muvofiq u davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtida e'tiboran yuzaga keladi va huquqiy jihatdan muhofaza qilinadi.

## **12. BANKROT BO'LGAN TADBIRKORLIK SUBYEKLARINI TUGATISH TARTIBI.**

Bankrotlik tushunchasi. Bankrotlik to'g'risidagi qonunchilik. Bankrotlikka oid huquqiy institutlar. Sudgacha sanatsiya. Bankrotlik to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rib chiqish tartibi. Kuzatuv. Sud sanatsiyasi. Tashqi boshqaruv. Kelishuv bitimi va uni tuzish tartibi. Bankrot korxonani tugatish. Bankrotlikning soddalashtirilgan taomillari. Ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlar bankrotligining xususiyatlari.

Bankrotlik instituti o'z to'lov qobiliyatini tiklash imkoniyatiga ega iqtisodiy nochor korxonalarни moliiyaviy sog'lomlashtirish orqali yoki iqtisodiy nochor, rentabelsiz va istiqbolsiz xo'jalik yurituvchi subyektlarni iqtisodiy xalos qilish yo'li bilan iqtisodiyotni mustahkamlovchi amaldagi mexanizmlardan biri hisoblanadi.

**Bankrotlik instituti** – xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtaisdagi munosabatlar, amaliyotda va huquqiy tartibga solish tizimida nisbatan yangi institut bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida uning o'mni va rivoji alohida ahamiyatga egadir. Bankrotlik instituti mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim huquqiy quroq, vositalardandir.

Bankrotlik instituti bozor munosabatlariiga asoslangan iqtisodiyotning zarur elementi sanaladi va u siz iqtisodiy tartibotni ham taraqqiyotni ham yo'lga qo'yib bo'lmaydi.

Mustaqillikkacha bo'lgan davrda bankrotlik instituti fuqarolik va tadbirdorlik huquqiy munosabatlarda qo'llanilmas edi va bu sohadagi ayrim ishlar ma'muriy vositalar bilan hal etilar edi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy va siyosiy mustaqillikka erishganidan so'ng bozor munosabatlari joriy etila boshlandi. Uning ajralmas tarkibiy qismi sifatida, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtaida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga solish mexanizmi bo'lib bankrotlik instituti ham shakllana boshladi.

Sud tomonidan yakka tadbirkorni bankrot deb topishning yoki yakka tadbirkor o'zini bankrot deb e'lon qilishining asoslari va tartibi qonun bilan belgilanadi.

Yuridik shaxsning bankrot deb hisoblanishi uning tugatilishiga olib keladi. Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs, shuningdek matlubot kooperativi yoki ijtimoiy fond shaklida ish olib borayotgan yuridik shaxs bankrotlik alomatlari mavjud bo'lgan taqdirda o'zini bankrot deb topish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishi mumkin.

Bankrotlikning asosiy belgilari o'zgardi, yuridik shaxs va yakka tartibdag'i tadbirkorlarning nochorligi tushunchalari bir-biridan farqlandi. Mazkur o'zgartirishlarni hayotning o'zi, iqtisodiyotda ro'y berayotgan islohotlar taqozo etmoqda. Shuning uchun bankrotlik instituti bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan har qanday mamlakat davlat huquqiy tuzilishining uzviy bo'g'ini ekanligi tabiiydir.

Qarzdorning pul majburiyatları bo'yicha kreditörler talablarını qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatlarını bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to'lov majburiyati yuzaga kelgan kundan e'tiboran uch oy davomida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo'lsa, bankrotlik alomati deb e'tirof etiladi.

Bankrotlik to'g'risidagi ish bankrotlik alomatlari mavjud bo'lgan taqdirda, agar qarzdor yuridik shaxsga nisbatan jami talablar eng kam ish haqining besh yuz karrasini tashkil etadigan bo'lsa, qarzdor yakka tartibdag'i tadbirkorga nisbatan esa eng kam ish haqining kamida o'ttiz karrasini tashkil etadigan bo'lsa, iqtisodiy sud tomonidan qo'zg'atilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi va bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organi bankrotlik sohasining davlat tomonidan tartibga solib borilishini ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organi – O'zbekiston Respublikasi Xususiyashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi va uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududi boshqarmalari o'z vakolatlari doirasida bu boradagi faoliyatni tartibga soladi.

Bankrotlik instituti bozor munosabatlari sharoitidagi tadbirkorlik raqobati natijasi sifatida o'zining muayyan normativ-huquqiy hujjatlari bazasiga ega. Bunda ayniqsa *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi* hamda uning iqtisodiy faoliyat olib borishga oid bo'lgan normalari bosh huquqiy manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan tadbirkorlik subyektlarining bankrotligi bilan bog'liq qoidalar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Xo'jalik protsessual kodeksi, Jinoyat kodeksi, Soliq kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va boshqa kodekslarda, tadbirkorlik faoliyatiga oid bo'lgan qator qonunlar, jumladan, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi, "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi, "Xususiy korxona to'g'risida"gi va boshqa qator qonunlarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, hukumat qarorlarida mustahkamlangan.

Shuningdek, "*Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to'g'risida*"gi Qonuni qishloq xo'jaligi korxonalarining bankrotligida ularni sanatsiya qilish bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan.

Mamlakatimizda bankrotlikka oid munosabatlarni tartibga solishda Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining roli ham juda katta, shunday farmonlardan 1998-yil 4-martdagi "*Xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy nochorligi va shartnoma majburiyatlarini bajarilishi uchun mansabdar shaxslarning javobgarligini kuchaytirish to'g'risida*"gi, 1999-yil 23-iyuldagagi "*Korxonalar bankrotligi va sanatsiyasi mexanizmini takomillashtirish to'g'risida*"gilarni sanab o'tish mumkin.

Bankrotlikka oid munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 26-iyuldagagi "*Korxonalarning bankrotligi to'g'risidagi qonunchilikni amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar haqida*"gi 362-sonli, 2009-yil 11-iyundagi "*Bankrotlik to'g'risida*"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan ma'lumotlarni e'lon qilishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 160-sonli va boshqa qarorlarini ham huquqiy manba sifatida e'tirof etish mumkin.

“Bankrotlik to’g’risida”gi Qonunga muvofiq hamda korporativ boshqaruv sifatini yaxshilash, xo’jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy ahvoli barqarorligi yuzasidan ularning rahbarlari va mulkdorlarining mas’uliyatini oshirish, shuningdek soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish va qasddan bankrotlikka olib kelingan holatlarini o’z vaqtida aniqlash maqsadida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 14 avgustdagи “Soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish va qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlarini aniqlash qoidalarini tasdiqlash to’g’risida”gi 224-sonli Qarori qabul qilindi. Mazkur Qoidalar sud boshqaruvchisi va davlat soliq inspeksiyalari xodimlari tomonidan qarzdorning moliyaviy-xo’jalik faoliyatini soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish va qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlarini aniqlash yuzasidan tahlil qilish tartibini belgilaydi. Ushbu normativ hujjat soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish va qasddan bankrotlikka olib kelish kabi harakatlar uchun mas’ul shaxslarning javobgarlikdan qo’chib qolishini istisno etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Bankrotlik to’g’risida”gi Qonunga va Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 14-avgustdagи “Soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish va qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlarini aniqlash qoidalarini tasdiqlash to’g’risida”gi 224-sonli Qaroriga muvofiq, Vazirlar Mahkamasining *“Iqtisodiy nochor korxonalarining sud boshqaruvchilarini faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”* 2004-yil 23-martdagи 138-son qaroriga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi 2013-yil 8-oktabr 277-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq sud boshqaruvchilarining vazifalariga va ularni attestatsiyadan o’tkazish talablariga bir qator qo’shimcha va o’zgartirishlar kiritildi.

Shuningdek, vakolatli davlat organlari tomonidan bu borada o’nga yaqin normativ hujjatlar ham qabul qilinib, tegishli tartibda ro’yxatdan o’tkazilgan. “Korxonalarни moliyaviy sog’lomlashtirish va to’lov qobiliyatini tiklash Namunali rejasi”, “Bankrot korxonani tugatish bo’yicha ish yurituvni amalga oshirish to’g’risida Nizom”, O’zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash davlat qo’mitasining 2006-yil 15-maydagи 1-son qarori bilan tasdiqlangan “Sud boshqaruvchilarining attestatsiya komissiyasi to’g’risidagi Nizom” va boshqalar shunday hujjatlar jumlasidandir.

Bankrotlikka oid masalalarini hal etishda normativ-huquqiy hujjat sanalmasada, muhim rol o'ynaydigan hujjat bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumi va Rayosati qarorlari ham katta ahamiyatga ega. Chunki, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'ttasidagi mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashuvi, fuqarolik munosabatlarida yangi institutlarning paydo bo'lishi bilan vujudga kelayotgan qiyinchiliklarning yechimini topishda Oliy sud Plenumining sudsiga rahbariy ko'rsatmalar (qarorlari)ga tayanilganida asosli bo'lishi mumkin. Shuning uchun Plenum tomonidan qonunlarni va boshqa me'yoriy hujjatlarni qo'llash bo'yicha ishlab chiqilgan ko'rsatmalar nafaqat sudsiga uchun, balki iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilari uchun ham muhimdir. O'z navbatida ushbu qarorlar nizolarni moddiy va protsessual huquq normalari asosidaadolatli hal etish va sud amaliyotining bir xilligini ta'minlash, tegishli normativ hujjatlarini tushunish va sharhlashdagi noaniqliklarni bartaraf etish, sud hujjatlari sifatini oshirish, tadbirkorlik va boshqa iqtisodiy faoliyatda qonunbuzarliklarning oldini olish hamda qonunchilikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

"Bankrotlik to'g'risida"gi Qonunni bir xilda qo'llanilishini ta'minlash maqsadida 2006-yil 27-yanvarda "Bankrotlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning xo'jalik sudsiga qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 142-sonli Plenum qarori qabul qilingan.

Xalqaro munosabatlarda bankrotlik bilan bog'liq masalalar huquqiy tartibga solishda BMTning xalqaro savdo huquqi Komissiysi (YuNSITRAL) tomonidan transchegaraviy nochorlik haqida Namunaviy qonun ishlab chiqilgan. Mazkur Qonun davlatlarga o'z milliy qonunchiligi tizimiga inkorporatsiya qilish uchun tavsiya qilingan (1997-yil 15-dekabrdagi BMT Bosh Assambleyasi 52/158- rezolyutsiyasi).

Bankrotlikka oid huquqiy institutlar fuqarolik huquqiy munosabatlar va tadbirkorlik huquqiy munosabatlarda alohida o'ringa ega bo'lib, ular xo'jalik yurituvchi subyektlarning bankrotligi bilan bog'liq munosabatlarda muayyan yo'naliishlarni tartibga solishga qaratilgan taomillarni belgilab beradi.

"Bankrotlik to'g'risida"gi Qonunda xo'jalik yurituvchi subyektlar bankrotligi bilan bog'liq munosabatlarda qo'llaniladigan taomillar ko'rsatilgan. Ular *sudgacha sanatsiya qilish yoki qarzdorni ixtiyor*

*ravishda tugatish, kuzatuv, sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv, tugatishga doir ish yuritish, kelishuv bitimi, soddalashtirilgan taomillar hisoblanadi.*

Kuzatuv, sud sanatsiyasi, kelishuv bitimi, tashqi boshqaruv va tugatishga doir ish yuritish yuridik shaxsning bankrotligi to'g'risidagi ish ko'rileyotganda amalga oshiriladigan taomillar hisoblanadi. Yakka tartibdagi tadbirkorning bankrotligi to'g'risidagi ish ko'rileyotganda esa faqatgina kelishuv bitimi va tugatishga doir ish yuritish kabi taomillar qo'llaniladi. Sudgacha sanatsiya qilish yoki qarzdorni ixtiyoriy ravishda tugatish suddan tashqari bajariladigan taomillar jumlasiga kiradi.

Sudgacha sanatsiya qilish qarzdorning bankrotligi to'g'risidagi ish yuritish qo'zg'atilgunga qadar amalga oshiriladi hamda qarzdorning to'lov qobiliyatini, iqtisodiy jihatdan qodirligini tiklash hamda kelgusida samarali faoliyat ko'rsatishi uchun sharoit yaratib berilishini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Bankrotlikning oldini olish maqsadida qarzdorning muassislar, boshqaruv organi yoki qarzdor mol-mulkining egasi bankrot deb topish to'g'risidagi ariza iqtisodiy sudga taqdim etilgunga qadar qarzdorni moliyaviy jihatdan sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'radi. Qarzdorni moliyaviy jihatdan sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar qarzdor bilan tuzilgan kelishuvga asosan kreditorlar yoki boshqa shaxslar tomonidan ham ko'riliши mumkin. Sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko'rsatgan holda o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan organning qarori asosida amalga oshiriladi va u o'n ikki oydan yigirma to'rt oygacha muddatga joriy etiladi.

"Bankrotlik to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonunga kuzatuv va sud sanatsiyasi kabi yangi institutlar alohida boblarda kiritilgan.

Xo'jalik protsessual kodeksiga ko'ra bankrotlik to'g'risidagi ishlar iqtisodiy sudlar sudloviqa taalluqlidir.

Arizaning mazmuni qonunda o'matilgan talablarga mos bo'lishi hamda "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonunning tegishli moddalariga binoan to'plangan hujatlardan tashkil topgan ilovalarga ega bo'lishi kerak.

Qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza bilan qarzdor, kreditor va prokuror pul majburiyatlari bajarilmagan hollarda murojaat etish huquqiga ega. Majburiy to'lovlar majburiyati bajarilmaganligi natijasida esa ariza bilan iqtisodiy sudga murojaat etish huquqiga

*qarzdor, prokuror, davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlar* ega.

Ariza yuqorida qayd etilgan holatlар yuzaga kelgan paytdan e'tiboran bir oydan kechiktirilmay iqtisodiy sudga yuborilishi kerak. Ariza ushbu muddatda taqdim etilmaganda, muddat tugaganidan keyin yuzaga kelgan qarzdorning kreditorlar oldidagi pul majburiyatları va (yoki) majburiy to'lovlар bo'yicha qarzdor rahbarining, tugatish komissiyasi a'zolarining yoki tugatuvchining subsidiar javobgarligiga sabab bo'ladi.

Sudya qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza kelib tushgan paytdan e'tiboran besh kundan kechiktirmasdan arizani qabul qilish va bankrotlik ishini qo'zg'atish yoki arizani qabul qilishni rad etish yoxud qaytarish to'g'risidagi masalani hal qiladi. Ariza ish yuritishga qabul qilingan taqdirda ariza kelib tushgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay kuzatuvni joriy etish haqidagi masalani hal qiladi. Arizani ish yuritishga qabul qilish va ko'rib chiqishga tayyorlash to'g'risidagi ajrimda kreditorlarning talablarini qondirishga doir chora-tadbirlar ham ko'rsatib o'tilishi mumkin. Sud amaliyotida bu ikki masalani bir ajrimda ko'rsatib o'tish odad tusiga kirgan.

Agar yuqorida ko'rsatib o'tilgan talablardan birortasi buzilsa ham, sudya qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizani qabul qilishni rad etishga haqli. Masalan, agar qarz qarzdor tomonidan uch oydan kam bo'lgan muddatda to'lanmagan bo'lса, ariza qabul qilinmaydi va bu to'g'rida ajrim chiqariladi. Mazkur ajrim XPKning 117-moddasiga asosan yakka tartibda sudya tomonidan 5 kunlik muddatda chiqariladi. Arizani qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi mumkin.

Arizani qaytarish to'g'risidagi ajrimni sudya yakka tartibda chiqaradi, hujjatlar arizachiga qaytariladi, mazkur ajrim ustidan shikoyat qilinishi mumkin. Yo'l qo'yilgan xatolar bartaraf etilgandan keyin, ariza qaytadan umumiy asoslarga ko'ra iqtisodiy sudga qayta topshirilishi mumkin.

"Bankrotlik to'g'risida"gi Qonunning 46-moddasida kreditorlar talablarini ta'minlashga doir chora-tadbirlar belgilab berilgan. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga binoan sud kreditorlarning talablarini qondirish yuzasidan choralar ko'rishga haqli. XPKning 77-<sup>→</sup> moddasida ko'rsatib o'tilgan choralardan tashqari sud tashqi boshqaruvchi yoki tugatish boshqaruvchisining rozilgisiz bitimlar

tuzishni taqiqlab qo'yishi, shuningdek qarzdorni qimmatli qog'ozlarni, valyuta jamg'armalarini hamda boshqa mulklarni saqlab turish uchun uchinchi shaxslarga topshirishga majbur qilishi mumkin. Shuningdek, qarzdorning mol-mulkini butunligicha saqlab turishga qaratilgan boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirishga haqlidir.

Kreditorlarning talablarni qondirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish haqidagi ariza, u kelib tushgan kunning ertasidan kechiktirmsandan ko'rib chiqilishi shart va uning natijalari yuzasidan shikoyat qilinishi mumkin bo'lган ajrim chiqariladi. Ko'rilgan choralar tashqi boshqaruv joriy qilingunga yoki qarzdorning bankrot deb topilishiga yoxud tugatishga doir ish yuritishning yakunlanishiga yoki kelishuv bitimining tasdiqlanishiga yoki qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to'g'risidagi hal qiluv qarori chiqarilgunga qadar amalda bo'ladi.

Qarzor besh kunlik muddat ichida iqtisodiy sudga, arizachiga va ishda ishtirot etayotgan boshqa shaxslarga mazkur ariza yuzasidan yozma fikrini yuborishga, shuningdek arizada ko'rsatilmagan barcha kreditorlarni o'ziga nisbatan bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atilganligidan xabardor qilishga haqli, qarzdorning iqtisodiy sudga yuborayotgan yozma fikriga mazkur yozma fikrning nusxasi arizachiga hamda bankrotlik to'g'risidagi ishda ishtirot etayotgan boshqa shaxslarga yuborilganligini tasdiqlovchi dalillar ilova qilinishi kerak. qarzdorning yozma fikrining yo'qligi bankrotlik ishining sudda ko'rib chiqilishiga to'sqinlik qilmaydi. Shuningdek, qarzdorning e'tirozlar yo'q bo'lган taqdirda kreditoring talablari asoslantirilgan deb hisoblanadi.

Sudya arizachi tomonidan qarzdorning to'lovlarini amalga oshira olmasligini tasdiqlovchi, asoslantirish uchun keltirgan dalillarini daxldorligini tekshiradi. Kreditor tomonidan keltirilgan talablarni asoslantiruvchi isbotlarning ham daxldorlik masalasi tekshiriladi. Sudya asosli qaror chiqarishi uchun materiallar yetarli emas deb hisoblasa, qo'shimcha dalillarni taqdim qilishni talab etishi mumkin.

Masalan, arizachi Davlat soliq inspeksiyasi bo'lsa, sudya nafaqa fondi va mehnat birjasidan qarzdorning bu tashkilotlardan qarzi bor yo'qligi haqida ma'lumot taqdim etishini so'raydi.

Ishni ko'rishga tayyorlash suda tomonidan yakka tartibda va ishda ishtirot etuvchi shaxslarga xabar bermasdan amalga oshiriladi. Ishni ko'rishga tayyorlashdan keyingi bosqich, bu arizachi yoki

kreditorlarning talablariga nisbatan qarzdor tomonidan keltirilgan vajlarni tekshirishdir. Umumiylasoslarda ishni ko'rishga tayyorlashda vajlarning asoslantirilganligi sud tomonidan bevosita nizo ko'rileyotgan paytda tekshirilsa, bankrotlik ishlarida vajlarning asoslantirilganligi ishni mazmunan ko'rib hal qilishdan oldin tekshiriladi. qarzdorning vajlarini tekshirish bo'yicha alohida ajrim chiqarilish-chiqarilmasligi haqida qonunda alohida norma belgilanmagan, shuning uchun bu haqda qarzdor yoki kreditorlarni xabardor qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Qarzdor vajlarining asosliligini tekshirish natijalari tegishli kreditorlar yig'ilishida ovozlar sonini aniqlashga asos bo'lishi mumkinligi uchun, sud bu vajlarni mazkur majlisning birinchi yig'ilishi bo'lib o'tgunga qadar tekshirishi lozim, chunki "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonunga muvofiq kreditorlarning birinchi yig'ilishi ishni sudda mazmunan ko'rib hal qilinishidan oldin o'tkazilishi kerak. Qarzdorning vajlarini tekshirish natijasida yuzasidan sud tomonidan ajrim chiqariladi, uning ustidan shikoyat keltirilishi mumkin emas, chunki bu haqda XPK va "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonunda ko'rsatib o'tilmagan.

Bundan tashqari, qarzdorning moliyaviy ahvolini aniqlash uchun va ishni ko'rishga tayyorlashda, ishni ko'rishda maxsus bilimlarni talab qiladigan savollarni tushuntirib berish uchun iqtisodiy sud ekspertiza tayinlaydi. Ekspertiza nafaqat ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosiga ko'ra, balki iqtisodiy sudning topshirig'iga asosan ham tayinlanishi mumkin, chunki bu xo'jalik protsessual huquqi normalariga zid emas.

Bankrotlik to'g'risidagi ish umumiylasoslarda tartibda ko'rildi qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza ish yuritishga qabul qilinganligi haqida ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran ikki oydan ortiq bo'limgan muddatda ko'rib chiqiladi. Alohida hollardagina ishni ko'rish ikki oydan oshmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

Sudya qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizani o'z ish yurituviga qabul qilayotgan vaqtida kuzatuvni joriy etish va muvaqqat boshqaruvchini tayinlash to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin.

### Kuzatuv

Kuzatuv institutining joriy etilishidan ko'zlangan maqsad kreditorlar manfaatlarini himoya qilish, qarzdor mol-mulkini talon-toroj qilinishining oldini olish va qonunda belgilangan vakolatlarni amalga oshirishdan iborat. Kuzatuv joriy etilgan paytdan boshlab mulkiy

undiruvlar bo'yicha ijro hujjatlarini ijro etish qonunda belgilangan tartibda to'xtatib turiladi; qarz dor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilar) uning tarkibidan chiqib ketishi munosabati bilan qarzdorning mol-mulkidan ulushni (payni) ajratish haqidagi talablarini qondirish va emissiya qimmatli qog'ozlari bo'yicha dividendlar va boshqa to'lovlar to'lash taqiqlanadi; muqobil bir xildagi talabni hisobga olish yo'li bilan qarzdorning pul majburiyatlarini tugatishga, basharti bunda kreditorlarning talablarini qondirish navbatи buzilsa, yo'l qo'yilmaydi.

Kuzatuv joriy etilganda qarz dor boshqaruв organlarining qonunda belgilangan ayrim vakolatlari cheklanadi.

Kuzatuv joriy etilishi munosabati bilan iqtisodiy sudning ajrimi bilan muvaqqat boshqaruvchi tayinlanadi. Uning huquq va majburiyatlar qonunda aniq belgilab qo'yilgan. Jumladan, muvaqqat boshqaruvchi qarzdorning mol-mulki but saqlanishini ta'minlash choralarini ko'rishi; uning moliyaviy ahvolini tahlil qilishi; kreditorlarni aniqlashi; kreditorlarning talablari reyestriни yuritishi; qarzdorga nisbatan kuzatuv joriy etilgani haqida kreditorlarni xabardor qilishi; kreditorlarni birinchi yig'ilishini chaqirishi va o'tkazishi shart.

Iqtisodiy sud tomonidan qarz dor bankrot deb topilganda va tugatishga doir ish yuritish boshlangan yoki sud sanatsiyasi yoxud tashqi boshqaruв joriy etilgan yoki kelishuv bitimi tasdiqlangan paytdan e'tiboran kuzatuv tugatiladi.

Kuzatuv jarayonida qarz dor, qarz dor muassislari (ishtirokchilar) yoki qarz dor mol-mulkining egasi, shuningdek uchinchi shaxs (shaxslar) sud sanatsiyasini joriy etish haqidagi iltimosnoma bilan kreditorlar yig'ilishiga yoxud bevosita iqtisodiy sudga murojaat qilishga haqli. Qarzdorning sud sanatsiyasini joriy etish haqidagi iltimosnomasiga sud sanatsiyasining taklif qilinayotgan muddati va qarzni uzish jadvali ko'satilgan holda qarzdorning sud sanatsiyasi rejasi ilova qilinmog'i lozim.

Iqtisodiy sud tomonidan sud sanatsiyasi joriy etish to'g'risida ajrim chiqariladi. Unda sud sanatsiyasining muddati, sud tomonidan tasdiqlangan qarzni uzish jadvali, majburiyatlarini bajarish ta'minotini bergen shaxslar haqidagi, bunday ta'minotning miqdori va shakllari, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchini tayinlash va unga to'lanadigan haq miqdori haqidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim.

Mazkur ajrim ustidan shikoyat (protest) berilishi mumkin.

Sud sanatsiyasi ko'pi bilan yigirma to'rt oylik muddatga joriy etiladi, bu muddat majburiyatlarni bajarish ta'minotini bergen shaxslar kreditorlarning talablarini qondirish uchun iqtisodiy sud tomonidan ko'pi bilan olti oyga uzaytirilishi mumkin.

Sud sanatsiyasi joriy etilganda kuzatuvdag'i singari qarzdor va uning boshqaruvi organlari qonunda belgilangan ayrim bitimlarni tuzishga va boshqa harakatlarni qilishga haqli emas.

Sud sanatsiyasi joriy qilinganda iqtisodiy sud tomonidan sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi tayinlanadi.

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining huquqlari va majburiyatlari qonun hujjalarda belgilangan.

Sud sanatsiyasi muddatidan ilgari tamomlanishi yoki tugatilishi mumkin. Ular bir-biridan farq qiladi. Kreditorlarning qarzni uzish jadvalida nazarda tutilgan barcha talablari sud sanatsiyasining belgilangan muddati o'tishidan oldin qarzdor tomonidan qanoatlantrilganda qarzdorning rahbari sud sanatsiyasi muddatidan ilgari tamomlanganligi haqida iqtisodiy sudga hisobot taqdim etadi. Iqtisodiy sud mazkur hisobotni va kreditorlarning shikoyatlarini ko'rib chiqib, agar uzilmagan qarz qolmaganligi aniqlangan, kreditorlarning shikoyatlari esa asossiz deb topilgan bo'lsa, qarzdor rahbarining hisobotini tasdiqlaydi va bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishni to'xtatadi; agar uzilmagan qarz borligini aniqlagan va kreditorlarning shikoyatlari asosli deb topilgan bo'lsa, qarzdor rahbarining hisobotini tasdiqlashni rad etadi hamda bular haqida shikoyat (protest) qilinishi mumkin bo'lган ajrim chiqaradi.

Sud sanatsiyasini muddatidan ilgari tugatish uchun esa quyidagilar asos bo'ladi: kreditorlar talablarini qanoatlantrishning qarzni uzish jadvalida belgilangan muddatlari sud sanatsiyasi jarayonida qarzdor tomonidan bir necha marta yoki bir marta jiddiy ravishda (bir oydan ortiq muddatga) buzilganligi; qarzdor qarzni uzish jadvalini bajarishga qodir emasligidan dalolat beruvchi holatlarning mavjudligi. Iqtisodiy sudga sud sanatsiyasini muddatidan ilgari tugatib, tashqi boshqaruvni joriy etish yoki qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida iltimosnomasi bilan kreditorlar yig'ilishi murojaat qilishi mumkin.

Sud sanatsiyasi, shuningdek belgilangan muddat tugashi munosabati bilan ham tamomlanadi. Sud sanatsiyasining tamomlanishi to'g'risidagi

masala sud majlisida ko'rib chiqiladi va bu haqda iqtisodiy sudning tegishli sud hujjati qabul qilinadi.

Bankrotlik to'g'risidagi qonunda majburiyatlarning ta'minot bergen shaxslar tomonidan bajarilishi, ta'minotdan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish yakunlari to'g'risidagi hisobot hamda ta'minot bergen shaxslarning majburiyatlarni bajarmasligi oqibatlari ham batafsil yoritilgan.

Kreditorlar yig'ilishining iltimosnomasi, mol-mulkida davlat ulushi bo'lган korxonalar bo'yicha esa bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organining arizasi asosida qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklashning haqiqiy imkoniyatlari aniqlangan hollarda iqtisodiy sud tomonidan o'n ikki oydan yigirma to'rt oygacha bo'lган muddatga joriy etildi. Tashqi boshqaruv joriy etish taomilining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, shu paytdan boshlab qarzdorning rahbari o'z vazifalarini bajarishdan chetlashtiriladi, qarzdorning ishlarini boshqarish tashqi boshqaruvchining zimmasiga yuklatiladi, qarzdorning boshqaruv organlari vakolatlari tugatiladi, kreditorlarning talablarini ta'minlash yuzasidan ilgari ko'rigan chora-tadbirlar bekor qilinadi, qarzdorning mol-mulkini xatlash va qarzdorga nisbatan uning o'ziga tegishli mol-mulkni tasarruf etish borasidagi vakolatlarini boshqacha tarzda cheklovlar faqat bankrotlik taomili doirasida qo'llaniladi, qarzdorning pul majburiyatları va (yoki) majburiy to'lovlar yuzasidan kreditorlar talablarining qondirilishiga nisbatan moratoriyl joriy qilinadi. Tashqi boshqaruvchi iqtisodiy sud tomonidan tashqi boshqaruvni joriy etish bilan bir paytda tayinlanadi va bu to'g'risida ajrim chiqariladi. Buning imkoni bo'lmasa, iqtisodiy sud tashqi boshqaruvchini tashqi boshqaruv joriy etilgan paytdan e'tiboran **bir oylik** muddat ichida tayinlaydi. Tashqi boshqaruvchi tayinlangandan **bir oylik** muddat ichida tashqi boshqaruv rejasini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun kreditorlar yig'ilishiga taqdim etadi.

Iqtisodiy sud kreditorlar yig'ilishining tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash to'g'risidagi qarori qabul qilinib, unda belgilangan tashqi boshqaruv muddati dastlabki muddatdan ortiq bo'lganda, agar tashqi boshqaruv muddatini uzaytirish yoki tashqi boshqaruvning tasdiqlangan rejasini amalga oshirish qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklanishiga olib kelishiga etarli asoslar bo'lган taqdirda tashqi boshqaruv muddatini uzaytirish to'g'risida ajrim chiqaradi.

Tashqi boshqaruvchining kreditorlar yig'ilishi tomonidan ko'rib chiqilgan hisoboti va kreditorlar yig'ilishining bayonnomasi kreditorlar yig'ilishi o'tkazilgan sanadan keyin **besh** kundan kechiktirilmasdan iqtisodiy sudga yuboriladi. Hisobot va bu yuzasidan kreditorlarning shikoyatlari iqtisodiy sud tomonidan majlisda ko'rib chiqiladi.

Iqtisodiy sud kreditorlar yig'ilishining qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risidagi iltimosnomasi bo'lganda, shuningdek tashqi boshqaruvchining hisobotini tasdiqlash rad etilganda yoki hisobot tashqi boshqaruvning belgilangan muddati tugagan paytdan e'tiboran bir oylik muddat ichida taqdim etilmaganda yoxud hisobotni ko'rib chiqish natijalari yuzasidan sud tomonidan biror bir qaror qabul qilinmagan bo'lsa, qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risida qaror qabul qiladi. Bu qarorda, shuningdek tashqi boshqaruvchini tayinlagan tartibda tugatish boshqaruvchisini tayinlaydi.

Iqtisodiy sud tomonidan bankrotlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishning har qanday bosqichida qarzdor va kreditorlar kelishuv bitimi tuzishga haqlidirlar. Kelishuv bitimini tuzish to'g'risidagi qarorni qabul qilish, uni tuzish tartibi, shakli va mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, haqiqiy emasligi va oqibatlari qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Kelishuv bitimi iqtisodiy sud tomonidan tasdiqlanishi kerak, bu haqda bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishni tugatish to'g'risidagi ajrimda ko'rsatib o'tiladi.

Tashqi boshqaruv jarayonida iqtisodiy sud tomonidan kelishuv bitimining tasdiqlanishi kreditorlar talablarining qondirilishiga joriy etilgan moratoriylar hamda bankrotlik to'g'risida ish yuritishning tugatilishi uchun asos bo'ladi. Agar kelishuv bitimi iqtisodiy sud tomonidan tugatishga doir ish yuritish davrida tasdiqlangan bo'lsa, iqtisodiy sudning qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risidagi qarori ijro etilmasligi kerak.

Tugatishga doir ish yuritish muddati **bir yildan** oshmagan muddatda amalga oshiriladi. Bu muddat zarurat bo'lganda sudning ajrimi bilan uzaytirilishi mumkin.

Tugatishga doir ish yuritish mobaynida qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklanishiga yetarli asoslar, ya'ni moliyaviy tahlil ma'lumotlari bilan tasdiqlangan asoslar paydo bo'lsa va qarzdorga nisbatan sud sanatsiyasi va (yoki) tashqi boshqaruv taomili joriy etilmagan bo'lsa,

tugatish boshqaruvchisi mazkur holatlar aniqlangan paytdan e'tiboran bir oylik muddat ichida tugatishga doir ish yuritishni tugatish va tashqi boshqaruvga o'tish haqidagi iltimosnama bilan iqtisodiy sudga murojaat etish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish maqsadida kreditorlar yig'ilishini chaqirishga majburdir.

Tugatish boshqaruvchisi kreditorlar bilan hisob-kitoblar tamomlanganidan keyin tugatishga doir ish yuritishni o'tkazish natijalari haqidagi hisobotni iqtisodiy sudga taqdim etadi.

Iqtisodiy sud hisobotni ko'rib chiqib, tugatishga doir ish yuritish tamomlanganligi haqida ajrim chiqaradi va tugatish boshqaruvchisi zimmasiga bu ajrimni yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organga **o'n kun** ichida taqdim etish majburiyatini yuklaydi.

Yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga qarzdor tugatilganligi to'g'risidagi yozuv ajrim taqdim etilgan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay kiritiladi. Bu paytdan boshlab, tugatish boshqaruvchisining vakolatlari tugatilgan, tugatishga doir ish yuritish tamomlangan, qarzdor esa tugatilgan hisoblanadi.

Bankrotlikning soddalashtirilgan taomillariga yangi tahrirdagi "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonunning 11-bobida ko'rsatib o'tilgan tugatilayotgan va hozir bo'limgan qarzdorning bankrotligi kiradi. Mazkur yuridik shaxslarning tugatish jarayonida uning mol-mulki qiymati kreditorlarning talablarini qondirish uchun yetarli bo'lmasa, tugatish komissiyasi (tugatuvchi) ushbu yuridik shaxsni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza bilan iqtisodiy sudga murojaat qilishi yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tegishli choralarни ko'rishi uchun davlat soliq xizmati organlariga murojaat etishi shart.

Tugatilayotgan qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza kreditorlik qarzining miqdoridan qat'i nazar berilishi kerak. Ushbu holatda iqtisodiy sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi qaror qabul qilinadi, tugatishga doir ish yuritish boshlanadi hamda tugatish boshqaruvchisi tayinlanadi.

Tugatilayotgan yuridik shaxsning bankrotligida kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv taomillari qo'llanilmaydi. Kreditorlar tugatilayotgan yuridik shaxsga bo'lgan o'z talablarini tugatilayotgan yuridik shaxsni bankrot deb topilganligi to'g'risidagi e'lon chop etilgan paytdan boshlab **bir oylik** muddat ichida taqdim etishga haqli.

Agar yuqorida ko'rsatib o'tilgan holatda tugatish komissiyasi iqtisodiy sudga murojaat qilmagan bo'lsa, bu yuridik shaxslarning

yagona davlat reyestriga yuridik shaxs tugatilganligi to'g'risidagi yozuvni kiritishni rad etish uchun asos bo'ladi.

Shuningdek, tugatilayotgan yuridik shaxsni qonunda belgilangan holatda bankrot deb topish to'g'risida iqtisodiy sudga murojaat qilish talabini buzilishiga yo'l qo'yan tugatish komissiyasining raisi yoki tugatuvchi tugatilayotgan yuridik shaxsning pul majburiyatlari va majburiy to'lovlar yuzasidan qondirilmagan talablar bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi.

Bankrotlikning soddalashtirilgan taomiliga hozir bo'limgan qarzdorning bankrotligi ham kiradi.

Hozir bo'limgan qarzdor deganda o'z faoliyatini tugatgan yakka tartibdagi tadbirdor yoki tugatilayotgan yuridik shaxsning rahbari hozir bo'limgan va ularning turgan joyini (yashash joyini) aniqlashning imkonи bo'limgan holat tushuniladi.

Bu holatda yuridik shaxs majburiy tarzda emas, balki ixtiyoriy ravishda tugatilayotgan bo'ladi. Shuning uchun ham bankrotlik taomillarining hozir bo'limgan qarzdorga nisbatan to'liq hajmda qo'llanilishi majburiy shart qilib belgilanmagan. Hozir bo'limgan qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza kreditorlik qarzining miqdoridan qat'i nazar, kreditor, bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organi, soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organ, shuningdek prokuror tomonidan berilishi mumkin.

Iqtisodiy sud hozir bo'limgan qarzdorni bankrot deb topish haqidagi arizani o'z ish yurituviga qabul qilib olgan kundan e'tiboran **ikki haftalik** muddat ichida qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Hozir bo'limgan qarzdorning bankrotligida kuzatuв, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv taomillari qo'llanilmaydi. Iqtisodiy sudning qarori bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organiga yuboriladi, bu organ mazkur qarorni olgan kundan e'tiboran bir haftalik muddat ichida iqtisodiy sudga tugatish boshqaruvchiligiga nomzod taqdim etadi. Bunday nomzod bo'limgan taqdirda iqtisodiy sud tugatish boshqaruvchisini bankrotlik to'g'risidagi ishlari bo'yicha davlat organi xodimlari orasidan tayinlashi mumkin.

Tugatish boshqaruvchisi o'zi aniqlagan barcha kreditorlarni hozir bo'limgan qarzdorning bankrotligi to'g'risida yozma ravishda xabardor qiladi, ular bu xabarni olgan kundan e'tiboran **bir oylik** muddat ichida tugatish boshqaruvchisiga o'z talablarini taqdim etishlari mumkin.

Tugatish boshqaruvchisi hozir bo'limgan qarzdorning mol-mulkini aniqlagan taqdirda, iqtisodiy sud uning iltimosnomasiga binoan bankrotlikning soddalashtirilgan taomilini bekor qilish hamda ushbu qonunda nazarda tutilgan bankrotlikning umumiy taomiliga o'tish to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin.

Iqtisodiy sudlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ushbu toifadagi ishlarning ko'pchiligidagi arizachi – bu davlat soliq xizmati organlaridir. Ushbu holatda soliq organlari o'z arizalariga xo'jalik yurituvchi subyekt yoki unga tegishli mol-mulkning yuridik manzil yoki oxirgi ro'yxatga olingan yerda yo'qligini tasdiqlovchi va turar joyning egasi, mahalla qo'mitasi yoki binolardan foydalanish boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalarni ilova qiladilar. Shuningdek, qarzdor yakka tartibdagagi tadbirkor yoki amalda o'z faoliyatini tugatgan qarzdor yuridik shaxsning rahbari qayerda ekanligini aniqlashning imkoniy yo'qligini tasdiqlovchi dalillar (masalan, Toshkent shahrida ro'yxatdan o'tmaganligi haqida manzilgohlar byurosidan ma'lumotnoma) yoki turar joyidan, ro'yxatga olingan joyda yashamasligi haqida soliq va boshqa vakolatli organ vakillari tomonidan tuzilgan va tegishlicha mahalla qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan dalolatlar ilova qilinadi.

"Bankrotlik to'g'risida"gi Qonunning alohida boblari shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxonalarining bankrotligi, qishloq xo'jaligi korxonalarining bankrotligi, banklarning bankrotligi, sug'urtalovchining bankrotligi, qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining bankrotligi masalasini ko'zda tutadi. Bu toifalarga kiruvchi shaxslarning bankrotligi masalasi ko'rilmaganda ularning har birining o'ziga xos belgilari borligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

**Shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxona** deganda xodimlari ularning oila a'zolarini ham qo'shib hisoblaganda tegishli aholi punkti aholisining kamida yarmini tashkil etuvchi yoki xodimlarining soni kamida uch ming kishi bo'lgan yoxud davlatning mudofaa qobiliyati va xavfsizligi saqlab turilishini ta'minlovchi yoki tabiiy monopoliyalar subyekti bo'lgan yuridik shaxs tushuniladi.

Bunday korxona bankrotligi to'g'risidagi ish, agar qarzdor kreditorlarning pul majburiyatları bo'yicha talablarini qondirishga va majburiy to'lovlari bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga qodir bo'lmasa hamda bunday talab va majburiyatlar **olti oy** ichida

bajarilmagan bo'lsa, basharti qarzdorga nisbatan bildirilayotgan talablar **eng kam ish haqining besh ming karrasi** miqdorini tashkil etsa, iqtisodiy sud tomonidan qo'zg'atilishi mumkin.

Shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxona bankrotligi to'g'risidagi ish ko'rيلayotganda tegishli davlat hokimiyati organi va tegishli vazirlik, davlat qo'mitasi, idora xo'jalik boshqaruv organi ishda ishtirokchi shaxs sifatida e'tirof etiladi. Bunday korxonaga nisbatan iqtisodiy sud tomonidan tashqi boshqaruv kreditorlar yig'ilishining qarori asosida, bunday qaror bo'lmasa, mahalliy davlat hokimiyati organining yoki vazirlik, davlat qo'mitasi, idoraning va xo'jalik boshqaruvni organining iltimosnomasiga binoan ular qarzdorning majburiyatlari yuzasidan ta'minot bergen taqdirda joriy etilishi mumkin.

Shaharni tashkil etuvchi qarzdor korxona hamda unga tenglashtirilgan qarzdor korxona tashqi boshqaruv chog'ida kreditorlarning talablarini qondirish maqsadida mulkiy majmua sifatida sotilishi mumkin. Shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxonani sotish tanlov yoki auksion o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

**Qishloq xo'jaligi korxonasi** deganda qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi), fermer xo'jaligi va yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dehqon xo'jaligi, shuningdek faoliyatining asosiy turi tovar qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirishdan iborat bo'lgan boshqa yuridik shaxslar tushuniladi.

Qishloq xo'jaligi korxonasida kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv etishtirilgan tovar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun zarur vaqtini hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi ishlaringin tegishli davri tugagunga qadar bo'lgan muddatga joriy etiladi. Bunda kuzatuv taomili muddati **uch oydan**, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv jami muddati esa **o'ttiz olti oydan** oshmasligi lozim. Bu muddat qonunda belgilangan holatlarda **o'n ikki oyga** uzaytirilishi mumkin.

Bankrot deb topilgan qishloq xo'jaligi korxonalariga tegishli bo'lgan mol-mulk kim oshdi savdosiga mulkiy majmua sifatida sotishga qo'yilmog'i lozim.

Qarzdorning mol-mulkini sotib olishda imtiyozli huquqqa, shuningdek yerga egalik qilish huquqiga qishloq xo'jaligi mahsuloti

yetshtirish bilan shug'ullanayotgan va qarzdorning yer uchastkasiga bevosita tutash yer uchastkasiga egalik qiluvchi shaxslar ega bo'ladi.

**Bankni bankrot** deb topish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya qaytarib olinganidan keyingina iqtisodiy sud tomonidan qabul qilinadi.

Banklarga nisbatan tashqi boshqaruv joriy qilinmaydi. Bankning bankrotligi to'g'risidagi ish ko'rileyotganda qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Fuqarolarning omonatlarini kafolatlash fondi ham ishda ishtirok etuvchi shaxslar deb hisoblanadi.

**Sug'urtalovchining bankrotligiga** doir ish ko'rileyotganda shuni unutmaslik kerakki, qonunda ko'sratib o'tilgan ishda ishtirok etuvchi shaxslardan tashqari sug'urta faoliyati ustidan nazorat qiluvchi davlat organi ham ishda ishtirok etuvchi shaxs deb hisoblanadi.

Sug'urta tashkilotiga tegishli mulkiy majmuani sotish tashqi boshqaruv jarayonida ham amalga oshirilishi mumkin. Ushbu tashkilotning mulkiy majmuasini sotib olish huquqi faqatgina sug'urta tashkilotlariga tegishlidir. Sug'urtalovchining mulkiy majmuasi sotilayotgan sanadagi sug'urta hodisasi yuzaga kelmagan sug'urta shartnomalari bo'yicha barcha huquq va majburiyatlar majmuani sotib olgan shaxsga o'tadi.

Tugatishga doir ish yuritish o'tkazilayotganda sug'urtalovchining mulkiy majmuasi sotib oluvchi faqat sug'urtalovchi bankrot deb topilgan sanaga qadar sug'urta hodisasi yuzaga kelmagan sug'urta shartnomalarini o'z zimmasiga olishga rozi bo'lganda sotilishi mumkin.

**Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarini** bo'lmish shaxslarning bankrotligi to'g'risidagi ish ko'rib chiqilayotganda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi vakolatlari davlat organi ham sudlov ishida ishtirok etuvchi shaxs hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining bankrotligi to'g'risidagi ish bo'yicha sud boshqaruvchisi mazkur faoliyatni amalga oshirishi uchun sud boshqaruvchisi sisatida attestatsiyadan o'tishi, shuningdek unda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi vakolatlari davlat organi tomonidan beriladigan litsenziya bo'lishi kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risidagi qarorni iqtisodiy sud aniqlangan barcha kreditorlarga ular o'z talablarini taqdim etadigan muddatni ko'rsatgan holda jo'natadi, bu muddat ikki oydan oshmasligi kerak. Iqtisodiy sudning ana shunday qarorini yuborish yakka tartibdagi tadbirkor hisobidan amalga oshiriladi.

Iqtisodiy sud yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish to'g'risida qaror qabul qilgan paytdan boshlab uning yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligi o'z kuchini yo'qotadi, shuningdek faoliyatning ayrim turlari bilan shug'ullanish uchun unga berilgan litsenziyalarning amal qilishi tugatiladi.

Iqtisodiy sud yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish to'g'risidagi qaror nusxasini ayni shu shaxsni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatga olgan organ va litsenziyalovchi organga yuboradi. Iqtisodiy sudning qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risidagi qarori hamda undiruvni qarz-dorning mol-mulkiga qaratish to'g'risidagi ijro varaqasi qarzdorning mol-mulki sotilishini amalga oshirish uchun sud ijrochisiga yuboriladi.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning ko'chmas mol-mulkini yoki qimmatli ko'char mol-mulkini doimiy boshqaruv zarur bo'lganda iqtisodiy sud mazkur maqsadlar uchun tugatish boshqaruvchisini tayinlaydi va unga to'lana digan haq miqdorini belgilaydi. Bu hollarda, qarzdor yakka tar-tibdagi tadbirkorning mol-mulki tugatish boshqaruvchisi tomonidan sotiladi. Qarzdorning mol-mulkini sotishdan tushgan, shuningdek mavjud naqd pul mablag'lari yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish to'g'risidagi qarorni qabul qilgan iqtisodiy sudning depozitiga kiri-tiladi.

Kreditorlarning bildirilgan talablarini asosida iqtisodiy sud kreditorlarning talablarini qondirish tartibi va miqdori to'g'risida ajrim chiqaradi. Avval bankrotlik ishini ko'rish va iqtisodiy sudning yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish to'g'risidagi qarorini bajarish bilan bog'liq xarajatlar qoplanadi, keyingi o'rinda budgetga majburiy to'lovlari, garov bilan ta'minlangan talablar va boshqalar qoplanadi.

Kreditorlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish tugaganidan keyin sud harakatlari amalga oshirilayotgan paytda kreditorlar tomonidan qo'yilgan talablardan ozod etiladi. Hayot yoki sog'likka zarar yetkazish, aliment undirish to'g'risidagi talablar bankrotlik ishi tugatilgandan keyin ham qo'yilishi mumkin. Agar qarzdor mulkini

yashirganligi yoki uni noqonuniy ravishda uchinchi shaxslarga bergenligi fakti aniqlansa, sud harakatlari davomida talablari qondirilmagan kreditorlar undiruvni ushbu mol-mulkka qaratilishini so'rab murojaat qilishga haqli.

### **Raqobatning huquqiy ta'minlanishi va qimmatli qog'ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solish.**

Raqobat tushunchasi va uning qonunchilikda aks etishi, Raqobat huquqining tushunchasi, predmeti, prinsiplari, tizimi. Raqobat huquqining manbalari, Raqobat huquqining zamonaviy bozor munosabatlaridagi ahamiyati, Raqobat huquqiy munosabatlar tushunchasi va ularning turlari, Birja tushunchasi, uning turlari, shakllari va faoliyat yo'naliishlari. Birja faoliyatining ob'yektlari va sub'yektlari. Birja a'zolarining huquq va majburiyatları. Birja bitimlari tushunchasi va xususiyatlari. Birja bitimlarini tuzish, ro'yxatdan o'tkazish va rasmiylashtirish tartibi. Qimmatli qog'ozlar bozorining huquqiy asoslari va qimmatli qog'ozlar tushunchasi. Qimmatli qog'ozlarning turlari.

Asli iqtisodiy tushuncha bo'lgan raqobat tushunchasi haqida ko'pqirrali tasavvurlar mavjud bo'lib, mazkur tushunchani turlicha talqin etish hollari uchraydi.

"Raqobat" so'zi arab tilidan kelib chiquvchi so'z hisoblanib, arab tilidan lug'aviy tarjimasi "nazorat, kuzatish" ma'nolarini anglatadi<sup>7</sup>. O'zbek tilining izohli lug'atida mazkur so'zga, iqtisodiy ma'noda mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi(korxona)lar o'rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman, iqtisodiyotda, o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurash, deb ta'rif berilgan<sup>8</sup>.

"Raqobat" atamasi rus tilida "konkurenсиya", inliz tilida "competition", nemis tilida "wettbewerb" shaklida uchraydi. Bu atamalarning barchasi lotin tilidan kelib chiqqan "concurrentia" → to'qnashuv so'zidan kelib chiqqan. Umumiylar ma'noda raqobat muayyan bir muhitda shaxslar, guruqlar, tashkilotlarning nisbatan yaxshiroq natijalarga erishish uchun o'zaro musobaqalashuvini anglatadi<sup>9</sup>.

<sup>7</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat milliy nashriyoti. Toshkent. 2006-2008. 360-bet.

<sup>8</sup> O'sha manba.

<sup>9</sup> Illyustrirovannyi ensiklopedicheskiy slovar (elektronnoye izdaniye, vosproizvedennoye po izdaniyu 1995 goda). - M., 1997. Huddi shu mazmundagi izoh ingliz lug'atlarida ham keltiriladi. Longman dictionary of contemporary English. - Edinburgh, 2001. - P. 270.

Raqobat bozor iqtisodiyotining asosiy mexanizmi bo'lib, u kompaniyalarning o'z tovarlari va xizmatlarini iste'molchilarga eng qulay narxlarda taklif qilishlarini rag'batlantridi<sup>10</sup>.

Iqtisodchi olimlar K.Xoliqov va R.Do'sanovaarning fikricha, raqobat—iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o'z ehtiyoj va manfaatlarini maksimal qondirish, yaxshi daromad olish, bozorda o'z mavqeini mustahkamlash, imkoniyatlarini namoyon etish hamda imidjga ega bo'lish uchun kurashdan iborat jarayondi<sup>11</sup>.

Raqobatni yuridik kategoriya sifatida o'rganish uchun har tomonlama asosimiz bor. Xususan, 2012-yil 6-yanvardagi O'RQ-319-<sup>→</sup> sonli O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan bo'lib, ushu Qonunning maqsadi tovar va moliya bozorlaridagi raqobat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat, deb belgilangan. Qonunning 4-moddasida raqobat tushunchasiga huquqiy ta'rif berilgan. Unga ko'ra, raqobat – xo'jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo'lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta'sir ko'rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi, deb ta'riflangan.

Mazkur ta'rifdan qonun chiqaruvchi tomonidan raqobatning bir qator belgilarini ko'rsatib berilganiga guvoh bo'lamiz. Ya'ni:

**birinchidan**, raqobatning mohiyati xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtaqidagi musobaqalashuvda namoyon bo'ladi;

**ikkinchidan**, musobaqalashuv xo'jalik yurituvchi subyektlarning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi;

**uchinchidan**, musobaqalashuv natijasida xo'jalik yurituvchi subyektning tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta'sir ko'rsatish imkoniyati istisno etiladi yoki cheklanadi.

"Raqobat to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, **xo'jalik yurituvchi subyekt deganda**, tovarlarni ishlab chiqarish, olish va realizatsiya qilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs, shu jumladan chet ellik yuridik shaxs, xo'jalik boshqaruvi organi, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkor tushuniladi.

<sup>10</sup>DG COMP website at [http://ec.europa.eu/competition/antitrust/overview\\_en.html](http://ec.europa.eu/competition/antitrust/overview_en.html).

<sup>11</sup>K.O.Xoliqov, R.H.Do'sanov. Raqobat:nazariyasi, shakllari va usullari. Ilmiy risola. TarmDU. "Moliya" kafedrasи, 2009-6b.

Bundan kelib chiqadiki, raqobat – bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) tovarlar oldi-sotdisi, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishida sifat, narx, qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish darajasini belgilash orqali bozorda kengroq o'r'in egallashga qaratilgan faoliyatidir.

Raqobat tushunchasining aksi sifatida "**monopoliya**" tushunchasini kuzatishimiz mumkin. Mazkur termin yunon tilidan olingen bo'lib, mono-“tanho”, paleo-“sotaman” degan ma'nolarni anglatadi.

Monopolistik faoliyat esa xo'jalik yurituvchi subyektlarning, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiysi organlarining raqobat faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlariiga xilof bo'lgan, raqobatga yo'l qo'ymaslikka, raqobatni cheklash yoki bartaraf etishga qaratilgan harakatlari yoki harakatsizligidir.

Joriy qonunchiligidan binoan, monopolistik faoliyat tushunchasiga legal ta'rif mavjud emas. Ammo "Raqobat to'g'risida"gi qonunda "Raqobatga qarshi harakatlardan" deb nomlangan alohida bob mavjud bo'lib, unda ustun mavqeni suiste'mol qilish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan kelishib olingen harakatlari va bitimlarini taqiqlash, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiysi organlari va yuridik shaxslar birlashmalarining raqobatni cheklaydigan hujjatlari hamda harakatlarni taqiqlash, insofsiz raqobatni taqiqlash kabi institutlar, shuningdek, "savdolarini va iqtisodiy konsentratsiyani monopoliyaga qarshi tarzda tartibga solish" deb nomlangan bobda tanlov (tender) savdolariga doir monopoliyaga qarshi talablar, birja savdolariga doir monopoliyaga qarshi talablar, xo'jalik yurituvchi subyektlarni tashkil etish, qo'shib yuborish va qo'shib olishga doir monopoliyaga qarshi talablar, aksiyalarni (ulushlarni) va boshqa mulkiy huquqlarni olishda monopoliyaga qarshi talablar, oldindan rozilik olish tartibi, jismoniy shaxsning xo'jalik yurituvchi subyektlarning boshqaruv organlaridagi ishtiroti, xo'jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo'lish yoki ajratib chiqarish kabi subinstitatlarda aks ettirilgan.

Mazkur holat yuzasidan shunday xulosaga kelish mumkinki, garchi qonunchilikda to'g'ridan-to'g'ri monopolistik faoliyat tushunchasi keltirib o'tilmagan bo'lsa-da, mohiyatan monopolistik faoliyatga qarshi institutlarga oid normalar aks ettirilgan.

Shu o'rinda raqobat tushunchasiga xorij davlatlari qonunchiligidan berilgan ta'riflarni ko'rib chiqish ham maqsadga muvofiqdir. Xususan,

Yaponianing 1993-yil 19-maydag'i № 47-son "Insofsiz raqobatning oldini olish to'g'risida"gi Qonuni<sup>12</sup> mayjud. Mazkur qonunning maqsadi biznes vakillari o'rtaSIDA adolatli raqobatni hamda bu boradagi tegishli xalqaro kelishuvlarning bajarilishini ta'minlash, shu bilan birgalikda, insofsiz raqobatning oldini olish choralarini ko'rish va insofsiz raqobat natijasida yetkazilgan zararni kompensatsiya qilish, buning natijasida esa xalq xo'jaligining sog'lom rivojlanishiga hissa qo'shish hisoblanadi. Mazkur qonunni tahlil qiladigan bo'lsak, unda raqobat tushunchasining legal ta'rifini uchratmaymiz. Ammo insofsiz raqobatni o'zida aks ettiruvchi harakatlar sanab o'tiladi. Bunda yapon qonunchiligi insofsiz raqobatning oldini olish va unga qarshi kurashish orqali adolatli raqobatni ta'minlash yo'lini tutadi.

Koreya Respublikasining 1961-yil 30-dekabrda qabul qilingan №911-son qonunga 2011-yil 30-iyundagi №10810-son Qonun bilan o'zgartishlar kiritilgan "Insofsiz raqobatning oldini olish va tijorat siri to'g'risida"gi Qonuni<sup>13</sup>da ham raqobat tushunchasining ta'rifi keltirilmagan bo'lsada, ammo insofsiz raqobatni qaysi haraktlarda ifodalanishi tasniflangan.

Ayni holatda Yaponiya va Koreya Respublikasining bu boradagi yondashuvining o'xshashligining guvohi bo'lamiz.

Hozirgi paytda bu boradagi qonunlarning nomlanishida dunyoda yagona standart mavjud emas. Qonunlarning nomlanishi, qoida tariqasida, qonunlarning maqsadi va ularning mamlakat qonunchiligi iyerarxiyasida egallagan o'rниga, shuningdek mamlakatning qonunchilik an'analariga bog'liq<sup>14</sup>.

Butun dunyoda barcha davlatlar tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida hamda sog'lom raqobat muhitini ta'minlash uchun raqobat to'g'risidagi qonunchilikni shakllantirishga keng e'tibor qaratiladi. Bu turdag'i qonunlar barcha davlatlarning qonunchilik tizimidan muhim o'r'in egallagan.

<sup>12</sup> Unfair Competition Prevention Act (Act No. 47 of May 19, 1993, as amended up to Act No. 30 of April 30, 2009. <http://www.wipo.int>

<sup>13</sup> Unfair Competition Prevention and Trade Secret Protection Act (Act No. 911 of December 30, 1961, as amended up to Act No. 10810 of June 30, 2011. <http://www.wipo.int>

<sup>14</sup> Tipovoy zakon o konkurenssi. Seriya dokumentov YUNKTAD po problematiki zakonodatelstva i politiki v oblasti konkurenssi // Projekt kommentariyev k vozmozhnim elementam statey tipovogo zakona i tipovix zakonov. Jeneva. 2000. s.20.. <<http://www.un.org>>

Misol uchun, 1889-yilda qabul qilingan Kanadaning<sup>15</sup> antimonopol qonuni raqobat borasidagi qonun shaklidagi hujjalarning birinchisi deyish mumkin. Mazkur qonun raqobatni rag'batlantirish va Kanadaning dunyo savdosiga chiqishini maqsad qilib qo'ygan edi. Raqobatni muhofaza qilishga doir dastlabki qonunlar AQShda Fuqarolar urushi tugashi bilan qabul qilingan. AQSh qonunchiligiga ko'ra bunday turdag'i qonunlar antitrest qonunlari sifatida qayd etiladi. Bu inglez tilidagi "Antitrust Law" atamasida asosida vujudga kelgan. Bunday qonunlarning birinchisi Merilend shtatida 1867-yilda qabul qilingan qonun hisoblanadi. 1890-yilda AQShda "Sherman qonuni" nomi bilan mashhur bo'lib ketgan Federal qonun kuchga kirgan. Mazkur qonunga ko'ra, shtatlararo savdo aloqalarini cheklashga qaratilgan bitimlarni tuzish, muayyan turdag'i tovarlar savdosida monopolistik faoliyatni vujudga keltirish taqiqlab qo'yilgan.

Yevropada esa bu boradagi dastlabki qonun 1923-yilda Germaniyada qabul qilingan. Bu qonunning qabul qilinishiga sabab xususiy sektordagi tadbirkorlar tomonidan narx-navoning haddan ortiq oshirib yuborilgani edi. Lekin bu qonun iqtisodiy jarayonni deyarli tartibga sola olmagan.

G'arbiy Yevropada tom ma'nodagi antimonopol qonun 1950- yillarda vujudga keldi. 1958-yil 1-yanvarda Yevropa iqtisodiy ittifoqini tashkil etish to'g'risida Rim shartnomasi kuchga kirdi. Mazkur shartnomadagi raqobatni muhofaza qilishga qaratilgan normalar hozirgi kunga qadar ham a'zo davlatlar huquq normalaridan ham ustun turuvchi normalar hisoblanadi.

Rim shartnomasi raqobatga zid xatti-harakatlarni taqiqlovchi ikki holatni o'zida aks ettirgan:

birinchidan, raqobatga zid kelishuvlarni, assotsiatsiyalar (birlashmalar), kompaniyalarning raqobatga zid qarorları, raqobatga zid kelishib olingan xatti-harakatlarni taqiqlash, shuningdek, assotsiatsiya (birlashmalar) va kompaniyalarning yo'l qo'yilshiga ruxsat beriladigan kelishuvlari haqida qayd etilgan;

ikkinchidan, tovar bozorlarida kompaniyalarning ustun mavqeni suiste'mol qilishini taqiqlashga doir holat. Mazkur taqiq hech qanday istisnolarga yo'l qo'yмаган.

<sup>15</sup> Zakon Kanadi «O predotvrauyennii i podavlenii obyedineniy, napravlenix na ograniceniye torgovli» ("Act for the prevention and suppression of combinations formed in restraint of trade": <<http://www.mccarthy.ca>>)

Dunyo miqyosida raqobatni huquqiy tartibga solish borasidagi normalarni 1883-yildagi Sanoat mulkini muhofaza qilish to'g'risidagi Parij konvensiyasida ham uchratish mumkin. Xususan, mazkur konvensiyada insofsiz raqobat tushunchasi tarif berilgan. Ushbu konvensiyaning 10-moddasiga ko'ra, Ittifoqqa a'zo bo'lgan davlatlar a'zo davlatlarning fuqarolarini insofsiz raqobatdan samarali himoya qilishini ta'minlash shart. Mamlakatimzda raqobat tushunchasining legal ta'rifini mavjudligi ijobjiy holat hisoblanadi. Shu bilan birlgilikda mazkur tushunchaning yuridik ma'nosini bilan birlgilikda iqtisodiy kategoriya sifatidagi ahamiyatini ham unutmaslik maqsadga muvofiqdir.

Raqobat huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi barcha huquq normalari raqobat huquqining manbasini tashkil etadi.

Raqobat huquqi manbalari o'z navbatida bozordagilar raqobatchilar faoliyati va ularning o'zaro faoliyati, potensial raqobatchilar faoliyati, bozordagi subyektlar tarkibini davlat tomonidan tartibga solish, monopolistik faoliyat va insofsiz raqobatni cheklab qo'yish, iqtisodiy konsentratsiyalarning antimonopol nazorati, vayron etuvchi xorijiy raqobatning oldini olish, xo'jalik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va turli imtiyozlarni taqdim etish, bozorga kirish va undan chiqishdagi to'siqlarni nazorat qilish kabi masalalarni tartibga solishi maqsadga muvofiqdir.

Raqobat huquqini tartibga solish ikkiyoqlama xarakterga ega, ya'ni raqobat huquqiy munosabatlar ham ommaviy-huquqiy, ham xususiy-huquqiy xarakterdagи normalar bilan tartibga solinadi. O.R.Chudinov mazkur holatni raqobat huquqiy munosabatlarni tartibga solishdagi dixotomiya (ikkiyoqlamalik)<sup>16</sup> deb ataydi. Unga ko'ra, birinchi tarafdan, davlat antimionopol xatti-harakatlar (bizning qonunchiligidan qo'ra, raqobatga zid xatti-harakatlar)ni taqiqlovchi normalar davlat tomonidan mustahkamlanadi, ikkinchi tarafdan esa, davlat organining raqobat qonunchiligi buzilgan taqdirda vujudga kelgan nizolarni xususiy-huquqiy normalardan foydalangan holda hal etishi tushuniladi. Misol uchun, yuridik shaxsning intellektual faoliyati natijalaridan va ularga tenglashtirilgan individuallashtirish vositalaridan qonunga xi洛f ravishda foydalangan holda tovari realizatsiya qilinsa huquqi buzilgan taraf insofsiz raqobatga yo'l qo'yilganligi tufayli xo'jalik sudiga murojaat qilganda, davlat organi bo'lgan sud mazkur masalani ko'rib chiqib huquqlari buzilgan tarafning huquqlarini tiklab beradi. Mazkur

<sup>16</sup> O.R.Chudinov. Dixotomiya v regulirovaniи konkurentnix otnosheniy pravom Fransii. - vestnik.pstu.ru.

vaziyatlarda tadbirkorlik subyekti o'zining haqligini isbotlash uchun xususiy huquq normalaridan foydalanadi, davlat organi esa betaraf, xususiy subyektlar o'rtasidagi nizoni hal etuvchi sifatida ishtirok etadi.

Barcha huquq sohalaridagi normalar umumiy hamda maxsus ko'rinishdag'i normalarga bo'linar ekan, raqobat huquqi normalarini ham bu qoidadan istisno qila olmaymiz. Ma'lumki, umumiy normalar, odatda, umumiy xarakterdag'i munosabatlarni tartibga solish, asosiy tushunchalar va qoidalarni belgilab berish kabi funksiyalarni bajaradi. Maxsus normalar esa, nisbatan aniq belgilangan doiradagi munosabatlarni tartibga soladi.

Huquqning asosiy masalalarini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, qonunlar va qonunosti hujjatlari umumiy masalalarni tartibga soulvchi normalarga misol bo'lsa, bevosita, raqobat huquqiy munosabatlarga taalluqli normalar raqobat huquqining maxsus normalari sanaladi.

Hozirgi paytda, raqobat huquqiy munosabatlarni tartibga soluvch eng asosiy maxsus qonun bu 2012-yil 6-yanvardagi O'RQ-319-sonli O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunidir. Mazkur qonun 7 ta bob 40 ta moddadan iborat.

Mustaqil O'zbekistonning raqobat qonunchiligining ilk tartibga solinishi 1992-yil 2-iyuldag'i "Monopoliyatik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida"gi Qonunga borib taqaladi.

Har bir huquq sohasining tartibga solinadigan munosabatlari bo'lgani kabi raqobat huquqining ham tartibga solinadigan munosabatlari mavjud. Mazkur munosabatlar raqobat huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, raqobat huquqining predmetini raqobat huquqiy munosabatlar tashkil etadi.

Raqobat huquqiy munosabatlar boshqa huquqiy munosabatlardan o'zining subyekti, obyekti va mazmuni bilan farq qiladi.

Raqobat huquqiy munosabatlarning subyektlari mazkur munosabatda ishtirok etuvchilar hisoblanadi, raqobat huquqiy munosabatlarning obyekti bo'lib esa raqobat huquqiy munosabatlar subyektlarining diqqat-markazida bo'lgan masalalar hisoblanadi.

Raqobat huquqiy munosabat obyekti bu mazkur munosabat sub'etlarining e'tibori qaratilgan tovarlar, ishlar va xizmatlardir. Bunda tovarlar deganda, faqat moddiy ne'matlarni tushunmaslik lozim. "Raqobat to'g'risida"gi qonunning 4-moddasiga muvofiq, tovar - ➤

faoliyatning olish va realizatsiya qilish uchun mo'ljallangan mahsuli, shu jumladan ishlar va xizmatlardir. Demak, raqobat huquqida tovar deganda, biz moddiy ne'matlar bilan birligida, bajariladigan ishlar va xizmatlarni ham tushunishimiz lozim. Raqobat huquqiy munosabat ishtirokchilarining mazkur munosabat obyektiga nisbatan amalga oshiradigan xatti-harakatlari esa raqobat huquqiy normalari bilan tartibga solinadi.

Raqobat huquqiy munosabatning mazmuni deganda, mazkur munosabat subyektlarining huquq va majburiyatları e'tirof etiladi. Bunda xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro musobaqalashuv jarayonida qanday huquqlarga ega ekanligi, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat yuritishlari uchun qanday majburiyatlarga egaliklari, shuningdek, monopoliyaga qarshi organning hamda raqobat huquqiy munosabatda ishtirok etayotgan boshqa organlarning huquqlari hamda majburiyatları tushuniladi.

Raqobat huquqi o'zida ham ommaviy, ham xususiy elementlarni aks ettirar ekan, raqobat huquqiy munosabatlar ham ham ommaviy-huquqiy, ham xususiy-huquqiy xarakterga. Mazkur holatni raqobat huquqiy munosabatlarning alohida turlarini tasniflaganimizda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

"Raqobat to'g'risida"gi qonun mohiyatidan kelib chiqqan holda, raqobat huquqiy munosabatlarni quyidagicha tasniflaymiz:

1. Davlat tomonidan raqobatning tartibga solinishi bilan bog'liq munosabatlar;
2. Raqobatga qarshi harakatlarni cheklashga qaratilgan huquqiy munosabatlar;
3. Savdolarni va iqtisodiy konsentratsiyani monopoliyaga qarshi tarzda tartibga solishga oid huquqiy munosabatlar;
4. Tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq huquqiy munosabatlar;
5. Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishni oldini olishga qaratilgan huquqiy munosabatlar.

Davlat tomonidan raqobatning tartibga solinishi bilan bog'liq munosabatlar deganda, raqobatni tartibga solishga oid normativ-huquqiy hujjatlarning ishlab chiqilishida davlat organlarining ishtiroki va raqobat munosabatlarida ishtirok etuvchi davlat organlarining o'z vakolatlarini amalga oshirishlari bilan bog'liq munosabatlar tushuniladi.

Aynan mazkur turdag'i munosabatlar raqobat huquqining ommaviy- →  
huquqiy elementini o'zida aks ettiradi.

Raqobatga qarshi harakatlarni cheklashga qaratilgan huquqiy munosabatlar deganda, ustun mavqeni suiste'mol qilish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlari va bitimlari, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyyati organlari va yuridik shaxslar birlashmalarining raqobatni cheklaydigan hujjatlari hamda harakatlari, shuningdek, insofsiz raqobatni taqiqlash hamda mazkur holatlarga qarshi kurashishga oid huquqiy munosabatlar nazarda tutiladi.

Har bir davlatda raqobat qonunchiligi ijrosini ta'minlash hamda monopoliyaga qonunchilikka riya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi o'zining maxsus vakolatli organlari faoliyat yuritadi. Xalqaro tajriba shuni ko'ssatadiki, monopoliyani tartibga solish va unga qarshi kurashish uchun nafaqat mustahkam qonunchilik bazasi, balki aholining, ishbilarmon doiralarning va davlat organlarning ochiqlik va shaffoflik, mustaqillik asosida faoliyat olib boradigan monopoliyaga qarshi kurashuvchi organga bo'lgan ishonchi ham lozim bo'ladi.

Turli raqobatga qarshi harakatlarning jamiyatga keltiradigan zararlarini salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun ko'pgina davlatlarda monopoliyaga qarshi qonunchilikni riya etishni nazorat qilish uchun turli maxsus organlar orqali amalga oshiradi.

Respublikamizda raqobat muhiti mavjud bo'lган iqtisodiyotda tadbirkorlik va xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining erkin bo'lishi, ularning istalgan tovarlar bozorida faoliyat ko'rsatishlari va ushbu munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasida raqobatni huquqiy tartibga soluvchi maxsus vakolatli organ O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hisoblanadi (keyingi o'rnlarda "Davlat raqobat qo'mitasi" deb yuritiladi). Xususiylashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi, iqtisodiyotda davlat ishtirokining kamaytirilishi hamda xususiy mulkchilikning roli va ahamiyati oshirilishi istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning g'oyat muhim ustuvor yo'nalishi inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 13-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish

davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4483-son Farmoni qabul qilindi.

Davlat raqobat qo'mitasini tashkil etishdan asosiy maqsad:

✓ tabiiy monopoliyalarning ustunligi hamda monopoliyaga qarshi samarali tartibotlarni amalga oshirish;

✓ haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish;

✓ korxonalarning va ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotning, umuman mamlakat iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirishni rag'batlantirish borasidagi tashkiliy va amaliy chora-tadbirlarni shakllantirish;

✓ tovar va moliya bozorlarida raqobatni cheklashga hamda ustunlik mavqeini suiste'mol qilishga olib keladigan xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslikka, shuningdek nohalol raqobatni, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning narxlarini sun'iy ravishda oshirish yoki tushirib yuborishni taqiqlashga alohida e'tibor qaratish;

✓ bozor iqtisodiyotining asosi bo'l mish davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va xususiy mulkchilik ko'lamini kengaytirish;

✓ monopoliyaga qarshi samarali tartibotlarni amalga oshirish hamda real raqobatchilik muhitini shakllantirish;

✓ fond bozori, xususan, ikkilamchi fond bozorini jadal rivojlantirish;

✓ korporativ boshqaruв tizimini tubdan takomillashtirishdan iboratdir.

*Masalan AQSh va Yevropa Ittifoqida bunday maxsus vakolatlari organlar keng vakolatlarga ega bo'lgan mustaqil idoralar, Gretsiya, Shvetsiya kabi davlatlarda vazirliklar tizimida bo'lgan bir necha minglab xodimlarga ega bo'lgan monopoliyaga qarshi kurashuvchi boshqarmalar bo'lishi mumkin<sup>17</sup>.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonining ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 374-sun Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga qilingan ilova "O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi to'g'risida" Nizomga binoan

<sup>17</sup> <https://econolawresearch.wordpress.com>

qo'mitaning maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va faoliyatining tashkiliy asoslari belgilab qo'yildi.

Ushbu nizomga ko'ra Davlat raqobat qo'mitasi xususiy lashtirish, davlat mulkini boshqarish, qimmatli qog'ozlar bozori, monopoliyaga qarshi siyosat, raqobatni rivojlantirish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, birja, baholash, rietorlik va reklama faoliyati sohasida davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Monopoliyaga qarshi organlar turli sohalardagi, yana ham umumiyl qilib aytganda tovar va moliya bozorida (asosan, raqobatga qarshi harakatlar, ustun mavqeni suiste'mol qilish, iqtisodiy konsentratsiya, insofsiz raqobat, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga tashqi aralashuvlar) tabiiy monopoliyalar sohasida, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish sohasida, ba'zi hollarda davlat hardillarini tartibga solish, kapital qurilishda narh monitoringini olib borish, davlatning qo'llab-quvvatlashi orqali narhlarni tartibga solishda monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshiradi.

Davlat raqobat qo'mitasining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iboratdir:

➤ xususiy lashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg'armalaridagi davlatga tegishli aktivlarni hamda aksiyalar paketlari (ulushlari)ni xususiy mulkka sotish, davlat mulkining xususiy mulk egalariga sotilishida ochiqlik va oshkorralikni ta'minlovchi davlat tasarrufidan chiqarishning yangi shakl va usullarini joriy etish, investorlar tomonidan qabul qilingan investitsiya majburiyatlari bajarilishi ustidan monitoring olib borish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

➤ aksiyadorlik jamiyatlarining kapitallashuvi va rentabelligi o'sishini rag'batlantirish hisobiga fond bozori, ikkilamchi fond bozorini rivojlantirish, tadbirkorlar va aholining xabardorligini kengaytirish, ularning birja operatsiyalarida faol qatnashuvini ta'minlash, bozor infratuzilmasini yanada takomillashtirish, savdolarni elektron shaklda o'tkazishga to'liq o'tish chora-tadbirlarini tizimli asosda amalga oshirish;

➤ aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishda aksiyadorlarning va kuzatuvchi kengashlarning rolini tubdan oshirishga, minoritar aksiyadorlarning huquqlari himoya qilinishini ta'minlashga, korxonalarining moliya-xo'jalik faoliyati natijalari uchun ijro etuvchi

organlarning aksiyadorlar oldidagi mas'uliyatini kuchaytirishga yo'naltirilgan korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish;

➤ monopoliyaga qarshi samarali tartibotlar o'rnatish hamda tovar va moliya bozorlarida raqobat cheklanishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini amalga oshirish, monopolistik faoliyatni cheklash va tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilib borish;

➤ raqobat muhitini rivojlantirish uchun qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish va zarur shart-sharoitlarni shakllantirish, tovarlar (ishlar, xizmatlar) bozorlarida, birinchi navbatda ichki iste'mol bozorida va reklama sohasida nohalol raqobatchilikka chek qo'yish chora-tadbirlarini amalga oshirish, jamoat tuzilmalari bilan yaqindan muvofiqlashdirilgan holda iste'molchilarining qonuniy manfaatlari va huquqlari himoya qilinishini ta'minlash;

➤ past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy holatini chuqur tahlil qilish, ularni birinchi navbatda yangi investorlarni jalg etish, modernizatsiyalash va texnologik qayta jihozlash, mahsulot tannarxini arzonlashtirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, yangi raqobatbardosh mahsulotni o'zlashtirish hisobiga moliyaviy sog'lomlashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

➤ iqtisodiy nochor korxonalarni tarkibiy qayta qurish va bankrot qilish borasidagi funksiyalarni bajarish, sudgacha va sud sanatsiyasini o'tkazish, bankrot korxonalarning tashqi boshqaruvi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

#### **Davlat raqobat qo'mitasining asosiy vazifalari:**

➤ respublika iqtisodiyotida xususiy sektor o'rni va ahamiyatini tubdan oshirish hamda mazkur tarmoqda davlat ulushini yanada kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

➤ vazirliklar, idoralar va tashkilotlarda, davlat korxonalari va tashkilotlarining, shu jumladan Davlat budjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan davlat korxonalari va tashkilotlari, shuningdek ustav fondlarida davlat ulushi bo'lgan xo'jalik jamiyatlarining davlat mulki hisobini va reyestirini yuritishni ta'minlash;

➤ boshqaruvchi kompaniyalar va davlat ishonchli vakillarining davlat ixtiyoridagi, shu jumladan chet ellardagi mulkn samarali boshqarish yuzasidan faoliyati samaradorligi monitoringini olib borish;

- Davlat mulki (ulushlari) mavjud bo'lgan korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan ularda zamonaviy menejmentni joriy etish, marketingni rivojlantirish va ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish;
- bozor mexanizmlarini rivojlantirish, raqobat muhitini shakllantirish va xususiy mulk ortishini rag'batlantiruvchi davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- korxonalarni keyinchalik xususiy mulk sifatida sotish uchun ularni xususiylashtirishdan keyin va sotishdan oldin samarali tayyorlashni joriy etish;
- davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish jarayonlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, investorlar o'tasida respublikamizda ular uchun berilgan imtiyozlar va kafolatlar to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish;
- aksiyalarning davlat paketlarini va obyektlarini xususiylashtirish va sotish tartibotlarini maksimal darajada soddallashtirish va oshkoralligini ta'minlash;
- aksiyadorlar, kuzatuv kengashlari va boshqa idoraviy organlarning davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishdagi, korxonalar ijroiya organlarining korxonalar faoliyati natijalari uchun mas'uliyatini oshirishdagi rolini tubdan oshirishga qaratilgan korporativ boshqaruva tizimini takomillashtirish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, me'yoriy-huquqiy bazani soddallashtirish va oshkoralligini ta'minlash, qimmatli qog'ozlar bozorida moliyaviy barqaror investitsion tuzilmalarni rivojlantirish, uning infratuzilmasini mustahkamlash va zamonaviy moliyaviy yondashuvlarni joriy etish uchun qulay va zarur shart-sharoitlarni yaratish, mamlakatimiz fond bozorini xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- tizimli va samarali reklama-axborot ishlarini amalga oshirish, davlat aktivlarini xususiylashtirish va sotish jarayonlarining oshkoralligi va ochiqligini ta'minlashdan iborat bo'ladi.

Misol uchun, Meksikada telekommunikatsiya sohasida monopoliyaga qarshi siyosatni Telekommunikatsiyalar bo'yicha federal komissiya, Braziliyada Markaziy Bank molija bozorlarida iqtisodiy konsentratsiya va raqobatga qarshi harakatlarda nazoratni amalga

oshirish huquqiga ega. Italiyada bank sohasida monopoliyaga qarshi harakatlarni tartibga solish faqat Italiya Banki tomonidan tartibga solinadi.

### **Qimmatli qog'ozlar bozorining huquqiy asoslari va qimmatli qog'ozlar tushunchasi**

Qimmatli qog'ozlar bozorini huquqiy tartibga solishga qaratilgan qonun hujjatlari doirasiga avvalo, 2015-yil 3-iyunda yangi tahrirda qabul qilingan "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonunni, shundan so'ng, 2014-yil 12-sentabrda qabul qilingan "Birjalar va birja faoliyatি to'g'risida"gi qonun, 2014-yil 6-mayda yangi tahrirda qabul qilingan "Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 29-dekabrdagi 284-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Yemissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarish Yagona davlat reyestriini yuritish tartibi to'g'risida"gi nizom, hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi Bosh direktorining 2009-yil 16-iyuldagi 2009-40-son buyrug'iiga asosan tasdiqlangan Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish qoidalari kabilarni kiritishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonunning (yangi tahriri) 3-moddasiga asosan qimmatli qog'ozlar bozori - yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog'liq munosabatlari tizimi hisoblanadi.

Demak, biz qimmatli qog'ozlar bozori tushunchasiga to'xtalar ekaniz, uchta elementga alohida to'xtalib o'tishimiz lozim, bular qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ular muomalasi kabilarni ekan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 96-moddasiga asosan, mulkiy huquqlarni belgilangan shaklga va majburiy rekvizitlarga amal qilgan holda tasdiqlovchi hujjatlар qimmatli qog'ozlar hisoblanib, ularni taqdim etgan taqdirdagina mazkur huquqlarni amalga oshirish yoki boshqa shaxslarga berish mumkin bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlar boshqa shaxsga berilishi bilan ular tomonidan tasdiqlanadigan hamma huquqlarni ham o'sha shaxsga o'tadi.

Shuningdek, 2015-yil 3-iyunda yangi tahrirda qabul qilingan "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonunning 3-moddasiga asosan, qimmatli qog'ozlar - hujjatlar bo'lib, ular mazkur hujjatlarni chiqqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtaqidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarni tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 81-moddasida fuqarolik huquqlari obyektlarining turlari keltirib o'tilgan bo'lib unga ko'ra, ashyolar, shu jumladan pul va qimmatli qog'ozlar, boshqa buyumlar, mol-mulk, shu jumladan mulkiy huquqlar, ishlar va xizmatlar, ixtiolar, sanoat namunalari, fan, adabiyot, san'at asarlari va intellektual faoliyatning boshqa natijalari, shuningdek shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa moddiy hamda nomoddiy boyliklar kiradi.

Qimmatli qog'ozlar mulk huquqing obyekti sifatida Fuqarolik kodeksining 169-moddasida keltirilgan bo'lib, bunga muvofiq yer, yer osti boyliklari, suvlar, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, shu jumladan binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob-uskunalar, xom ashyo va mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek intellektual mulk obyektlari mulk bo'lishi mumkin.

Demak, qimmatli qog'ozlar bir vaqtning o'zida ham huquqiy hujjat, o'z navbatida ham mulk hisoblanar ekan.

## 9.6. Qimmatli qog'ozlarning turlari

Aksiya - o'z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz.

Aksiya qimmatli qog'ozlarning bir turi bo'lib, uning o'zi ham bir necha turlarga bo'linadi.

- egasining nomi yozilgan va ko'rsatuvchi egalik qiladigan aksiyalar;

- oddiy va imtiyozli aksiyalar.

Egasining nomi yozilgan aksiyalarda ular egasining familiyasi majburiy tarzda ko'rsatilishi shart, agar ularning egasi yuridik shaxs

bo'lsa tashkilotning nomi ko'rsatiladi. Taqdim etuvchi egalik qiladigan aksiyalarda ularning egasining nomi ko'rsatilmaydi.

Imtiyozli aksiya aksiyadorlar umumiyligiga ilishida ovoz berish yoki korxonani boshqarishda ishtiroy etish huquqini bermaydi. Ularning imtiyozi, bir tomonidan, jamiyat xo'jalik faoliyatidan qat'iy nazar kafolatlangan daromadni olish imkoniyatidan, ikkinchi tomondan esa, aksiyadorlik jamiyati tugatilgan vaqtida aksiyalar qiymatini birinchi navbatda olish huquqidan iborat.

Fond birjasida muomalada bo'lish xususiyatiga ko'ra, "ro'yxatga olingan" va "ro'yxatga olinmagan" aksiyalar mavjud. Ro'yxatga olingan aksiyalar birjada muomalaga chiqarilgan, ro'yxatga olinmagan aksiyalar faqat qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari bozorlarida mavjud bo'ladi. Emitent tomonidan chiqarilish xususiyatiga ko'ra, obuna aksiyalari mavjud. Ularning joylashtirilishi uchun distribyuter firma tomonidan kafolatlar berilgan bo'ladi. Mazkur aksiyalarning to'liq to'lanadigan va qismlarga bo'lib to'lanadigan turlari bor.

Muomala xususiyatiga ko'ra, "muomaladagi aksiyalar" va "portfel aksiyalar"ga ajratiladi. Emitentning qimmatli qog'ozlar bozorida doimiy ravishda muomalada bo'luvchi aksiyalari muomaladagi, aksiyalarni chiqargan kompaniyalar ichtiyoridagi aksiyalar portfel aksiyalar, deb ataladi.

"Faol" deb nomlanuvchi aksiyalarning alohida toifasi mavjud. Bu birjalar da doimiy ravishda katta miqdorda muomalada bo'ladigan aksiyalardir. Mazkur aksiyalar ular uchun maxsus indekslar belgilanish chog'ida bozordagi vaziyatning indikatori hisoblanadi.

"Qayta baholanish huquqiga ega bo'lgan aksiyalar" emitentga aksiyaning egasidan qo'shimcha badalni talab qilish huquqini beradi. Aksariyat hollarda bunday aksiyalar infliyatsiya sharoitida chiqariladi.

"Vinkulirlangan aksiyalar" ning egasi ularni aksiyadorlik jamiyatiga ijroiya organining ruxsatsiz sotishi mumkin emas. Chaqirib olinish huquqiga ega bo'lgan imtiyozli aksiyalar emitentga ularning egasini oldindan xabardor qilgan holda sotib olish huquqini beradi.

"Oltin aksiya" uning egasiga (ustav fondiga qo'shgan ulushidan qat'iy nazar) ma'lum bir vaqt mobaynida kompaniyani boshqarish huquqini beradi. Shu kabi aksiyalar ko'pincha xususiylashtirish jarayonlari kechayotgan mamlakatlarda uchraydi. Bunda "oltin" aksiyaning egasi sifatida, odatda, qandaydir bir iqtisodiyotni boshqaruvchi idora orqali davlatning o'zi ishtiroy etadi.

“Kumulyativ aksiyalar”ni chiqarish shartlarida, odatda, ushbu aksiyalar bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan, lekin to‘lanmagan dividendlarning jamg‘arilib borilishi va emitentning moliyaviy ahvoli yaxshilanib, dividendlarni to‘lash imkoniyati paydo bo‘lgan vaqtida to‘lanishi nazarda tutildi.

“Retrekтив aksiyalar” o‘z egasiga ularni so‘ndirish uchun kompaniyaga taqdim etish huquqini beruvchi aksiyalardir. So‘ndirish shartlari, muddatları to‘g‘risida bunday qimmatli qog‘ozlarning birlamchi emissiyasi vaqtida kelishib olinadi.

“Ayrboshlanadigan aksiyalar” ni oldindan kelishilgan narxlar bo‘yicha muayyan bir vaqt oraliq‘ida boshqa aksiyalarga(odatda, oddiy aksiyalarga) almashtirish mumkin.

“Kursi o‘zgarib turuvchi aksiyalar” bo‘yicha dividend to‘lovlari foizning darajasiga qarab o‘zgarib turadi. Agar foiz oshsa, aksiyalar bo‘yicha to‘lovlari ham oshadi va aksincha.

“Orderli aksiyalar” o‘z egasiga aksiyalarning ma‘lum miqdorini sotib olish va shu bilan aksiya qadrini oshirish huquqini beradi.

**Obligatsiya** - emissiyaviy qimmatli qog‘oz bo‘lib, u obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qat‘iy belgilangan foizni olishga bo‘lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi.

Qonun hujjatlariда nazarda tutilgan hollarda qarz shartnomasi obligatsiyalar chiqarish va sotish yo‘li bilan tuzilishi mumkin.

Obligatsiya saqlovchining obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini olish huquqini tasdiqlaydi. Obligatsiya uni saqlovchiga obligatsiyaning nominal qiymatidan obligatsiyada qayd etilgan miqdorda foizlar olish huquqini yoki boshqa mulkiy huquqlarni ham beradi.

Firmalar turli xildagi obligatsiyalar chiqaradi. Bular orasida quyidagi turlarini keltirib o‘tish mumkin:

1. Firmanning obligatsiya majburiyatini o‘z mol-mulki bilan ta‘minlash usuliga ko‘ra garovlangan hamda garovlanmagan obligatsiyalar;

2. Daromad olish usuliga ko‘ra kuponli, chegirmali, aralash, foyda keltiradigan obligatsiyalar;

**3. Harakatda bo'lishiga ko'ra almashtiriladigan va almashtirilmaydigan obligatsiyalar;**

**4. Ma'lum muddatga berilishiga ko'ra qisqa muddatli (odatda bir yilgacha), o'rta muddatli(1 yildan - 5-10-yilgacha), uzoq muddatli (20 yildan 30 yilgacha) obligatsiyalar.**

**5. Egalik qilish tartibiga ko'ra ro'yxatga olingan obligatsiya, bunda egalik qiluvchi to'g'risidagi ma'lumot bevosita obligatsiyada yoki ro'yxatga olish kitobida o'z aksini topadi, keying turida esa buning aksi hisoblanib oddiy usulda ma'lumot uchun tanishtiriladi.**

Aksiyadan farqli ravishda obligatsiya emitentning mol-mulkiga nisbatan mulk unvoni hisoblanmaydi. U ovoz berish va boshqarish huquqini bermaydi. Obligatsiya - bu bir shaxsnинг boshqa bir shaxsga mablag'larni vaqtinchalik foydalanish uchun berganligi haqidagi guvohnomadir. Obligatsiyalar ma'lum muddatga chiqariladi. Emitentning faoliyati tugatilgan vaqtida ularning egalari qimmatli qog'ozlar boshqa turlarining egalariga qaraganda an'anaviy tarzda ustunlikka ega bo'ladi.

Yuqoridagilarni kelib chiqqan holda aksiya va obligatsiyalarning farqli jihatlarini keltirib o'tamiz, unga ko'ra:

**1. Jamiyat boshqaruviqa qatnashish masalasi yuzasidan aksiya egasi jamiyat boshqaruvida qatnashish huquqiga ega bo'ladi, ya'ni aksiyadadorlar umumiy yig'ilishida qatnashishi va muayyan masala yuzasidan ovoz berishi mumkin. Obligatsiya saqlovchi shaxs obligatsiya chiqqargan kompaniya boshqaruviqa ta'sir ko'rsata olmaydi, u faqat kompaniyaga tegishli muddatga qarz beradi.**

**2. Qimmatli qog'oz egasining huquqiy maqomi yuzasidan aksiya egasi jamiyat egalaridan biri hisoblanadi, obligatsiya saqlovchi shaxs esa kreditor hisoblanadi.**

**3. Qimmatli qog'ozlarning mazkur turlaridagi kuzatilishi mumkin bo'lган xatarlar jihatdan ularning ikkalasi ham tavakkalchilikka asoslanadi. Agar kompaniya bankrot deb topilsa, u birinchi navbatda obligatsiya saqlovchi bilan hisob-kitob qiladi, aksiya egasi bankrot deb topilgan kompaniyadan hech narsa ololmasligi mumkin.**

Xulosa o'mida shuni aytish mumkinki, ushbu qimmatli qog'ozlarning har ikkalasi ham tavakkalchilikka asoslanar, faqat obligatsiya aksiyaga qaraganda ishonchliroq, ya'ni aksiyaga nisbatan qaltisliligi kamroq darajada ekan.

2015-yil 3-iyunda yangi tahrirda qabul qilingan “Qimmatli qo‘g‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasiga asosan, infratuzilma obligatsiyalarini ishlab chiqarish infratuzilmasini va boshqa infratuzilmani barpo etish va rekonstruksiya qilishni moliyalashtirish uchun pul mablag‘larini jalb etish maqsadida xo‘jalik jamiyatlari va davlat korxonalarini tomonidan chiqariladigan obligatsiyalardir. Korporativ obligatsiyalarini aksiyadorlik jamiyatlari va o‘zining tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’iy nazar tijorat banklari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalardir.

Davlat korxonalarini infratuzilma obligatsiyalarini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda chiqaradi.

Infratuzilma obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lar alohida bank hisobvarag‘ida jamlanadi va emitentning ulardan maqsadli foydalanilishini nazorat qiluvchi kuzatuv kengashi yoki yuqori boshqaruvi organi qaroriga ko‘ra sarflanadi.

**Veksel** - veksel beruvchining yoxud vekselda ko‘rsatilgan boshqa to‘lovchining vekselda nazarda utilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to‘lashga doir qat’iy majburiyatini tasdiqlovchi noyemissiyaviy qimmatli qog‘oz.

Veksel - bu veksel beruvchining yoki vekselda ko‘rsatilgan boshqa to‘lovchining vekselda ko‘zda utilgan muddat kelganda veksel egasiga ma‘lum miqdordagi summani to‘lash haqidagi so‘zsiz majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog‘ozdir.

Veksellar o‘z navbatida oddiy va o‘tkazma veksellarga bo‘linadi.

Oddiy veksel - bu veksel beruvchi shaxsnинг, ya‘ni qarzdorning muayyan pul summasini aniq belgilangan muddatga kreditorga to‘lash majburiyatini ifodalovchi hujjat.

O‘tkazma veksel - bu kreditoring qarzdorga ma‘lum pul summasini ko‘rsatilgan muddatda uchinchi shaxs - birinchi oluvchi(remitent)ga to‘lashi buyrug‘ini ifodalovchi hujjat.

Tijorat veksellari - tijorat bitimlariga asoslangan Veksellardir. Bu turdag‘ Veksellarga ko‘ra ishlab chiqaruvchi-sotuvchi sotib oluvchidan tovar uchun belgilangan to‘lovnini muayyan vaqtida amalga oshirishi ko‘rsatilgan vekselni taqdim qiladi. Tijorat Veksellari o‘zida ikki asosiy funksiyani qamrab oladi. Birinchi funksiyasi, so‘zsiz bajarilishi lozim bo‘lgan qarz majburiyati, ikkinchidan, to‘lov vositasi sifatida xizmat qilish funksiyasi.

Bronza veksellari - tovar bilan qoplanmagan **Veksellar**. Ular, odatda, o'ylab topilgan shaxsga yozib beriladi. Bunday veksel bo'yicha olinadigan daromad bankda hisobga olinadi. Odatda, bunday Veksellar ular bo'yicha bank ssudalarini olish maqsadida tadbirkorlar tomonidan bir-birlariga yozib beriladi.

Bank veksellari **-** ular bo'yicha banklar to'lovchi sifatida ishtirok etadigan **Veksellar**.

Vekselni bir shaxsdan ikkinchisiga o'tkazilishi o'tkazma yozuv - indossament (yegasining nomi yozilgan yoki blankli) yordamida amalga oshiriladi. Har bir indossant "veksel beruvchi" sifatida aksept va to'lov uchun javobgarlikka ega. Veksel qimmatli qog'oz sifatida to'lov uchun to'lov amalga oshiriladigan joyda vekselni to'lash topshirilgan to'lovchiga oki uchinchi shaxsga taqdim etlishi zarur. Veksellar muomalasi ularga yozib berilgan muddat bilan chegarlangan.

**Indossament** **-** qimmatli qog'oz, veksel ustidagi ushbu hujjat bo'yicha huquqlarning boshqa shaxsga o'tkazilganligini tasdiqlovchi o'tkazma yozuv. Indossament, odatda, hujjatinng orqa tomonida yoki qo'shimcha varaqqa qo'yiladi. Indossamentni bajargan shaxs indossant, deb nomlanadi. Indossament hujjat uning foydasiga o'tkazilayotgan shaxsning ko'rsatmasini o'zida mujassamlantirishi, ko'rsatuvchi egalik qiladigan bo'lishi yoki indossantning bitta imzosidan iborat bo'lishi mumkin.

Indossament quyidagi turlarda bo'lishi mumkin:

- Egasining nomi yozilgan indossament vekselning yangi egasini belgilab beradi. Vekselning bundan keying o'tkazilishi uchun uning imzosi zarur;

- Blankli indossament veksel o'tkaziladigan shaxsni belgilamaydi. Faqat o'tkazish amali belgilanadi.

- Qaytarilmaydigan indossament. Veksel egasi vekselni o'tkazish chog'ida o'tkazma yozuvda "menga qaytarilmasisin", degan iborani kiritishi va bu bilan to'lanmagan hamda to'lanmaganlik noroziligi bildirilgan veksel bo'yicha javobgarlikni o'zidan soqit qilishi mumkin, keyingi indossamentlarga bunday huquq berilmaydi. Yozuvda yuqorida qayd etilgan iboraning bo'lishi vekselning to'lanmasligi ehtimoli shubhasini keltirib chiqarishi mumkin, bu bunday **Veksellarga** nisbatan ishonchni yo'qotishi va ularning aylanuvchanlik darajasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Demak, yuqoridagi indossament yuzasidan keltirilgan ma'lumotlarga tayanib shuni aytishimiz mumkinki, indossament - bu vekselning jamiyatda harakati davomida bir shaxsdan ikkinchi shaxsga tegishli huquqning o'tkazilishini tasdiqlovchi yozuv ekan.

### **13. KORXONALARНИ DAVLAT TASARRUFIDAN CHIQARISH VA XUSUSIYLASHTIRISH.**

Xususiylashtirish tushunchasi, Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning huquqiy asoslari, Xususiylashtirishning usullari va shakllari

Xususiylashtirish tushunchasi. Xususiylashtirishni huquqiy tartibga soluvchi qonunlar va qonunosti me'yoriy hujjatlar. Xususiylashtirishni amalga oshiruvchi davlat organlari va ularning vakolatlari. Xususiylashtirish obyektlari. Xususiylashtirish shakllari va usullari.

Respublikamizda davlat mulkini xususiylashtirish jarayonining olib borilayotgani iqtisodiy islohotlarning va aholi turmush sharoitining tobora farovonlashuviga olib keladigan huquqiy vositalardan biri hisoblanadi. Buning sababi shundaki, mulkni xususiylashtirish jarayoni har bir davlatning o'z ichki sarmoyasini, shu bilan birga, tashqi xususiy sarmoyalarni olib kirishni rag'batlantirishga asos bo'ladi, mamlakatimiz va chet elliq sarmoya sohiblariga yangi huquqiy va iqtisodiy imkoniyatlar oolib beradi.

Xususiylashtirish xususiy sektorning rivojlanishi va tadbirdorlarning ko'payishiga, davlatga hamda iste'molchilarga ham foyda keltiradi. Chunki bu moddiy ne'matlar ishlab chiqarishiga, xizmat ko'rsatishning rivojlanishi va raqobatning kuchayishiga, bozorlarda narxlarning pasayishiga yordam beradi, shuningdek, korxonalarda yangi ish o'rinnlari yaratilishiga, ishsizlar sonining qisqarishiga, xususiy sektorda xizmat qiladigan shaxslarning ko'proq foyda olishi va shu tufayli yanada samaraliroq mehnat qilishga qiziqishlarining ortishiga olib keladi.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning asosiy mohiyati jamiyatdagi mulkni mulkdorlarga topshirishdan iboratdir. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning zaruriyati davlatning mulkchilik hamda xo'jalik yuritish sohasidagi monopoliyasiga barham berish orqali ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirishdir. Chunki xususiylashtirish natijasida turli xil mulk shakllari vujudga keladi va ular asosida turli tashkiliy-huquqiy shaklga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi

subyektlar (xo'jalik jamiyatları, xo'jalik shirkatları va h.k.) tashkil etiladi.

**Davlat tasarrufidan chiqarish**, bu — davlat korxonalarini va tashkilotlarini jamoa, ijara korxonalariga, xo'jalik jamiyatları va shirkatlariga, davlatga qarashli mulk bo'lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir.

**Xususiy lashtirish** esa, jismoniy shaxslarning va davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning davlat mulki obyektlarini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir.

Turli mulk shakllari hamda turli tashkiliy-huquqiy shakldagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning mavjud bo'lishi esa, aralash iqtisodiyotning asosiy belgisi bo'lib hisoblanadi. Ular sotsialistik tuzumdagidek bir-birini inkor etmaydi, aksincha, bir-birini to'ldirib boradi. Korxonalarni xususiy lashtirish orqaligina iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish va shu orqali xo'jalik yuritish sohasida davlat monopoliyasini bartaraf etish mumkin. «Tahlillar shuni ko'sratmoqdaki, bugungi kunda davlat korxonalari nodavlat korxonalari bilan raqobatga dosh bera olmayapti. Zarar ko'rib ishlayotgan va samaradorligi past korxonalarning aksariyati aynan davlat korxonalari yoki davlat ulushi yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatları ekani buni amalda tasdiqlab turibdi. Bunday holatning bosh sababi — bu korxonalarda haqiqiy xo'jayinning yo'qligi, real iqtisodiy omil va usullarning ishga solinmaganligidir».

Iqtisodiy islohotlarni kafolatli amalga oshirishning asosiy shartlaridan biri ularning huquqiy negizini yaratishdir. Iqtisodiy islohotlar qonun hujjatlari asosida amalga oshirilgandagina ular muayyan natija beradi va orqaga chekinmaydi. Shuning uchun ham islohotlarning huquqiy negizini yaratish bir qancha muhim yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi. Mazkur yo'nalishlardan biri mulkchilik munosabatlariga asos soladigan qonunlar majmuyini yaratishga qaratilgan edi. Ushbu qonunlarni qabul qilmasdan turib, odamlarning mulkka bo'lgan munosabatlarini o'zgartirib bo'lmas edi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida xususiy mulkning daxlsizligi belgilab qo'yildi. Biroq, Konstitutsiya qabul qilinguniga qadar mulkchilik munosabatlariga doir boshqa qonunlar qabul qilingan edi. Ushbu qonunlarning dastlabkisi 1990-yil 31-oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida»gi Qonuni bo'ldi.

Qonun, shuningdek, barcha mulk shakllari tengligini va ularning huquqiy jihatdan muhofaza etilishini kafolatlab qo'ydi. Eng muhimmi, mazkur qonun mulkdorning mulkiy huquqlari doirasini belgilab berdi.

1991-yil 19-noyabrda esa O'zbekiston Respublikasining «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunlarni birin-ketin qabul qilishdagi mantiqiy bog'liqlik shundan iborat edi, mulkdorning mulkiy huquqlarini kafolatlamay, xususiylashtirishni amalga oshirish jarayoni qiyin kechardi. Chunki yuridik va jismoniy shaxslarning xususiylashtirish jarayonida faol ishtirokini ta'minlashning yagona yo'li, ularning mulkiy huquqlarini kafolatlashdan iborat edi. Aynan 1991-yil 19-noyabrdagi qonun davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning shakllarini, shartlarini hamda amalga oshirish tartibini belgilab berdi. Mazkur Qonunga muvofiq, davlat mulki obyektlari Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergen organ qarori bilan davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiylashtiriladigan bo'ldi.

Davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiylashtirilishi mumkin bo'limgan hamda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiylashtiriladigan obyektlar hamda korxonalarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisini tomonidan belgilab beriladigan bo'ldi. Aynan mazkur ro'yxatlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagagi «Ayrim korxonalar va mol-mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning ba'zi masalalari to'g'risida»<sup>1</sup>gi qarori bilan tasdiqlandi. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoxda. Xususiylashtirishning birinchi bosqichi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 23-sentabrdagi qarori bilan boshlab berildi<sup>2</sup> hamda 1994-yilning o'talarigacha davom etdi. Mazkur bosqichda umumiy uy-joy fondi, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko'rsatish korxonalari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash tizimlari xususiylashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 21-yanvardagi «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirdorlikni rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida»gi hamda 1994-yil 15-martdagagi «O'zbekiston Respublikasida mulknini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari to'g'risida»gi

Farmonlari xususiylashtirishning navbatdagi bosqichiga o'tish uchun turki bo'ldi.

1994-yil 21-yanvardagi Farmon bilan Vazirlar Mahkamasiga xususiylashtirish bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish vazifasi yuklatildi. Mazkur dasturda sanoat va qurilish tarmoqlarida xususiylashtirishning amalga oshirilishiga, shuningdek, fuqarolarning xususiylashtirish jarayonida faol ishtirotini ta'minlash maqsadida yopiq aksiyadorlik jamiyatlarini ochiq aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish masalalariga ko'proq e'tibor qaratilishi lozimligi ta'kidlandi.

1994-yil 15-martdagi Farmonda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, aksiyadorlik jamiyatlarida davlatga tegishli aksiyalar ulushini qisqartirish hamda xususiylashtirish cheklab qo'yilgan korxonalar sonini kamaytirish masalalari o'z aksini topgan.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga taalluqli bo'lgan qonun hujjatlarini ularning maqsadlaridan kelib chiqqan holda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchisi, bevosita davlat mulkini xususiylashtirishga oid qonun hujjatlari bo'lsa, ikkinchisi ana shu qonun hujjatlarining samarali ijrosini ta'minlashga qaratilgan normativ hujjatlar. Misol uchun, 1995-yil 12-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat mulki bo'lgan korxonalarni aksiyalashtirishni jadallashtirish va qimmatli qog'ozlar bozorini takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»<sup>23</sup> Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonda davlat boshqaruvi organlarining mansabdar shaxslari hamda korxona va tashkilotlarning rahbarlari orasida hanuzgacha saqlanib qolgan boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik tizimi paydo qilgan boqimandalik kayfiyati davlat korxonalarini aksiyalashtirish muddatlarini cho'zib yuborishayotgani tanqid ostiga olingan.

Xususiylashtirishning ikkinchi bosqichi (1995—1996-yillar) ochiq turdag'i aksiyadorlik jamiyatlarini yaratish, korxonalarning aksiyalarini muomalaga chiqarish, ko'chmas mulk hamda qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish, sanoat, qurilish va transport sohasidagi hamda agrosanoat kompleksining go'sht-sut, oziq-ovqat va paxta tozalash tarmoqlaridagi o'rta va yirik korxonalarni, shuningdek, sayyohlik komplekslarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bilan xarakterlanadi<sup>24</sup>.

2003-yildan boshlab xususiylashtirish jarayonida sifat jihatidan tub o'zgarish ro'y berdi. Shu vaqtgacha amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, korxonalarning nizom

jamg'armasida davlat ulushining yuqori bo'lishi ularning iqtisodiy va xo'jalik faoliyatiga davlatning bevosita aralashuviga olib kelayotgan edi. Mazkur omillarni bartaraf etish maqsadida 2003-yil 24-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon ustav fondida davlatning ulushi 25 % va undan kam miqdorni tashkil etgan aksiyadorlik jamiyatlarida davlat ulushini saqlab qolish maqsadga muvofiq emasligi va mazkur ulush fond bozorida xususiy sektorga sotib yuborilishi kerakligi belgilab qo'yildi. Avvallari korxonalarining davlatga tegishli aksiya paketlari shu korxona uyushmasining ishonchli boshqaruviga topshirilar edi.

Bozor munosabatlari ko'p ukladli iqtisodiyot bo'lganligi uchun davlat mulkini xususiylashtirish ham bir necha shakl va usullarda amalgga oshiriladi. Xususiylashtirish bo'yicha jahon tajribasi tahlil etilganda, uni **yettita usulda** amalgga oshirish mumkinligi aniqlandi<sup>1</sup>.

*Birinchisi*, davlat korxonalarini aksiyalarini erkin sotish. Biroq, fond bozori yaxshi rivojlanmagan davlatlarda xususiylashtirishni mazkur usulda amalgga oshirish juda qiyin kechadi, chunki ushbu aksiyalarни reklama qilish uchun ko'p mablag' sarflanadi.

*Ikkinchisi*, aksiyalarini auksionlarda sotish. Aksiyalarini auksionlarda sotishdan maqsad, xususiylashtirish jarayonida suiiste'mollikka yo'l qo'ymaslikdir. Masalan, Meksikada xususiylashtirishning dastlabki bosqichida hokimiyat tepasidagi partianing safdoshlariga korxonalar arzonlashtirilgan narxda sotib yuborilganligi nizolarning kelib chiqishiga sababchi bo'lgan.

*Uchinchisi*, davlat korxonalariga xususiy investitsiya kiritish. Bunda korxona to'g'ridan to'g'ri sotib olinadi yoki uning aksiya paketi xarid qilinadi. Biroq, yirik hamda strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalar uchun mazkur usul maqbul hisoblanmaydi, chunki ularda davlat, albatta, o'z ulushini saqlab qolishi shart.

*To'rtinchisi*, korxonaning mol-mulklarini sotib yuborib, tushgan mablag'lar bilan uning qarzlarini qoplash hamda korxonani butunlay tugatish. Mazkur usul korxonaning iqtisodiy ahvolini yaxshilash imkoniyati mavjud bo'lgan vaziyatlarda qo'llaniladi. Polsha davlatida mazkur usul keng qo'llanilgan.

*Beshinchisi*, davlat korxonalarini turli qismlarga bo'lib yuborib, ularni alohida-alohida sotish. Bunda yirik korxonalar bir necha korxonalar

majmuyidan iborat bo‘ladi. Mazkur korxonalardan yaxshi daromad keltiradigani alohida korxona sifatida sotib yuborilishi mumkin.

*Oltinchisi*, korxonan uning rahbari yoki mehnat kollektivi tomonidan sotib olinishi. Xususiy lashtirishning mazkur usulida ishchi bir vaqtning o‘zida ham mulkdor bo‘ladi, ham bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy jihatdan himoyalangan bo‘ladi. Ushbu usul AQSHda keng qo‘llaniladi va mazkur korxonalarga soliqlar bo‘yicha ko‘proq imtiyozlar berishga harakat qilinadi.

*Yettingchisi*, davlat korxonasini ijaraga berish yoki uni boshqarishni shartnoma asosida muayyan xususiy korxonaga topshirish. Xususiy lashtirishning ushbu usulida yangi shakldagi korxona o‘zining imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta olmaydi.

Jahon tajribasidan hamda ichki sharoitdan kelib chiqqan holda O‘zbekistonda xususiy lashtirishning quyidagi usul va shakllaridan foydalanildi:

- davlat korxonasini jamoa korxonasiga, xo‘jalik jamiyatni yoki shirkatiga aylantirish;
- ijaraga olingan korxonani kelgusida haq to‘lab sotib olish sharti bilan davlat korxonasini ijara korxonasiga aylantirish;
- davlat korxonasini tanlov yo‘li bilan yoki kimoshdi savdosida davlatga taalluqli bo‘limgan yuridik va jismoniy shaxslarga sotish.

Davlat korxonasini jamoa korxonasiga aylantirish, mehnat jamoasi a’zolari tomonidan davlat mulkining sotib olinishi yoki bu mulkning ularga tekin berilishi yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bunda jamoa korxonasing ustavida har bir xodimning mol-mulkdagisi hamda foydadagi ulushi belgilab qo‘yiladi. Mazkur miqdor xodimlarning ish stoji, maoshining miqdori va boshqa omillardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

O‘zbekistonda xususiy lashtirishning davlat korxonalarini xo‘jalik jamiyatlarini va shirkatlariga aylantirish usuli keng qo‘llanildi. Xususiy lashtirishning mazkur usulini qo‘llashdan maqsad, bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqarolarni mulkdor qilish orqali ularni ijtimoiy jihatdan himoyalashdir. Chunki bozor munosabatlariiga o‘tish davrida ishsiz fuqarolarning soni ortadi hamda ularni ijtimoiy jihatdan himoyalash dolzarb muammolardan biri bo‘lib qoladi. Aynan mana shunday vaziyatda fuqaro birorta korxonaning aksiyasiga ega bo‘lsa yoki uning ustav kapitalida o‘z ulushiga ega bo‘lsa, u ijtimoiy jihatdan

himoyalangan bo'ladi, chunki ular vaqt-vaqt bilan dividend olib turishadi. Dastlab yopiq turdag'i aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etilgan bo'lsa, keyinchalik fuqarolarning xususiyashtirish jarayonida faol ishtirotini ta'minlash uchun ular ochiq aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirila boshlandi. Biroq, iqtisodiy tahlillar mazkur jamiyat va shirkatlarda davlat ulushining saqlanib qolishi maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatdi. Shuning uchun ham keyingi davrdagi iqtisodiy islohotlar xo'jalik jamiyatlari va shirkatlardagi davlat ulushlarini mumkin qadar qisqartirishga yoki bo'limasa ularning barchasini xususiy sektorga o'tkazib yuborishga qaratildi. Eng achinarlisi, mazkur korxonalarda aksiyadorlarning o'z huquqlarini bilmasliklari yoki ularni amalga oshirmsaliklari mulkdor sifatida ularning manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham korxonalarning korporativ boshqaruvini tubdan isloh etish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Davlat mulki obyektlarini tanlov asosida sotish xususiyashtirishning samarali usullaridan bo'lib hisoblanadi. Bunda tanlovni o'tkazish shartlari, tartibi va muddati maxsus tanlov komissiyasi tomonidan belgilab beriladi. Tanlov shartlari *ijtimoiy* hamda *investitsiyaviy* shartlardan iborat bo'ladi. Ijtimoiy shartlarga avvalgi ishchi o'rinalarini saqlab qolish, qo'shimcha ishchi o'rinalarini yaratish, xodimlarning malakasini oshirib borish, mehnatni muhofaza qilish, korxonaning faoliyat sohasini o'zgartirmaslik kabilalar kiradi. Investitsion shartlarga korxonani rekonstruksiya qilish, zamonaviy uskunalar sotib olish, ishlab chiqarishni kengaytirish va shu kabilalar kiradi.

Davlat mulki obyektni kimoshti savdosida sotish orqali xususiyashtirishdan maqsad, budgetga ko'proq mablag' tushirishdir. Bunda davlat mulki obyekti birmuncha yuqori narxda sotiladi va uni sotib oluvchilarga hech qanday shartlar qo'yilmaydi. Agarda xususiyashtirilishi lozim bo'lgan korxona hech kimni qiziqtirmasa va unga xaridor topilmasa, u tugatiladi hamda uning balansida bo'lgan mulklar sotib yuboriladi. Xususiyashtirishni samarali amalga oshirishning asosiy shartlaridan biri xususiyashtirilayotgan korxonaga nisbatan xususiyashtirish usulini to'g'ri tanlay bilishdir. Masalan, aksariyat hollarda iqtisodiy jihatdan samarasiz ishlayotgan korxonalarni xususiyashtirishga harakat qilinadi. Biroq, mazkur toifadagi korxonalar hech kimni qiziqtirmaydi yoki ular juda past narxlarda sotib yuboriladi. Masalan, Angliyada dastlab daromad keltiruvchi korxonalar

xususiylashtirilgan. Chunki, bunday korxonalarning aksiyalariga talabgorlar ko‘p bo‘ladi va ushbu korxonalar ancha yuqori narxda sotiladi. Bu esa davlat budgetiga katta daromad keltiradi.

## GLOSSARIY

**AKTSEPT KREDITI** — banklar tomonidan banklardagi eksport qiluvchi ko'chirilib oladigan o'tkaziluvchi veksellar aktsepti shaklida beriladigan kredit.

### ASHYOLARNING LOMBARDDA GAROVGA QO'YILISHI

← — Fuqarolardan shaxsiy iste'molga mo'ljallangan ko'char mol-mulkni qisqa muddatli kreditlarni ta'minlash uchun garovga qabul qilish ixtisoslashgan tashkilotlar — litsenziyasi bo'lgan lombardlar tomonidan tadbirkoplik faoliyati sifatida amalga oshirilishi mumkin. Lombardda ashylarni garovga qo'yish haqidagi shartnoma lombard tomonidan garov pattasi berish yo'li bilan rasmiylashtiriladi. Garovga qo'yilayotgan ashylar lombardga topshiriladi. Lombard garovga qabul qilingan ashylarni garovga qabul qilish paytida shunga o'xshash va shunday sifatlari ashylarning napxlapiga mos bahodagi to'liq summasida o'z hisobidan garovga qo'yuvchi foydasiga sug'urtalashi shart. Lombard garovga qo'yilgan ashylardan foydalanishga va ularni tasarruf etishga haqli emas. Lombard ashylarning yo'qolishi yoki shikastlanishi yengib bo'lmas kuch oqibatida yuz berganligini isbotlay olmasa, garovga qo'yilgan ashylarning yo'qolganligi yoki shikastlanganligi uchun javobgar bo'ladi. Basharti, lombardda ashylar garovi bilan ta'minlangan kredit summasi belgilangan muddatda qaytarib berilmagan taqdirda, lombard notariusning ijro yozuvni asosida imtiyozli bir oylik muddat o'tganidan keyin garovga qo'yilgan mol-mulkni sotish uchun belgilab qo'yilgan tartibda ushbu mol-mulkni sotishga haqli. SHundan keyin hatto garovga qo'yilgan mol-mulkni sotishdan tushgan summa talablarni to'liq qanoatlantirish uchun yetarli bo'lmasa ham, lombardning garovga qo'yuvchiga (qarzdorga) talablari bekor bo'ladi. Lombardlar tomonidan fuqarolarga ularning ashylarini garovga olib kredit berish qoidalari qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Lombardda ashylarni garovga qo'yish to'g'risidagi shaptnomaning garovga qo'yuvchining huquqlarini FK yoki boshqa qonunlar bilan unga beriladigan huquqlarga qaraganda cheklab qo'yadigan shaptlapi o'z-o'zidan haqiqiy emas.

**BANK** — yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan taval<sup>kal</sup> qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish; to'lovlarни amalga oshirish faoliyatini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti. Banklar o'z faoliyatlarida quyidagi B. operatsiyalarini ham amalga osfiradilar: jismoniy va yuridik

shaxslarning, shu jumladan, vakil banklarning hisobvaraqlarini ochish va yuritish, hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitob qilish; omonatlarni jalb etish; kreditlarning qaytarilishi, foizliligi va muddatliligi sharti b-n o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'lar hisobidan kreditlar berish. B. bevosita ishlab chiqarish, savdo va sug'urta faoliyati b-n shug'ullanishga haqli emas. B., shu jumladan, chet el banki, O'zRda o'z faoliyatini O'zRning Markaziy banki tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradi. B., qoida tariqasida, mulkchilikning har qanday shakli asosida aktsiyadorlik jamiyati tarzida tashkil etiladi. Yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar B. muassislari bo'lishi mumkin. B. o'z ustavlari asosida faoliyat ko'rsatadi. B.ning ustav kapitali B. muassislari va aktsiyadorlari to'lagan pul mablag'laridan tashkil topadi. B. Markaziy bankda ro'yxatga olingan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi. B.lar O'zRda o'z filiallarini, chet el B.lari esa o'z vakolatxonalarini Markaziy bankning ruxsati b-n ochishlari mumkin. B.lar, basharti, qonun hujjatlarining talablariga zid kelmasa, o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, o'z a'zolari manfaatlarini himoya qilish va birgalikdagi dasturlarni amalga oshirish uchun ittifoqlar, uyushmalar va b. birlashmalar tuzishlari mumkin. B. quyidagi hollarda o'z faoliyatini to'xtatadi: aktsiyadorlar yig'ilishining qaroriga ko'ra; Markaziy bank litsenziyani chaqirib olganida; bankrot deb e'lon qilinganida.

**BANKROTLIK** (iqtisodiy nochorlik) — xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatları bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini to'la hajmda bajarishga qodir emasligi.

B. italyancha "banco rotto" so'zidan olingan bo'lib, aslida kursining (o'rindiqning) sinishi degan ma'noni bildirsa ham, bu so'z qarzdorning nochor ahvolga tushib sinishi, inqirozi, barbod bo'lishi deb ham ishlataladi. B. xo'jalik (tadbirkorlik) sohasida eng omilkor, eng ishbilarmon tadbirkorlarni tanlash mexanizmidir. Xo'jalik yurituvchi subyektlarni bankrot deb e'tirof etish tartibi O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-aprelda yangi tahriridagi qabul qilingan "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonuni bilan belgilab berilgan.

Qarzdorning pul majburiyatları bo'yicha kreditorlar talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to'lovlar

majburiyati yuzaga kelgan kundan e'tiboran uch oy davomida qarzdar tomonidan bajarilmagan bo'lsa, bankrotlik alomatlari deb e'tirof etiladi.

B. to'g'risidagi ish bankrotlik alomatlari mavjud bo'lган taqdirda, agar qarzdar yuridik shaxsga nisbatan jami talablar eng kam ish haqi miqdorining kamida besh yuz karrasini tashkil etadigan bo'lsa, qarzdar yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan esa eng kam ish haqi miqdorining kamida o'ttiz karrasini tashkil etadigan bo'lsa, xo'jalik sudi tomonidan qo'zg'atilishi mumkin.

**BROKER** (ingлизча broker) — oldi-sotdi bitimlar tuzilishida o'z mijozlarining topshirig'iga binoan va ularning nomidan vositachilik xizmatini amalga oshiruvchi shaxsdir. Odatda B. fond, tovar-xom ashyo, valyuta birjalarida faoliyat ko'rsatadi. Broker vositachilik faoliyati uchun xaq oladi. B.ning o'z nomidan harakat qilishiga yo'l qo'yiladi, biroq bunda muayyan ishonch bildirgan subyektlar hisobidan va ular manfaatini ko'zlab ish yuritadi. Brokerlik o'rinnlarini tashkil etish, ular faoliyatini amalga oshirish masalalari birjalar to'g'risidagi qonun hujjatlari, shuningdek, birjalarning ichki normativ hujjatlari, ish muomalasi odatlari bilan tartibga solinadi.

**VALYUTA** — valyuta tushunchasi ikki ma'noda ishlataladi, ya'ni: *birinchidan*, valyuta davlatning pul birligi hisoblanadi; *ikkinchidan*, valyuta xorij davlatlarining pul birligi, shuningdek xalqaro hisobkitoblarda qo'llaniladigan va xorij pul birligida ifodalangan kredit va to'lov hujjatlari hisoblanadi. Moliya huquqida "valyuta" tushunchasi ko'pincha ikkinchi (xorij davlatlarining pul birligi) ma'nosida ishlataladi. Valyutani *ichki va tashki valyutaga* bo'lishimiz mumkin. Ichki va tashqi valyuta o'rtasidagi farqni oshib berish uchun: a) bitta davlat hududida foydalilanidigan va konvertatsiya qilinmaydigan valyuta; b) xorij valyutasiga almashtiriladigan va xalqaro bozorda to'lov vositasi hisoblanadigan konvertatsiya qilinadigan valyuta; v) tashqi valyuta operatsiyalarida va ba'zi bir subyektlar o'rtasida qisman foydalilanidigan valyuta qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasining pul birligi "SO'M" hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida yagona qonuniy to'lov vositasi bo'lган O'zbekiston Respublikasi pul birligining xarid qobiliyatini mustahkamlashga qaratilgan yagona pul-kredit siyosati o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining valyutasi - bu: muomilada bo'lган, shuningdek muomiladan chiqarilgan yoki chiqariladigan, lekin tegishli banknotlar va tangalar bilan almashtiriladigan so'm hisoblanadi; O'zbekiston Respublikasi banklaridagi hisob rakamlarda saqlanadigan

pul mablag'lari hisoblanadi; O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bank va kredit muassasalaridagi hisob rakamlarda saqlanadigan pul mablag'lari. Bu O'zbekiston Respublikasi Hukumati va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining xorij davlatlari tegishli organi bilan, mazkur xorij davlatida O'zbekiston Respublikasi valyutasining qonuniy pul vositasi sifatida foydalanish to'g'risidagi shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

**GAROV** — bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqni majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi garov hisoblanadi.

Garovga ko'ra qarzdor garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan taqdirda kreditor (garovga oluvchi) bu majburiyat bo'yicha o'z talabi garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan ushbu mol-mulk egasi bo'lgan shaxs (garovga qo'yuvchi)ning boshqa kreditorlariga qaraganda imtiyozli suratda qanoatlantirilishiga, qonunda belgilab qo'yilgan chegirishlardan keyin, haqli bo'ladi.

Garovga oluvchi garovga qo'yilgan mol-mulkni yo'qtganlik yoki unga ziyon yetkazganlik uchun sug'urta haqidani, bu mol-mulk kimning foydasiga sug'urta qilingan bo'lismidan qat'i nazar, o'z talabi yuqoridagi asoslarda qanoatlantirilishiga haqli, basharti mol-mulkni yo'qtish yoki unga ziyon yetkazish garovga oluvchi javobgar bo'lgan sabablarga ko'ra yuz bergen bo'lmasa.

Garov shartnoma yoki qonun asosida amalda yuzaga keladi.

Garov zakalat, ipoteka, shuningdek huquqlar garovi tarzida amal kilishi mumkin.

Garovga qo'yiladigan mulk garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga o'tkazilganda garov zakalat deb hisoblanadi.

Ko'chmas mulkni garovga qo'yish ipoteka hisoblanadi.

**DAVLAT KREDITI** — davlat tomonidan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim sohalari hamda byudjet defitsitini qoplash uchun zarur bo'lgan qo'shimcha moliyaviy resurslarni yo'naltirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh turgan pul mablag'larini qaytarishlik, muddatlilik, maqsadga muvofiqlik va ixtiyorilik tamoyillariga asosan jalb etish bo'yicha moliya huquqi b-n tartibga solinadigan munosabatlar. D.k. bo'yicha moliyaviy-huquqiy munosabatlarni amalga oshirish natijasida davlatning ichki qarzi shakllantiriladi.

**ZARAR** — Fuqarolik kodeksining 14-moddasida zarar tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan.

Zarar deganda, huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lган xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek bu shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lган, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi (FKning 14-moddasi).

Berilgan ta'rifga ko'ra zarar tarkibi quyidagilar bilan belgilanadi:

huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lган xarajatlari;

shaxsning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar);

shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lган, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda).

Zarar yetkazish Fuqarolik huquqida majburiyat huquqiy munosabatlarni vujudga kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. SHu munosabat bilan Fuqarolik kodeksida alohida zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar bobi mavjud. Fuqarolik huquqida majburiyatlarning bu turi delikt majburiyatlar, – deb ham ataladi.

**IQTISODIY NIZOLAR** — tadbirkorlik va boshqa iqtisodiy sohalarda yuzaga keladigan nizolar. O'zbekiston Respublikasi tadbirkor shaxslari, yuridik shaxslar ishtirokida yuzaga keladigan va ma'muriy, fuqarolik huquqlari munosabatlardan kelib chiqadigan iqtisodiy nizolar xo'jalik sudlarida ko'rib chiqiladi. Xo'jalik sudida ko'rib chiqiladigan iqtisodiy nizolarga quyidagilar kiradi:

tuzilishi qonunda ko'rsatilgan shartnomalar bo'yicha nizolar yoki xo'jalik sudi tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lган nizolar;

shartnomalarning o'zgarishi yoki tugatilishi;

majburiyatlarni bajarmaganlik yoki yetarlicha bajarmaganlik;

mulk huquqini tan olinishi;

zararni undirish haqidagi nizolar;

sha'n, qadr-qimmat va tadbiokorlik obro'yini himoya qilish;

davlat va mahalliy organlar tomonidan jarimlar undirish  
to'g'risidani ishlar va h.k

**IMPORT** (ing. importate-keltirmoq) — tovar, ishlar, xizmatlar, intellektual faoliyat natijalari, shu jumladan, ularga bo'lган mutlaq huquqni qaytarib olib ketmaslik majburiyat bilan O'zbekiston

Respublikasi hududiga olib kirish. Import fakti tovarning O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasini kesib o'tgan vaqtida, xizmatlar va intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquq olingan vaqtida qayd etiladi.

**ISTE'MOLCHILARNING HUQUQLARI** — iste'molchilar quyidagi huquqlarga ega:

tovar (ish, xizmat) haqida, shuningdek ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) haqida to'g'ri va to'liq ma'lumot olish;

tovar (ish, xizmat)ni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli bo'lishi;

tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo'lishi; hayoti, sog'lig'i va mol-mulki uchun xavfli nuqsoni bo'lgan tovar (ish, xizmat), shuningdek ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning g'ayriqonuniy harakati (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan moddiy ziyon, ma'naviy zararning to'liq hajmda qoplanishi;

buzilgan huquqlari yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlari himoya qilinishini so'rab sudga, boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etish;

iste'molchilarning jamoat birlashmalarini tuzish;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlar ("Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 4-modasi).

**INVESTITSIYA** — bu iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlaridir. Investitsiya faoliyati shug'ullanuvchi subyektlariga qarab milliy va xorijiy investitsiyalarga bo'linadi. Investitsiyalarni birgalikda himoya qilish to'g'risidagi xalqaro shartnomalarining ko'pchiligidagi "investitsiya" deganda, har bir davlatning yuridik va jismoniy shaxslari bir-birlarining xududlariga investitsiya sifatida kiritgan har qanday mulk tushuniladi. SHuningdek, xalqaro investitsiya faoliyati deganda, yuridik va jismoniy shaxslarning yoxud davlatning o'z mulkinining bir qismini (investitsiya mulkini) ajratish va foyda (daromad) olish yoxud investor uchun muhim bo'lgan boshqa samaraga erishish maqsadida ushbu mulkni boshqa davlat xududidagi xo'jalik muomilasiga jalb qilinishi tushuniladi. Investitsiya faoliyatining mintaqaviy rivojlanishiga davlatlar o'rtaсиda tuzilgan savdo ittifoqlari – YeH va NAFTAning ta'siri muhim ahamiyat kasb etgan. 1993-yilda GATTning Urugvay bosqichi tugashi natijasida xorijiy investitsiyalarga nisbatan qo'llaniladigan qo'shimcha

qoidalarning ishlab chiqilishiga, bu esa xalqaro investitsiya faoliyatini yanada rivojlanishiga sabab bo'ldi.

**INVESTOR** — o'z mablag'larini, qarzga olingen va jalb etilgan mablag'larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati ob'ektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti. Investorlar qimmatli qog'ozlar bozorida quyidagi huquqlarga ega: emitentdan qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi, emitentning joriy moliyaviy holati va uning rivojlanish istiqbollari haqidagi axborotni taqdim etishni talab qilish; qimmatli qog'ozlar bozorida ularga o'z xizmatlarini taklif etuvchi investitsiya institutlaridan ushbu Qonunning 6-m.ga muvofiq ular to'g'risidagi, shuningdek qimmatli qog'ozlarning fond birjasidagi savdolarini va birjadan tashqari savdosini o'tkazish qoidalari haqidagi axborotni talab qilish; pul va boshqa to'lov mablag'lari, mol-mulki b-n, shuningdek pul qiymatiga ega bo'lgan huquqlari (shu jumladan, mulkiy huquqlar) asosida qonun hujjalarda va emitentning ta'sis hujjalarda belgilangan tartibda qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar qo'yish; qimmatli qog'ozlar bozoridagi o'z tavakkallarini sug'ortalash; qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organidan investitsiya institutlari va ularning birlashmalari to'g'risida, qimmatli qog'ozlar emissiyasini to'xtatib qo'yishga, qimmatli qog'ozlar bozoridagi kasbiy faoliyatga doir litsenziyalarning amal qilishini to'xtatib qo'yish, tugatish va bekor qilishga doir barcha holatlar, investitsiya institutlari va emitentlar tomonidan sodir etilgan huquqburzarliklar to'g'risida, shuningdek qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga emitentlar yoki investitsiya institutlari tomonidan ularning huquqlari buzilayotganligi to'g'risidagi shikoyatlar b-n murojaat qilish; fond birjasi a'zolari, uning mansabdor shaxslari va mutaxassislari tomonidan huquqlari buzilgan taqdirda fond birjasiga shikoyatlar b-n murojaat qilish; qimmatli qog'ozlar bozorida huquqlari buzilganligi va yetkazilgan zararlarni qoplash to'g'risidagi da'vo arizasi b-n sudga murojaat qilish; investorlarning birlashmalari orqali o'z huquqlarini himoya qilish. Investorlar qimmatli qog'ozlar

bozorida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

**ISTE'MOL KREDITI** — jismoniy shaxsga (iste'molchiga) uning iste'mol ehtiyojlarini qondirish maqsadida tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib olish uchun beriladigan kredit. Jismoniy shaxsnинг iste'mol ehtiyojlari uchun mo'ljallangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) iste'mol krediti ob'ekti bo'lishi mumkin. Ko'chmas mulk, shuningdek qonunga muvofiq muomaladan chiqarilgan yoki muomalada bo'lishi cheklangan boshqa mol-mulk iste'mol krediti ob'ekti bo'lishi mumkin emas. Iste'mol krediti iste'mol krediti berish qoidalariga muvofiq iste'mol krediti shartnomasi (bundan buyon matnda shartnomma deb yuritiladi) bo'yicha to'lovililik, muddatililik va ta'minlanganlik shartlari bilan beriladi. Iste'mol krediti o'z faoliyati natijasida olingan daromadlarga, pensiya va boshqa daromadlarga (bundan buyon matnda daromadlar deb yuritiladi) ega bo'lgan jismoniy shaxslarga beriladi.

**KREDIT** — (lot. creditum —qarz) — bu vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larni yoki tovarlarni ma'lum bir muddatga va haq evaziga qaytarib berish sharti bilan qarzga berishdir. U kredit shartnomasi bo'yicha vujudga kelib, unga ko'ra bir taraf — bank yoki boshqa k. tashkiloti (kreditor) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazardautilgan miqdorda va shartlar asosida pul mablag'lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi. Qonun hujjatlariga muvofiq k. tashkilotlari bo'lмаган tijorat tashkilotlarining kreditlashni amalga oshirishiga yo'l qo'yilgan hollarda k. shartnomasi to'g'risidagi qoidalar bunday tijorat tashkilotlari amalga oshiradigan kreditlash munosabatlariiga nisbatan qo'llanadi. K. shartnomasi yozma shaklda tuzilishi shart. Yozma shaklga rioya qilmaslik shartnomaning haqiqiy bo'lmasligiga olib keladi. Bunday shartnomma o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaydi. Kreditor qarz oluvchini to'lovga qobiliyatsiz deb hisoblasa, qarz oluvchi k.ni ta'minlash majburiyatlari bajarmasa, shartnomada nazardautilgan k.dan aniq maqsadda foydalanish majburiyatini buzsa, shuningdek shartnomada nazardautilgan boshqa hollarda qarz oluvchiga k. shartnomasida nazardautilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortishga haqli. Qarz oluvchi k. olishdan butunlay yoki qisman bosh tortishga haqli. Agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazardautilgan bo'lmasa, qarz oluvchi bu haqda kreditorni k. shartnomasida belgilab qo'yilgan k. berish muddatiga qadar

xabardor qilishi shart. Qarz oluvchi k. shartnomasida nazarda tutilgan k. dan aniq maqsadda foydalanish majburiyatini buzgan taqdirda kreditor shartnoma bo'yicha qarz oluvchini bundan buyon kreditlashni to'xtatishga haqlidir.

**KREDIT TASHKILOTI** — O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-apreldagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuniga muvofiq yuridik shaxs mazkur qonunda ko'rsatilgan bank operatsiyalarini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maxsus ruxsatnomasi asosida o'z faoliyatning asosiy maqsadi sifatida foyda olish uchun amalga oshirish huquqiga ega. Kredit tashkiloti xo'jalik jamiyati sifatida har qanday mulk shakli asosida tashkil etiladi. Kredit tashkiloti bank operatsiyalarining barcha spektrini amalga oshiruvchi bankka va ayrim bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega bank bo'limgan kredit tashkilotlariga bo'linadi. Bank bo'limgan kredit tashkiloti uchun bank operatsiyalarini qo'shib olib borishga yo'l qo'yilishi mumkinligi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi. Kredit tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida davlat ro'yxatidan o'tishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kredit tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiradi va kredit tashkilotini davlat ro'yxatida Kitobini olib boradi. Kredit tashkiloti Markaziy bank tomonidan beriladigan litsenziyani olgan davridan boshlab bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini oladi.

**KASANACHILIK** — bu jismoniy shaxs - kasanachining yashash joyi bo'yicha yoki unga, uning oila a'zolariga tegishli bo'lgan boshqa binolarda ish beruvchining buyurtmalari bo'yicha tovarlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish bo'yicha kasanachi tomonidan amalga oshirilayotgan ish hisoblanadi. Kasanachi sifatida ishlashga faqat 16 yosh va undan katta yoshdagagi jismoniy shaxslarga yo'l qo'yiladi. Basharti kasanachilik xususiyati kasanachi bilan to'liq yakka tartibdagi moddiy javobgarlik to'jisida shartnoma tuzilishi zarurligini taqozo etsa, 18 yoshga to'lган shaxslar kasanachilikni amalga oshirishga qo'yiladilar. Kasanachilik texnologiya jarayoni va boshqa shart-sharoitlar uy sharoitlarda butlovchi buyumlar, yarim tayyor mahsulotlar va mahsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqarish imkonini beradigan sanoat tarmoqlari va xizmat ko'rsatish sohalarida korxonalar bilan korxonalarining buyurtmalari bo'yicha uuda mahsulotlar ishlab chiqarayotgan va xizmatlar ko'rsatayotgan fuqarolar o'rtasidagi

kooperatsiya asosida tashkil etiladi. Kasanachilar ishining aniq turlari ularning kasb malakasi, salomatligi hisobga olingan holda ish beruvchi tomonidan belgilanadi (ish xususiyati, foydalaniladigan asbob-uskunalar va jihozlar, xom ashyo, materiallarning xossalari, nogironlarga nisbatan TMEK tavsiyalari e'tiborga olinadi). Kasanachilik mehnati qishloq joylarda ayollar uchun, ijtimoiy himoyaga muxtoj shaxslar uchun ustuvor tartibda tashkil etiladi. Kasanachilar tomonidan ishlarni bajarish kasanachi oilasining a'zolari ishtirokida (yordamida) ish beruvchining rozilgisiz amalga oshirilishi mumkin. Bunda kasanachi unga yordam beradigan oila a'zolari tomonidan bajariladigan ishlar sifati uchun ish beruvchi oldida javob beradi. Kasanachilar korxona bilan mehnat shartnomasini tuzadi, ularga mehnat daftarchasi yuritiladi va u mehnat shartnomasi amal qilishining butun davrida saqlanadi. Ilgari ishlamagan va mehnat daftarchasiga ega bo'Imagan kasanachi uchun mehnat daftarchasi ish beruvchi tomonidan ochiladi. Kasanachini ishga qabul qilishda va u bilan mehnat shartnomasi tuzishda undan talab qilinadigan hujjatlar ro'yxati Mehnat kodeksining 80-moddasiga muvofiq belgilanadi. Kasanachilar ishiga, qoidaga ko'ra, ishbay haq to'lanadi. Haq to'lash amalda bajarilgan ishlar uchun yoki sifati bo'yicha belgilangan talablarga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarilgani uchun amalga oshiriladi. Kasanachining ish haqi, uning tomonidan mehnat normalari va mehnat majburiyatlari bajarilgan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdoridan kam bo'lishi mumkin emas va biron-bir eng yuqori miqdor bilan cheklanmaydi. Kasanachi ishlab chiqarish topshirishi hajmidan hamda mehnat shartnomasida belgilangan boshqa shartlardan kelib chiqqan holda o'zi uchun ish vaqtini muddatini, ish jadvali va tartibini mustaqil ravishda belgilaydi. Ta'tilga chiqish esa kasanachi bilan kelishuv bo'yicha ish beruvchi tomonidan tasdiqlangan jadval asosida amalga oshiriladi. Ish beruvchining buyurtmasi yuzasidan tuzilgan shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun kasanachiga tekin foydalanish uchun korxona tomonidan berilgan asbob-uskunalar, jihozlar va inventarlar foydalanish davrida mulk solishi to'lovidan ozod qilinadi. Bundan tashqari, tekshiruv va nazoratga to'xtaladigan bo'lsak, kasanachilar faoliyatini nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshirishlar faqat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladigan buyurtmachi-korxonani tekshirish vaqtida o'tkazilishi mumkin, boshqa hollarda yo'l qo'yilmaydi.

**QARZ SHARTNOMASI** — Qarz shartnomasi bo'yicha bir taraf (qarz beruvchi) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) pul yoki turga xos alomatlari bilan belgilangan boshqa ashyolarni mulk qilib beradi, qarz oluvchi esa qarz beruvchiga bir yo'la yoki bo'lib-bo'lib, o'shancha summadagi pulni yoki qarzga olingan ashyolarning xili, sifati va miqdoriga baravar ashyolarni (qarz summasini) qaytarib berish majburiyatini oladi.

Qarz shartnomasi pul yoki ashyolar topshirilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Qarz shartnomasi o'zining huquqiy belgilariga ko'ra, aksariyat hollarda ikki tomonlama real va haq baravariga tuziladigan shartnomalar toifasiga kiradi.

Fuqarolar o'rtasida qarz shartnomasi, agar bu qarzning summasi eng kam ish haqining o'n baravaridan ortiq bo'lса, oddiy yozma shaklda tuzilishi, shartnomadagi taraflardan biri yuridik shaxs bo'lganida esa summasidan qat'i nazar yozma shaklda tuzilishi shart.

Qarz shartnomasining yozma shakliga rioya qilmaslik Fuqarolik kodeksining 109-moddasida nazarda tutilgan oqibatlarga olib keladi.

Agar qarz oluvchining tilxati yoki unga qarz beruvchi tomonidan muayyan summa yoki muayyan miqdordagi ashyolar topshirilganligini tasdiqlaydigan boshqa hujjat mavjud bo'lса, qarz shartnomasi yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi.

Agar qarz majburiyati qarz oluvchi tomonidan berilgan veksel, obligatsiya yoki qarz summasini va qarz beruvchining uni undirib olish huquqini belgilaydigan boshqa qimmatli qog'oz bilan tasdiqlangan bo'lса, qarz shartnomasining yozma shakliga rioya qilingan hisoblanadi.

**QARZDOR** — fuqarolik huquqiy munosabatda ishtirok etuvchi taraflardan biri, ya'ni kreditor foydasiga muayyan harakatni amalga oshirish (masalan, mulkni topshirish, ishni bajarish) yoki muayyan harakatni qilishdan o'zini tiyishga majbur bo'lgan tomon. Faqat fuqarolik huquqlari va burchlari egasi bo'lishga qodir bo'lgan, ya'ni huquqiy layoqatga ega bo'lgan jismoniy, yuridik shaxslar va davlat qarzdor bo'lishi mumkin. Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan bir tomonlama shartnomalarda faqat bir tomon (masalan, qarz shartnomasida qarz oluvchi), ikki tomonlama shartnomada esa ikkala tomon qarzdor bo'ladi. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarda zararni qoplashga majbur bo'lgan shaxs, asossiz ravishda boylik orttirishdan kelib chiqadigan majburiyatlarda esa – asossiz ravishda olingan yoki jamg'arilgan mulkni qaytarishga majbur

bo'lgan shaxslar qarzdor hisoblanadi. Majburiyatda bir necha qarzdorlar bo'lishi mumkin. Bunday holatda odatda, har bir qarzdor boshqalari bilan teng ulushda majburiyatlarni bajarishi shart. Agar majburiyat predmeti bo'linmas bo'lsa (masalan, televizor), qarzdorlar xuddi kreditorlar singari, birgalikda javobgar hisoblanadilar. Bu kreditorning majburiyatni bajarishni barcha qarzdorlardan birgalikda ham, ularning har biridan alohida ravishda ham, bunda butun qarz bo'yicha ham, **bir** qismi bo'yicha ham talab qilishi mumkinligini bildiradi. Agar qonunda yoki shartnomada boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, birgalikdagi majburiyatini bajargan qarzdor qolgan qarzdorlardan qarz majburiyatini o'z hissasini chegirib olib, teng hissada regress talab qilish huquqiga egadir.

**LIZING** (moliya ijarasi) — lizing shartnomasi bo'yicha vujudga keluvchi fuqarolik-huquqiy munosabat bo'lib, unga ko'ra lizing beruvchi (ijaraga beruvchi) bir taraf lizing oluvchi (ijaraga oluvchi) ikkinchi tarafning topshirig'iga binoan sotuvchi uchinchi taraf bilan undan lizing oluvchi uchun mol-mulk sotib olish haqida kelishish majburiyatini oladi, lizing oluvchi esa buning uchun lizing beruvchiga lizing to'lovlarini to'lash majburiyatini oladi. Yer uchastkalari va boshqa tabiat ob'ektlaridan tashqari iste'mol qilinmaydigan, tadbirdorlik faoliyati uchun foydalaniladigan har qanday ashyolar lizing ob'ekti bo'lishi mumkin. Lizing subyektlari: lizing beruvchi, lizing oluvchi va lizing sotuvchi hisoblanadi. Kelajakda lizing oluvchiga lizing bo'yicha topshirish maqsadida mol-mulkni o'ziga mulk qilib oluvchi shaxs lizing beruvchi, egalik qilish va foydalanish uchun lizing ob'ektini oladigan shaxs lizing oluvchi, lizing beruvchi lizing ob'ektini kimdan olayotgan bo'lsa, shu shaxs lizing sotuvchi hisoblanadi. Lizing beruvchi mol-mulkni bo'lajak foydalanuvchidan sotib olgan taqdirda yoxud lizing beruvchi kelajakda mol-mulkni sotuvchiga lizing bo'yicha topshirish uchun undan shu mol-mulkni sotib olish maqsadida uni mablag' bilan ta'minlagan taqdirda bir shaxsning o'zi ham lizing oluvchi, ham sotuvchi bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Lizing to'lovi lizing beruvchining lizing ob'ektini sotib olish uchun qilgan xarajatlarining hammasi yoki ko'p qismi, shuningdek lizing ob'ektini yetkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni yaroqli holga keltirish bilan bog'liq boshqa xarajatlari lizing oluvchi tomonidan qoplanishi hamda lizing beruvchining daromadidan iborat bo'ladi. Lizing bo'yicha ijara olingan mol-mulkning tasodifan nobud bo'lishi yoki tasodifan buzilishi

xavfi, agar lizing shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, lizing oluvchiga bu mol-mulkni topshirish paytida o'tadi. Lizing beruvchi lizing ob'ektini lizing oluvchiga shartnomasi shartlariga javob beradigan holatda va unda kelishilgan muddatda topshirishi shart. Agar lizing beruvchining aybli harakatlari yoki yo'l qo'ygan kamchiliklari tufayli mol-mulk yetkazib berilmagan, to'liq yetkazib berilmagan, muddati kechiktirib yetkazib berilgan yoki tegishli darajada sifatli bo'lmanan mol-mulk yetkazib berilgan bo'lsa, buning uchun u lizing oluvchi oldida javobgardi. Lizing oluvchi lizing beruvchi oldida shartnomasi yuzasidan javobgar bo'lib qolgani holda, lizing shartnomasi bo'yicha olgan mol-mulkini lizing beruvchining roziligi bilan qo'shimcha lizingga topshirishga haqli. Lizing bo'yicha topshirilgan mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi lizing beruvchidan boshqa shaxsga o'tganida lizing shartnomasi yangi mulkdor uchun o'z kuchini saqlab qoladi.

**LOMBARD** — bu so'z Italiyaning "Lombardiya" qishlog'i nomidan olingan bo'lib, shu yerda asos solingan. Lombard majburiyatlarni ta'minlash usullaridan garovning bir turi sifatida ko'rildi. Bunda fuqaroldardan shaxsiy iste'molga mo'ljallangan ko'char mol-mulkni qisqa muddatli kreditlarni ta'minlash uchun garovga qabul qilish ixtisoslashgan tashkilotlar — litsenziysi bo'lgan lombardlar tomonidan tadbirdorlik faoliyati sifatida amalga oshiriladi. Ixtisoslashtirilgan tashkilotlar — lombardlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish funksiyasi adliya organlariga yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent shahrida joylashgan lombardlarni davlat ro'yxatidan o'tkazadi.

Qoraqpolog'iston Respublikasi Adliya vazirligi va viloyatlar adliya boshqarmalari tegishli ravishda Qoraqpolog'iston Respublikasi va viloyatlar hududida joylashgan lombardlarni davlat ro'yxatidan o'tkazadi.

SHuningdek:

lombardlar adliya organlari tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi uchun qonun hujjalarda to'lov kunida belgilangan eng kam oylik ish haqining to'rt baravari miqdorida davlat boji undiriladi;

litsenziyalovchi organ tomonidan litsenziya talabgorining arizasi ko'rib chiqilganligi uchun ariza berilgan kunda qonun hujjalarda belgilangan bitta eng kam oylik ish haqi miqdorida yig'im undiriladi;

lombardlar faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya berilganligi uchun to'lov kunida qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining besh baravari miqdorida davlat boji undiriladi.

Lombardlar davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi uchun to'lanadigan davlat boji summasi belgilangan tartibda taqsimlanadi.

Lombardda ashylarni garovga qo'yish haqidagi shartnoma lombard tomonidan garov pattasi berish yo'li bilan rasmiylashtiriladi. Lombard garovga qo'yilgan ashylardan foydalanishga va **ularni** tasarruf etishga haqli emas. SHuningdek garovga qabul qilingan ashylarni garovga qabul qilish paytida shunga o'xshash va shunday sifatli ashylarning narxiga mos bahodagi to'liq summasida o'z hisobidan garovga qo'yuvchining foydasiga sug'urtalashi shart.

**LOMBARD KREDITI** — lombardga topshirilgan mol-mulkni garovga qo'yish evaziga qisqa muddatga naqd pul beriladi. Garovga qo'yilgan mol-mulk baholanib, shu narxga asoslanib kredit beriladi. Lombard krediti lombard bilan tuziladigan shartnomaga muvofiq belgilanadi. Lombard garovga qo'yilgan ashylardan foydalanishga va ularni tasarruf etishga haqli emas. Lombard ashylarning yo'qolishi yoki shikastlanishi yengib bo'lmas kuch oqibatida yuz berganligini isbotlay olmasa, garovga qo'yilgan ashylarning yo'qolganligi yoki shikastlanganligi uchun javobgar bo'ladi. Agar lombardda ashylar garovi bilan ta'minlangan kredit summasi belgilangan muddatda qaytarib berilmasa, lombard nota-riusning ijro yozuvi asosida imtiyozli bir oylik muddat o'tganidan keyin garovga qo'yigan mol-mulkni sotish uchun belgilab qo'yilgan tartibda mol-mulkni sotishga haqli. Garovga qo'yilgan mol-mulkni sotishdan tushgan summa talablarni to'liq qanoatlantirish uchun yetarli bo'lmasa ham, lombardning garovga qo'yuvchiga (qarzdorga) talablari bekor bo'ladi

Lombardlar tomonidan fuqarolarning ashylarini garovga olib kredit berish qoidalari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Lombardda ashylarni garovga qo'yish to'g'risidagi shartnomaning garovga qo'yuvchining huquqlari Fuqarolik Kodeks yoki boshqa qonun bilan unga beriladigan huquqlarga qaraganda cheklab qo'yadigan shartlari o'z-o'zidan haqiqiy emas.

**MA'NAVİY ZARAR** — jarblanuvchiga qarshi sodir etilgan huquqbazarlik harakati (harakatsizlik) oqibatida u boshidan kechirgan (o'tkazgan) ma'naviy va jismoniy (kamsitish, jismoniy og'riq, zarar ko'rish, noqulaylik va boshqa) azoblar tushuniladi. Ma'naviy zarar,

jumladan yaqin qarindoshini yo'qotish (o'limi) sababli ma'naviy qag'urish, ijtimoiy hayotdagi faoliyatini davom ettira olmaslik, ishini yo'qotish, oilaviy, tibbiy silarni oshkor qilish, fuqarolarning sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni tarqatish, har qanday boshqa huquqlarini vaqtincha cheklash yoki ulardan mahrum qilish, yetkazilgan zarar yoki sog'liqqa boshqacha ziyon yetkazish tufayli jismoniy og'riq, sog'liqqa boshqacha yetkazilgan yoxud yetkazilgan ma'naviy azoblar natijasida boshidan o'tkazilgan boshqa kasalliklarda namoyon bo'ladi. Ma'naviy zarar pul bilan qoplanadi. Ma'naviy zararni qoplash miqdori jabrlanuvchiga yetkazilgan jismoniy va ma'naviy azoblarning xususiyatiga, shuningdek ayb tovon to'lashga asos bo'lgan hollarda zarar yetkazuvchining aybi darajasiga qarab sud tomonidan aniqlanadi. Zararni qoplash miqdorini aniqlashda oqilonalik va adolatlilik talablari e'tiborga olinishi lozim. Jismoniy va ma'naviy azoblarning xususiyati ma'naviy zarar yetkazilgan haqiqiy holatlar va jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlari hisobga olingan holda sud tomonidan baholanadi.

**MIKROQARZ** — mikrokredit tashkilotlari tomonidan jismoniy shaxs bo'lgan qarz oluvchiga eng kam ish haqining yuz baravari miqdoridan oshmaydigan summada muddatlilik va qaytarish shartlari asosida, shartnomada nazarda tutilgan hollarda esa to'lovilik sharti asosida ham beriladigan pul mablag'lari

**MIKROKREDIT** — qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada to'lovilik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag'lari. Mikrokredit qarz oluvchiga pul mablag'larini shartnomaga muvofiq muayyan maqsadlar uchun ishlatish shartlari asosida (maqsadli mikrokredit) berilishi mumkin

**MIKROLIZING** — mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan lizing oluvchining topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan mol-mulk olish hamda uni egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga shartnomada belgilangan shartlar asosida haq evaziga berish nazarda tutiladigan xizmat

**NEUSTOYKA** — qonun hujjatlari yoki shartnoma bilan belgilangan, qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdipda kreditorga to'lashi shart bo'lgan pul summasi neustoyka hisoblanadi. Neustoyka to'lash haqidagi talab bo'yicha kreditor o'ziga yetkazilgan zararni isbotlashga majbur emas. Neustoyka

bilan faqat haqiqiy talab ta'minlanadi. Agar qarzdar majburiyat bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun javobgar bo'lmasa, kreditor neustoyka to'lashni talab qilishga haqli emas. Neustoyka jarima yoki penya shaklida bo'ladi. Qarzdar majburiyatlarни bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan hollarda to'laydigan va, qoida tariqasida, qat'iy pul summasida hisoblanadigan neustoyka jarima hisoblanadi. Qarzdar majburiyatlarning bajarilishini kechiktirib yuborganida to'laydigan va o'tkazib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun majburiyatning bajarilmagan qismiga nisbatan foiz bilan hisoblanadigan neustoyka penya hisoblanadi. Neustoyka to'g'risidagi kelishuv yozma shaklda tuzilishi kerak. Neustoyka to'lash taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan yoki tutilmaganligidan qat'i nazar, kreditor qonunda belgilangan neustoyka (qonuniy neustoyka)ni to'lashni talab qilishga haqli. Qonuniy neustokyanning miqdori, agar qonun taqiplamasa, taraflarning kelishuvi bilan ko'paytirilishi mumkin.

**RAMBURS KREDITI** — savdo operatsiyalarini bank tomonidan qisqa muddatli kreditlash; sotuvchi tomonidan ko'rsatilgan bankka sotuvchi o'tkaziluvchi vekselni ko'chirib qo'yishi va uni sotuvchining bankida aktsept qilingunicha hisobga qo'yilishi yordamida amalga oshiriladi. Veksel ko'chirib o'tkazilgan bank uni aktsept qiladi va sotuvchi vekselda ko'rsatilgan summani to'lash bo'yicha majburiyatlariga qarshi holda sotib oluvchi beradigan tovarni kuzatuvchi hujjatlarni oladi.

**TADBIRKORLIK (TADBIRKORLIK FAOLIYATI)** — amalda qabul qilingan qonunlar doirasida korxona, firma tashkil qilish, foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi faoliyat. Tadbirkorlik faoliyati bir yoki bir necha xususiy va huquqiy shaxslar mulklarini yoki qarzga olgan mulk, to'lov vositalarini ishga solish orqali amalga oshiriladi. O'zRda tadbirkorlik faoliyatining sohiblari: 1) respublika fuqarolari; 2)bir guruh fuqarolar (mehnat jamoalari va boshqalar); 3) chet ellik fuqarolar yoki xususiy shaxslar; 4) fuqaroligi bo'limgan shaxslar; 5) qo'shma mulk egalari.

Tadbirkor iqtisodiy faoliyatning barcha turlari bilan shug'ullanishi, jumladan, O'zR Konstitutsiyasiga zid bo'limgan va qonun chiqaruvchi aktlar bilan taqiqolanmagan innovatsion va maslahat faoliyati ko'rsatishi ham mumkin. O'zRda T.ning tashkil qilinishi, faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi huquqiy asoslari 1993-y. 7 mayda imzolangan "O'zRda tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonunda belgilangan.

Tadbirkorlik faoliyati — ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarda shaxs qonun asosida ishtirok etishining bir ko'rinishi. O'zR qonunchiligidagi shaxsnинг har tomonlama faoliyat ko'rsatishi uchun zarur huquqiy asoslar yaratilgan. Jumladan, O'zRning "Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi 1999-yil 14-aprelda chiqarilgan Qonuni aynan shu tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslarini yaratib berdi. Qonunning 3-moddasida "Tadbirkorlik"ka "tadbirkorlik faoliyati"ga) — qonun hujjatlariiga muvofiq daromad (foyda) olishga qaratilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) yo'li bilan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida amalga oshiriladigan faoliyat sifatida ta'rif berilgan. Tadbirkor esa — yuridik shaxs tashkil etgan holda ham, tashkil etmasdan ham tadbirkorlik faoliyati bilan doimiy asosda shug'ullanuvchi jismoniy shaxsdir. Tadbirkorlik faoliyati subyektlari, qonun hujjatlarga muvofiq, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, shu jumladan, chet el fuqarolari yoki yuridik shaxslari, shuningdek, fuqaroligi bo'lмаган shaxslar bo'lishi mumkin. Davlat hokimiyyati va boshqaruв organlarining mansabdor shaxslari, shuningdek, qonunlarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi man etilgan boshqa shaxslar tadbirkorlik faoliyatining subyektlari bo'lishlari mumkin emas. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyati qonun asosida belgilab berilgan. Masalan, O'zR FKning normalari asosida o'zaro mulkiy yoki nomulkiy munosabatlarning qonuniy asoslari orqali tadbirkorlik faoliyatlarini amalga oshiriladi.

**TADBIRKORLIK SUBYEKTALARINING MOLIYAXO'JALIK FAOLIYATINI REJALI TEKSHIRISHLAR DAVRIYЛИГИ** — Mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyatini rejali tekshirishlar ko'pi bilan to'rt yilda bir marta, boshqa tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini rejali tekshirishlar ko'pi bilan uch yilda bir marta amalga oshiriladi. Yangi tashkil etilgan mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyati ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida rejali tekshiruvlardan o'tkazilishi mumkin emas.

**TADBIRKORLIK TAVAKKALCHILIGI** — tadbirkorning o'z foyda olishga qaratilgan faoliyati va mulkini yo'qotish xavfidir. Tadbirkor o'z faoliyatini qonun hujjatlariiga muvofiq amalga oshirishi va mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan

tashabbuskor faoliyat olib borishi O'zR "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari tug'risida"gi Qonuni bilan belgilab berilgan.

**TADBIRKORLIK FAOLIYATI ERKINLIGI** — kishilarning demokratik jamiyatdagi iqtisodiy erkinliklaridan biri. Bu insonning o'z qobiliyatini o'zi bilgancha tadbirkorlikka ishlatishini, zavod, fabrikalarga ega bo'lishini, olgan foydasini o'zi istagancha ishlata olishi mumkinligini ko'zda tutadi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir.

Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi.

Tadbirkorlarga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy qarorlari, ularning mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

**TALABDAN BOSHQA SHAXS FOYDASIGA VOZ KECHISH (TSESSIYA)** - majburiyat asosida kreditorga tegishli bo'lgan huquq (talab) uning tomonidan bitim bo'yicha boshqa shaxsga o'tkazilishi (talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish) yoki qonun asosida boshqa shaxsga o'tishi mumkin.

Kreditorning huquqlari boshqa shaxsga o'tishi uchun, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, qarzどrning roziligi talab qilinmaydi.

Agar qarzdar kreditorning huquqlari boshqa shaxsga o'tganligi haqida yozma ravishda xabardor qilingan bo'lmasa, yangi kreditor shu tufayli kelib chiqqan o'zi uchun noqulay oqibatlar xavfini o'z zimmasiga oladi. Mazkur holda majburiyatning dastlabki kreditorga nisbatan bajarilishi tegishli kreditorga nisbatan bajarish deb hisoblanadi.

Kreditor huquqlarining boshqa shaxsga o'tishi haqidagi qoidalar regress talablarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Kreditorning shaxsi bilan chambarchas bog'langan huquqlarning, xususan alimentlar to'g'risidagi va hayotga yoki sog'liqqa yetkazilgan zararni to'lash to'g'risidagi talablarning boshqa shaxsga o'tishiga yo'l qo'yilmaydi.

Agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, dastlabki kreditorning huquqi yangi kreditorga huquq o'tish paytida mayjud bo'lgan hajmda va shartlar asosida o'tadi. Xususan, yangi kreditorga majburiyatning bajarilishini ta'minlaydigan huquqlar,

shuningdek talab bilan bog'liq boshqa huquqlar, shu jumladan to'lanmagan foizlarga huquq ham o'tadi.

Kreditorning o'z talabidan boshqa shaxs foydasiga voz kechishiga, basharti u qonunlarga yoki shartnomaga zid bo'lmasa, yo'l qo'yiladi.

Kreditorning shaxsi qarzdor uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan majburiyat bo'yicha talabdan qarzdorning roziligidisiz boshqa shaxs foydasiga voz kechishga yo'l qo'yilmaydi.

Oddiy yozma yoki notarial shaklda tuzilgan bitimga asoslangan talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish o'sha shaklda amalga oshirilishi kerak.

Davlat ro'yxatidan o'tkazish talab qilinadigan bitim bo'yicha talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish ushbu bitimni ro'yxatga olish uchun belgilab qo'yilgan tartibda ro'yxatga olinishi kerak.

Orderli qimmatli qog'oz bo'yicha talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish ushbu qimmatli qog'ozga indossalment (talab qilish huquqini o'tkazish yozuv) yo'li bilan amalga oshiriladi.

**TIJORAT BANKLARI** — tarixga nazar soladigan bo'lsak, «T.b.» iborasi bank ishi rivojlanishining ilk bosqichida, ya'ni banklar asosan savdo, mahsulot ayrboshlash va to'lov operatsiyalarini amalga oshirish uchun xizmat qilgan paytlarda vujudga kelgan. Banklarning asosiy mijozlari savdogarlar bo'lgan. Ular mahsulot ayrboshlash, saqlash, yetkazib berish kabilar bilan bog'liq operatsiyalarini mablag' bilan ta'minlagan (kreditlar bergen). Sanoat ishlab chiqarishi rivojlanib borishi bilan ishlab chiqarish jarayoni uchun qisqa muddatli kreditlar berish joriy etila boshlagan: muomala(da bo'lgan) mablag'ini (kapitalni) to'ldirish, xomashyo va tayyor mahsulotlar zaxiralari yaratish, ish haqini to'lash va boshqalar uchun qarzlar berish. Kreditlar muddati sekin-asta uzaytirila bordi. Bank resurslarining bir qismi asosiy kapital va qimmatli qog'ozlar uchun sarf qilishda ishlatala boshlandi. Boshqacha aytganda, «T. b.» iborasi o'zining dastlabki mazmunini yo'qotdi. Endi u, faoliyatidan qat'i nazar, barcha xo'jalik subyektlariga xizmat ko'rsatishga yo'naltirildi.

**TIJORAT KREDITI** — O'zR FKda kredit shartnomalarining bir turi. FKga muvofiq, ikkinchi bir tomon tasarrufiga ma'lum summani yoki boshqa umumiyl xususiyatlar bilan belgilanuvchi narsalarni berish bilan bog'liq shartnomalar kreditlar taqdim qilish sifatida ko'riliishi mumkin. SHu jumladan, mahsulotlar, ish yoki xizmatlarni avans tarzida, avvaldan to'lash, muddatni uzaytirish va qisqartirish orqali to'lash, agar

qonunda o'zgacha tartib belgilanmagan bo'lsa, shu turkum shartnomalarga kiradi. T.k.lariga tegishli tarzda Fuqarolik kodeksining kredit shartnomalari to'g'risidagi qoidalari hamda shu sohaga tegishli O'zR shartnomalari qoidalari qo'llanadi.

**TIJORAT SIRI** — himoya qilinoshining alohida tartibi belgilangan fuqarolik huquqi ob'ektlaridan biri. O'zR FKga muvofiq, axborot quyidagi hollarda T.s. deb sanalishi mumkin: agar axborot uchinchi shaxslarga ma'lum emasligi, qonunis asoslarda mazkur axborot bilan tanishishga ruxsat berilmaganligi hamda axborot egasi uni sir tutish uchun chora-tadbirlar ko'rayotganligi bois axborot haqiqiy yoki yashirin tijorat qimmatiga ega bo'lsa, T.s.ni tashkil qilmaydigan ma'lumotlar qonunlar hamda boshqa normativ hujjatlarda belgilanadi. T.s.ni tashkil etuvchi axborot FK va boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan tarzda himoya qilinadi. T.s.ni tashkil etuvchi ma'lumotlarga noqonuniy yo'llar bilan ega bo'lgan shaxslar yetkazilgan zararni to'lashlari lozim. SHuningdek, mehnat shartnomasiga zid ravishda T.s.ni oshkora qilgan xodimga ham xuddi shunday javobgarlik yuklanadi.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI** — O'zRning bosh banki. U moliya-kredit munosabatlарини boshqarish sohasida keng hokimiyat vakolatiga ega. O'zR M.b.ning ustav fondi va mulklari respublika mulki hisoblanadi. O'zR M.b.ning asosiy vazifalari: so'mning barqarorligini, jumladan, uning to'lov quvvatini va xorijiy valyutalarga nisbatan kursini himoya qilish va ta'minlash; O'zR bank tizimini rivojlantirish va mustahkamlash; hisob-kitoblar tizimining samarali va uzuksiz amal qilishini ta'minlash.

O'zR M.b. faoliyatining huquqiy asosini O'zR Konstitutsiyasi va 1992 yildagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun tashkil qiladi. O'zR Konstitutsiyasiga muvofiq, O'zR M.b. O'zR Oliy Majlisiga hisob beradi.

O'zR M.b. o'z vakolatlari doirasida mustaqil faoliyat ko'rsatadi. Banklar O'zR qonunlari va o'z ustavlariga mos kelmaydigan ko'rsatmalarni bajarishga haqli emaslar. O'zR M.b. o'z vakolatlariga kiradigan masalalar bo'yicha respublika hududidagi barcha banklar uchun majburiy bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar chiqaradi.

**FAKTORING** — savdo-komission operatsiyaning mijoz aylanma kapitalini kreditlash bilan uyg'unlashgan turi. O'zRda F. operatsiyalari pul talabnomalaridan voz kechish evaziga moliyalashtirish shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

## FUQARONING TADBIRKORLIK FAOLIYATI →

tadbirkorlik faoliyatining bir shakli. O'zR qonun hujjatlarida huquqiy asoslari yaratilgan. Jumladan, O'zR FKning 24-moddasiga asosan fuqaro yakka tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqli. SHu bilan birga O'zRning 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan "Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni ham yakka tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslarini belgilab beradi

**XUSUSIY BANK** — ustav kapitalida muassis-jismoniy shaxslarning ulushi kamida 50 foizni tashkil etadigan bank, ustav kapitalining qolgan qismi nodavlat yuridik shaxslarga tegishli bo'lishi mumkin.

**CHAKANA OLDI-SOTDI SHARTNOMASI** — O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 425-moddasiga muvofiq, ch.o.s.sh. bo'yicha tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan sotuvchi sotib oluvchiga shaxsiy maqsadlarda, ro'zg'orda yoki tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lмаган boshqa maqsadlarda foydalaniladigan tovarni topshirish majburiyatini oladi. CH.o.s.sh. ommaviy hisoblanadi.

**EKSPORT-IMPORT BANKLARI** — tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi kredit operatsiyalari bilan shug'ullanishga mutaxasislashgan alohida davlatlarning banklaridir. Hukumat milliy iqtisodiyotini samarali ko'tarish nafaqat eksportni muvofiqlashtiradi, balki uning har tomonlama rivojlanishini boshqarib boradi. Mazkur maqsadga erishish uchun rivojlangan mamlakatlarda maxsus davlat tuzulmalari tashkil etilgan.

Eksport import banklari mahalliy ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan moliyalashdagi o'rni beqiyosdir. Moliyalashni qabul qilib oluvchi davlat mazkur berilgan mablag'larni donor davlat ya'nini moliya beruvchi davlat hududida ishlatishi shart emas lekin uning ma'lum bir qismini donor davlat hududda ishlatishi kerak bu esa o'z navbatida milliy kompaniyalarga qo'shimcha manba vazifasini o'tashi mumkin. AQSHda mazkur faoliyat bilan Eksport-import banki shug'ullansa, Yaponiyada xalqaro hamkorlik yapon banki, Koreyada eksport-import banki, Xitoy Xalq Respublikasida ham eksport-import banki shug'ullanadi va xokazo.

**EMISSION BANK** — davlatning naqd pul (pul belgilari) chiqarish (emissiya) huquqi berilgan markaziy banki yoki boshqa banklari. Tijorat banklari, Markaziy bank chiqargan muomaladagi pul

belgilarini muomalaga chiqarishda ishtirok etishlariga qaramay, bunday huquqqa ega emaslar.

**EMISSION DAROMAD** — qimmatli qog'ozlar va ularni xarid qiluvchilar o'rtaсидаги vositachilik emitenti natijasida yirik tijorat banklari va boshqa moliyaviy kompaniyalar tomonidan davlatning qimmatli qog'ozlarini (aktsiyalar, obligatsiyalar) joylashtirish natijasida olinadigan daromad. E.d. yuqori va past kurs (baho) o'rtaсидаги tafovutga o'xshaydi, unga ko'ra bank (kompaniya) ancha past kurs (baho)da o'z mijozlariga fond bozorlarida qimmatli qog'ozlarini sotadi va shu ko'rimishda xaridor ularni emitentdan sotib oladi, mana shu sotib olish usuli davlat qimmatli qog'ozlarining bozor va emission kurslari o'rtaсидаги farq deyiladi.

**EMISSION QIMMATBAHO QOG'OZLARGA BO'LGAN MULKCHILIKNI TASDIQLASH SHAKLI** — O'zR qonunchiligiga muvofiq, hujjat shaklida chiqarilgan emissiya qimmatbaho qog'ozlari egalarining huquqlari sertifikatlar bilan (agar sertifikatlar o'z egalarida bo'lsa) yoki sertifikatlar va depozitariylar depo hisobvaraqlaridagi yozuvlar bilan (agar sertifikatlar saqlash uchun depozitariylarga o'tkazilgan bo'lsa) tasdiqlanadi. Hujjatsiz shaklda chiqarilgan emissiya qimmatbaho qog'ozlari egalarining huquqlari reestr yuritish tizimida — reestr egasining hisobvaraqlaridagi yozuvlar bilan yoxud depozitariydagi qimmatbaho qog'ozlarga bo'lgan huquqlar inobatga olingan taqdirda depozitariylar depo hisobvaraqlaridagi yozuvlar bilan tasdiqlanadi.

**ERKIN TADBIRKORLIK ZONASI** — muayyan mamlakat hududining alohida qismi, bojxona hududi uning tashqarisida bo'ladi deb qaraluvchi, unga bojxona ijara, soliq, valyuta, viza, mehnat va boshqa alohida (imtiyozli) shartlarda chet el kapitali kiritilishi va hamkorlikda tadbirkorlikni amalga oshirish uchun soliq va bojxona imtiyozları qulay sharoit yaratuvchi tartiblar kiritiladi. Erkin iqtisodiy zonaning sinonimlaridan biri.

**YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKOR** (yakka tartibdagagi tadbirkorlik) — yuridik shaxs tashkil etmagan holda jismoniy shaxs tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish hisoblanadi. Fuqaro 18 yoshga to'lgan (O'z.R FKning 28-moddasiga belgilangan tartibda esa 16 yoshdan) Ya.T.T. sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilishi mumkin. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish taqiqlangan shaxslar ro'yxati qonunlarda va qonun osti hujjatlarida belgilab qo'yilgan.

Ya.T.T. xodimlarni yollash huquqisiz mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq yoki ijara asosida olingen mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Ya.T.T.ni amalga oshirish uchun er-xotindan biri er-xotining umumiy birligida mol-mulkdan foydalanadigan hollarda, agar qonunlarda, nikoh shartnomasida yoki er-xotin o'rtasidagi o'zar oshiriladi. Ya.T.T. o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga qarashli butun mol-mulki bilan javob beradi, qonunga muvofiq undirish qaratilishi mumkin bo'lmasa mol-mulk bundan mustasno.

### **YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLAR FAOLIYATINI TEKSHIRISH** —xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qonunlar hamda ular faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari qanday bajarilayotganligini nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning bir marta nazorat qilishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 5-oktyabrdagi "Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tiziimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining qabul qilinishi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini teshirish tizimini tartibga solishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Farmonga ko'ra, mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarining moliya-ho'jalik faoliyatini har to'rt yilda ko'pi bilan bir marta, boshqa tadbirkorlik subyektlarini esa har uch yilda ko'pi bilan bir marta reja asosida o'tkazilishi, yangi tashkil qilingan mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyatini ular davlat ro'yxatiga olingen paytdan boshlab ikki yil mobaynida reja asosida tekshirish o'tkazilmasligi belgilandi.

SHuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 14-iyundagi "Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, yakka tartibdagи tadbirkorlar faoliyatini tekshirish belgilangan tartibda faqat davlat soliq xizmati organlari, ular tomonidan tekshirish davomida soliq va valyutaga oid jinoyatlar alomati aniqlangan taqdirda esa – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Soliq, valyutga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

**YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORNI DAVLAT  
RO'YXATIDAN OTKAZISH** asoslari va tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 24-mayda PQ-357-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishning xabardor qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomda belgilab qo'yilgan.

Fuqaro tuman (shahar) hokimiyati huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiysiaga shaxsan borib yoki pochta orqali yakka tartibdagi tadbirkorni sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida xabarnoma-ariza topshiradi. Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

3-4 hajmdagi 2 ta fotorasm;

belgilangan miqdorda ro'yxatdan o'tkazish yig'imini to'langanlik haqida bank to'lov hujjati;

muhr va shtamp chizmalari 3 nusxada (fuqaro hohishiga ko'ra);  
pasport nusxasi.

Inspeksiya ariza berilgandan boshlab 2 ish kunida fuqaroga yakka tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazganlik to'g'risida guvohnoma beradi.

Ro'yxatdan o'tkazishni asossiz rad etganlik ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

Ro'yxatdan o'tkazish jarayonida yakka tadbirkorga davlat soliq idorasini tomonidan soliq to'lovchining identifikasiya nomeri beriladi va soliq idorasida hisobga qo'yiladi. Yakka tadbirkor davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga haqli.

**YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKOR BANKROTTLIGI** ➔

O'zbekiston Respublikasi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasi birinchi qismi va 6- modda birinchi qismiga ko'ra, YaTT bo'lib:

— yuridik shaxsni tashkil qilmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi;

— belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxs hisoblanadi.

O'R FK 26-moddasi birinchi qismiga ko'ra, YaTT kreditorlarning o'z tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lган kreditorlar talablarini qanoatlantirishga qodir bo'lmasa, bunday tadbirkor belgilangan tartibda bankrot deb topilishi mumkin. Bunday

tartib mazkur qonun bilan belgilangan bo'lib, sharhanayotgan modda esa, YaTTning bankrotlik holatida "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonunning I—III boblari normalarini, ya'ni umumiy qoidalar, sudgacha sanatsiya va bankrotlik to'g'risidagi ishning xo'jalik sudida ko'riliishi kabi normalar qo'llanilishini belgilaydi. Qonunning 31-moddasida sudgacha sanatsiyaning ob'ekti bo'lib qarzdor hisoblanishi, qarzdor atamasi esa YaTTga ham tegishli, demak, sudgacha sanatsiya YaTTga nisbatan ham qo'llanilishi mumkinligi kelib chiqadi.

Binobarin, "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonun YaTTlarga nisbatan ham ushbu Qonunning 4 va 5-moddalarida nazarda tutilgan yuridik shaxslarni bankrot deb topish asoslari qo'llanilishini belgilaydi, ya'ni: qarzorning pul majburiyatlar bo'yicha kreditorlar talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to'lovlar majburiyat yuzaga kelgan kundan e'tiboran uch oy davomida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo'lsa. Ammo, bunda majburiyat hajmi yuridik shaxslarga belgilanganligidan farq qiladi.

SHuni ham ta'kidlash lozimki, I—III boblarning YaTTning bankrotligida qo'llanilmaydigan alohida qoidalari ham mavjud, masalan: kreditorlar yig'ilishi, kreditorlar qo'mitasi, kreditorlar talablarining reestri to'g'risidagi qoidalari. Kelishuv bitimi tuzish to'g'risidagi qarorni qabul qilish uchun kreditorlar majlisining chaqirilishi bundan mustasno, chunki Qonunga ko'ra (10-moddaning beshinchi qismi, 13-moddaning uchinchi qismi ikkinchi xatboshi, 145-moddaning birinchi qismi) kelishuv bitimini tuzish kreditorlar yig'ilishining mutlaq vakolatiga kiradi va uni tuzish to'g'risidagi qaror kreditorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

YaTTning bankrotligi to'g'risidagi ish ko'rileyotganda, Qonunning 28-moddasasi ikkinchi qismiga ko'ra O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonunning VII va VIII boblarida nazarda tutilgan tugatishga doir ish yuritish va kelishuv bitimi kabi taomillar qo'llaniladi. SHu bilan birga, Qonunning VII va VIII boblarining ba'zi qoidalari YaTTning bankrotlik to'g'risidagi ishlarga nisbatan ba'zi bir o'zgartirishlar bilan qo'llanilishi holatlari mavjudligini ta'kidlash lozim. Masalan, VII bobga ko'ra 124-modda (tugatishga doir ish yuritishni boshlash) va 133-moddada (kreditorlarning garov bilan ta'minlangan talablarini qondirish) nazarda tutilgan qoidalari qo'llaniladi. Boshqa tomonдан esa, 129-moddada (bankrot yuridik

shaxsni tugatish rejasi), 141-moddada (tashqi boshqaruvga o'tish imkoniyati) va 144-moddada (tugatishga doir ish yuritish taomilini tamomlash) nazarda tutilgan qoidalar yuridik shaxs uchun mo'ljallangan bo'lib, YaTTga nisbatan qo'llanilmaydi. SHuningdek, tugatish boshqaruvchisi huquq va majburiyatlariga taalluqli VII bobning qoidalari ham umuman olganda YaTTlarga nisbatan qo'llanilmaydi yoki o'ziga xos xususiyatlari bilan qo'llaniladi, chunki YaTTning bankrotligida tugatish boshqaruvchisi odatda tayinlanmaydi, tayinlangan taqdirda ham ko'chmas mol-mulkni yoki qimmatli ko'char mol-mulkini boshqarish va uni sotish bilan chegaralangan (181-moddaning ikkinchi qismi). Bundan tashqari, VII va X boblarida belgilangan qoidalari o'rtasida ziddiyat kelib chiqqan taqdirda X bobning qoidalari ustuvorlikka ega bo'ladi. Masalan, kreditorlarning talablarini qondirish navbatli bo'yicha VII bob 134-moddaning ikkinchi qismi va X bob 183-moddaning ikkinchi qismi ikkinchi xatboshisi birinchi navbatda qondiriladigan talablarni turlicha belgilaydi va X bob 183-moddaning ikkinchi qismi ikkinchi xatboshisi qo'llaniladi.

"Bankrotlik to'g'risida"gi O'zR Qonunining 28-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq YaTTga nisbatan kuzatish, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv kabi bankrotlik taomillari qo'llanilmaydi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. RAXBARIY ADABIYOTLAR.**

1. Mirziyoyev SH.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". Toshkent, O'zbekiston. 2018.
2. Mirziyoyev SH.M. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxodir". Toshkent, O'zbekiston. 2018.
3. Mirziyoyev SH.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent, O'zbekiston. 2018.
4. Mirziyoyev SH.M."Konstitutsiya – erkin va farovon xayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy etirishning mustaxkam poydevoridir". Toshkent, O'zbekiston. 2018.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev SH.M ning Oliy Majlisiga murojaatnomasi Toshkent, O'zbekiston. 2018.

### **II.NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR.**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 2.10.2018 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi.
4. Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 20-son, 251-modda; 2017 y., 18-son, 310-modda; 22-son, 411-modda; 37son, 980modda) Toshkent sh., 2015 yil 15 may, PF-4725-son Toshkent sh., 2018 yil 23 noyabr, PQ-4026-son.
5. Kreditorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida (QHMMB, 23.11.2018 y., 07/18/4026/2215-son).

6. Tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida (QHMMB, 16.10.2018 y., 07/18/3970/2049-son) Toshkent sh., 2018 yil 15 oktyabr, PQ-3970-son.
7. «Har bir oila-tadbirkor» dasturini amalga oshirish to'g'risida (qhmmb, 08.06.2018 g., 07/18/3777/1325-son) 2018 yil 7 iyun, PQ-3777-son
8. Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida (QHMMB, 08.05.2018 y., 07/18/3697/1176-son) 2018 yil 5 may, PQ-3697-→ son.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni ko'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida» 2017-yil 17-avgustdagি pq-3225-sonli qaroriga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (QHMMB, 30.03.2018 ← y., 07/18/3634/0973-son) 2018 yil 29 mart, PQ-3634-son.
10. Tadbirkorlik subyektlari va keng aholi qatlamiga mikrokreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 12-son, 187-modda) 2017-yil 17 mart, PQ-2844-son.
11. O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibi to'g'risidagi nizomga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 21-son, 386-modda) Toshkent sh., 2017 yil 22 may, PQ-→ 2985-son.
12. Tadbirkorlik subyektlariga «yagona darcha» tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida
13. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 40-son, 516- modda; 2017 y., 22-son, 411-modda; 29-son, 682-modda; QHMMB,

- 23.10.2017 y., 09/17/864/0160; 01.08.2018 y., 06/18/5497/1604-son) Toshkent sh., 2015 yil 28 sentyabr, PQ-2412-son.
- 14.Tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011 y., 22-23-son, 224-modda; 2016 y., 38-son, 445-modda; 2017 y., 5-son, 60-modda) Toshkent sh., 2011 → yil 12 may, PQ-1529-son.
- 15.Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida (QHMMB, 26.11.2018 y., 06/18/5583/2221-son) Toshkent sh., 2018 yil 24 noyabr, PF-5583-son.
- 16.2017-2021 yillarda o'zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida (QHMMB, 23.01.2018 y., 06/18/5308/0610-son; 25.05.2018 y., 06/18/5447/1269-son) Toshkent sh., 2018 yil 22 yanvar, PF-5308-son.
- 17.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2005 yil 5 oktyabrdagi pf-3665-son farmoniga o'zgartirish kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 27-son, 606-modda) Toshkent sh., 2017 yil 4 iyul, PF-5102-son.

**Масъул мұхаррир: Р.Имомов.  
Техник мұхаррир: Б.Ахмедов.  
Дизайнер: Б. Зияев.**

Босмахонага 2019 йил 05 февралда берилди. Босишига 2019 йил  
10 февралда рухсат этилди. Бичими 84x108 1/32. Ҳажми 12  
босма табоқ. Times New Roman гарнитураси, оффсет қозғози, оффсет  
усулида чоп этилди.

**“Step by step print” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.  
Андижон шахар Храбек күчаси 94 б уй.  
Ўзбекистон матбуот ва ахборот агентлигининг  
27.06.2014 даги  
12-3299. ракамли гувоҳномаси.**

152

153

154

155

156

157

158

159

160

161

162

163

164

165

166

167

168

169

170

171

172

173

174

175

176

177

178

179

180

181

182

183

184

185

186

187

188

189

190

191

192

193

194

195

196

197

198

199

200

201

202

203

204

205

206

207

208

209

210

211

212

213

214

215

216

217

218

219

220

221

222

223

224

225

226

227

228

229

230

231

232

233

234

235

236

237

238

239

240

241

242

243

244

245

246

247

248

249

250

251

252

253

254

255

256

257

258

259

260

261

262

263

264

265

266

267

268

269

270

271

272

273

274

275

276

277

278

279

280

281

282

283

284

285

286

287

288

289

290

291

292

293

294

295

296

297

298

299

300

301

302

303

304

305

306

307

308

309

310

311

312

313

314

315

316

317

318

319

320

321

322

323

324

325

326

327

328

329

330

331

332

333

334

335

336

337

338

339

340

341

342

343

344

345

346

347

348

349

350

351

352

353

354

355

356

357

358

359

360

361

362

363

364

365

366

367

368

369

370

371

372

373

374

375

376

377

378

379

380

381

382

383

384

385

386

387

388

389

390

391

392

393

394

395

396

397

398

399

400

401

402

403

404

405

406

407

408

409

410

411

412

413

414

415

416

417

418

419

420

421

422

423

424

425

426

427

428

429

430

431

432

433

434

435

436

437

438

439

440

441

442

443

444

445

446

447

448

449

450

451

452

453

454

455

456

457

458

459

460

461

462

463

464

465

466

467

468

469

470

471

472

473

474

475

476

477

478

479

480

481

482

483

484

485

486

487

488

489

490

491

492

493

494

495

496

497

498

499

500

501

502

503

504

505

506

507

508

509

510

511

512

513

514

515

516

517

518

519

520

521

522

523

524

525

526

527

528

529

530

531

532

533

534

535

536

537

538

539

540

541

542

543

544

545

546

547

548

549

550

551

552

553

554

555

556

557

558

559

560

561

562

563

564

565

566

567

568

569

570

571

572

573

574

575

576

577

578

579

580

581

582

583

584

585

586

587

588

589

590

591

592

593

594

595

596

597

598

599

600

601

602

603

604

605

606

607

608

609

610

611

612

613

614

615

616

617

618

619

620

621

622

623

624

625

626

627

628

629

630

631

632

633

634

635

636

637

638

639

640

641

642

643

644

645

646

647

648

649

650

651

652

653

654

655

656

657

658

659

660

661

662

663

664

665

666

667

668

669

660

661

662

663

664

665

666

667

668

669

670

671

672

673

674

675

676

677

678

679

680

681

682

683

684

685

686

687

688

689

690

691

692

693

694

695

696

697

698

699

700

701

702

703

704

705

706

707

708

709

710

711

712

713

714

715

716

717

718

719

720

721

722

723

724

725

726

727

728

729

720

721

722

723

724

725

726

727

728

729

730

731

732

733

734

735

736

737

738

739

730

731

732

733

734

735

736

737

738

739

740

741

742

743

744

745

746

747

748

749

740

741

742

743

744

745

746

747

748

749

750

751

752

753

754

755

756

757

758

759

750

751

752

753

754

755

756

757

758

759

760

761

762

763

764

765

766

767

768

769

760

761

762

763

764

765

766

767

768

769

770

771

772

773

774

775

776

777

778

779

770

771

772

773

774

775

776

777

778

779

780

781

782

783

784

785

786

787

788

789

780

781

782

783

784

785

786

787

788

789

790

791

792

793

794

795

796

797

798

799

790

791

792

793

794

795

796

797

798

799

800

801

802

803

804

805

806

807

808

809

800

801

802

803

804

805

806

807

808

809

810

811

812

813

814

815

816

817

818

819

810

811

812

813

814

815

816

817

818

819

820

821

822

823

824

825

826

827

828

829

820

821

822

823

824

825

826

827

828

829

830

831

832

833

834

835

836

837

838

839

830

831

832

833

834

835

836

837

838

839

840

841

842

843

844

845

846

847

848

849

840

841

842

843

844

845

846

847

848

849

850

851

852

853

854

855

856

857

858

859

850

851

852

853

854

855

856

857

858

859

860

861

862

863

864

865

866

867

868

869

860

861

862

863

864

865

866

867

868

869

870

871

872

873

874

875

876

877

878

879

870

871

872

873

874

875

876

877

878

879

880

881

882

883

884

885

886

887

888

889

880

881

882

883

884

885

886

887

888

889

890

891

892

893

894

895

896

897

898

899

890

891

892

893

894

895

896

897

898

899

900

901

902

903

904

905

906

907

908

909

900

901

902

903

904

905

906

907

908

909

910

911

912

913

914

915

916

917

918

919

910

911

912

913

914

915

916

917

918

919

920

921

922

923

924

925

926

927

928

929

920

921

922

923

924

925

926

927

928

929

930

931

932

933

934

935

936

937

938

939

930

931

932

933

934

935

936

937

938

939

940

941

942

943

944

945

946

947

948

949

940

941

942

943

944

945

946

947

948

949

950

951

952

953

954

955

956

957

958

959

950

951

952

953

954

955

956

957

958

959

960

961

962

963

964

965

966

967

968

969

960

961

962

963

964

965

966

967

968

969

970

971

972

973

974

975

976

977

978

979

970

971

972

973

974

975

976

977

978

979

980

981

982

983

984

985

986

987

988

989

980

981

982

983

984

985

986

987

988

989

990

991

992

993

994

995

996

997

998

999

990

991

992

993

994

995

996

997

998

999

1000